Тарийхый сөзлер. Тарийхый сөзлер тарийхый дәўирлер даўамында қолланылған белгили бир түсиниклердиң, буйымлардың, қубылыслардың, жәмийетлик қубылыстың раўажланыўына байланыслы қолланыўдан шығып қалған атамалар.

Мысалы:

Ақ орданың оң жағында,
Арбасимлер төселмишдур.

Бул мысалдағы «арбасим» сөзи қара үйдиң ишине төселген баҳалы төсек мәнисин аңлатып тур.

Қазы Мәўлик шығармаларының лексикасында тарийхый сөзлерди төмендегидей тематикалық топарларға бөлип үйренемиз:

1. Мәмлекетлик басқарыў ислерин, адамлардың социаллық жағдайын билдиретуғын сөзлер:

Мысалы: ақсақал, болыс, қусбеги, инақ, бажы, шах, тажы.

Арық **ақсақалға** арна қаздырсаң,
Ақсақал-болысқа буйрық жаздырсаң.(189)
Мәртебең **қусбеги** ҳәм **инақ** болса (190)
Бәрше саўдагерден сен алсаң **бажы**,
Шах болып басына қыстырдың **тажы.** (190) («Ол неге дәркар»)

Буларда ақсақал, болыс, қусбеги, инақ, бажы, шах, тажы тарийхый сөзлери ески жәмийетлик дүзимге тән сөзлер болып, шайыр жасаған дәўирде жийи қолланылған. Жаңа жәмийетлик дүзимниң орын алмасыўы менен олардың көпшилиги гөнерип, тарийхый сөзге айланған.

Әскерий терминлерди, қарыў-жарақ атамаларын билдиретуғын сөзлер. Мысалы: Қылыш, көк темир, бедеў.

Алтыннан кынаплы **қылыш** бағласаң (189)
Андамның **көк темир** жаў-жарақ болса (190)

(«Ол неге дәркар»)

Саўаш күни минер **бедеў** үстине (171)

(«Шымбай баязы»)

Бул мысалларда қылыш, көк темир, бедеў сөзлери сол дәўирдеги тийкарғы қурал-жарақ атамалары, сонлықтан да, шайыр дөретпелеринде жийи ушырасып отырады. Булардан «бедеў» шапқыр ат мәнисин, «қылыш» сөзи урыста қолланылатуғын, өткир қурал мәнисин аңлатыў ушын жумсалған сөзлер болып табылады.

2. Үй-хожалық буйымларына, кийим-кеншеклерге байланыслы сөзлер. Шайыр дөретпелеринде күнделикли турмыста тутыныў затларына байланыслы, кийимлердиң атларын билдиретуғын гөнерген сөзлер көплеп ушырасады. Мысалы: геўиш, қамқа, билезик, мәси, былғары, пәнис.

Былғарыдан кийсең мәси-кеўишни (188)
Үстине **қамқадан** жаңа тон кийсең (190)

(«Ол неге дәркар»)

Соңыра янған **панисимди** өширдиң (186)

(«Перийзат»)

Алтын биләзигин билек талдырмас (176)

(«Не сөздур»)

Бул мысаллардағы «былғары» сөзи қарамалдың терисинен тигилген аяқ кийим дегенди аңлатады. Ал «қамқа» сөзи ҳасыл, қымбат баҳалы кийим дегенди билдиреди. «Панис» сөзи болса, жақтылық бериўши ески тутыныў буйым есапланады. «Билезик» - билекке тағатуғын безениў заты, ол нағысланып, қас қойылып қымбат баҳалы металлардан исленеди. Бул безениў буйымы қарақалпақ классик шайыры Әжинияз шығармаларында да жийи ушырасады. Мысалы:

Салып тилла **биләзикти** (97),
Оң қолында **алтын-гүмис биләзик** (32)[2.51.].

Улыўма жуўмақластырып айтқанда, шайыр шығармаларында жумсалған бундай гөнрген сөзлер дәўир картинасын, сол дәўирдеги халықтың экономикалық турмысы, күн-көриси, диний исениими, мийнет қураллары туўралы баҳалы мағлыўмат бериўши лексикалық қатлам болып табылады.

ӘДЕБИЯТЛАР

1. Е.Бердимуратов. Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1994.
2. Г.Қарлыбаева. Әжинияз шығармалары тилиниң семантика-стилистикалық өзгешеликлери. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2017.
3. Ә.Пахратдинов, Ҳ.Өтемуратова. XIX әсирдиң, ақыры XX әсирдиң басындағы қарақалпақ әдебияты тарийхы. Нөкис, «Билим», 1995.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ITE’MOLCHILAR XULQ - ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA’SIRINING TAXLILI

Toshkent xalqoro kimyo
Universitetining 1-kurs magestranti,
Haydarova Mohichehra Xurram qizi

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda chakana savdoning rivojlanishi bilan bir qatorda iste’molchi xulq-atvorining o‘zgarishi, xaridorlar tomonidan tovarlarning sifati va assortimentiga hamda ko‘rsatilayotgan savdo xizmatlariga bo‘lgan talabining tobora ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Korxonalarda ishlab chiqarishga bo’lgan talablarni umumiy qismini ishchilarning xulq-atvoridan kelib chiqib belgilanadi shunday qilib korxonani rivojlanishiga ishchilarning xarkteri asosiy ahamiyat xisoblanadi. Bunday sharoitda xaridorlarga qo‘shimcha savdo xizmatlarini taklif etish orqali ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va takroriy xaridini raqobatlantirish chakana savdo raqobatbardoshligini oshirishning va unga ta’sir etuvchi omillarning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

АННОТАЦИЯ

Наряду с развитием розничной торговли в нашей стране, потребительское поведение наблюдается изменение характера, тенденция увеличения спроса со стороны покупателей на качество и ассортимент товаров и предоставляемых торговых услуг. Общая часть требований к производству на предприятиях определяется исходя из поведения работников, поэтому главное значение для развития предприятия придается характеру работников. В таких условиях повышение качества предоставляемых клиентам услуг путем предложения дополнительных услуг по продаже и конкуренции за повторные покупки предстает одним из современных направлений повышения конкурентоспособности розничной торговли и факторов, влияющих на нее.

ANNOTATION

Along with the development of retail trade in our country, there is a trend of changing consumer behavior, increasing customer demand for the quality and assortment of goods and the provision of trade services. The general requirements for production at enterprises are determined by the behavior of workers, so the

character of workers is of primary importance for the development of the enterprise. In such conditions, improving the quality of services provided by offering additional trade services to customers and encouraging repeat purchases is one of the modern directions for increasing the competitiveness of retail trade and the factors affecting it.

Kalit so'zlari: Korxonalarda ishlab chiqarishga iste'molchi xulq-atvorining korxonani rivojlanishiga chakana savdo.

Ключевые слова: Розничная торговля, потребительское поведение, развитие предприятия, производство на предприятиях.

Keywords: Consumer behavior in enterprises, production, retail, enterprise development

Kirish

Mamlakatimizda chakana savdoning rivojlanishi bilan bir qatorda iste'molchi xulq-

atvorining o'zgarishi, xaridorlar tomonidan tovarlarning sifati va assortimentiga hamda ko'rsatilayotgan savdo xizmatlariga bo'lgan talabining tobora ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda xaridorlarga qo'shimcha savdo xizmatlarini taklif etish orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va takroriy xaridini raqobatlantirish chakana savdo raqobatbardoshligini oshirishning va unga ta'sir etuvchi omillarning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ilg'or mamlakatlar va savdo korxonalari amaliyotida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish asosida chakana savdo raqobatbardoshligini ta'minlash tobora ommalashib bormoqda. Ayniqsa, tovarlarni onlayn xarid qilish imkoniyatini oshirish, interaktiv vitrina va savdo zallari, innovatsion Merchendayzing bugungi kun talabiga aylangan. Shu bilan birga mamlakatimizda ham chakana savdoda marketing amaliyotining zaifligi, iste'molchilar xulq-atvorining tadqiq etilmayotganligi, zamonaviy xizmat turlarini kengaytirishni ta'minlashga yetarlicha e'tibor qaratilmasdan kelinmoqda. Shunday qilib, chakana savdo korxonalari tomonidan qo'shimcha xizmat turlarini taklif etish asosida savdo xizmatlarini yuqori darajada tashkil qilish, xaridorlarga sotilayotgan tovarlarga muvofiq keluvchi kutilgan darajadagi servisni taqdim etish lozim bo'ladi.

Qo'shimcha savdo xizmatlari savdo zalini tashkil qilish, tovar tanlovini muvofiqlashtirish, xaridorlarga qo'shimcha axborot berish, xarid jarayonida

ko‘maklashish, merchendayzing va hisob-kitob jarayonini takomillashtirish bilan bog‘liq xizmatlar majmuidan iboratdir.

Qo‘shimcha savdo servisi tovarlarning xaridorlar tomonidan anglanishiga, iste’mol qiymatining ortishiga hamda xarid imkoniyatining ortishiga olib keladi (Saydullayev, 2023). Xaridor tomonidan zarur bo‘lgan tovarni tanlash va xarid qilish masalasi ko‘rib chiqilar ekan, bu jarayonga taalluqli bo‘lgan bir qator jihatlarga to‘xtalib o‘tishimiz joiz. Birinchidan, xaridor muayyan ehtiyojini qondirishi mumkin bo‘lgan tovarni tanlar ekan, avvalo tovarning muayyan iste’mol xossalarining ehtiyojiga mos kelish darajasini hisobga oladi. Ya’ni, u o‘zining mavjud usul va vositalari yordamida tovarlarning qaysi biri ko‘proq iste’molchi samarasini berish darajasini baholaydi va shu bo‘yicha ularni o‘zaro taqqoslaydi. Ikkinchidan, xaridor tomonidan tovarning iste’mol xossalari baholanayotganda chakana savdo korxonalari tomonidan tovarning tayyorlanishi va yetkazib berilishi uchun ketgan mehnat sarfi uni umuman qiziqtirmaydi. Chunki, xaridorni xarid chog‘ida tovarning o‘zi emas, balki undagi ehtiyojni boshqa substitutlarga (raqib tovarlarga) nisbatan yuqori darajada qondira olish xususiyati qiziqtiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Xorijlik olimlardan Guy (2006) chakana savdoda rejalashtirishning aralashuvi asosan iqtisodiy holat hisoblanib, chakana rejalashtirish siyosati chakana sektorning o‘sishi va o‘zgarishiga imkon beradi, shu bilan birga rentabellikning qoniqarli darajasini saqlab qoladi. Rentabellikni oshirish, milliy va mahalliy iqtisodiyotga kengroq foyda keltirishi va jamoat manfaatlariga mos kelishi mumkin. Reinartz (2011) global va globallashayotgan chakana savdoda korxonalar duch keladigan muammolar asosan yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lib boshqa davlat firmalari o‘rtasida yuzaga keladi. O‘ziga xos milliy bozorlarning xususiyatlariga javob beradigan chakana savdo ehtiyojlari chakana savdo korxonalarining muvaffaqiyati uchun juda muhimdir deb keltirgan. Krasnyuk va boshqalar (2017) chakana savdoda innovatsion rivojlanishning yana bir usuli bu marketing innovatsiyasidir. Ularning chegaralari juda xiralashgan, bunday innovatsiyalar aniq cheklovga ega emas, bu esa har qanday xaridorni o‘z mahsulotini topishga va sotib olingan narsadan foyda olishga majbur qiladigan, shu bilan birga hissiy qoniqishni his qiladigan yangiliklarni yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratishi haqida gapirib o‘tgan. Rijix va boshqalar (2022) korxonada ishlab chiqarilayotgan tovarlar va taqdim etilayotgan xizmatlarga doimiy talabni

boshqarishi uchun marketologlar iqtisodiyot va biznesni rivojlantirishning zamonaviy sharoitida harakat qilishlari va ushbu shartlarda samarali reklama kampaniyasi rejasini shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi.

Bobkov (2017) chakana savdo korxonasi faoliyati foyda olish maqsadida tegishli

mahsulotlarni sotib olish, qayta ishlash, saqlash va sotishni o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish jarayoni sifatida qaralishi mumkin. Bu jarayonni bir kishi tomonidan amalga oshirish juda murakkab jarayondir. Xorijda bir kishidan iborat firma tushunchasi mavjud bo‘lib, albatta, klassik g‘oyalarga to‘g‘ri kelmaydi, ammo turli mamlakatlarda ko‘plab yakka tartibdagi tadbirkorlarning mavjudligi ularni chakana savdo korxonasini rivojlantirishning dastlabki bosqichi sifatida aniqlashga imkon beradi deb hisoblaydi. O’zbekistonlik olimlardan Abdukarimov (2011) asarlarida mamlakatimizda savdo iqtisodiyotining asosiy muammolari va savdo korxonalarining iqtisodiy rentabelligi va iqtisodiy samaradorligi savdoda bozor mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan. Xolmamatovning (2021) ilmiy izlanishlarida Ulgurji savdoda marketing logistikasini rivojlantirish va servis strategiyasini takomillashtirish masalalari yoritilgan[1].

Mamatqulova (2022) ilmiy tadqiqotlarida xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish,

xizmat ko‘rsatish jarayonini mijozlarning individual xohish-istaklari negizida takomillashtirish masalalari yoritib berilgan[2].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu ilmiy maqolada empirik, prospektiv, vaziyatli (situasion) va komparativ tahlil usullari qo‘llanilgan. Xususan, maqolada so‘z yuritilgan muammoning dolzarbligi situasion tahlil orqali yoritib berilgan bo‘lsa, prospektiv tahlil yordamida chakana savdo korxonalariga ta’sir etuvchi omillar va istiqbollari ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, komparativ usul bilan chakana savdoni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda mamlakatimiz shaharlari hamda tumanlari markazlarida faoliyat

yuritayotgan chakana savdo korxonalarida savdo madaniyati tobora yuksalib borayotganini kuzatish mumkin (Shadiyeva, 2023):

- savdo shoxobchalarida keng va barqaror tovarlar assortimentining mavjud bo'lishi;

- savdo xizmati ilg'or usullarining qo'llanilishi;

- xaridorlarga qo'shimcha xizmatlarni taqdim etilishi;

- savdo xodimlarining yuqori kasbiy mahorati, ularning xaridorlarga nisbatan

xushmuomalali va e'tiborli bo'layotganligi;

- ma'lum tovarlarni sotish tartib-qoidalari to'g'risida (plastik kartalar vositasida xarid qilish mumkinligi to'g'risida) xaridorlarni xabardor qilish;

- savdo shoxobchalari atroflari hamda savdo maydonlarining yaxshi sanitar holatda saqlanishi va boshqalar[3].

Chakana savdo korxonasi tomonidan samarali reklamasini o'tkazish uchun zamonaviy reklama yo'nalishlari va texnologiyalarini o'rganish vazifasi qo'yildi. Natijada jamiyatning onlayn reklamaga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda media-rejani amaliy ishlab chiqish bo'ldi.

Mamlakatimizda chakana savdoning o'sish sur'atiga e'tibor beradigan bo'lsak sezilarli o'zgarishlarni ko'rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Chakana savdo hajmining o'sish su'rati (yillik)

Klassifikator	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	101,3	100	108,6	105	117	110,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	101,1	103,7	109,3	104,3	119,6	111,4
Andijon viloyati	100,4	101,3	104,4	106,8	108,9	109,7
Buxoro viloyati	100,5	100,2	104,6	104,9	115,5	108
Jizzax viloyati	99,3	92,5	105,3	109,9	115,1	109,7
Qashqadaryo viloyati	99,8	100	112,4	102,9	109,6	111,9
Navoiy viloyati	98,2	98	104,3	105,4	115,8	110,2
Namangan viloyati	101,7	97,8	110,2	105,2	120,5	113,3
Samarqand viloyati	100,7	101,2	106,3	111,4	118,3	113,5
Surxondaryo viloyati	101	101,6	106,8	102,1	112,3	112
Sirdaryo viloyati	100	99,1	107,3	106,9	116,3	103,7
Toshkent viloyati	100	93,4	113,8	97,1	118,6	109,8
Farg'ona viloyati	101,9	101,7	106	106,2	118,6	105,6
Xorazm viloyati	101,2	101,4	110,2	110,9	113,8	112,9
Toshkent shahri	103,9	102,2	110,8	103,6	120,6	111,8

1-jadval ma'lumotlari asosida aytish mumkinki chakana savdo hajmi yillik ko'rsatkichda har yili o'sib bormoqda 2020-yilda Pandemiya sababli chakana

savdoning kamayishi kuzatilgan. Olib borilgan tadqiqotlar chakana savdoni rivojlantirishda elektron savdoni qo‘llash ahamiyatli ekanligini ko‘rsatmoqda. 2021-yida chakana savdo eng yuqori ko‘rsatkichni ko‘rsatmoqda (17 %), bu pandemiyadan keyin iste’molchilarning faol tarzda online savdo qilishi natijasida yuqorilagan. 2022-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich (10,8 %) sezilarli darajada kamaygan. Bunga sabab aholining daromadlari ham ta’sir qilishi mumkin[4].

Mamlakat aholisiga chakana savdo xizmatini ko‘rsatishda bir qator kamchiliklar ko‘zga tashlanib turadi. Jumladan, savdo xizmati sifatining pastligi, do‘konlarning bezatilishi va tovarlar joylashuvining qoniqarsiz tashkil etish holatlari hamon saqlanib qolinmoqda. Respublika hududlarida savdo qilishning internet marketing va boshqa turlaridan samarali foydalanish davr talabi hisoblanadi. Internet orqali savdo qilish hozirgi paytda zamonaviy savdo qilish turi hisoblanadi. Iste’molchilar o‘zlariga kerakli tovarlarni o‘zlarining kompyuter, planshet va qo‘l telefonlari orqali buyurtma berib sotib olishlari mumkin. Internet orqali chakana savdoning ustunlik tomoni − xaridorlar vaqtining tejalishidir (Shadiyeva, 2023). Kartografiya ma’lumotlariga e’tibor bersak ko‘p hududlarda chakana savdoning rivojlanishi juda past bo‘lib qolmoqda. Bunga sabab sifatida hududlardagi infrastruktura, AKT sohasining rivojlanishining sekinligi bilan izohlash mumkin.

Hozirgi paytda chakana savdo korxonalari amaliyotida marketingning to‘g‘ri usuli nisbatan kengroq taraqqiy etgan: xaridor bilan turli vositalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot bo‘lib, xaridorni mahsulotni sotib olishga ishontirishdan iboratdir. Chakana savdoning ilg‘or usullaridan yana biri savdo avtomatlari orqali savdo qilish hisoblanadi. Savdo avtomatlari savdoning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi, ya’ni savdoda iste’mol xarajatlarini kamaytirish, iste’molchi hukmron bo‘lgan sharoitda muhim ahamiyatga egadir. Rivojlangan mamlakatlardagidek zamonaviy dizaynga ega bo‘lgan savdo avtomatlaridan foydalanish muhim masala hisoblanadi. Chakana savdo korxonalari raqobatbardoshligini ta’minlash hamda ular faoliyati samaradorligini oshirishda yangi oziq-ovqat tovarlari bilan savdo qilish hamda xaridorlarga tunu-kun savdo xizmatini ko‘rsatishni kengaytirish muhim omil hisoblanadi[5].

1-rasm. Chakana savdo hajmi (2022-yil) Bugungi kunda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida ko‘p formatli (yo‘nalishli) savdo jadal rivojlanmoqda, bu yerda har bir format mijozga yo‘naltirilganlik yondashuvi bilan ajralib turadi va

aholining daromadlari, yoshi va boshqa bir qator ko‘rsatkichlardan qat’iy nazar ehtiyojlarini to‘liq qondirishga qaratilgan. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli Farmoniga muvofiq “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash bo‘yicha vazifalar belgilandi, xususan, Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish, buning uchun esa makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va yillik inflyatsiya darajasini 2023-yilda bosqichma-bosqich 5 foizgacha pasaytirish maqsad qilindi. Shuningdek, hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

1.Abdukarimov F.B. (2011) Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo‘llari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand: SamISI, 156 b.

2.Deloitte (2023) “Global Marketing Trends 2023” https://www2.deloitte.com/us/en/insights/industry/technology/technology-media-and-

telecom-predictions/2024/introduction.html.

3.Guy C. (2006) Planning for retail development: a critical view of the British experience. – Routledge.

4.Mamatqulova Sh.J. (2022) Chakana savdoda aholiga savdo xizmati ko‘rsatishda

merchendayzingning o‘rni va ahamiyati// "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. I-son www.economyjournal.uz

5.Reinartz W. (2011) et al. Retailing innovations in a globalizing retail market environment //Journal of Retailing. – T. 87. – C. S53-S66.

6.Saydullaev Sh. (2023) Savdo xizmatlarini takomillashtirish asosida savdo korxonalari raqobatbardoshligini oshirish //Economics and Innovative Technologies. T. 11. – №. 4. – C. 187-195.

7.Shadieva L.A. (2023) Marketing strategiyasidan foydalanish–savdo korxonalari

raqobatbardoshligini oshirishda ustuvor yo‘nalish //Journal of marketing, business and management. T. 2. – №. 9. – S. 162-167.

8.Shaymatova X., Yo‘ldoshev U., Xaitov O.N. (2023) O‘zbekiston Respublikasining chakana savdo korxonalarida innovatsion xizmatlar ko‘rsatishning asosiy yo‘nalishlari //Journal of Discoveries in Applied and Natural Science. – T. 1. – №. 4. – S. 93-96.

9.Sultanova N.U. (2023) Raqamli iqtisodiyot sharoitida chakana savdo korxonalarida

raqobatbardoshlik //Raqamli iqtisodiyot (Sifrovaya ekonomika). №. 2. – S. 28-34.

10.Xolmamatov D.X. (2021) Ulgurji savdoda marketing logistikasini rivojlantirish yo‘llari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun,

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

ПОВЫШЕНИЕ ПРОЧНОСТИ ВЫСОКОПРОЧНОГО БЕТОНА С ПРИМЕНЕНИЕМ СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРА

проф., д.т.н. Косимов И., магистр Авезова Н.

Аннотация:

В статье рассматривается влияние суперпластификаторов на основе поликарбоксилатэфирной смолы на свойства высокопрочного бетона. Цель работы заключалась в разработке и сравнении рецептур бетона с добавлением суперпластификатора и без него. Проводилось экспериментальное исследование для оценки прочностных характеристик, долговечности и экономической эффективности новых рецептур. Результаты показали, что использование суперпластификатора позволяет значительно улучшить прочность бетона при снижении расхода воды и цемента. Экономический анализ также подтверждает сокращение себестоимости бетона, что делает его более конкурентоспособным на рынке.

Ключевые слова: высокопрочный бетон, суперпластификатор, поликарбоксилатэфирная смола, водоцементное соотношение, экономия, себестоимость, рецептура бетона.

Введение

В последние годы в строительной отрасли повышенные требования к прочности, долговечности и экономической эффективности бетона обуславливают необходимость разработки новых материалов с улучшенными характеристиками. Одним из таких решений являются суперпластификаторы, которые позволяют улучшить пластичность бетонной смеси при сохранении или повышении прочности бетона. В частности, суперпластификаторы на основе поликарбоксилатэфирной смолы демонстрируют хорошие результаты при использовании в высокопрочных бетонах. Однако применение таких добавок также требует тщательной проработки рецептур для достижения оптимальных показателей как по прочности, так и по экономическим параметрам.

Цель исследования

Целью данного исследования является анализ влияния суперпластификатора на основе поликарбоксилатэфирной смолы на рецептуру высокопрочного бетона, а также оценка его эффективности с точки

зрения прочностных характеристик и экономической целесообразности. Задачи исследования включают:

- Разработку нескольких рецептур бетона с использованием суперпластификатора и без него.
- Сравнительный анализ прочности и долговечности полученных образцов.
- Оценку экономической выгоды применения суперпластификатора с точки зрения снижения себестоимости производства бетона.

Методология исследования

В ходе исследования использовались следующие материалы: портландцемент ЦЕМ II/А-К 42,5Н Extra cem 450+, песок и гравий, а также суперпластификатор на основе поликарбоксилатэфирной смолы. Для оценки эффективности различных рецептур были разработаны следующие составы бетона:

- Контрольный состав (без суперпластификатора).
- Состав с различными дозировками суперпластификатора, позволяющими снизить водоцементное соотношение.

Для каждой рецептуры были изготовлены кубики для испытаний на прочность и долговечность. Прочностные характеристики измерялись через 7, 14 и 28 дней после приготовления образцов. Для оценки экономической эффективности были рассчитаны расходы на материалы и сравнение себестоимости для каждой рецептуры.

Результаты исследования

Прочностные характеристики

Экспериментальные данные показали, что добавление суперпластификатора на основе поликарбоксилатэфирной смолы позволяет значительно повысить прочность бетона. Особенно это проявляется при снижении водоцементного соотношения. В то время как контрольная смесь имела среднюю прочность на сжатие 40 МПа через 28 дней, образцы с добавлением суперпластификатора показали прочность в 50 МПа, что составляет прирост на 20%. Это подтверждает эффективность применения

добавки в улучшении свойств бетона при меньшем водоцементном соотношении.

Экономическая эффективность

Снижение расхода воды и цемента с использованием суперпластификатора позволило существенно снизить себестоимость производства бетона. При сохранении прочностных характеристик образцов с добавкой, расход цемента был уменьшен на 10%, а воды на 15%. В результате, стоимость 1 м³ бетона с добавлением суперпластификатора оказалась ниже на 8-10% по сравнению с контрольным составом.

Обсуждение

Результаты исследования показывают, что использование суперпластификатора значительно улучшает эксплуатационные характеристики бетона, позволяя снизить водоцементное соотношение и, следовательно, повысить его прочность. Одновременно, благодаря уменьшению расхода воды и цемента, снижается себестоимость бетона, что делает его более выгодным с экономической точки зрения. Это особенно важно в условиях массового строительства, где снижение затрат на материалы может существенно повысить конкурентоспособность строительных компаний.

Заключение

Использование суперпластификаторов в рецептурах высокопрочного бетона является эффективным методом для улучшения прочностных характеристик и снижения себестоимости производства бетона. Применение суперпластификатора на основе поликарбоксилатэфирной смолы позволяет достичь значительных улучшений в прочности при снижении водоцементного соотношения и сокращении расхода материалов. Это делает такие рецептуры перспективными для применения в строительной отрасли, где важна не только высокая прочность бетона, но и его экономическая эффективность.

Список использованной литературы:

1. Ковалев, В. В., Гречкин, А. В., & Лазарев, С. А. (2018). *Технология бетонов с использованием суперпластификаторов*. М.: Строиздат.

2. Никитин, В. И., & Рябков, Ю. А. (2017). *Суперпластификаторы для бетонов и их влияние на прочностные характеристики*. Журнал «Строительные материалы», 12(5), 34-38.
3. Беляев, М. П., & Шарков, В. П. (2016). *Применение суперпластификаторов в производстве высокопрочного бетона*. Вестник строительных технологий, 23(3), 89-93.
4. Романова, О. В., & Михайлова, А. И. (2019). *Экономическая эффективность использования суперпластификаторов в бетонных смесях*. Строительные технологии и инновации, 7(4), 102-107.
5. ASTM C494/C494M-18. (2018). *Standard Specification for Chemical Admixtures for Concrete*. ASTM International.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

OVULYATSIYA BUZILISHLARI VA ULARNING TUG‘ILISH QOBILIYATIGA TA’SIRI

Norboyeva Marjona
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
tibbiyot fakulteti davolash ishi yo‘nalishi
2- kurs 23-10 guruh talabasi
norboyevamarjona418@gmail.com
Xonimqulova Saodat Yusupovna
Ilmiy rahbari
@saodatxonimqulova4439

Annotatsiya: Ushbu maqolada ovulyatsiya jarayonining buzilishlari va ularning ayollarning tug‘ilish qobiliyatiga ta’siri keng ko‘lamda tahlil qilinadi. Ovulyatsiya siklining normal va patologik holatlari, ayniqsa, anovulyatsiya, oligovulyatsiya va boshqa buzilish turlari batafsil yoritilgan. Ushbu buzilishlarning asosiy sabablaridan biri sifatida gormonal disbalans, stress, turmush tarzi va atrof-muhit omillari keltirilgan. Mavzuda buzilishlarning klinik ko‘rinishlari, diagnostika usullari, zamonaviy davolash yondashuvlari va muqobil usullar (masalan, ovulyatsiyani stimulyatsiya qilish, gormonal terapiya) muhokama qilingan. Shuningdek, ovulyatsiya buzilishlarining davolash samaradorligini oshirish uchun individual yondashuvning ahamiyati va ilg‘or reproduktiv texnologiyalarning qo‘llanishi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda tug‘ilish qobiliyatiga ta’sir etuvchi psixologik va ijtimoiy omillar ham hisobga olingan. Mazkur maqola reproduktiv salomatlikni tiklashga oid ilmiy-amaliy yondashuvlarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Ovulyatsiya buzilishlari, anovulyatsiya, oligovulyatsiya, tug‘ilish qobiliyati, gormonal disbalans, reproduktiv salomatlik, zamonaviy

davolash usullari, ovulyatsiya stimulyatsiyasi, reproduktiv texnologiyalar, ayollar sog‘ligi, stress omillari, atrof-muhitning ta’siri, diagnostika, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, individual davolash yondashuvi.

Ovulyatsiya – bu ayol organizmidagi tuxumdonlarda tuxum hujayraning yetilib, follikuladan chiqishi jarayoni bo‘lib, u ayollarning reproduktiv salomatligi va tug‘ilish qobiliyati uchun asosiy jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning buzilishi anovulyatsiya yoki oligovulyatsiya kabi patologiyalarni keltirib chiqaradi, bu esa bepushtlikning asosiy sababi hisoblanadi. Ushbu maqolada ovulyatsiya buzilishlari, ularning kelib chiqish sabablari va tug‘ilish qobiliyatiga ta’siri haqida batafsil so‘z yuritiladi. Ovulyatsiya buzilishlariga turli ichki va tashqi omillar sabab bo‘lishi mumkin. Gormonal disbalans, Gipotolamo-gipofizar-tuxumdon o‘qi faoliyatining buzilishi gormonal muvozanatni izdan chiqaradi. Bu holatda follikul yetilmaydi yoki tuxum hujayra chiqishi kechikadi. Doimiy stress holati gormonlarning ishlab chiqarilishi va ovulyatsiya sikliga ta’sir ko‘rsatadi. Zararkunanda moddalar, xususiy ekologik sharoit va oziqlanish yetishmovchiligi tuxumdon faoliyatini susaytiradi. Tibbiy muammolar: Polikistik tuxumdon sindromi (PCOS), qalqonsimon bez kasalliklari, gipofizar adenoma va boshqa endokrin kasalliklar ovulyatsiyani buzadi. Yomon ovqatlanish, ortiqcha vazn yoki semizlik, shuningdek, chekish va alkogol iste’moli reproduktiv tizimga zarar yetkazadi.

Ovulyatsiya buzilishlari quyidagi alomatlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin:

- Hayz siklining tartibsizligi yoki hayz ko‘rmaslik (amenoreya);
- Gormonal o‘zgarishlarga bog‘liq holda yuzda husnbuzar paydo bo‘lishi, soch to‘kilishi;
- Homilador bo‘lishda qiyinchiliklar;
- Qorin pastki sohasida og‘riq yoki noqulaylik hissi.

Ovulyatsiya buzilishlari ayollarning reproduktiv salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, bepushtlikka olib keladi. Bunday holatda tuxum hujayra follikuladan chiqmasligi sababli urug‘lanish imkoniyati yo‘qoladi. Shuningdek, buzilgan gormonal fon bachadonning ichki qatlamini homila rivojlanishi uchun tayyorlamaydi.

Ovulyatsiya buzilishlarini aniqlash uchun quyidagi diagnostika usullari qo‘llaniladi:

- Ultrasonografiya (USG) orqali tuxumdon faoliyatini kuzatish;
- Gormonal testlar (progesteron, estrogen va boshqalar);
- Boshqa endokrin muammolarni aniqlash uchun qon tahlillari.

Ovulyatsiya buzilishlari ko‘plab ayollarda uchraydi va ularning tug‘ilish qobiliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur muammoni erta aniqlash va davolash reproduktiv salomatlikni saqlab qolish uchun muhimdir. Shuningdek, individual yondashuv va zamonaviy tibbiy texnologiyalar bu borada samarali natijalarga erishishga yordam beradi. Ovulyatsiya bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish uchun ilmiy-amaliy tadqiqotlar va profilaktika choralari kuchaytirilishi lozim. Ovulyatsiya buzilishlari ayollarning reproduktiv salomatligi va tug‘ilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu buzilishlarning kelib chiqish sabablari gormonal disbalans, stress, turmush tarzi va atrof-muhit ta’siriga bog‘liq. Davolash usullari orasida gormonal terapiya, ovulyatsiyani stimulyatsiya qilish va reproduktiv texnologiyalar samarali ekani isbotlangan. Bemorlarning individual ehtiyojlariga mos yondashuv va profilaktika choralari orqali ovulyatsiya buzilishlarining oldini olish va tug‘ilish qobiliyatini tiklashga erishish mumkin. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish va amaliy yondashuvlar sog‘lom avlod shakllanishiga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dumesic, D. A., & Abbott, D. H. (2008). Polycystic ovary syndrome: A translational model linking genetics, neuroendocrinology, and ovarian biology. Endocrine Reviews, 29(6), 615-639.

2. Fauser, B. C., & van Heusden, A. M. (1997). Manipulation of human ovarian function: Physiological concepts and clinical consequences. Endocrine Reviews, 18(1), 71-106.

3. Norman, R. J., Dewailly, D., Legro, R. S., & Hickey, T. E. (2007). Polycystic ovary syndrome. The Lancet, 370(9588), 685-697.

4. Practice Committee of the American Society for Reproductive Medicine (2008). Current evaluation of amenorrhea. Fertility and Sterility, 90(5), S219-S225.

5. Rotterdam ESHRE/ASRM-Sponsored PCOS Consensus Workshop Group (2004). Revised 2003 consensus on diagnostic criteria and long-term health risks related to polycystic ovary syndrome (PCOS). Human Reproduction, 19(1), 41-47.

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

GEPATIT C VA UNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

Normo'minova Durdona
Termiz Iqtisodiyot va xizmat universiteti
tibbiyot fakulteti davolash ishi yo'nalishi
1-kurs 24-01 guruh talabasi
durdonanormominova8@gmail.com
Inoyatullo Xolmurodov
Ilmiy rahbari
inoyatulloxolmurodov@gmail.com

Annotatsiya: Maqola "Gepatit C va uni davolashning zamonaviy usullari" mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, gepatit C kasalligining xususiyatlari, tarqalishiga ta'sir etuvchi omillar va uning davolash usullari haqida so'nggi yutuqlarni tahlil qiladi. Hepatit C - bu gepatotrop virus bo'lib, jigarni zararlaydi va surunkali gepatit, jigar sirrozi yoki jigar saratoniga olib kelishi mumkin. Maqolada virusga qarshi kurashishda yangi dorivor vositalar, interferon-siz davolash usullari, o'zgartirilgan terapiya rejimlari va jahon miqyosida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar haqida so'nggi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, davolash samaradorligi va xavfsizligini ta'minlash, yangi dori vositalarining imkoniyatlari hamda gepatit C ni davolashdagi global yutuqlarni baholash muhim jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar:
Gepatit C , Virusli gepatit , Jigar kasalliklari , saraton , Hepatit C epidemiyasi , davolash samaradorligi

Gepatit C virus (HCV) jigarni zararlovchi jiddiy infeksion kasallik bo‘lib, dunyo bo‘yicha 58 milliondan ortiq inson bu virus bilan yashaydi. Kasallikning yuqishi asosan infeksiya yuqgan qon orqali sodir bo‘ladi. Transfuziya, steril bo‘lmagan ignalar, tibbiy vositalardan noto‘g‘ri foydalanish va gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik HCV yuqtirish xavfini oshiradi. Gepatit C infeksiyasi o‘tkir va surunkali shakllarga ega bo‘lib, surunkali shakl holatlarning 75–85 foizida uchraydi. Kasallikni erta aniqlash davolashning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

HCV antitana testi – organizmda virusga qarshi antitanalarning mavjudligini aniqlash orqali dastlabki tashxis qo‘yiladi. HCV RNA testi – virusning genetik

materiali mavjudligini va virus yuklamasini aniqlash uchun eng ishonchli usul. Virus genotipi aniqlash – HCVning genotipini belgilash davolash rejimini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Dunyo bo‘ylab HCVning 6 ta asosiy genotipi mavjud bo‘lib, ular orasida 1, 2 va 3-genotiplar ko‘p uchraydi. So‘nggi yillarda gepatit C davolashda tub burilish yuz berdi. An’anaviy interferon va ribavirin asosidagi terapiyadan farqli o‘laroq, zamonaviy to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi antiviral preparatlar (DAAs) yordamida davolash ancha samarali va qulay bo‘lib qoldi.

DAAs HCV replikatsiyasi uchun zarur bo‘lgan oqsillarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri nishonga oladi. Ularning asosiy afzalliklari:

- Davolash muddati qisqa (8–12 hafta).
- Yuqori samaradorlik (95–99 foizgacha to‘liq sog‘ayish).
- Kam nojo‘ya ta’sirlar.

Ko‘p qo‘llaniladigan DAA preparatlar:

- Sofosbuvir
- Ledipasvir
- Velpatasvir
- Glekaprevir/Pibrentasvir

Interferon va ribavirin bilan davolash usuli o‘tmishda asosiy standart hisoblangan, ammo ko‘plab nojo‘ya ta’sirlar (masalan, charchoq, depressiya, gematologik muammolar) va past samaradorlik sabab kamroq qo‘llanilmoqda. HCVni hujayra darajasida yo‘q qilishga qaratilgan yangi texnologiyalar o‘rganilmoqda. Vaktsina ishlab chiqish: Hozirda HCVga qarshi samarali vaktsina mavjud emas, ammo klinik tadqiqotlar davom etmoqda. Sun’iy intellekt va biomarkerlardan foydalanish: Kasallikni erta bosqichda aniqlash va davolash

strategiyalarini optimallashtirish maqsadida qo‘llanilmoqda. Profilaktika choralari gepatit Cni nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Gigiyena qoidalariga rioya qilish, steril tibbiy vositalardan foydalanish va xavf guruhidagi shaxslarni muntazam tekshirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, aholiga ma’lumot yetkazish va kasallikning xavflarini tushuntirish virusning tarqalishini kamaytirishga yordam beradi. Zamonaviy usullarning joriy qilinishi bilan gepatit C global sog‘liqni saqlash muammosi sifatida qisqa muddatda to‘liq bartaraf etilishi kutilmoqda. Gepatit C jiddiy virusli kasallik bo‘lib, o‘z vaqtida aniqlanib, samarali davolansa, butkul davolash mumkin. Zamonaviy to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi antiviral dorilar (DAAs) yordamida kasallikni 95–99 foiz hollarda muvaffaqiyatli bartaraf etish imkoni mavjud. Innovatsion tadqiqotlar gen terapiyasi, biomarkerlar va vaktsina yaratish orqali gepatit Cni yanada samarali nazorat qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, kasallikning oldini olish uchun profilaktik choralarga amal qilish va aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini kengaytirish muhimdir.

Zamonaviy davolash usullari va oldini olish choralarining birgalikdagi qo‘llanilishi gepatit Cni butunlay yo‘q qilishga qaratilgan global maqsadga erishishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (2016). 2030 yilga kelib B va C gepatitlariga qarshi kurash. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti.

2. Feld, JJ, & Gane, EJ (2015). Gepatit C: terapiyadagi yangi yutuqlar. Gepatologiya, 61 (1), 238-248. https://doi.org/10.1002/hep.27288

3. Afdhal, NH va boshqalar. (2014). Davolanmagan HCV genotipi 1 infektsiyasi uchun Ledipasvir va Sofosbuvir. New England Journal of Medicine, 370(20), 1889-1898. https://doi.org/10.1056/NEJMoa1402454

4. Pawlotsky , JM va boshqalar. (2017). Gepatit C virusining to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi antivirallarga chidamliligi: muvaffaqiyatga erishish yo'li. Liver International, 37(2), 3-18. https://doi.org/10.1111/liv.13372

5. Zeuzem , S. va boshqalar. (2016). HCV genotipi 1 infektsiyasi uchun Sofosbuvir va Velpatasvir - tasodifiy sinov. Yangi Angliya Jurnal ning Tibbiyot , 374(22), 2105-2109. https://doi.org/10.1056/NEJMoa1512610

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

O‘QUV TURISTIK SAYOHATLARI VA TURIZMNING TEXNIKASI

Urganch davlat universiteti Yakka kurash kaferdasi dotsent v.b.
Matvapayev Azizbek Gaibnazar o‘g’li pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annatatsiya. Mazkur maqolada, turizmga jismoniy tarbiya vositasi tarzida qaralishi va tabiiy to‘siqlardan o‘tish, yuk ko‘tarishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish kabi masalalar ochib beradi.

Kalit so‘zlar. Turizm, jismoniy tarbiya vositasi, jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya, poxodda turizm forma va usuliyatlardan foydalanish, jismoniy tarbiya vositasi, turizmda kuch sinashish, musobaqalashish.

Аннотация. В данной статье раскрываются такие вопросы, как рассмотрение туризма как средства физического воспитания и совмещение преодоления естественных препятствий и поднятия тяжестей с физическими упражнениями.

Ключевые слова. Туризм, средства физического воспитания, физические упражнения, физическое воспитание, использование форм и методов туризма в походе, средства физического воспитания, силовые испытания в туризме, соревнования.

Annotation. This article examines tourism as a means of physical education and discusses issues such as overcoming natural obstacles, combining lifting with physical exercises.

Keywords. Tourism, means of physical education, physical exercises, physical education, the use of forms and methods in tourism, means of physical education, competition in tourism, competition.

Turizm aholining uyg’un rivojlanishi, ularning sog’lig’ini mustahkamlash va zamonaviy insonni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Turizmni ijtimoiy hodisa sifatida rivojlantirishning dolzarbligi odamlarining sog’lig’ini saqlash va mustahkamlashga, mamlakat aholisi uchun mazmunli dam olishni ta’minlashga qaratilgan boshqa vositalar qatoriga kiritilishi bilan ko‘rinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g’risida»gi Farmonining 2-ilovasida 2021 - 2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha 2021-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Unda mamlakatda sport turizmining bugungi kundagi holatini tahlil qilish, sport turizmini yanada rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifalari belgilab berilgan. Turizmning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi o‘rni muttasil oshib bormoqda, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoev, - Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot sur'atlarini jadallashtirishga intilayotgan yangi O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirish ustuvor iqtisodiy vazifalardan biri bo‘lmog‘i lozim[1]. O‘zbekistonda milliy turizmning rivojlanishi jamiyat hayotining turli sohalari bilan o‘zaro uyg‘un holatda rivojlanuvchi jarayon sifatida tahlil qilingan. Tadqiqotda turizm tizimi o‘ziga xos xususiyat, maqsad, vazifa va strukturadan iborat bo‘lgan ochiq, yaxlit, izchil tizim sifatida ko‘rib o‘tilgan. Huddi shu yo‘nalishda, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida odamlarni jismoniy sog’lomlashtirishning eng ommabop va arzon vositalaridan biri sifatida turizmning ahamiyati katta ekanligini ham aytishimiz mumkin. Turizmga bunday e’tibor bejiz emas. Jamiyatni rivojlantirishning qoidalaridan biri har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdir, bu esa insonning ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish qobiliyatini diversifikatsiyalash maqsadida turli faoliyat sohalarida ishtirok etish zarurligini belgilaydi.

Turizmni shaxsni tarbiyalashning faol vositasi sifatida qo‘llash insonga zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarning shakllanishiga, uning harakat qobiliyatini

[1] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент:“Ўзбекистон”, 2021. 172-173 бетлар.

yaxshilashga, axloqiy irodaviy va intellektual fazilatlarni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga imkon beradi. Bundan tashqari, turizm turli xil ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etuvchilarni jalb qilishni o‘z ichiga oladi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya - uzluksiz ta’limning ajralmas tarkibiy qismi - insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi bilan uzviy bog’liqdir. Shuning uchun jismoniy tarbiya tizimining barcha vositalari, shakllari va usullari jismoniy tarbiyaning insonning mehnat va mudofaa faoliyati amaliyoti bilan dialektik aloqasini ta’minlashga, jismoniy tarbiya bo‘yicha chora-tadbirlar sog’lomlashtirishga, har tomonlama barkamol rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilishi kerak. Dmitriy Kirsanovning fikriga ko‘ra, “milliy turizm o‘zida ichki (mamlakat ichidagi) va milliy ishlab chiqishga tegishli bo‘lgan kirish turizmini o‘zida ifodalaydi”[2]. V.A.Kvartalnov esa milliy turizmga, “milliy turizm – ichki va kirish turizmi sohasidagi faoliyat majmui, turistlarga o‘z davlati fuqarolari tomonidan xizmat ko‘rsatishdir” [3] , deb ta'rif beradi.

M.Q.Pardaev, R.Atabaev, B.R.Pardaevlar, “milliy turizm deganda bir mamlakat turistlarining boshqa xorijiy mamlakatlarga borib kelishi va o‘z mamlakatining ichida bir joydan ikkinchi joyga turistik maqsadlar bilan harakat qilishi tushiniladi”[4], deb hisoblashadi. Yuqorida aytib o‘tilganlardan ma’lumki, turizmni qisqa muddatli ko‘ngil ochish deb bo‘lmaydi, avvalambor insonning shaxsiy manfaatlarini, aqliy, mehnat, axloqiy va estetik ta’limdan ajratgan holda qondirish. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, insonning jismoniy tarbiyasining umumiy uzoq muddatli tizimida to‘g’ri jismoniy kamolotga faqat turizm orqali erishib bo‘lmaydi. Turizm bilan shug’ullanish faqat ushbu tizimning boshqa vositalari:

[2] https://travel 247 ru / 86 – natsionalniy-turism-chto-eto takoe.
[3] https://tourlib.net/books tourism / kvartalnov tourism 3. htm.
[4] Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Тошкент, “Фан ва технология” нашриёти, 2007 йил, 6 бет.

o‘yinlar, gimnastika, sport bilan bog’liq holda foyda keltiradi. Turizm jismoniy tarbiya tizimida maxsus guruhga ajratilgan, chunki bu boshqa turlarga nisbatan ko‘proq har bir inson hayotida zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.

Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoev, - Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – yaqin yillarda yurtimizga keladigan turistlar sonini 10 millionga etkazishdan iboratShunday qilib, turizm jismoniy tarbiya vositasi sifatida tabiiy qo‘llanilish bilan tavsiflanadi. U turli xil shakldagi va tarkibidagi turli xil harakat faoliyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu kam uchraydigan joylarda katta masofani oqilona bosib o‘tish, tabiiy sharoitlarda jamoaviy sa’y-harakatlar bilan amalga oshiriladigan harakatlardir[5]. Ularning maqsadi esa ta’lim, tarbiya, sog’liqni saqlash va sportga oid vazifalarni hal qilishda shaxsga uning ishlab chiqarish, harbiy va maishiy faoliyatda zarur ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘ladi.

Turizmda ta’lim, tarbiya, sog’liqni saqlash va sportga oid vazifalar umumiy vazifalar toifasiga kiradi, ya’ni ularni hal etish birdamlikda amalga oshiriladi va o‘quvchilarning yoshi va maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasiga bog’liq emas. Masalan, sayohat paytida, ta’lim vazifasi har bir ishtirokchiga jamoadan ta’sir qilish orqali to‘g’ridan-to‘g’ri hal qilinadi, ya’ni jamoaviylik, shaxsiy manfaatlarning jamoat manfaatlariga bo‘ysunishi shakllanadi; bundan tashqari, lager sharoitida harakat qilish davomiyligi, jismoniy mashqlar asta-sekin o‘sib boradi, insonning chidamliligi va ixtiyoriy fazilatlari paydo bo‘ladi. Sayohatlar davomida ta’limiy vazifalar bilan bir qatorda tarbiyaviy vazifalar ham hal etiladi. Bu sayohatlar oldidan

[5] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 174 бет.

olingan o‘lkashunoslik, tabiiy tarix, topografiya bo‘yicha bilimlarni bilimlarni birlashtirishni anglatadi, ya’ni bunda nazariya amaliyot bilan tasdiqlanadi.

Sayohat sharoitida ko‘nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bo‘yicha bilimlar ham yaxshilanadi. Sog’liqni saqlash muammosi jismoniy yuklama va faol dam olishning maqbul rejimiga rioya qilgan holda, tabiiy omillarning tananing barcha funktsiyalariga ijobiy ta’siridan foydalangan holda, shaxsiy va jamoat gigienasi qoidalariga rioya qilgan holda to‘g’ri tashkil etilgan yo‘nalish yordamida hal qilinadi. Vaqti-vaqti bilan muntazam ravishda yugurish yoki suzish bilan shug’ullanadigan odamlarga sayohat qilish, insonni jismoniy yuklamaga moslashtirishning yomon oqibatlarini bartaraf etishga imkon beradi. Adaptatsiya, xuddi shu jismoniy yuklamani uzoq vaqt davomida bajarish natijasida tanada yangi moslashuvchan siljishlar paydo bo‘lishi jarayoni to‘xtashi bilan izohlanadi. Bunday holda, biz odamni ayni paytda ma’lum jismoniy yuklama bilan bog’liq biroz boshqacha faoliyat turiga vaqtincha yo‘naltirishga muhtojmiz.

Jismoniy tarbiya bilan shug’ullanadigan odamning davriy sayohati uning tanasini jismoniy tayyorgarligi yuqori darajada bo‘lishiga yordam beradi. Umuman olganda, turizmda sport vazifalariga kelsak, uchta fikrni ta’kidlash kerak.

Birinchidan, turizm faoliyati har qanday sportda zarur bo‘lgan umumiy jismoniy tayyorgarlik bazasini yaratishga yordam beradi.

Ikkinchidan, ular turizm texnikasi bo‘yicha musobaqalarda ishtirok etish uchun maxsus tayyorgarlikni ta’minlaydi.

Uchinchidan, turistik poxodlar sport tasnifi bilan tartibga solinadi, bu esa o‘z navbatida o‘z ishtirokchilarining tegishli sport tayyorgarligini talab qiladi, ya’ni sport tasnifi turizmda maksimal yuklanish printsipini amalga oshirishga yordam beradi. Turizmdagi xususiy vazifalar, maqsadga qarab, ma’lum bir sayohatga maxsus tayyorgarlik bilan bog’liq. Masalan, O‘zbekistonning tarixiy joylariga

sayohat qilish tarixiy obidalar va yodgorliklar bilan to‘yingan yo‘lni tanlash uchun maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Bunday holda, taklif etilayotgan sayohat doirasida sodir bo‘lgan tarixiy voqealar haqida ma’lumot olish uchun ko‘plab adabiy manbalarni o‘rganishni talab qiladi. Yo‘nalishda ushbu ma’lumotlar ishtirokchilarning yo‘naltirilgan qidiruv ishlari natijasida to‘ldirilishi kerak. Sayohatdan keyin arxiv hujjatlarini izlash ma’lum tarixiy voqealarning ahamiyati to‘g’risida yanada yaxlit g’oyalarni yaratishga yordam beradi.

Shunday qilib, O‘zbekistonning tarixiy joylariga sayohatlar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo‘ladi. O‘quv turistik sayohatlari turizmning texnikasi va taktikasi bo‘yicha o‘quv mashg’ulotlarini o‘tkazish, joy tanlash va tunash uchun joy tayyorlash, ovqat pishirish uchun tegishli shart-sharoitlarni talab qiladi, ya’ni ular ishtirokchilar orasida bunday ko‘nikmalarni shakllantirish muammolarini hal qiladi, bu kelajakda ularga sayyohlik tadbirlarini mustaqil ravishda tashkil etish va o‘tkazishga yordam beradi. Murakkab toifadagi sayohatlar ularning ishtirokchilarini oldindan tayyorgarligi bilan bog’liq.

Turistik uskunalarni sinash maqsadida ba’zi qiyin sayohatlar amalga oshiriladi. Alohida turistik ekspeditsiyalarda milliy iqtisodiy vazifalar hal etiladi (borish qiyin bo‘lgan hududlardagi muzliklar, o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganish, xaritalarni tuzish va yangilash, meteorologik kuzatuvlar). Turizm o‘zining maqsad va vazifalariga to‘la mos kelishi uchun uni hodisa sifatida tartibli ko‘rib chiqish kerak.

Turizm hodisa sifatida o‘ziga xos hodisalar tizimidir, bunda uning tarkibiy qismlari sifatida mafkuraviy, tabiatshunoslik, ilmiy, uslubiy, tashkiliy va boshqaruv, dasturiy va me’yoriy asoslarni ajratish mumkin. Turizm – reja asosida oldindan mo‘ljallangan sayohat, ekskursiya, poxod, toqqa chiqish va sayrlardan iboratki,

bunda biror ne’mat yaratilmay, jismoniy qobiliyat va jismoniy sifatlarni rivojlantirish va aktiv dam olishga yo‘naltirilgan omil deb qaraladi.

Geologlar, gidrogeograflarning sayohatlaridan ma’lumki, ular o‘z sayohatlarini moddiy qiymat yaratish maqsadida rejalashtiradilar. Jismoniy tarbiya jarayonida esa uning xususiy tomonlaridan foydalaniladi. Turistik sayohatlarda tabiatning ma’lum to‘siqlaridan o‘tish kishilarda aqliy, jismoniy, axloqiy - estetik hislatlarni tarbiyalaydi. Ularga jamoaga munosabat, qo‘rqmaslik, kuch, chidamlilik sifatlarini rivojlantiradi. Sayohatda tog’, dalaning turmush tarzi, unda yashash, mehnat qilish sharoitga moslashish malakasi va ko‘nikmalari rivojlanadi. Turizm boshqa jismoniy tarbiya omillariga nisbatan hayotiy-amaliy sharoitda qo‘llanadigan jismoniy mashqlarga boy. Shunga ko‘ra, ular hayotiyligi va amaliyligi bilan farqlanadi.

Jismoniy tarbiya vositasi sifatida turizm quyidagi asosiy xususityalarga ega:

1.Hayotiy-amaliyligi xususiyati. Mustaqil faoliyat, tashabbuskorlikni tarbiyalaydi. Rahbarlik, boshqarish, mo‘ljal olish, yo‘lni tanlash va uni to‘g’ri topish, haritani o‘qiy olishdek qator malakalarni shakllantiradi va rivojlantiradi.

2.Turizm jismoniy sifatlar va harakatlar malakasini baravariga tarbiyalaydi, chunki unda ajratib olingan mutaxassislikka kerak bo‘lgan hislatlar rivojlanmaydi.

3. Safarga tayyorlanish va safar davomida barcha faoliyat, hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan yurish, yugurish, to‘siqlardan oshish va boshqa hayotiy amaliy mashqlardan foydalaniladi.

4. Turizm shug’ullanuvchiga ma’lum darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lish talabini qo‘ymaydi. Shunisi bilan u sportga o‘xshaydi.

5. Turizm paytida jismoniy mashqlar organizmga iqlim sharoiti (sovuq, issiq, shamol kabi) va marshrutining relyefiga qarab ta’sir ko‘rsatadi va uning ta’siri turlicha bo‘lishi mumkin.

6. Turizmda kuch sinashish, musobaqalashish asosiy o‘rinni egallaydi.

7. Turistik sayohatlar katnashchilari o‘zlarining ichlaridan rahbarni saylab oladilar. Rahbar 16 yoshdan yuqori, tajribaga ega bo‘lgan kishi bo‘lishi shart. Turizmda rahbarning o‘ziham qatnashchilari bilan ishtirok etadi. U ma’lum qo‘shimcha vazifalarni bajaradi: turistik sayohat marshrutini, qatnashchilar tarkibini, ular shaxsini o‘rganadi, jihozlarni ko‘rib chiqadi va amaliy masalarni hal qiladi. Sayohat katnashchilari yosh sayyohlar bo‘lsa, ularga 19 yoshdan kichik bo‘lmagan mutaxasis yo‘riqchi etib tayinlanadi.

8. Turizm mashg’ulotlarining asosiy formasi poxoddir. Poxodda turizm paytida bilish kerak bo‘lgan barcha forma va usuliyatlardan foydalaniladi, bu bilan hayotiy zaruriy harakat malakalari shakllantiriladi[6]. Mashg’ulotda suzish, tirmashib chiqish va hokazolar, shuningdek, topografiya bilan ishlash, to‘siqlardan oshishlarning hammasi o‘zlashtiriladi.

Turizmga jismoniy tarbiya vositasi tarzida qaraladi tabiiy to’siqlardan o’tish, yuk ko‘tarishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish tavsiya etiladi. Tarbiya jarayonida qo‘llanilgan mashqlarni tarixan shakllangan jismoniy tarbiya tizimlaridagi belgilariga ko‘ra turkumladilar. Lekin tizimlarning yangilanishi, tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan mashqlarning takomillashganlarining vujudga kelishi, yangi mashqlarning tarixan qabul qilingan mashqlar tarkibiga sig’may qola boshladilar. Chunki xususiyatlariga qarab ular gimnastika, o‘yinlar, sport yoki turizm mashqlaridan deyarli farq qilar edi.

Research Science and Innovation House

[6] Abdumalikov R.A., Xoldorov T.X. Turizm. O’quv qo’llanma. T.: O’qituvchi, 1988. -200 b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 174 бет.
2. Abdumalikov R.A., Xoldorov T.X. Turizm. O’quv qo’llanma. T.: O’qituvchi, 1988. -200 b.
3. Пардаев М.Қ., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризм соҳасини ривожлантириш имкониятлари. Тошкент, “Фан ва технология” нашриёти, 2007 йил, 6 бет.
4. Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari Matvapayev Azizbek Gaibnazar o’g’li 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) AVTOREFERATI Chirchiq – 2023
5.https://travel 247 ru / 86 – natsionalniy-turism-chto-eto takoe.
6. https://tourlib.net/books tourism / kvartalnov tourism 3. htm.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

CHO‘ZILISH - SIQILISHDA STATIK ANIQ VA NOANIQ MASALALAR

B.B. Xasanov
TDTU OF “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi katta o’qituvchisi
R.T. Nurullayev
TDTU OF “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi assistenti
Sh.A. Jaxonov
TDTU OF “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi assistenti
Xaitov B.B.
TDTU OF 8bs-23 TM guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada cho‘zilish va siqilish holatlarida statik aniq va noaniq masalalarni tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Masalalarni yechish jarayonida materiallar qarshiligi, deformatsion xususiyatlari va mexanik tenglamalar asosida nazariy va amaliy usullar qo‘llanilgan. Tadqiqot natijalari cho‘zilish va siqilish jarayonlaridagi deformatsiyalarni aniqlash uchun zarur bo‘lgan nazariy ma’lumotlar va amaliy dasturlarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Statik aniq masalalar,Statik noaniq masalalar, Cho‘zilish, Siqilish, Materiallar qarshiligi, Deformatsiya, Mexanik tenglamalar.

Bir xil materialdan yasalgan sterjenga quyidagi kattaliklar berilgan $P; \ell; E; [\sigma]$

P –Tashqi yig’ilgan kuch, $[N]$

ℓ – Qism uzunligi, $[m]$

A – Ko’ndalang kesim yuzasi, $[m^2]$

E – Elastiklik moduli materialning turiga bog’liq GOST bo’yicha qo’llanmalardan olinadi, $\left[\frac{N}{m^2}\right]$

$[\sigma]$ – normal kuchlanishning ruhsat etilgan qiymati materialning turiga bog'liq, GOST bo'yicha qo'llanmalardan olinadi, $\left[\frac{N}{m^2}\right]$

Topish kerak ?

A =?

$\Delta\ell$ =?

Π =?

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Topilishi kerak

1. Kesish usulidan foydalanib $N-$ bo‘ylama kuchlarni hisoblash va epyurasini qurish,
2. Normal kuchlanishlarni hisoblash va epyurasini qurish,
3. Kesimda xosil bo’ladigan ko‘chishlarni hisoblash va epyurasini qurish,
4. Cho‘zilish – siqilish deformatsiyasining mustahkamlik shartidan foydalanib xavfli kesim ko’ndalang kesim yuzasini hisoblash,
5. Sterjenning bo‘sh uchidagi ko’chishning son qiymatini hisoblash,
6. Sterjenning bo‘sh uchidagi potensial energiyani xisoblanadi.

Yechish:


Asosiy shart B-B, K-K kesimlarda ko’chishlar

$$\Delta\ell_b = \ell_k = 0 \quad \text{(2.a - rasm)}$$


B-B, K-K kesimlarda sterjenni bog’lanishlardan ozod etib, ularni tayanch reaksiya kuchlari bilan almashtiramiz. (2.b - rasm). Masala boshida tayanch reaksiya kuchlari yo’nalishlari ixtiyoriy olinadi. Muvozanat tenglamasini tuzamiz,

$$\sum F_{iy} = 0 \rightarrow R_B - 5P + 3P - R_K = 0 \qquad (1)$$

Tekislikda ixtiyoriy joylashgan kuchlar sistemasining muvozanat shartiga ko'ra, tuziladigan qolgan ikki tenglama, tuzilish imkoni bo'lmaganligi, deformatsiya kattaligidan foydalanib qo'shimcha tenglama tuzamiz va masalani statik aniq holatga keltiramiz. Deformatsiyalardan foydalanishda B va K nuqtalarda ko'chish nolga tengligini e'tiborga olamiz.



2.a-rasm




2.b-rasm

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Tenglamada ikkita noma'lum R_K va R_B reaksiya kuchlari, tenglama bitta, demak masala bir marta statik noaniq. Masalani yechish uchun qo'shimcha tenglama tuzish kerak. Buning uchun kesish usulidan foydalanib, deformatsiyalar xisoblanadi, xisoblashni quyi tomondan boshlaymiz, (2.d - rasm).

Sterjenning uchastkalarga I; II; III – ajratamiz va I uchastkani I-I gorizontal tekislik bilan fikran kesib olamiz, past tomonini muvozanatda qaraymiz $N_1 -$ bo'ylama kuchga ega bo'lamiz va muvozanat tenglamasidan $N_1 -$ topamiz.



2.d-rasm

$N_1 - R_K = 0$ ifodadan

$N_1 = R_K$ oldik

Endi normal kuchlanish: $\sigma_1 = \frac{N_1}{A_1} = \frac{R_K}{\frac{3A}{2}} = \frac{2R_K}{3A}$

Guk qonuniga binoan: $\Delta\ell_1(y_1) = \frac{N_1 \cdot y_1}{EA_1}$;

$(0 \le y_1 \le \frac{3\ell}{2})$ oraliqda o'zgaradi.


$$y_1 = 0 \to \Delta\ell_1(0) = \frac{R_K \cdot 0}{\frac{E \cdot 3A}{2}} = 0 = \Delta\ell_K$$

$$y_1 = \frac{3\ell}{2} \to \Delta\ell_1\left(\frac{3\ell}{2}\right) = \frac{R_K \cdot \frac{3\ell}{2}}{\frac{E \cdot 3A}{2}} = \frac{R_K \cdot \ell}{EA} = \Delta\ell_D$$

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Ikkinchi uchastkani II-II gorizontal tekislik bilan fikran kesib olib pastki tomonini muvozanatda qaraymiz va N_2 – bo'ylama kuchni olamiz, (2.e - rasm)



2.e-rasm

$$\sum F_{iy} = 0 \rightarrow N_2 = R_K - 3P = 0$$

Normal kuchlanish: $\sigma_2 = \frac{N_2}{A_2} = \frac{R_K - 3P}{2A}$

Ikkinchi uchastkadagi ko'chish: $\Delta\ell_2(y_2) = \Delta\ell_D + \frac{N_2 \cdot y_2}{EA_2}$;

$(0 \le y_2 \le \ell)$ o'zgaradi


$$y_2 = 0 \rightarrow \Delta\ell_2(0) = \Delta\ell_D + \frac{(R_K - 3P)\cdot 0}{EA_2} = \Delta\ell_D = \frac{R_K \cdot \ell}{EA}$$

$$y_2 = \ell \rightarrow \Delta\ell_2(\ell) = \Delta\ell_D + \frac{(R_K - 3P)\cdot \ell}{EA_2}$$

$$\Delta\ell_c = \frac{R_K \cdot (2-\ell) - 3\ell P}{2EA}$$

Uchinchi uchastkani xam III-III gorizantal tekslik bilan fikran kesib olamiz va past tomonini muvozanatda qaraymiz va N_3 – ga ega bo'lamiz. (2.f - rasm)

Research Science and Innovation House



2.f-rasm

$$\sum F_{iy} = 0 \rightarrow N_3 - 5P + 3P - R_K = 0;$$

$$N_3 = R_K + 2P$$

Normal kuchlanish: $\sigma_3 = \frac{N_3}{A_3} = \frac{R_K+2P}{2A}$

Guk qonuniga asosan ko'chish

$$\Delta\ell_3(y_3) = \Delta\ell_c + \frac{N_3 \cdot y_3}{EA_3} = \frac{(R_K + 2P) \cdot y_3}{2EA} + \Delta\ell_c$$

$(0 \le y_3 \le \frac{\ell}{3})$ o'zgaradi

$$y_3 = 0 \rightarrow \Delta\ell_3(0) = \Delta\ell_c + \frac{(R_K + 2P) \cdot 0}{2EA} = \Delta\ell_c = \frac{R_K(2-\ell) - 3\ell P}{2EA}$$

$$y_3 = \frac{\ell}{3} \rightarrow \Delta\ell_3\left(\frac{\ell}{3}\right) = \Delta\ell_c + \frac{(R_K + 2P) \cdot \frac{\ell}{3}}{2EA} =$$

$$= \frac{R_K(2-\ell) - 3\ell P}{2EA} + \frac{(R_K + 2P) \cdot \frac{\ell}{3}}{2EA} = \frac{2R_K(3-\ell) - 7\ell P}{6EA} = \Delta\ell_B$$

$$\Delta\ell_B = 0$$

Boshlang'ich asosiy shartdan foydalanib $R_K -$ ni topamiz.

$\frac{2R_K(3-\ell)-7\ell P}{6EA} = 0$;

Demak $R_K = P \cdot \frac{7\ell}{2(3-\ell)}$

Musbat ishora tayanch reaksiya yo'nalishi to'g'ri tanlanganini bildiradi. (1) Tenglamaga murojat qilib $R_B -$ ni topamiz.

$$R_B = P \cdot \frac{6 + 2\ell}{3 - \ell}$$

Cho'zilish siqilish deformatsiyasining mustahkamlik shartidan foydalanib, kesim yuzasi doira bo'lgan sterjenning A – ko'ndalang kesim yuzasini topamiz:

$\sigma_{max} \leq [\sigma]$ bo'lishi kerak, bizning misolimizda epyuradan.

$$\sigma_{max} = \sigma_3 = \frac{R_k + 2P}{2A} \leq [\sigma]$$

olinadi.

$A \geq \frac{3P(\ell+4)}{4(3-\ell)\cdot[\sigma]}$ kelib chiqadi.

Shart saqlangan holda kesim yuzasi masalaning qo'yilishiga qarab qo'shtavr, shveller shakllaridan biri, GOST 8239 – 72* qo'shtavr, GOST 8240 – 72* shveller kesim yuzalari profil raqami IV, V-ilovalar bo'yicha tanlanadi. Masalaning keyingi bosqichlari va epyuralar qurishlar, statik aniq pog'onali sterjenlarini hisoblash kabi davom ettiriladi.

ADABIYOTLAR:

1. Белявский С.М. (1967) Руководство к решению задач по сопротивлению материалов
2. Биргер И.А., Мавлютов Р.Р. (1986) Сопротивление материалов
3. Вольмир А.С. (1984) Сборник задач по сопротивлению материалов
4. Erkin Nematov, Mukhiddin Khudjaev, Botir Khasanov. Development of a mathematical model of dynamic characteristics of a drive with a planetary mechanism. E3S Web of Conferences 258, 08022 (2021). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125808022
5. Mukhiddin Khudjaev, Erkin Nematov, Anorgul Karimova, Doston Khurramov, Botir Khasanov. Modeling the process of force load generation at the initial periodic change in pressure (a plane problem). E3S Web of Conferences 258, 08020 (2021). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125808020.

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

SHTOLS TEOREMASI VA UNING TATBIQLARI

Urganch davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti matematika yo'nalishi 1-kurs magistranti **Jumaniyozova Xayriniso Xamidbek qizi**

Annotatsiya: Shtols teoremasi matematik analizdagi muhim teorema hisoblanadi. Quyida teorema isboti va xalqaro olimpiadalarda tadbiqlarini ko'rib chiqamiz.

Kalit sozlar: limit, Shtols teoremasi, monoton ketma-ketliklar.

Teorema(Shtols). Bizga ikkita $(a_n)_{n\geq 1}$ va $(b_n)_{n\geq 1}$ ketma-ketliklar berilgan bo'lsin:

1) $(b_n)_{n\geq 1}$ ketma-ketlik qat'iy o'suvchi va

$$\lim_{n\to\infty} b_n = \infty$$

bo'lsin;

2) Quyidagi limit mavjud bo'lsin:

$$\lim_{n\to\infty} \frac{a_{n+1}-a_n}{b_{n+1}-b_n} = l$$

U holda quyidagi ketma-ketlik yaqinlashuvchi va

$$\left\{\frac{a_n}{b_n}\right\}$$

uning limiti l ga teng, ya'ni

$$\lim_{n\to\infty} \frac{a_n}{b_n} = l$$

Isbot. Teorema shartida $(b_n)_{n\geq 1}$ ketma-ketlik qat'iy o'suvchi va limiti ∞ ga teng. Demak, ketma-ketligimiz biror joydan ($n = n_0$ chi hadidan boshlab) musbat qiymat qabul qilib boshlaydi va

$$\lim_{n\to\infty} \frac{a_{n+1}-a_n}{b_{n+1}-b_n} = l$$

limiti mavjud.

$\forall \varepsilon > 0$ berilganda ham $\exists m \in N$ mavjudki $\forall n \geq m$ natural sonlar uchun

$$\left|\frac{a_{n+1}-a_n}{b_{n+1}-b_n}-l\right|<\varepsilon$$

bo‘ladi. Bundan quyidagini yozib olamiz

$$(l-\varepsilon)\left(b_{n+1}-b_n\right)<a_{n+1}-a_n<(l+\varepsilon)\left(b_{n+1}-b_n\right)$$

endi n ni k bilan, $k+1$ bilan $k+2$ bilan va hokazo $n-1$ bilan almashtirib yozamiz:

$$(l-\varepsilon)\left(b_{k+1}-b_k\right)<a_{k+1}-a_k<(l+\varepsilon)\left(b_{k+1}-b_k\right)$$
$$(l-\varepsilon)\left(b_{k+2}-b_{k+1}\right)<a_{k+2}-a_{k+1}<(l+\varepsilon)\left(b_{k+2}-b_{k+1}\right)$$
$$(l-\varepsilon)\left(b_{k+3}-b_{k+2}\right)<a_{k+3}-a_{k+2}<(l+\varepsilon)\left(b_{k+3}-b_{k+2}\right)$$
$$\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots\ldots$$
$$(l-\varepsilon)\left(b_n-b_{n-1}\right)<a_n-a_{n-1}<(l+\varepsilon)\left(b_n-b_{n-1}\right)$$

Bu ifodalarni qo‘shib yuborsak

$$(l-\varepsilon)\left(b_n-b_k\right)<a_n-a_k<(l+\varepsilon)\left(b_n-b_k\right)$$

bu ifodani b_n ga bo‘lamiz:

$$(l-\varepsilon)\left(1-\frac{b_k}{b_n}\right)<\frac{a_n}{b_n}-\frac{a_k}{b_n}<(l+\varepsilon)\left(1-\frac{b_k}{b_n}\right)$$
$$l-\varepsilon+\frac{a_k+(\varepsilon-l)b_k}{b_n}<\frac{a_n}{b_n}<l+\varepsilon+\frac{a_k-(\varepsilon+l)b_k}{b_n}$$

bilamizki

$$\lim_{n\to\infty}\frac{a_k+(\varepsilon-l)b_k}{b_n}=\lim_{n\to\infty}\frac{a_k-(\varepsilon+l)b_k}{b_n}=0$$

yuqoridagi $\forall\varepsilon>0$ kora $\exists k\in N$ mavjudki $\forall n\geq k$ natural sonlar uchun quyidagilar o’rinli:

$$-\varepsilon<\frac{a_k+(\varepsilon-l)b_k}{b_n}<\varepsilon$$
$$-\varepsilon<\frac{a_k-(\varepsilon+l)b_k}{b_n}<\varepsilon.$$

Endi $p=\max\{m,p\}$ deb olsak, $\forall n\geq p$ natural sonlar uchun yuqoridagi ikkita tengsizligimiz bir vaqtda bajariladi. Quyidagiga ega bo‘lamiz

$$l-2\varepsilon<l-\varepsilon+\frac{a_k+(\varepsilon-l)b_k}{b_n}<\frac{a_n}{b_n}<l+\varepsilon+\frac{a_k-(\varepsilon+l)b_k}{b_n}<l+2\varepsilon$$

$$l-2\varepsilon<\frac{a_n}{b_n}<l+2\varepsilon$$

$$\left|\frac{a_n}{b_n}-l\right|<2\varepsilon$$

ε sonining ixtiyoriyligidan 2ε ixtiyoriy son bo'ladi. Ketma-ketlik limit tarifidan

$$\left\{\frac{a_n}{b_n}\right\}$$

Ketma-ketlik yaqinlashuvchi va limiti l ga teng.
Teorema to'liq isbotlandi.
Endi teoremani olimpiada misoliga tatbiq etamiz

Misol. Quyidagi ketma-ketlikning $n\to\infty$ limitni hisoblang:

$$z_n=\left(1+11^n\right)^{\frac{1}{n+2}}$$

Yechilishi: $z_n=\left(1+11^n\right)^{\frac{1}{n+2}}$ bu ketma-ketlikni Shtols teoremasini qanoatlantirishi uchun quyidagicha shakl almashtirish bajaramiz:

$$z_n=\left(1+11^n\right)^{\frac{1}{n+2}}=e^{\frac{1}{n+2}\ln\left(1+11^n\right)}.$$

Endi z_n ketma-ketlikni x_n va y_n ketma-ketliklar orqali ifodalaymiz: $x_n=\ln\left(1+11^n\right)$, $y_n=n+2$. Bunda ketma-ketlik quyidagi ko'rinishni oladi:

$$z_n=e^{\frac{x_n}{y_n}}.$$

Bilamizki,

$$\lim_{n\to\infty}z_n=\lim_{n\to\infty}e^{\frac{x_n}{y_n}}=e^{\lim_{n\to\infty}\frac{x_n}{y_n}}$$

munosabat o'rinli. Endi $\lim_{n\to\infty}\frac{x_n}{y_n}$ qiymatini topish bilan shug'ullanamiz. Bu yerda $x_n=\ln\left(1+11^n\right)$, $y_n=n+2$ hamda y_n qat'iy o'suvchi: $y_{n+1}>y_n$. Shtols teoremasining shartlarini qanoatlantirdi. Endi

$$\lim_{n\to\infty}\frac{x_{n+1}-x_n}{y_{n+1}-y_n}$$

limitni hisoblaymiz:

$$\lim_{n\to\infty}\frac{\ln\left(1+11^{n+1}\right)-\ln\left(1+11^{n}\right)}{(n+3)-(n+2)}=\lim_{n\to\infty}\ln\left(\frac{1+11^{n+1}}{1+11^{n}}\right)=\lim_{n\to\infty}\ln\left(\frac{\frac{1}{11^{n}}+11}{\frac{1}{11^{n}}+1}\right)=\ln 11$$

Shtols teoremasiga ko‘ra

$$\lim_{n\to\infty}\frac{x_n}{y_n}=\lim_{n\to\infty}\frac{x_{n+1}-x_n}{y_{n+1}-y_n}$$

munosabat o’rinli. Bundan $\lim_{n\to\infty}\frac{x_n}{y_n}=\ln 11$ ekanligi kelib chiqadi. Endi bu qiymatni o’rniga qo’yib berilgan ketma-ketlikning $n\to\infty$ dagi limitini hisoblaymiz:

$$\lim_{n\to\infty}z_n=\lim_{n\to\infty}e^{\frac{x_n}{y_n}}=e^{\lim_{n\to\infty}\frac{x_n}{y_n}}=e^{\ln 11}=11$$

Demak,

$$\lim_{n\to\infty}\left(1+11^{n}\right)^{\frac{1}{n+2}}=11.$$

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Azlarov T., Mansurov H** Matematik analiz: Unversitet va ped. Institut talabalari uchun darslik: 2 qismli. 1-q. –qayta ishlangan va toldirilgan 2-nashri. –T.: Oqituvchi, 1994.-416 b
2. Brainkart.com.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

O‘zbek dostonlarida syujet, motiv, kompozitsiya va lingvopoetikaning o‘rganilishi

Xakimova Maxsudaxon G‘ofurjon qizi
FarDU 2-bosqich tayanch doktoranti

Olamni idrok etishning har bir til jamoasi ongida tarixan shakllangan, barqarorlashgan va ayni jamoa uchun xos bo‘lgan odatiy va majburiy usullari majmui olamning lisoniy manzarasini yuzaga keltiradi. Olamning lisoniy manzarasi dunyoni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullari yig‘indisidir.[1]

Til leksikasining tarixiy rivojlanish va shakllanish xususiyatini bilish uchun til lug‘at tarkibidagi so‘zlarni tarixiy-etimologik nuqtai nazardan o‘rganish, ularni etimologik qatlamlarga ajratish mumkin.

1.O‘zbek tili leksikasidagi o‘z qatlam.

2. O‘zbek tili leksikasidagi o‘zlashma qatlam.

“Alpomish” dostonining lisoniy xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, unda qo‘llangan so‘zlarning mazmun mohiyati asosiy o‘rinda turadi. Shuning uchun dostonda qo‘llangan so‘zlarning etimologik qatlamlarini belgilash ham muhim ahamiyatga ega. “Alpomish” dostoni leksikasini kuzatar ekanmiz, unda qo‘llangan so‘zlarning ko‘pchiligini bevosita umumturkiy so‘zlar, ya’ni o‘z qatlam leksemalar tashkil etgan. Shu bilan birga,

1. Xitoycha so‘zlar. Qadimda turk qavmlari bilan xitoyliklar orasida savdo aloqalari ancha taraqqiy etib, xitoy savdogarlari turkiy xalqlar qal’alaridan Sharqiy Osiyo va Yevropa bilan aloqalarini o‘rnatishda savdo obyektlari sifatida foydalanishgan. Abduazimov Sh. va

A.Abdiyevlar o‘z maqolasida “Alpomish” dostonida qo‘llangan xitoycha so‘zlar haqida ma’lumot beradi. Mualliflar qoraqalpoq tili misolida tahlil qilgan

holda dostonda uchrovchi ayrim xitoycha so‘zlarni ko‘rsatib o‘tadi.[2] Xususan, dostonda quyidagi xitoycha o‘zlashma leksemalarni ko‘rsatib o‘tadilar.

Al- qizil + xitoycha tun/tin= qizil baqir altin. Altinnan saray saldirding. al so‘zi qizil ma’nosida qo‘llangan. Bu so‘z rus tiliga ham turkiy tillardan o‘zlashgan. (alыy, yarko-krasnыy, svetlo-rozoviy). “DLT” asarida a : l to‘q sariq ma’nosida qo‘llangan. Bek- xitoycha payk, paykin (gubernator); shay- chay, jay-joy, inji-djen/jdji, ish-si-shin,qap- kia- kap /karman / Bir qop solib eynina; taysha- xitoycha tayshu (shaxzoda, mashhur odam (shih)ning o‘g‘li); tang- xitoycha tang /dan /utro/; teng –xitoycha tang; tingla – xitoycha ting (eshitmoq) temir- xitoycha te-pi; gumis- xitoycha kuem (serebro), xan- xon, tuo‘- xitoycha tu.(tug‘) belgi, bayroq ma’nosini ifodalaydi. Dostonning o‘zbekcha variantida ham bu kabi so‘zlar fonetik jihatdan ayrim farqli shaklda qo‘llangan. Masalan:

Kelib ko‘rarsan dengi – dushingni.(20-bet)

Toychixonim senga aytar arzim bor,

Senday shohim bu ishlardan bexabar,

Tug‘dorlarman ko‘p maslahat qiladi.(213)

Qayerda joy bo‘lsa borib qo‘naman.(85)

Mualliflar dostonda qo‘llangan xitoycha so‘zlarni qoraqalpoq tili misolida tadqiq etgan holda “Alpomish” dostonida xitoy tilidan o‘zlashgan so‘zlarning kirib kelgan davri va sabablarini o‘rganish fan uchun boy manbalar berishini ta’kidlaydilar.

2.Arabcha so‘zlar. Doston leksikasini tahlil qilar ekanmiz , unda ko‘plab arab tiliga xos leksik birliklar qo‘llanganligiga guvoh bo‘lamiz. Arabcha o‘zlashmalar semantik hamda funksional jihatdan farqlanadi.Ya’ni arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ayrimlari hozirda eskirgan bo‘lsa , ayrimlar aynan o‘sha shaklda hozirgi o‘zbek tilida iste’molda qo‘llanib kelayotganini ko‘ramiz. Semantik

jihatdan ijtimoiy hayotning turli tarmoqlarida qo‘llanuvchi tushunchalarni ifodalaydi.

Hozirda eskirgan arab tiliga mansub so‘zlar:

Xo‘ja kelsa chiqar murid naziri,

Xotin bo‘lmasmikan erning vaziri. (18)

Boshqa yurtda juz’ya berib yurayin,

Boybo‘ridan bizga mahram kelibdi,

Yuqorida keltirilgan misollarda qo‘llangan arab qatlamga oid juz’ya, mahram, vazir, murid, nazir kabi so‘zlar bugungi kunda qo‘llanilmaydi. Ya’ni arxaiklashgan bo‘lib, hozirda iste’moldan chiqqan.

Bugungi kunda ham aynan o‘sha shaklda iste’molda qo‘llanib kelinayotgan arabcha so‘zlar:

Masalan, Qancha so‘qim mollar so‘yib, osh palovni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to‘yib...(6) Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham bahil ekan.(9) Bular maktabda o‘qib yurib yetti yoshga yetdi. Savodi chiqib, xat o‘qib –yozadigan mulla bo‘ldi.(7) ... davlattalab davlat tilar ekan, farzandtalab farzand tilar ekan,

Har yurtlarda musofir bo‘p yurayik,

Tong otgan so‘ng bitar alplar muhlati,

Ziyodadir Boysarining kulfati,

Maslahat bermadi turgan ulfati,

Qolmadi Boysarining toqati.(55)

Kechani munavvar qilar to‘lgan oy,

Boybo‘ri o‘lib, moli senga qoldimi? (73)

Tavakkal qib borayotir muqarrar.(75)

Sen yetmasang qabohat kun bo‘ladi,

Agar yetsang,bari hurmat qiladi.(82)

Osmonda arvohlar, ko‘kda malaklar.(85)

Ruxsat bersang,bu manzilga qo‘naman,

Biror kecha farog‘atni olaman.

In’om bersam tanga-tilla sochardim,

Hukm aylasam,men qizlarni quchardim.(239)

Dostonda bu kabi so‘zlar juda ko‘p va takror holda qo‘llangan. Shuningdek, dostonda **diniy tushunchalarni ifodalovchi** arabcha so‘zlar ham ko‘p uchraydi.Ularni quyidagicha mavzuiy guruhlarga bo‘lish mumkin:[3]

1. Shaxs bildiruvchi so‘zlar: pir, murid, musofir, mo‘min, banda;

2.Faoliyat va jarayonni bildiruvchi sozlar: oxirat, imon,bidahat,taqdir, qismat, mahshar, shafoat, foniy,qiyomat;

3.Mahluqot, yaralmishni bildiruvchi so‘zlar: taqdir, ajal, malak, arvoh,;

4. Narsa- buyumni bildiruvchi so‘zlar: zakot, nazir;

5. Joy, darajani bildiruvchi so‘zlar: ravza, pir, avliyo;

Masalan: Shu yerdan Shohmardon pirning ravzasi uch kunlik yo‘l kelar ekan. Har kim borib tunar ekan; davlattalab davlat tilar ekan, farzandtalab farzand tilar ekan, oxirattalab imon tilar ekan.(6) Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa bul ham saxiy ekan .(9)

Mo‘min qulin bandam desin bir xudoy,

G‘amli odam tortar ekan ohu voy.(71)

Ajal yetib yo paymonang to‘ldimi,

[3] Қўзиев У.Изоҳли луғатларда диний тушунчаларнинг ифодаланиши. // ЎТА,2010, № 5.Б. 88-91

Zakot debdi, bir bidahat qilibdi.

Har na qismat yozilgandan bilaman,

Azaliy taqdirga nimish qilaman.(11)

Shunday bo‘ldi haqdan menga farmonlar,

Mahshar kuni nima javob berasan,

Bizga tangri bir kun qildi shafoat,

Ne ko‘rib kechirib foniy dunyoda,

Yuqorida keltirilgan diniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar necha asrlar o‘tdi, tilning turli uslublarida hozir ham qo‘llanib kelinmoqda. “Qiyomat” so‘zining semantik strukturasi kengayagan bo‘lib, turli salbiy va ijobiy holatlar bilan bog‘liq hodisalarga doir tushunchalarni ifodalaydi. Masalan, holatni (qiyomat mast), to‘polon (ko‘chada qiyomat boshlandi), dostonda boshiga qiyomat kuni solmoq (qo‘rquv), urush, janjallashmoq ma’nolarini ifodalab kelgan. Shuningdek, qiyomatli oshna, qiyomat qarz, qiyomatli opa kabi kishilar o‘rtasidagi yaqin munosabatlarni ifodalashda ham bu so‘zdan foydalaniladi. Bu so‘z yana boshqa ko‘plab kontekstlarda qo‘llanadi. Hozirda bu so‘z,asosan, qiyomat - qoyin tarzida juft so‘z shaklida qo‘llanadi.

Tilimiz lug‘at boyligining oshishidagi muhim manbalaridan biri bo‘lgan o‘zlashma so‘zlar, xususan, fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan deyishimiz mumkin. Bu hatto og‘zaki adabiyot namunasi sanalgan “Alpomish” dostonida qo‘llangan so‘zlar misolida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi. // O‘TA, 2019, № 3. B. 15-18

2. Baskakov N.A.Sostav leksiki karakalpakskogo yazыka i struktura slova.M.,1962,S.71

3. Abdinazinov SH., Abdiyev A. “ Alpomish” dostonida xitoycha o‘zlashmalar. / O‘TA, 2009, № 5 B.87-88

4. Alimova Z. Ayrim forscha o‘zlashmalarning leksik ma’nolari xususida. // O‘TA, 2015, № 1, B. 105-107

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

BANK AUDIT JARAYONLARI VA UNING SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR.

Komilov Azizbek To’lqin o’g’li
70410501 - Bank ishi va auditi magistranti

Annotatsiya: Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida banklarda amalga oshirilayotgan audit jarayonlari va uning sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonning moliyaviy tizimida auditning o‘rni va rolini chuqur o‘rganish bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish va zamonaviy auditorlik texnologiyalarini tatbiq etishda muhimdir. Tadqiqotda O‘zbekistonning moliya institutlaridagi audit faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan huquqiy va tashkiliy islohotlar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Innovatsion texnologiyalar, audit samaradorligi, moliyaviy barqarorlik, audit metodologiyasi, moliyaviy hisobotlar.

KIRISH:

Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida banklarda amalga oshirilayotgan audit jarayonlari va uning sifatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonning moliyaviy tizimida auditning o‘rni va rolini chuqur o‘rganish bu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish va zamonaviy auditorlik texnologiyalarini tatbiq etishda muhimdir. Tadqiqotda O‘zbekistonning moliya institutlaridagi audit faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan huquqiy va tashkiliy islohotlar tahlil qilinadi.

Auditorlik faoliyatining poydevori – bu auditning murakkab mexanizmlari va uslublari, shuningdek, banklarning turli xil audit masalalari yuzasidan duch keladigan muammolarini hal qilishda qo‘llaniladigan texnik vositalar va usullardir. Tadqiqotda, ayniqsa, ichki auditning tizimi, uning samaradorligi va banklar tomonidan ularni amalga oshirishdagi o‘zgarishlar hamda o‘ziga xosliklar o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank auditini amalga oshirish uchun qabul qilingan qonunlar bank tizimini nazorat qilish va xalqaro moliyaviy hisobotlash standartlariga muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qonunlar auditorlarning professionalligini oshirish va audit jarayonlarini yanada samarali tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan talablarni belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasida bank auditining huquqiy asoslari bir qancha muhim qonunlar, nizomlar va qarorlar bilan mustahkamlanadi.

Banklardagi ichki tekshiruvlarni tashkil etish va boshqarish uchun eng muhim hujjatlardan biri bu 2021-yil 12-mayda qabul qilingan 'Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida'gi nizom hisoblanadi.. Ushbu nizom, tijorat banklarida ichki auditning rivojlanishiga yordam beradi va auditorlarga o‘z ishlarini mustaqil va samarali olib borish imkoniyatini yaratadi. Ichki audit - bu bankning pul ishlari qanchalik yaxshi ketayotgani, ishlari to'g'ri amalga oshirilayotgani va hamma narsa nazorat ostida ekanligini tekshirishdir. Bu nizom banklarga ichki auditni qanday qilib to'g'ri tashkil qilish kerakligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy ilmiy qimmati audit jarayonlarini tizimli ravishda o‘rganish orqali yangi usullarni ishlab chiqish va ularni amalda qo‘llash imkoniyatlarini ochib berishidadir. O‘zbekistonda auditni takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlarning ilmiy asoslari o‘rganilib, ushbu jarayonlarning bank sektoriga ta’siri yanada kengroq baholanadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi banklardagi audit sifatini oshirish va uni xalqaro audit standartlariga moslashtirish yo‘llarini o‘rganish hamda bu borada amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari bank auditorlari va moliyaviy tashkilotlar uchun yangi, zamonaviy audit metodlari haqida bilimlar berishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu tadqiqot natijalari moliyaviy natijalar auditini yaxshilash bo‘yicha davlat siyosatini shakllantirishga yordam beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank auditi sohasidagi normativ-huquqiy asos sifatida xalqaro auditorlik standartlarining ahamiyati tobora oshmoqda. IFAC va IAASB tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, bank auditi jarayonlarining sifatini oshirish, auditorlik xulosalarining ishonchliligini ta’minlash va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan. Maqolada xalqaro auditorlik standartlarining O‘zbekiston

bank tizimidagi qo'llanilishining amaliy jihatlari, milliy qonunchilik bilan ularning o'zaro ta'siri va bu boradagi kelajak istiqbollari muhokama qilinadi

1- jadval

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qarorlari va tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar

Hujjat	Nima haqida?	Nima uchun muhim?
Qaror №3432	Banklarda qanday tekshiruvlar o'tkazish kerakligi	Banklarning ishonchliligi va shaffofligini ta'minlash uchun
Qaror №982-4	Auditorlar qanday bilimlarga ega bo'lishi kerakligi	Auditning sifatini oshirish va xatoliklarni kamaytirish uchun
Nizom	Bank ichida qanday nazorat bo'lishi kerakligi	Bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qarorlari va nizomlari.

Bank auditining huquqiy asoslari – Bank tizimida moliyaviy nazoratni amalga oshirish, mustaqil auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va audit jarayonlarini optimallashtirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar to'plamidan tashkil topgan. Normativ-huquqiy bazasi tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qarorlari bilan belgilanadi va auditni yuqori darajada amalga oshirish, auditorlarning malakasini oshirish, audit jarayonlarini shaffof qilishga qaratilgan bo'lib, audit faoliyatining sifatini yaxshilashni maqsad qilgan [2].

Shuningdek, tadqiqot O'zbekistonning bank tizimida auditorlik jarayonlarini yanada samarali tashkil etish uchun risk asosida auditni joriy etish bo'yicha ilmiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Xavf asosidagi audit auditorlarga moliyaviy xatarlarni aniqlab, shunga mos audit rejasini tuzish imkonini beradi. Bu xalqaro amaliyotda

o‘zini oqlagan usul bo‘lib, O‘zbekistonda ham auditorlik jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

2-jadval

Auditda yuqori darajadagi texnologiyalar ta’siri

Texnologiya	Funksiyasi	Audit jarayoniga ta’siri
Sun’iy intellekt	Ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish	Xatoliklarni aniqlash va audit jarayonini tezlashtirish imkonini beradi.
Big Data	Katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarish	Moliyaviy xatarlarni oldindan aniqlash va baholash imkonini yaratadi.
Blockchain	Ma’lumotlarni o‘zgartirilmasligini ta’minlash	Audit jarayonlarining shaffofligini oshiradi va firibgarlikni kamaytiradi.

Manba

Deloitte (2021). Technology Trends in Auditing: Enhancing Effectiveness with AI. Deloitte Insights.

IAASB (2020). The Role of Technology in Audit Transformation. International Auditing and Assurance Standards Board.

PwC (2020). Big Data Analytics and Risk Assessment in Auditing. PricewaterhouseCoopers.

KPMG (2020). Blockchain in Auditing: Opportunities and Challenges. KPMG Reports.

Tadqiqotning muhim jihatlaridan biri empirik yondoshuvlarning amaliyoti va bu orqali yangi bilimlarni ishlab chiqishdir. Xalqaro tajribalar ko‘rsatadiki, auditning shaffofligi va samaradorligi audit jarayonlarida zamonaviy metodlardan

foydalanishga bog'liq. Xususan, Blockchain texnologiyasi audit jarayonlarini yanada ishonchli va shaffof qilish uchun ilmiy asos sifatida tadqiqotda o'rganiladi. Bu texnologiya orqali moliyaviy hisobotlarning o'zgartirilish ehtimoli deyarli yo'q bo'ladi. IAASB (2020) tadqiqotida ushbu texnologiyaning auditorlik amaliyotidagi qo'llanilishi orqali moliyaviy firibgarlik holatlari 40 foizga kamayganligi qayd etilgan (IAASB, 2020).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston bank tizimida texnologiyalarni joriy etishning yana bir muhim afzalligi shundaki, ular audit jarayonini avtomatlashtirib, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytiradi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi yordamida banklar o'zlarining moliyaviy ma'lumotlarini xavfsiz va o'zgarmas tarzda saqlashlari mumkin. Bu esa audit jarayonida ma'lumotlarga ishonchlilikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, bulutli texnologiyalar auditorlarga ma'lumotlarga global miqyosda tez va oson kirish imkoniyatini yaratadi, audit jarayonlarini yanada samarali qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **O'zbekiston Respublikasi Auditorlar Palatasi** (2021). Audit faoliyatini tartibga solish to'g'risidagi qonun. Tashkent.
2. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki** (2023). Bank auditining normativ-huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
3. **IAASB** (2020). International Standards on Auditing (ISA). Available at: https://www.iaasb.org.
4. **Deloitte** (2021). Auditing in the age of AI: How technology is shaping the future of auditing. Available at: https://www.deloitte.com.
5. **Basel Committee on Banking Supervision (BCBS)** (2017). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Available at: https://www.bis.org/bcbs/publ/d424.htm.

6. **O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki** (2021). Audit metodologiyalari va auditorlik jarayonlarini rivojlantirish. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki.
7. **International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB)** (2020). International Standards on Auditing (ISA) 315: Identifying and Assessing Risks of Material Misstatement. Available at: https://www.iaasb.org
8. **The Institute of Internal Auditors (IIA)** (2021). International Professional Practices Framework (IPPF). Altamonte Springs, FL: IIA.
9. **Hayes, R., Dassen, R., Schilder, A., and Wallage, P.** (2022). Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing. 4th ed. London: Pearson Education.
10. **Merton, R.C.** (2018). Risk Management in Financial Institutions. Harvard Business Review, 6(4), 75–89.
11. **OECD** (2021). Enhancing Bank Supervision in Emerging Markets. Paris: OECD nashriyoti.
12. **PwC (PricewaterhouseCoopers)** (2021). Future of Banking: Audit Innovations in Financial Institutions. London: PwC Research.
13. **Deloitte** (2022). Emerging Trends in Audit Technologies for the Banking Sector. Deloitte Insights.
14. **EY (Ernst & Young)** (2020). Audit Excellence in Developing Markets: Uzbekistan Case Study. EY Global Reports.

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASINING QIYOSIY TAHLILI

Yangi asr universiteti
Sharq mumtoz filologiyasi kafedrasi
LSh-M-102-24 Lingvistika Sharq tillari magistranti
Mamadshoyeva Roxat Furqatovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va arab tillaridagi zamon kategoriyasi qiyosiy aspektda tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida har ikkala tildagi zamon shakllarining grammatik xususiyatlari, ularning qo'llanilish doirasi va o'ziga xos jihatlari aniqlangan. Maqolada zamonning lisoniy ifodasi, uning semantik-pragmatik xususiyatlari hamda tillar orasidagi farqli va o'xshash tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: zamon kategoriyasi, fe'l zamonlari, grammatik xususiyatlar, qiyosiy tahlil, semantik-pragmatik xususiyatlar, o'zbek tili, arab tili.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ ВРЕМЕНИ В УЗБЕКСКОМ И АРАБСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация: В данной статье категория времени в узбекском и арабском языках исследована в сравнительном аспекте. В результате исследования были определены грамматические особенности форм времени в обоих языках, сфера их применения и специфика. В статье рассматривается языковое выражение времени, его семантико-прагматические особенности, а также различия и сходства между языками.

Ключевые слова: категория времени, времена глаголов, грамматические особенности, сравнительный анализ, семантико-прагматические особенности, узбекский язык, арабский язык.

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TENSE CATEGORY IN UZBEK AND ARABIC

Abstract: In this article, the category of tense in Uzbek and Arabic is studied in the comparative aspect. As a result of the study, the grammatical features of the forms of tense in both languages, their scope of application and specific aspects were determined. The article covers the linguistic expression of time, its semantic-pragmatic properties, and the differences and similarities between languages.

Keywords: tense category, verb tenses, grammatical features, comparative analysis, semantic-pragmatic features, Uzbek, Arabic.

KIRISH

Tilshunoslikda zamon kategoriyasi eng muhim grammatik kategoriyalardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Zamon kategoriyasi orqali nutqda ifodalanayotgan voqea-hodisalarning nutq so'zlanish paytiga munosabati, shuningdek, turli xil hodisalarning ketma-ketligi va davomiyligi ham o'z ifodasini topadi. O'zbek va arab tillari turli til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ularning zamon tizimida ma'lum o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar va farqlarni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Zamonaviy tilshunoslikda qiyosiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turli til oilalariga mansub tillarning grammatik kategoriyalarini qiyosiy o'rganish orqali tillarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash mumkin. Bu jihatdan o'zbek va arab tillaridagi zamon kategoriyasini qiyosiy o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek va arab tillaridagi zamon kategoriyasining qiyosiy tahlilini amalga oshirish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda tillararo farqlarni yoritishdan iborat. Shu bilan birga, har ikkala tildagi zamon

shakllarining grammatik xususiyatlari, ularning qo'llanilish doirasi va semantik-pragmatik jihatlarini tadqiq etish ham ko'zda tutilgan.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tasviriy va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. O'zbek tilshunosligida zamon kategoriyasi A.Hojiyev [1], M.Asqarova [2], arab tilshunosligida esa Al-Galaini [3], Sibawayh [4] kabi olimlarning asarlarida chuqur o'rganilgan.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida N.Mahmudov [5] fe'l zamonlarining semantik-pragmatik xususiyatlarini tadqiq etgan. Arab tilshunosligida esa Tammam Hassan [6] zamon kategoriyasining funksional-semantik xususiyatlarini o'rgangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek va arab tillaridagi zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili natijasida bir qator muhim xususiyatlar aniqlandi. Avvalo, bu ikki tildagi zamon tizimining tuzilishi va grammatik vositalari o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqish lozim.

O'zbek tilida fe'l zamonlari uch asosiy guruhga bo'linadi: o'tgan zamon, hozirgi zamon va kelasi zamon. O'tgan zamon o'z navbatida yaqin o'tgan zamon (-di), uzoq o'tgan zamon (-gan), o'tgan zamon hikoyasi (-r edi) kabi ko'rinishlarga ega. Hozirgi zamon ham hozirgi-kelasi zamon (-a/-y), hozirgi zamon davom fe'li (-yap), hozirgi zamon (-moqda) kabi shakllarga ega. Kelasi zamon esa kelasi zamon gumon fe'li (-ar), kelasi zamon maqsad fe'li (-moqchi), kelasi zamon (-ajak) shakllarida namoyon bo'ladi.

Arab tilida esa ikki asosiy zamon mavjud: al-madi (o'tgan zamon) va al-mudori' (hozirgi-kelasi zamon). Al-madi shakli o'tgan zamondagi harakatni ifodalasa, al-mudori' shakli hozirgi va kelasi zamondagi harakatlarni ifodalaydi. Arab tilidagi bu ikki zamon shakli turli prefiks va suffikslar qo'shilishi orqali yangi ma'no ottenkalari hosil qilishi mumkin.

O'zbek tilidagi zamon shakllarining yasalishida affiksatsiya usuli asosiy o'rin tutadi. Masalan:

- O'tgan zamon: yoz-di, yoz-gan, yoz-ib-di
- Hozirgi zamon: yoz-yap-ti, yoz-moq-da
- Kelasi zamon: yoz-ajak, yoz-moq-chi

Arab tilida esa zamon ma'nosi ko'pincha fe'l o'zagidagi unli tovushlarning o'zgarishi (ichki fleksiya) orqali ifodalanadi. Masalan: kataba (كَتَبَ) - yozdi yaktubu (يَكْتُبُ) - yozadi/yozmoqda

Tahlil natijasida aniqlangan yana bir muhim farq - arab tilidagi zamon shakllarining kontekstual bog'liqlik darajasi yuqoriligi. Bir xil grammatik shakl kontekstga qarab turli zamon ma'nolarini ifodalashi mumkin. O'zbek tilida esa zamon ma'nolari nisbatan aniq chegaralangan bo'lib, har bir grammatik shakl o'zining asosiy zamon ma'nosini ifodalaydi.

Zamon kategoriyasining semantik-pragmatik xususiyatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, arab tilida zamonning modal ma'nolari o'zbek tiliga nisbatan kengroq. Masalan, arab tilidagi al-mudori' shakli kontekstga qarab istak, iltimos, buyruq kabi modal ma'nolarni ham ifodalay oladi. O'zbek tilida bunday modal ma'nolar ko'pincha maxsus grammatik shakllar orqali ifodalanadi.

Har ikkala tilda ham zamon va makon tushunchalarining o'zaro bog'liqligi kuzatiladi. Bu ayniqsa ravish va ko'makchilarning qo'llanilishida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek tilida "keyin", "oldin", "avval" kabi ravishlar, arab tilida "ba'da" (بعد), "qabla" (قبل) kabi so'zlar zamon va makon munosabatlarini ifodalashda faol ishtirok etadi.

O'zbek va arab tillarida zamon kategoriyasining rivojlanish tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'zbek tilida yangi analitik shakllar paydo bo'lish jarayoni davom etmoqda. Arab tilida esa an'anaviy grammatik tizim

barqarorroq bo'lib, asosan mavjud shakllarning semantik imkoniyatlari kengaymoqda.

Tillararo interferensiya masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek va arab tillarini o'rganuvchilar uchun zamon shakllarining to'g'ri qo'llanilishi ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Bu qiyinchiliklar asosan tillarning tipologik farqlari, zamon tizimining tuzilishi va semantik xususiyatlari bilan bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har ikkala tilda ham zamon kategoriyasi dinamik rivojlanishda bo'lib, yangi kommunikativ ehtiyojlarga moslashmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar va yangi tushunchalar bilan bog'liq kontekstlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Fe'l zamonlarining funksional-semantik tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek va arab tillarida zamon kategoriyasi nafaqat grammatik, balki semantik-pragmatik jihatdan ham murakkab tizimni tashkil etadi. Quyida ikkala tildagi fe'l zamonlarining qiyosiy tahlili keltirilgan:

1-jadval. O'zbek va arab tillarida zamon kategoriyasining grammatik shakllari va funksional xususiyatlari

Zamon turi	O'zbek tilidagi shakllari	Arab tilidagi shakllari	Asosiy funksional xususiyatlari
O'tgan zamon	-di, -gan, -ib(dir), -(a)r edi	فَعَلَ (fa'ala), قَدْ فَعَلَ (qad fa'ala)	Tugallangan harakat, uzoq/yaqin o'tmish
Hozirgi zamon	-yap(ti), -moqda, -(a)r	يَفْعَلُ (yaf'alu)	Davom etayotgan harakat
Kelasi zamon	-ajak, -moqchi, -(a)r	سَيَفْعَلُ (sayaf'alu), سَوْفَ يَفْعَلُ (sawfa yaf'alu)	Kelgusida bo'ladigan harakat

O'zbek va arab tillaridagi zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili bir qator muhim xulosalarga olib keldi. Semantik maydon xususiyatlariga ko'ra, o'zbek tilida zamon ma'nolari aniq va mustaqil grammatik shakllar orqali ifodalanadi. Arab tilida esa zamon ma'nolari ko'proq kontekstga bog'liq bo'lib, har ikkala tilda ham zamonning modal ma'nolari mavjudligi kuzatiladi.

Stilistik xususiyatlar jihatidan o'zbek tilida badiiy uslubda -ib(dir) shakli, ilmiy uslubda -moqda shakli, publisistik uslubda -(a)r shakli ko'proq qo'llanilishi aniqlandi. Arab tilida esa Qur'oniy uslubda maxsus zamon shakllari qo'llaniladi, zamonaviy adabiy tilda yangi analitik shakllar paydo bo'lmoqda va og'zaki nutqda kontekstual ma'nolar ustunlik qiladi.

Pragmatik jihatdan o'zbek tilida zamon shakllari ishonchlilik darajasi, so'zlovchining munosabati va voqeaning kutilganlik/kutilmaganlik darajasini ifodalaydi. Arab tilida esa harakat-holatning aniqlik darajasi, modal munosabatlar va temporal retrospeksiya kabi pragmatik ma'nolar ifodalanadi.

Zamonning lisoniy ifodasi o'zbek tilida asosan morfologik usul bilan yasaladi, shuningdek analitik shakllar va leksik ifodalanish ham keng tarqalgan. Arab tilida ichki fleksiya usuli ustunlik qiladi, prefiks va suffikslar qo'shimcha vosita sifatida qo'llaniladi, yordamchi fe'llar tizimi ham rivojlangan.

Diskurs tahlili natijalariga ko'ra, o'zbek tilida matn tuzilishida zamonlarning ketma-ketligi, matn uslubini belgilash va dialog hamda monologda zamonlarning o'ziga xos qo'llanishi muhim ahamiyatga ega. Arab tilida esa kontekst zamon ma'nosini aniqlashda, matn turiga qarab zamon shakllarining tanlanishida va diskurs markerlar sifatida qo'llanilishida muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan, globallashuv ta'sirida yangi kommunikativ vaziyatlar paydo bo'lmoqda, zamon shakllarining yangi ma'no ottenkalari shakllanmoqda va tillararo ta'sir kuchaymoqda. Texnologik rivojlanish

natijasida virtual kommunikatsiyada zamonning o'ziga xos ifodalanishi paydo bo'lmoqda, yangi kontekstlarda zamonning ifodalanishi o'zgarmoqda va zamon shakllarining qo'llanish doirasi kengaymoqda. Ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar ta'sirida esa zamon shakllarining pragmatik ma'nolari boyimoqda, uslubiy differensiatsiya kuchaymoqda va yangi kommunikativ normalar shakllanmoqda.

Zamon kategoriyasining kognitiv asoslari har ikkala tilda ham o'ziga xos bo'lib, bu vaqt konseptining lisoniy ifodasi, temporal munosabatlarning kategorizatsiyasi va zamon-makon munosabatlarining o'zaro bog'liqligida namoyon bo'ladi. Bu tahlillar o'zbek va arab tillaridagi zamon kategoriyasining murakkab tizim ekanligini ko'rsatib, kelgusida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarurligini ta'kidlaydi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijasida o'zbek va arab tillaridagi zamon kategoriyasining o'ziga xos xususiyatlari, ularning grammatik va semantik jihatlari atroflicha o'rganildi. Har ikkala tilda ham zamon tushunchasi grammatik kategoriya sifatida mavjud bo'lib, o'ziga xos shakllanish va qo'llanish xususiyatlariga ega ekanligi aniqlandi. Bu farqlar tillarning tipologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. O'zbek va arab tillarida zamon kategoriyasi turli grammatik vositalar orqali ifodalanadi. O'zbek tilida asosan affiksatsiya usuli ustunlik qilsa, arab tilida ichki fleksiya muhim rol o'ynaydi.

2. O'zbek tilidagi uch bo'g'inli zamon tizimi (o'tgan, hozirgi, kelasi) arab tilidagi ikki bo'g'inli tizimdan (al-madi, al-mudori') farq qiladi. Bu esa har ikkala tildagi zamon tushunchasining o'ziga xos konseptual asosga ega ekanligini ko'rsatadi.

3. Arab tilidagi zamon shakllarining modal ma'nolari o'zbek tiliga nisbatan kengroq. Bu arab tilida fe'l zamonlarining kontekstga bog'liq holda turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalash imkoniyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

4. O'zbek tilidagi zamon ma'nolari aniqroq chegaralangan bo'lib, har bir zamon shakli o'zining asosiy ma'nosini saqlagan holda qo'llaniladi.

Ushbu tadqiqot natijalari o'zbek va arab tillarini o'rganishda, tarjima amaliyotida, shuningdek, qiyosiy tilshunoslik sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida ushbu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, xususan, zamonning funksional-semantik maydonini, uning pragmatik xususiyatlarini va diskurs tahlil doirasidagi o'rnini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Hojiyev, A. (2010). O'zbek tili morfologiyasi. Toshkent: Fan
2. Asqarova, M. (2012). Hozirgi o'zbek tilida fe'l zamonlari. Toshkent: O'qituvchi
3. Al-Galaini, M. (2005). Jami' ad-durus al-arabiyya. Beirut: Al-Maktaba al-Asriyya
4. Sibawayh. (1988). Al-Kitab. Cairo: Maktabat al-Khanji
5. Mahmudov, N. (2017). O'zbek tilidagi fe'l zamonlarining pragmatik xususiyatlari. O'zbek tili va adabiyoti, 3, 25-31
6. Hassan, T. (2006). Al-Lugha al-Arabiyya: Ma'naha wa Mabnaha. Cairo: Alam al-Kutub
7. Nurmonov, A. (2015). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Ilm Ziyo
8. Wright, W. (2011). A Grammar of the Arabic Language. Cambridge: Cambridge University Press
9. Yusupov, M. (2019). Arab va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent: ToshDShI

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

HOMILADORLIK DAVRIDAGI INFEKSIYALAR VA CHAQALOQLARDA KUZATILADIGAN KLINIK BELGILAR

Ochilova Shaxnoza Muzaffar qizi, neonatolog
Turon Universiteti Tibbiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Homiladorlik davridagi infektsiyalar homila va chaqaloqlarda jiddiy asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. TORCH infektsiyalari homiladorlik davrida homilaga yuqib, chaqaloqlarda turli klinik belgilar va asoratlar bilan namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada homila ichi infektsiyalarining klinik laborator xususiyatlari, diagnostik usullari, profilaktika hamda davolash yondashuvlari tahlil qilindi. Infektsiyalarni erta aniqlash va samarali davolash orqali chaqaloqlarni sog'liq holatini yaxshilash mumkin.

Kalit so`zlar: TORCH, Toksoplazmoz, Rubella, Sitomegalovirus, Herpes simplex, PZR, DNK.

ИНФЕКЦИИ ВО ВРЕМЯ БЕРЕМЕННОСТИ И КЛИНИЧЕСКИЕ ПРИЗНАКИ, НАБЛЮДАЕМЫЕ У НОВОРОЖДЕННЫХ

Аннотация:Инфекции во время беременности могут вызвать серьезные осложнения у плода и ребенка. TORCH-инфекции передаются плоду во время беременности и проявляются у детей различными клиническими признаками и осложнениями. В статье проанализированы клинико-лабораторные характеристики, методы диагностики, подходы к профилактике и лечению внутриутробных инфекций. Раннее выявление и эффективное лечение инфекций могут улучшить состояние здоровья младенцев.

Ключевые слова: TORCH, токсоплазмоз, краснуха, цитомегаловирус, простой герпес, ПЦР, ДНК.

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

INFECTIONS DURING PREGNANCY AND CLINICAL SIGNS OBSERVED IN NEWBORNS

Abstract: Infections during pregnancy can cause serious complications in the fetus and child. TORCH infections are transmitted to the fetus during pregnancy and manifest in children with various clinical signs and complications. The article analyzes clinical and laboratory characteristics, diagnostic methods, approaches to the prevention and treatment of intrauterine infections. Early detection and effective treatment of infections can improve the health of infants.

Keywords: TORCH, toxoplasmosis, rubella, cytomegalovirus, herpes simplex, PCR, DNA.

KIRISH

Homiladorlik davridagi infektsiyalar homila va chaqaloqlarda jiddiy asoratlar va sog'liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. TORCH infektsiyalari (Toksoplazmoz, Rubella, Sitomegalovirus, Herpes simplex) eng ko'p uchraydigan infektsiyalar qatoriga kiradi va homilador ayollarda bu infektsiyalar chaqaloqlarda turli klinik belgilar va kasalliklar bilan namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada homiladorlik davridagi infektsiyalar va ularning chaqaloqlarda kuzatiladigan asosiy klinik belgilar tahlil qilinadi.

TORCH Infektsiyalari:

TORCH infektsiyalari turli xil mikroorganizmlar tomonidan chaqiriladi va har biri chaqaloqlarda o'ziga xos klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi:

- Toksoplazmoz: Toxoplasma gondii tomonidan chaqiriladi. Tug'ilgan chaqaloqlarda ko'z va miya patologiyalari, eshitish qobiliyatining yo'qolishi, giperbilirubinemiya va boshqa asoratlar kuzatiladi.
- Rubella: Rubella virusi chaqiradi. Tug'ilgan chaqaloqlarda yurak nuqsonlari, katarakta va eshitish qobiliyatining yo'qolishi kuzatiladi.

- Sitomegalovirus (CMV): Sitomegalovirus infektsiyasi homilaga o'tishi mumkin va chaqaloqda mikrosefaliya, gepatosplenomegaliya, giperbilirubinemiya, eshitish qobiliyatining yo'qolishi va boshqa nevrologik asoratlarga olib kelishi mumkin.
- Herpes simplex virusi (HSV): HSV infektsiyasi homiladorlik davrida yoki tug'ruq paytida yuqishi mumkin. HSV infektsiyasi chaqaloqda teri yaralari, ensefalit, gepatit va boshqa asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Homila ichi infektsiyalari bilan tug'ilgan chaqaloqlarda turli klinik belgilar va asoratlar kuzatiladi:

- Jigar va Taloq kattalashishi (gepatosplenomegaliya): Infektsiya natijasida jigar va taloqning kengayishi kuzatiladi.
- Sariqlik (giperbilirubinemiya): Qonda bilirubin darajasining yuqoriligi natijasida chaqaloqlarda terining sariqligi kuzatiladi.
- Ko'rish va eshitish qobiliyatining yo'qolishi: Infeksiya natijasida ko'z va quloq kasalliklari kuzatiladi.
- Infeksiyalarni erta aniqlash va davolash uchun quyidagi diagnostik usullar qo'llaniladi:
- Serologik Testlar: Homilador ayolning qonida IgM va IgG antitanalarini aniqlash. Bu testlar homiladorlik davrida infektsiyaning mavjudligini va o'tkazilganligini aniqlashda yordam beradi.
- PZR tahlillari: Virus yoki bakteriya DNK/RNK sini aniqlash uchun Polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR) tahlillari qo'llaniladi. Ushbu usul yuqori sezgirlikka ega bo'lib, infeksiyani aniq aniqlash imkonini beradi.
- Ultratovush Tekshiruvlari: Homila rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqlash va homilaning sog'liq holatini kuzatish uchun ultratovush tekshiruvlari o'tkaziladi.

Profilaktika va Davolash:

Homila ichi infektsiyalarini oldini olish va davolash uchun quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

- Vaksinatsiya: Rubella va boshqa infektsiyalarga qarshi vaksinalar homiladorlik davrida infektsiyalarni oldini olish uchun tavsiya etiladi.
- Antibiotik va virusga davolash: Infeksiyalarni davolash uchun antibiotik va virusga qarshi preparatlar qo'llaniladi. Bu usullar infeksiyalarning tarqalishini oldini olish va chaqaloqni himoya qilish uchun samarali.

Ushbu tadqiqotning maqsadi homiladorlik davridagi infektsiyalar va ularning chaqaloqlarda klinik belgilarini o'rganish orqali bu kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolashga yo'naltirilgan yondashuvlarni aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarni tahlil qilish orqali homila ichi infeksiyalari chaqaloqlar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va keng ko‘lamli klinik belgilarni keltirib chiqarishi aniqlanadi. Quyidagi asosiy tahlil va natijalar e'tirof etiladi:

1. Klinik belgilar va ularning turlari: Tahlilga ko‘ra, homila ichi infeksiyalari chaqaloqlarda keng ko‘lamli klinik belgilar, jumladan, rivojlanish kechikishi, jigar va taloqning kattalashishi, asab tizimi, ko‘z va teri o‘zgarishlariga olib kelishi mumkin. Bosh miya rivojlanishidagi buzilishlar (masalan, gidrosefaliya yoki mikrosefaliya), ko‘rish va eshitish qobiliyatining pasayishi kabi asoratlar infeksiyaning og‘irligiga bog‘liq holda turlicha ko‘rinish berishi aniqlangan.
2. Infektsiyaning onadan yuqishi yo‘llari va xavf omillari: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, homiladorlik paytida ona organizmiga tushgan infektsiyalar platsenta orqali homilaga o‘tadi. Bu jarayon homila rivojlanish bosqichiga va onaning immun tizimiga bog‘liq. Onada infeksiyani erta aniqlash va profilaktik chora-

tadbirlarni qo‘llash orqali chaqaloqdagi kasallikning oldini olish mumkinligi tasdiqlangan.

3. Diagnostika va uning ahamiyati: Tahlillar infeksiyalarni erta aniqlashning muhimligini ko‘rsatadi. Qon, siydik, va serologik tahlillar, shuningdek, ultratovush kabi tasvirlash usullari homilada yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqda infeksiyani erta aniqlash imkoniyatini beradi. Bu esa davolash samaradorligini oshiradi va rivojlanishdagi kechikishlarni kamaytiradi.
4. Profilaktika va davolash usullari: Profilaktika tadbirlari, jumladan, homilador ayollarni infeksiyalarga nisbatan nazorat qilish, vaksinatsiya va infektsiyadan himoya qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, chaqaloqlarda infeksiyaga qarshi davolash usullari, masalan, antiviral va antibakterial dorilar yordamida kasalliklarni yengillashtirish yoki bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyidagi asosiy tahlil va natijalar e'tirof etiladi:

1. Klinik belgilar va ularning turlari: Tahlilga ko‘ra, homila ichi infeksiyalari chaqaloqlarda keng ko‘lamli klinik belgilar, jumladan, rivojlanish kechikishi, jigar va taloqning kattalashishi, asab tizimi, ko‘z va teri o‘zgarishlariga olib kelishi mumkin. Bosh miya rivojlanishidagi buzilishlar (masalan, gidrosefaliya yoki mikrosefaliya), ko‘rish va eshitish qobiliyatining pasayishi kabi asoratlar infeksiyaning og‘irligiga bog‘liq holda turlicha ko‘rinish berishi aniqlangan.

2. Infektsiyaning onadan yuqishi yo‘llari va xavf omillari: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, homiladorlik paytida ona organizmiga tushgan infektsiyalar platsenta orqali homilaga o‘tadi. Bu jarayon homila rivojlanish bosqichiga va onaning immun tizimiga bog‘liq. Onada infeksiyani erta aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llash orqali chaqaloqdagi kasallikning oldini olish mumkinligi tasdiqlangan.

3. Diagnostika va uning ahamiyati: Tahlillar infeksiyalarni erta aniqlashning muhimligini ko‘rsatadi. Qon, siydik, va serologik tahlillar, shuningdek, ultratovush kabi tasvirlash usullari homilada yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqda infeksiyani erta aniqlash imkoniyatini beradi. Bu esa davolash samaradorligini oshiradi va rivojlanishdagi kechikishlarni kamaytiradi.

4. Profilaktika va davolash usullari: Profilaktika tadbirlari, jumladan, homilador ayollarni infeksiyalarga nisbatan nazorat qilish, vaksinatsiya va infektsiyadan himoya qilish tavsiya etiladi. Shuningdek, chaqaloqlarda infeksiyaga qarshi davolash usullari, masalan, antiviral va antibakterial dorilar yordamida kasalliklarni yengillashtirish yoki bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Natija: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, homila ichi infeksiyalarni erta aniqlash, profilaktika qilish va o‘z vaqtida davolash chaqaloqning sog‘lom rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Infektsiyalarning erta tashxisi va to‘g‘ri davolash usullari bilan birga profilaktika tadbirlarini amalga oshirish chaqaloqlarni jiddiy sog‘liq muammolaridan himoya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, homila ichi infeksiyalar haqida kengroq tushuncha va yetarli ilmiy ma’lumot chaqaloqlar sog‘lig‘ini yaxshilashda katta yordam beradi.

XULOSA

Homila ichi infeksiyalari yangi tug‘ilgan chaqaloqlar uchun jiddiy klinik asoratlar keltirib chiqarishi mumkin. Bu infeksiyalar asab tizimi, ko‘z, ichki organlar va teri kabi a’zolarga ta’sir qilib, chaqaloqlarda rivojlanish kechikishi, organlar faoliyatining buzilishi, nevrologik va sensor muammolarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, homila ichi infeksiyalarni erta aniqlash va samarali davolash usullarini qo‘llash bilan ushbu asoratlarning oldini olish mumkin.

Profilaktika choralari, jumladan, homiladorlik davrida onalar sog‘lig‘ini kuzatish va zaruriy vaksinatsiya orqali infektsiya xavfini kamaytirish mumkin. Diagnostika usullarining keng qo‘llanilishi esa infeksiyalarni erta aniqlash imkonini beradi, bu esa chaqaloqning sog‘lom rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, homila ichi infeksiyalarni aniqlash, oldini olish va davolashga kompleks yondashuv orqali chaqaloqlarni sog‘lom o‘sishiga erishish, rivojlanishdagi kechikishlarni kamaytirish va uzoq muddatli asoratlarni oldini olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Maldonado Y. A. et al. Infectious diseases of the fetus and newborn infant //(No Title). – 2011.
2. Remington J. S. et al. Infectious diseases of the fetus and newborn E-book. – Elsevier Health Sciences, 2010.
3. Jensen J. R., Stewart E. A. Mayo Clinic Guide to Fertility and Conception. – RosettaBooks, 2018.
4. Goldenberg R. L. et al. Epidemiology and causes of preterm birth //The lancet. – 2008. – T. 371. – №. 9606. – C. 75-84.
5. Krause P. J. et al. Clinical practice guidelines by the Infectious Diseases Society of America (IDSA): 2020 guideline on diagnosis and management of babesiosis //Clinical Infectious Diseases. – 2021. – T. 72. – №. 2. – C. e49-e64.
6. Lynn M. K. A Cross-Sectional Analysis of Infectious Causes of Congenital Morbidity and Mortality in Central America: TORCH, El Salvador : дис. – University of South Carolina, 2023.

7. World Health Organization. Reproductive Health. Managing complications in pregnancy and childbirth: a guide for midwives and doctors. – World Health Organization, 2018.
8. Lee H. Y. et al. Maternal influences on offspring food allergy //Immunological Reviews. – 2024.
9. Tamanna S. et al. ACE2: A key modulator of RAS and pregnancy //Am. J. Physiol. Integr. Comp. Physiol. – 2021. – T. 10.
10. Rubin, L. G., Kuppermann, N., & Maldonado, Y. (2021). Guidelines for Prevention and Control of Infectious Diseases in Pregnancy. Journal of Maternal-Fetal and Neonatal Medicine, 34(6), 1021-1028.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Psixologik xizmatda kasbiy xususiyat va fazilatlarning tahlili

UrDU “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi katta o’qituchisi O.K.Odamova

ogiljon-odamova@gmail.com
Tel:+99894 230 2875

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi - O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risidagi PF-4947-sonli Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi - Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risidagi PQ-2909-sonli Qarorining qabul qilinishi, yoshlarni har tomonlama bilim olishlari, ularda yaratuvchilik imkoniyatlarini kengaytirishga bo’lgan sharoitlar yanada yaxshilandi. Bu esa proaessor-o’qituvchidan salmoqli darslik,o’quv qo’llanma, uslubiy qo’llanma va maqolalar yozishni talab etadi.

Ushbu maqoladan olingan bilim, ko’nikma va malakalar bo’lajak mutaxassislarda kasbiy muloqotni amalga oshirish, o’z ustida ishlash, kasbiy malaka va ko’nikmalarni shakllantirish uchun asosiy manba hisoblanadi**.** Maqsad talabalarda o’z kasbiga doir psixologik bilimlarni egallashga, shaxs psixologiyasi, uning faoliyati va muloqoti, psixik taraqqiyot qonuniyatlarini bilishga, shaxsni psixologik metodlar yordamida o’rganish bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirish. Talabalarga jamiyat hayotida psixologik hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, insonning shaxs va mutaxassis sifatidagi kamoloti va unga ta‘sir ko`rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o`rgatishdan iboratdir. O’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba -

psixologik tushunchalarni, voqelik va jamiyatdagi voqea-hodisalarni, shaxsning o’zida kechadigan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni, shaxsni psixologik tadqiq qilish usullarini bilishi, psixologik mushohada etish, narsa-hodisalarni ilmiylik va mantiqiylik asosida o’rganish, ilmiy tafakkur va psixologik tassavvurning uyg’unligini ta’minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, o’zining shaxsiy va kasbiy faoliyatida psixologik bilimlarni va qonuniyatlarni qo’llay olish ko’nikmalariga ega bo’lishi nazarda tutiladi.

Maqolani ilmiy-nazariy yoritishda kasbiy faoliyat psixologiyasiga ham bir nazar solishni taqoza etadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, psixologik xizmat psixologiya fanlari tarkibiga kiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda kasbiy psixologiya o‘ziga xos predmet bo‘lib, psixologik xizmatning nozik tomonlarini qamrab oladi. Ya‘ni bu fan psixologiya sohalarining kesishuvida yuzaga keladi. Psixologiya muayyan shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarining o‘ziga xos tomonlarini o‘rganadi. Bundan ko‘rinadiki, har ikkala fanning obekti va subekti shaxs, inson hisoblanadi.Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, kasbiy psixologiya faoliyat psixologiyasi psixologiya tarkibida yuzaga kelgan bo‘lib, aniq faoliyat, ya‘ni kasb faoliyatidagi psixologik jihatlarning muhim tomonlarini o‘rganishga bag‘ishlangan fan hisoblanadi. Kasbiy faoliyat psixologiyasi ilmiy-amaliy fan bo‘lib, umumiy psixologiyaning qonuniyatlarini o‘rganadi va bu fanning samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqadi. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fani kasb doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir. Bunda kasb egalarining psixologik asoslarini o‘rganish maqsad qilib qo‘yilgan. Kasbiy faoliyat psixologiyasi fanining maqsadi-kasb egalari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu ma’noda, kasbiy faoliyat psixologiyasi

fanining metodologik asosini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, faylasuf-allomalarning kasb psixologiyasi faniga oid g‘oya va nazariyalari hamda hukumat qonunlari, va buyruq va ko‘rsatmalari tashkil etadi.

Professiografiya - bu kasb tomomnidan insonga qo’yiladigan talablar nuqtai nazaridan kasblar va ularni tabaqalashtiradigan ixtisoslar tavsifidir. Muayyan ixtisos-kasb yoki ular guruhi tomonidan insonga qo’yiladigan talablar sisitemasining tavsiflash va asoslash professiografiyaning natijasini hal qiladi.

Professiogrammada muhim xislatlari borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda psixologning quyidagi xislatlarini ko`rsatib berishi lozim:

Psixologning shaxsiy xislatlari - Bolalarni yaxshi korishi, ularni sevishi, amaliy-psixologik aql-farosatlilik, mehnatsevarlik, jamoat ishlarida faollik, mehribonlik, kamtarlik, odamiylik, dilkashlik, uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo’lish,o’z bilimini oshirishga intilish.

Psixologning kasbiga xos hislatlari - milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi, zamonaviy maktabda olib boriladigan oquv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an‘analar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunishi,o`qituvchining kuzatuvchanligi,o`z diqqat-e‘tiborini taqsimlay olishi**,** pedagogik fantaziya (hayo`l)ning rivojlanishi, o’ziga tanqidiy munosabatda bolishi, o’zini qo’lga ola bilishi, o`zini tuta bilishi,pedagogik fakt, nutqning emotsional ifodalanishi**.**

Psixologning kasbiga xos bilimi- ta‘lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi,psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi,etnopsixologik bilimlarni egallashi, hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi, hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallanganligi,maktab yoshida bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi,o’z fanini chuqur bilishi, o’quvchilarga

tarbiyaviy ta‘sir etishning samaradorligini bilishi, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi.

Psixologning shaxsiy - pedagogik uddaburonligi - dars mashgulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi, o`quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi, ta‘lim va tarbiya jarayonida o’quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi, pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi, bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o’z faoliyatini rejalashtirishni bilishi, o’quv massadlarini rejalashtira olishi, o’quvchining talim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

Psixologning eng muhim sifati bu kasbiy kompetentsiysidir. U kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarni o'z ichiga oladi. Psixolog har tomonlama o’qitilgan mutaxassis bo’lishi kerak. Shuning uchun uning kasbiy bilimlari nafaqat psixologiya bilimlarini, balki falsafa, tarix, pedagogika, madaniyatshunoslik, huquq, iqtisod, filologiya, sotsiologiya, matematika va informatika, zamonaviy tabiatshunoslik tushunchalari sohasidagi ma'lum bir bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda kasbiy mahorat psixologning amaliy faoliyati muvaffaqiyatini, psixologik bilimlarni o'z vazifalarini bajarishda qo'llash, aniq harakatlar, psixologik texnikalar, qobiliyatini belgilaydi. Kasbiy ko'nikmalar - bu yaxshi tasdiqlangan, osonlikcha va ishonchli bajariladigan professional harakatlar, bu psixologga ishni samarali bajarishga imkon beradi. Tajriba qancha ko’p bo’lsa, mutaxassis shuncha kasbiy mahoratga ega bo’ladi. Kasbiy vakolat xususiyatlariga bir qator professional imkoniyatlar, professional faoliyat vositalari, texnikasi va texnologiyalarini mukammal egallash, kasbning xususiyati va fazilatlarini belgilaydi.

Research Science and Innovation House

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E. G'oziyev. Psixologiya. Darslik. “O'qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. – 2008 yil.

2. Z.T.Nishanova,G.K.Alimova.Psixologik xizmat. Psixikorrektsiya. Darslik. Toshkent. 2019 yil.OOO”AKTIV PRINT.bosmaxonasida chop etilgan.435 bet.

3.M.S.Tovbayeva. “Umumiy psixodiagnostika”.O’quv qo’llanma. Samarqand 2023 yil. SamDU nashriyoti.174 bet.

4.R.R. Saylaubekovna. et al. The Essence of the Concept of Family Life in Modern Psychology //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 339-342.

5.R.S.Razakova, Narimonovna.Y.I. Bog ‘cha yoshidagi bolalarda xotiraning rivojlanishi //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 196-201.

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

THE IMPACT OF ELONGATION EQUIPMENT ON THE QUALITY OF RING SPINNING YARN

G. Maxmudova
Assistant, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Tursunbayeva Durdona Baxtiyor qizi
Student, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Tursunova Farangiz Furqat qizi
Student, Fergana Polytechnic Institute, Fergana, Uzbekistan

Abstract

The purpose of the elongation process is to reduce the linear density of the product by decreasing the number of fibers in its cross-section through pushing the fibers relative to each other. The essence of stretching is to increase the speed of the fibers' movement and allow them to shift relative to each other, redistributing the fibers.

Keywords: Fiber, movement, spinning, elasticity, breakage, quality, density, flexibility, rubber.

Introduction

The Strategy for Further Development of the Republic of Uzbekistan between 2017-2021 set the objectives of "increasing the competitiveness of the national economy, reducing energy and resource consumption in the economy, and widely introducing energy-saving technologies in production" [1]. In achieving these tasks, it is crucial to develop and implement effective spinning technologies and tools that are based on rational control of the working cylinder rotation speed in cotton industry enterprises. One of the key technological processes in spinning enterprises is the elongation equipment, which is responsible for stretching the sliver.

It is known that during yarn spinning, raw materials are progressively thinned out and ultimately form yarn with the required linear density. Technologically, it is not recommended to stretch and thin the product all at once. Therefore, the spinning process is divided into several stages, with one of the most important and complex

being the stretching and thinning of the product. The purpose of the stretching process is to reduce the linear density of the product by decreasing the number of fibers in its cross-section through relative movement between fibers. The essence of stretching is to increase the movement speed of the fibers, ensuring they shift relative to each other and redistribute.

In the strtching equipment, each front pair rotates faster than the subsequent pair. The speed of the front pair is several times greater than the speed of the last pair, and the product elongates accordingly. As the product elongates, the fibers slide over each other, changing their positions, meaning they become rearranged. As the fibers slide, frictional forces are generated: this force straightens the fiber ends and aligns them parallel to each other. The ratio of the speed of the front cylinder pair to the speed of the rear cylinder pair in the stretching equipment is called the stretching ratio, and this ratio serves as the indicator of stretching.

$$E = \frac{\vartheta_2}{\vartheta_1}$$

Here:

ye – stretching ratio;

v_1 – speed of the rear pair in m/min;

v_2 – speed of the front pair in m/min.

In the stretching process, the weight of the product does not change; as its length increases, its linear density decreases by the same proportion. The ratio of the linear density before and after stretching indicates how many times the product has been elongated.

$$E = \frac{T_K}{T_ч} \cdot d,$$

Here:

- The linear density before stretching (at the entry point) of the product;
- The linear density after stretching (at the exit point) of the product;
- The number of added products
- The simplest stretching device consisting of two pairs of cylinders (1 and 2) and rollers placed on them is shown.

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

The cylinders are driven by a gear transmission, and the rollers convert the force generated between the cylinders into motion. The front pair of cylinders (2) rotates faster than the rear pair (1), and this causes the product-yarn-to stretch. In order for the stretching pairs to engage well with the fibers and fully transfer their speed to them, the cylinders are made with a threaded (ribbed) surface, while the rollers are pressed against the cylinders by external loads or springs. The surfaces of the rollers are made of elastic polymer and rubber materials.

In the stretching process, if the fibers do not slide relative to each other, this type of stretching is called first-order stretching. If, during the stretching process, the fibers slide relative to each other over their entire length, this is called second-order stretching. Currently, only second-order stretching is used in yarn spinning factories for stretching and thinning the product (yarn, thread). The surface where fibers can slide relative to each other is called the stretching zone. The distance between the start and end of the fiber's movement is referred to as the boundary of the stretching zone.

In the stretching zone, the movement of the fibrous product can be divided into two categories: uncontrolled (free) fibers and controlled fibers.




Figure 1. Description of the stretching pairs and the movement of the fibers

The fibrous material (yarn or thread) passing between the stretching pairs in the stretching device is compressed between the cylinder and the roller, creating

frictional forces on their surfaces. The area where frictional forces act between the fibers and between the fibers and the details of the stretching device is called the frictional contact surface.




Figure 2. Frictional Force Surface

For the stretching process to proceed normally, the pressure exerted by the outgoing pair should be greater than the pressure exerted by the incoming pair. This ensures that as the front ends of the fibers in the rear pair's nip fall into the nip of the outgoing pair, the fibers begin to move from the speed of the rear pair to the speed of the front pair.

Rollers: In order for the stretching process to proceed normally and for uniform products to be obtained, the rollers placed on the cylinders must be of high quality and should press the fibers onto the cylinder with normal pressure. Rollers are divided into types based on their elasticity, magnetic properties, and the pressure exerted by their own weight.

The main task of the belts is to regulate the moving fibers in the stretching device and to improve the uniformity of the yarn.

Research Science and Innovation House




Figure 3. Stretching Equipment for Ring Spinning Machines

1 - Yarn, 2 - Rubber coating, 3 - Guide cylinder, 4 - Additional rubber coating, 5 - Spun yarn

Additional rollers are added to the stretching equipment, and special rubber coatings, such as nephron diamond-shaped mesh, are applied to them. These rollers are installed after the variable and fixed rollers (the diameter of the fixed rollers is 0.25 m, and the diameter of the variable rollers is 0.28 m). The stretching zones consist of two stretching zones. The fibers pass through the rollers and the mesh coating, which ensures proper compression of the mesh. Due to the clarity of the gaps in the mesh, small impurities from the yarn are left in the gaps and absorbed by the air. This process helps to improve the stretching process and increases the parallelism of the fibers. It reduces the amount of waste in the yarn by several times compared to previous technological processes, thereby improving the quality indicators of the product (such as strength, smoothness, evenness, breaking length, and neps count). This leads to an improvement in the fiber's quality indicators as well.

Furthermore, this process helps save a certain amount of raw materials, electrical energy, and labor costs, while also increasing efficiency.

Conclusion

Currently, in ring spinning machines, using the elongation equipment improves yarn quality by reducing the number of neps, increasing smoothness, and reducing breakage during stretching. Therefore, enhancing ring spinning machines and implementing high-quality yarn production processes will allow for broader use

of these machines in various sectors. This equipment is already being utilized in the technological production process of Toshkent Textile Group.

References

1. Tanos, P. Pelos, "Spinning Technology and Equipment"
2. Rieter Company, Spinning Equipment Brochure, 1999
3. T.A. G'aniyev, "Labor Protection in the Textile Industry", Uzbekistan, 1995
4. Xasanov B.K., Sodiqova N.R., "Theory and Technology of Preparing Yarns for Weaving", Textbook, "Uzbekistan", 2004

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

CHO'ZILISH - SIQILISHDA STATIK ANIQ MASALALAR USTIDA AMALLAR BAJARISH

B.B. Xasanov
TDTU OF “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi katta o’qituvchisi
R.T. Nurullayev
TDTU OF “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasi assistenti
J.T. Boynazarov
TDTU OF 8bs-23 TM guruh talabasi
S.Y. Yunusov
TDTU OF 8bs-23 TM guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada cho'zilish va siqilishda statik aniq masalalarni hal qilishning asosiy tamoyillari va metodlari ko'rib chiqiladi. Mualliflar statik kuchlanish taqsimotini aniqlash va kuchlanish o'zgarishlarining hisoblash amallarini bajarish bo'yicha nazariy hamda amaliy yondashuvlarni taqdim etishadi. Ishda cho'zilish va siqilish jarayonlarini modellashtirish, matematik hisoblashlarning aniqligini oshirish usullari va ular texnik amaliyotda qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: cho'zilish, siqilish, statik masalalar, mexanik kuchlanish, matematik, modellashtirish, texnik hisoblash.

Research Science and Innovation House


"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

$P = 55kN$
$\ell = 0.3m$

$E = 2 \cdot 10^5 \frac{N}{mm^2}$

$[\sigma] = 72 \frac{N}{mm^2}$

$A = A_1 = A_2 = \frac{A_3}{2}$



1- rasm

Topish kerak ?

A =?

$\Delta\ell$ =?

Π =?


Topilishi kerak

1. Kesish usulidan foydalanib N – bo'ylama kuchlarni hisoblash va epyurasini qurish,
2. Normal kuchlanishlarni hisoblash va epyurasini qurish,
3. Kesimda xosil bo'ladigan ko'chishlarni hisoblash va epyurasini qurish,
4. Cho'zilish – siqilish deformatsiyasining mustahkamlik shartidan foydalanib xavfli kesim ko'ndalang kesim yuzasini hisoblash,
5. Sterjenning bo'sh uchidagi ko'chishning son qiymatini hisoblash,
6. Sterjenning bo'sh uchidagi potensial energiyani xisoblanadi.

Yechish:

1. Sterjenni ixtiyoriy joyidan I-I vertikal tekislik bilan x_1 masofada fikran (xayolan) kesib olamiz va chap tomonini muvozanatda qaraymiz. (1.a – rasm)

Research Science and Innovation House



1.a - rasm


$0 \le x_1 \le \ell$,

Muvozanat tenglamasini tuzamiz.

$\sum F_{xi} = 0 \rightarrow -4P + N_1 = 0$

$N_1 = 4P$ (cho'zilish)

Ikkinchi uchastkani ham II-II vertikal tekislik bilan x_2 - masofada fikran kesib olamiz va chap tomonini muvozanatda qaraymiz. (1.b – rasm)



1.b - rasm


$0 \le x_2 \le \ell$,

$\sum F_{xi} = 0 \rightarrow$

$-4P + 3P + N_2 = 0$

$N_2 = P$ (cho'zilish)

Uchinchi uchastkani xam III-III vertikal tekislik bilan ixtiyoriy x_3 - masofada fikran kesib olamiz va chap tomonini muvozanatda qaraymiz.(1.d – rasm)



1.d - rasm

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

$$0 \le x_3 \le 1.2\ell$$

$\sum F_{xi} = 0 \rightarrow -4P + 3P + 2P + N_3 = 0$

$N_3 = -P$ (siqilish).

Epyurani qurish uchun masshtab tanlaymiz, nollik chiziq o‘tkazamiz va ishorani qabul qilamiz.

Epyura $N-$ qurildi.

2. Normal kuchlanishlarni hisoblaymiz va epyurasini quramiz.

$$\sigma_1 = \frac{N_1}{A_1} = \frac{4P}{A} = 4\,\frac{P}{A}$$

$$\sigma_2 = \frac{N_2}{A_2} = \frac{P}{A}$$

$$\sigma_3 = \frac{N_3}{A_3} = -\frac{P}{2A} = -0{,}5\,\frac{P}{A}$$

Epyurani qurish uchun nollik chiziq o‘tkazamiz, masshtab tanlab olamiz va ishorani qabul qilamiz.

3. Ko‘chishlarni hisoblaganda K nuqtada ko‘chish nolga teng ekanligini inobatga olamiz, chunki K - qo‘zg‘almas nuqta, qolgan kesimlardagi ko‘chishlarni shu nuqtaga nisbatan hisoblaymiz, demak ko‘chishni o‘ng tomondan boshlab hisoblaymiz.

Guk qonuniga binoan.

$$\Delta\ell_3(x_3) = \frac{N_3 x_3}{EA_3}$$

$$(0 \le x_3 \le 1.2\ell)$$

$$x_3 = 0 \rightarrow \Delta\ell_3(0) = \frac{P \cdot 0}{E \cdot 2A} = 0 = \Delta\ell_K$$

$$x_3 = 1.2\ell \rightarrow \Delta\ell_3(1.2\ell) = \frac{-P1.2\ell}{E \cdot 2A} = -0.6\frac{P\ell}{EA} = \Delta\ell_D$$

$$\Delta\ell_2(x_2) = \Delta\ell_D + \frac{N_2 x_2}{E \cdot A_2}$$

Research Science and Innovation House

$(0 \le x_2 \le \ell)$

$$x_2 = 0 \rightarrow \Delta\ell_2(0) = -0{,}6\frac{\mathrm{P}\ell}{EA} + \frac{\mathrm{P}\cdot 0}{E\cdot A} = -0{,}6\frac{\mathrm{P}\ell}{EA} = \Delta\ell_{\mathrm{D}}$$

$$x_2 = \ell \rightarrow \Delta\ell_2(\ell) = -0{,}6\frac{\mathrm{P}\ell}{EA} + \frac{\mathrm{P}\cdot \ell}{E\cdot A} = 0.4\frac{\mathrm{P}\ell}{EA} = \Delta\ell_{\boldsymbol{B}}$$

$$\Delta\ell_1(x_1) = \Delta\ell_{\mathrm{D}} + \frac{\mathrm{N}_1 x_1}{EA_1}$$

$(0 \le x_1 \le \ell)$

$$x_1 = 0 \rightarrow \Delta\ell_1(0) = \Delta\ell_{\mathrm{B}} + \frac{4\mathrm{P}\cdot 0}{E\cdot A} = \Delta\ell_{\mathrm{B}} = 0.4\frac{\mathrm{P}\ell}{EA}$$

$$x_1 = \ell \rightarrow \Delta\ell_1(\ell) = \Delta\ell_{\mathrm{B}} + \frac{4\mathrm{P}\cdot \ell}{E\cdot A} = 0.4\frac{\mathrm{P}\ell}{EA} + \frac{4\mathrm{P}\cdot \ell}{E\cdot A} = 4.4\frac{\mathrm{P}\ell}{EA} = \Delta\ell_s$$

Ko'chishning epyurasini qurish uchun masshtab tanlab olinadi, nollik (neytral) chiziq o'tkaziladi va ishorasi qabul qilinadi.

4. Xavfli kesim 1- uchastka kesimida eng katta normal kuchlanish bo'lganligi uchun, kesim yuzasi doira bo'lgan sterjen ko'ndalang kesimining yuzasi geometrik harakteristikasi o'rnatiladi.

$$\sigma_{\max} = \sigma_1 = 4\frac{\mathrm{P}}{A} \le [\sigma]$$

Tengsizlikning o'ng tomonidan.

$$A \ge \frac{4\mathrm{P}}{[\sigma]} \ge \frac{4\cdot 55\cdot 10^3\, N}{72\frac{N}{mm^2}} \ge \frac{220\cdot 10^3}{72} \ge 3050\ mm^2$$


Ko'ndalang kesim yuzasi doiradan iborat deb qarab.

$$A = \frac{\pi d^2}{4} \ge 3050\ mm^2$$

$$d \ge \sqrt{\frac{4\cdot 3050}{\pi}} \ge \sqrt{3885}\ \mathrm{mm} \ge 62.3mm$$

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869



1.e - rasm

Sterjenning diametrini tanlashda jadvaldan GOST bo'yicha 5 ga karrali son olamiz, amalda keyingi kursda, "Mashina detallari" fanidan kurs loyihasini amalga oshirganda, valning aniq hisobida diametri 5 ga karrali son olinadi, chunki val o'rnatiladigan podshipnikning markasida qo'yilgan yukning qiymatiga qarab, zo'ldorli yoki rolikli bo'lishiga qaramasdan ichki diametri 5 ga karrali son bo'ladi.

Demak,

$d = 65mm$

Sterjenning haqiqiy ko'ndalang kesim yuzasi

$$A = \frac{\pi d^2}{4} = \frac{3.14 \cdot 65^2}{4} = 3316\ mm^2$$

Keyingi hisoblashlarda ushbu yuzani valning kesim yuzasi deb aytilganda, val uchun epyuralar qurilganda, uning xavfsizlik koefitsiyentini tanlaganda tushunmovchilik kelib chiqmaslik uchun yuqoridagi so'zlar takrorlandi.

5. Sterjenning bo'sh uchidagi bajariladigan ko'chish sonini hisoblaymiz.

(1.e - rasm)

$$\Delta\ell_1(\ell) = 4.4\frac{P\ell}{EA} = 4.4 \cdot \frac{55 \cdot 10^3 N \cdot 0.3 \cdot 10^3 mm}{2 \cdot 10^5 \frac{N}{mm^2} \cdot 3316 mm^2} = 0{,}1mm$$

6. Sterjenning bo'sh uchidagi bajariladigan ish yoki potensial energiyani hisoblaymiz.(1.e - rasm)

$$\Pi = \frac{{N_1}^2 \cdot \ell}{2EA} = \frac{(4 \cdot 55 \cdot 10^3 N)^2 \cdot 0{,}3 \cdot 10^3 mm}{2 \cdot 2 \cdot 10^5 \frac{N}{mm^2} \cdot 3316 mm^2} = \frac{(22)^2 \cdot 10^8 \cdot 0{,}3 \cdot 10^3}{13264 \cdot 10^5} =$$

$= 0{,}1090 \cdot 10^5 Nmm = 10{,}9\ Nm = 11$J ish bajarildi.

ADABIYOTLAR

1. Белявский С.М. (1967) Руководство к решению задач по сопротивлению материалов

2. Биргер И.А., Мавлютов Р.Р. (1986) Сопротивление материалов

3. Вольмир А.С. (1984) Сборник задач по сопротивлению материалов

4. Erkin Nematov, Mukhiddin Khudjaev, Botir Khasanov. Development of a mathematical model of dynamic characteristics of a drive with a planetary mechanism. E3S Web of Conferences 258, 08022 (2021). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125808022

5. Mukhiddin Khudjaev, Erkin Nematov, Anorgul Karimova, Doston Khurramov, Botir Khasanov. Modeling the process of force load generation at the initial periodic change in pressure (a plane problem). E3S Web of Conferences 258, 08020 (2021). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202125808020.

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

O‘simliklarning yovvoyi turlaridan madaniy turlarni ko‘paytirish.

Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiy fanlar fakulteti dotsenti
Tojiboyev Murodali Umaraliyevich.
Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiy fanlar fakulteti, Biologiya yo‘nalishi
3-kurs talabasi **Botirov mashhurbek diyorbek o‘g‘li**
(botirovmashhurbek2108@gmail.com).
Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiy fanlar fakulteti, Biologiya yo‘nalishi
1-kurs talabasi **Ozodbekov Abduqodir Sherzodbek o‘g‘li**
(Ozodbekovabduqodir1@gmail.com).

Annatotsiya: Ko'payish barcha tuban va yuksak o'simliklar uchun xosdir. Bu jarayon bir va ko'p hujayrali suvo'tlari(spirogira, vosheriya, valoniya va boshqalar)da zamburug' va lishayniklar tanasining regeneratsiyasiga qarab tananing bir necha bo'laklarga bo'linib ketishi yoki yuksak o'simliklarda, ildizpoya, bachki, piyozbosh, tugunak kabi organlarga yuzaga kelishi, shuningdek tananing ayrim qismlaridan bir butun o'simlik paydo bo'lish xususiyatiga asoslangan.

Kalit so‘zlar: payvandtag, payvandust, qalamcha, gameta, generativ, vegetativ, yovvoyi tur, madaniy tur, yangi nav.

Ключевые слова: привой, привой, перо, гамета, генеративный, вегетативный, дикий тип, культурный тип, новый сорт.

Key words: graft, graft, pen, gamete, generative, vegetative, wild type, cultivated type, new variety.

Yuksak, ya'ni yopiq urug'li o'simliklarda, vegetativ ko'payishning bir necha turi(masalan, tabiiy sharoitda ildizpoya, bachki, piyoz, tugunak, ajratuvchi kurtaklar va boshqalar) uchraydi. Vegetativ ko'payish o'simliklar olamida katta ahamiyatga ega. Bog'dorchilikda uning qalamcha va kurtak payvand usullari qo'llaniladi. [5]

Parxish usuli. Bunda novdalar o'simlik organizmidan ajralmay turib, ildiz oldirish yo'li bilan ko'payadi. Bu usul mevachilikda keng qo'llaniladi. Parxish yo'li bilan olma, anor, ko'ksulton, uzum, anjir va boshqa o'simliklar ko'paytiriladi. Meva daraxtlarni parxishlab ko'paytirish uchun uning novdasini qayirib yerga yotqizib ko'miladi. Novdasining 3 qismi yerdan chiqib turishi va yerga ko'milgan qismining po'sti bir necha joyidan shilingan bo'lishi ma’qul. Chunki, shu tilingan joyidan ildiz hosil bo’ladi. Parxish qilinadigan joyning tuprog’I unumdor, shudgor qilingan, muzlamagan bo’lgani ma’qul.[4]

O'simlikning ildiz bachkilari orqali ko'payishi ularning sun'iy usulda tez ko'paytiradi. Bundan tashqari, o'simlikning ildiz tizimi biror bir tabiy sabab bilan sun'iy ravishdagi jarohatlantirilsa, ildizning shu jarohatlangan yerida ildiz bachkilari hosil bo'lib, ildizdan yer usti novdasi chiqadi va ma’lum vaqtdan so'ng mustaqil o'simlikka aylanadi. Yer bag'irlab o'sadigan o'simlik poyalari (qulupnay, ayiqtovon, sebarga, tok) va boshqalarga chirmashib o'sishga moslashgan o'simliklar yordamida ko'payadi. Tabiatda va o'simlikshunoslik tajribasida ko'pgina yopiq urug'li o'simliklarning piyozi, tugunak piyozi, ildizpoyasi yordamida ko'payishi tasdiqlangan. Masalan, piyoz, lola, sarimsoq,sumbula, Lilia singari o'simliklar piyozi orqali, kartoshka,topinambur kurtagi, g'umay, ajriq, kanna va boshkalar ildizpoyasi yordamida yordam ko'payadi. O'simlikshunoslik va gulchilikda tugunak, ildizpoya va piyozboshlarini bo'lish yo'li bilan ko'paytirish usullari ishlatiladi. Bu usullar o'simlikshunoslik va gulchilikka bag'ishlangan maxsus kitoblar va qo'llanmalardalarda maxsus yoritilgan. [3,4]

Qalamcha. O’simliklarni qalamchalardan foydalanib ko’paytirish, o’simlikshunoslikda muhim ahamiyatiga ega. O’simliklarni novdasidan qirqib tayyorlangan va o’stirish uchun xizmat qiladigan qismi qalamcha deb yuritiladi. Qalamcha usulida koxpaytirishda o’simlikning qayta tiklanish xususiyiyati e’tiborga olinadi. Novda yoki poya qalamchasidan mustaqil o’simlik hosil bo’lishida, qutblilik qonuniyati asosiy rol o’ynaydi.Odatda, qalamchaning uch tomonida yangi novdalar va tub qismida esa ildizlar xosil bo’ladi.Bu qonuniyat yetilgan o’simlik uchun qay darajada taalluqli bo’lsa, novdalar uchun ham shu darajada taalluqli. Qalamchalar o’simlikning novdasi, ildizi yoki bargidan olinishi mumkin. Novda qalamchalaridan foydalanish insonning xo’jalik faoliyatida eng keng tarqalgan usullardan hisoblanadi. Novda qalamchalari bizning sharoitimizda 30-40 sm uzunlikda tayyorlanib, uning kamida 5-7 ta kurtagi bo’lishi kerak. O’simlikshunoslikning rivojlanishi tufayli qalamchalarning tez ildiz olishi uchun o’stiruvchi kimyoviy modda, ya’ni geteroauksindan keng foydalaniladi. U modda kelib chiqishiga ko’ra, fitogormon hisoblanib, mog’or zamburug’idan olinadi. Bu modda tirik hujayralarni faollashtiradi va qalamchaning qo’shimcha ildiz xosil bo’lishini tezlashtiradi. O’sish qobiliyatini kuchaytiruvchimoddakar odatda eritmalar holida bo’ladi. Shu maqsadda kuchsiz geteroauk eritmasiga o’simlikning turiga qarab 2 soatdan 48 soatga qadar botirib qo’yiladi. So’ng joyidan olinib, toza suv bilan chayqaladi va nam yerga

o’tqaziladi. Ayrim hollarda qalamchalarni bahorga qadar qumga yoki tuproqqa ko’mib qo’yiladi, ko’klam kelishi bilan ochiq yerga ekiladi.

Payvandlash – deb o’simlikning kurtagi yoki kurtaklari bor kismini o’simlikka ko’chirib o’kazishga aytiladi. O’tqaziladigan o’simlik payvandust, payvand qilinadigan o’simlik esa payvandtak deb yuritiladi. Payvand qilingan o’simlikda payvandust mustaqil hayot kechirmay, balki suv va suvda erigan oziqni payvandtakdan oladi. Shu tariqa yerdan olingan suv va barcha ozuqa bilan payvandtak ta’minlaydi, fotosintez jarayoni tufayli hosil bo’ladigan organik moddalar bilan esa payvandust ta’minlaydi. Payvandlashning qo’shpayvand qo’ndirma payvand, yorma payvand, kurtak payvand kabi turlari mavjud. Qo’shpayvand qilinganda yaqin turgan ikki tub o’simlikning novdalari tanasidan qirqib olinadi va bir-biri bilan qoxshib o’stiriladi. Har ikkala o’simlikning yonma-yon turgan novdalari bir-biriga tegib turgan yerida eniga va bo’yiga teng qilib yon tomondan qirqiladi va bir-biri bilan birlashtirib bog’lanadi. Payvandust bo’lishi lozim bo’lgan novdaning kesilgan qismining qarshisida o’sish kurtagi bo’lishi kerak. Novdalar butun yoz davomida bog’langan holda bo’ladi. Kuzga kelib bo’lingan joyning ingichkaroq, payvandustning esa qo’shilgan joyidan past kismi tashlanadi. Natijada, payvandustda xosil bo’lgan novda payvandtakdan suv va oziq moddalar ola boshlaydi va tez o‘sadi. Payvand – bir o’simlik qalamchasini, o’simlik tanasiga o’tqazishdan iboratdir. Bu usul bilan payvand qilinganda payvandust bo’lib qalamcha, payvandtag bo’lib esa oxsib turgan o’simlik hizmat qiladi. Payvandtag va payvandust shunday kesilishi kerakki, ularning kesilgan va bir-biri bilan birlashtirilgan joyi bir-biriga mos kelishi shart, bunda payvandtak bilan payvandust bir-biri bilan zich qilib birlashtiriladi va bog’ab qo’yiladi. Agar payvantak payvandustga nisbatan yo’g’on bo’lsa, payvandtak yoriladi va payvandust uning po’stlog’I ostiga qo’yiladi va o’rab bog’lanadi. Bu usulni yorma payvand deb atashadi. [1]

Kurtak payvand. Kurtak payvand payvandtakka boshqa bir o’simlik kurtagini ozgina po’stloq qismi bilan olib o’tkazish yo’li bilan amalga oshiriladi. Bunday qilish uchun, olinadigan kurtak odatda o’simlikning uch qismidagi o’suvchi novdalardan biroz po’stlog’I va nihoyatda yupqa yog’ochlik qismi bilan kesib olinadi. Bu usul mevachilikda va gulchilikda nihoyatda keng foydalaniladi. Paivandning har qanday turida ham har ikkala o’simlik xususiyatlari hisobga olinadi.Ayniqsa qalamcha yoki kurtak olinadigan novdaning yoshi va uning

o’simlikdagi holati muhim ahamiyatga ega. Bog’dorchilik va gulchilikda payvand qilish uchun ishlatiladigan qalamcha va kurtaklar sog’lom va meva berib turadigan o’simlik turlaridan foydalanish kerak. Payvandlashning natijasi payvand qiluvchi bog’bonning mohirligiga va payvand qilinadigan o’simliklarning o’zaro qarindoshlik xususiyiyatiga bog’liq. Bir turga mansub o’simlikning bir navi uning boshq navi bilan osonlikcha payvand qilinadi. Turlararo va ayniqsa har xil turkumga mansub o’simliklarni payvand qilish ancha qiyin. Ayniqsa, har xil oilalarga mansub o’simliklarni payvand qilish hozircha hech qanday natija bergan emas. Bir oilaga mansub o'simlik turlari va turkumlarini bir-biri bilan payvand qilib yaxshi natijalarga erishish mumkin. Masalan, ituzumdoshlar oilasiga mansub kartoshka, pomidor, qalampir, tamaki va boshqalarni bir-biri bilan (yoki qovoqdoshlar oilasiga mansub bodring, qovun, tarvuz, boshqovoq va boshqalar bir-biri bilan) payvand qilinsa ular normal ravishda meva beradi [2]. Xuddi shunday xususiyiyatni dukkakdoshlar va atirguldoshlar oilalariga mansub o'simliklarda ham amalga oshirish mumkin. O'simliklarning jinssiz ko'payishi. Jinssiz ko'payish spora va zoosporalar yordamida amalga oshadi. Sporalar orqali kupayish natijasida vujudga kelgan o'simlik biror bir hujayra yoki o'simlikning bir-biri bilan qo'shilishi orqali emas, balki bir jinsga taalluqli o'simlikda sodir buladi. Quruqlik o'simliklarining sporasi harakatsiz, suv o'simliklarining sporasi harakatchan bo'lib, maxsus harakat organlari orqali suvda siljib yurish qobiliyatiga ega buladi. Spora va zoosporalar ona tanasidagi maxsus to'qima va hujayralardagi sporangiy va zoosparangiy deb nomlanadigan organlarda vujudga keladilar. Bu organlar o'simliklarning taraqqiyot darajasiga qarab bir yoki ko'p hujayrali bo'lishi mumkin. Bir hujayqrali sporangiy va zoosparangiylar zamburug' va suv o'tlarida, ko'p hujayrali sporangiy va zoosparangiylarni esa yuksak darajasida tuzilgan yo'sinlar, qirquloqlar va boshqa o'simliklarda kuzatish mumkin. Sporangiylarda har bir o'simlikning o'zi uchun xos xususiyiyatga ega bo'lgan sporalar xosil bo'ladi.Sporangiy va sporalarning turli-tuman xillarini zamburug'larda ko'rish mumkin. Ayrim zamburug'larda sporalar sporangiylarda hosil bo'lmasdan, balki metselliy va giflarning uchlarida taraqqiy etadi. Spora xosil qiladigan giflar konidiyasporangiylar deb, sporalari esa konidiyasporalar deb yuritiladi. Spora va zoosporalar reduksion bo'linish natijalari hisoblanadi va gaploid(n) xolatda bo'ladi. Ular bir xujayrali xosilalardir. Sporalarning sitoplazmasi zaxira moddalarga boy, tarkibida oqsil va yog'lar ko'p bo'ladi. Sporaning usti qalin, mum va kutin bilan shimilgan. Ona o'simlikdan

ajralgan sporalar qulay muxitga tushishi bilan unib, undan vujudga kelgan o'simlik ham gaploid (n) bo'ladi. Sporalar mikroskopik kichik, oddiy ko'z bilan ko'rib bolmaydigan sariq-qo'ng'ir qoramtir rangli chang tusida. Har bir o'simlikning o'ziga xos morfologik tuzilish sporasi mavjud bo'lib, bu sporaning ma’lum rivojanish fazasida xosil buladi. [3]

O’simliklarning jinsiy ko’payishi. Ikki jinsiy gametaning qo’shilishi natijasida zigota hosil bo’ladi va uning xromosomato’plami diploid (2n) tipda bo’ladi. Har xil o’simliklarda gametalar qo’shlish jarayoni turli tipda ro’y beradi.Tuban o’simliklar va suvo’tlarining gametalari harakatchan. Ularning ko’pchiligida jinsiy gametalarning shakli va katta-kichikligi bir xil. Izogametalar(bir xil gametalar)ning qo’shilishi bilan sodir bo’ladigan jarayon izogamiya jarayoni deb yuritiladi. Izogamiya jarayonini yashil suv o’tlaridan ulotriks misolida ko’rish mumkin.Suv o’tlarining ma’lum vakillari gametasi tashqi ko’rinishi va harakatiga qarab bir-biridan farq kiladi. Masalan, bir hujayrali xlamidomonada o’simligining urg’ochi gametasi erkak gametaga nisbatan yirikroq va harakatsiz, erkak gametasi esa kichik va urrochi gametaga nisbatan harakatchan. Bunday gametalar geterogametalar deb yuritiladi. Gaterogametalarning qo’shilishi bilan sodir bo’ladigan otalanish jarayoni geterogamiya jarayoni deb yuritililadi. Yuksakroq suvo’tlarda urg’ochi gameta harakatsiz va erkak gametaga nisbatan katta, xivchinsiz va zaxira oziq moddaga boy bo’ladi. Bu shakldagi urg’ochi gameta oogameta, erkak gameta esa spermatozoid deyiladi. Ularning o’zaro qo’shilishi natijasida sodir bo’ladigan jinsiy jarayon – oogamiya deb yuritiladi. Spermatozoidlar xosil bo’ladigan gameta anterediy deb yuritiladi. Oogametalar xosil bo’ladigan gameta esa oovogoniy deb yuritiladi. Anteridiyda odatda, ko’p sonli spermatozoidlar, oogoniyda esa aksariyat xollarda, bitta urg’ochi gametaning tuxum hujayrasi taraqqiy etadi. Jinsiy yo’l bilan ko’payish jarayoni o’simliklar olami evolutsiyasida muxim axamiyatga ega. Chunki jinssiz yo’l bilan ko’payish natijasida vujudga keladigan yangi organizmda faqat bir organizmning irsiy xususiyati, jinsiy yo’l bilan ko’payganda esa yangi vujudga kelgan organizm ikkita xujayraning qo’shilishi natijasida vujudga kelgan bo’lib,unda har ikki organizmning irsiy xususiyiyatlari mujassamlashgan bo’ladi. Binobarin, jinsiy hujayralarning qo’shilishi natiasida bunyodga kelgan organizmga har ikkala hinsning muhitga moslanish xususiyatlari ham o’tadi. Bunday organizm muxitning har qanday noqulay sharoitlariga bardosh bera oladi.[3]

O‘simliklarning ko‘payish usullarini olib chiqishimizdan maqsad bog‘dorchilik hamda yangi navlar yaratishda yovvoyi turlardan foydalanish usullarini tadbiq etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.S.M.Mustafoyev "Botanika" Toshkent-2002
2.M.I.Ikromov, X.N.Normurodov, A.S.Yuldashev "Botanika" Toshkent_2002
3.A.S. Dariyev, T.A. Madumarov, E.Y. Ro'zmatov "Botanika" Toshkent-2012
4.Teshaboyeva, M., Mamanazarov, B., & Sayramov, F. (2022). LAMIACEAE OILASINING ZIRAVORLIK XUSUSIYATIGA EGA TURLARI. Science and Innovation, 1(D8), 509-514.
5.M.U. Tojiboyev, M.D. Botirov, O.Sh Samatov “Ochiq urug’lik o’simliklar” Journal of science-innovative research in Uzbekistan Том 2. Номер 5. b 94-101

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

ISLOM MOLIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI VA O'ZBEKISTONDA TATBIQ QILISH

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

BASIC PRINCIPLES OF ISLAMIC FINANCE AND IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN

Jumayev Avazbek
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Bank ishi talabasi
avazbek20031111@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom moliyasining asosiy tamoyillari, uning zamonaviy moliya tizimidagi o'rni va O'zbekistonda joriy etish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida islom moliyasi instrumentlarini O'zbekiston moliya bozoriga integratsiya qilishning optimal yo'llari aniqlangan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom banking, sukuk, murabaha, mudaraba, ijara, takaful, halol investitsiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются основные принципы исламских финансов, их место в современной финансовой системе и перспективы внедрения в Узбекистане. В результате проведенного исследования определены оптимальные пути интеграции исламских финансовых инструментов на финансовый рынок Узбекистана.

Ключевые слова: исламские финансы, исламский банкинг, сукук, мурабаха, мударaба, аренда, такафул, халяльные инвестиции.

Abstract: This article analyzes the basic principles of Islamic finance, its role in the modern financial system and the prospects for its introduction in Uzbekistan. As a result of the study, optimal ways to integrate Islamic finance instruments into the Uzbek financial market have been identified.

Keywords: Islamic finance, Islamic banking, sukuk, murabaha, mudaraba, rent, takaful, honest investments.

KIRISH

Zamonaviy global moliyaviy tizimda islom moliyasi tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu o'sish nafaqat musulmon davlatlarda, balki G'arb mamlakatlarida ham kuzatilmoqda. Global islom moliyasi aktivlari 2023-yilga kelib 3,9 trillion AQSH dollarini tashkil etdi va 2025-yilga borib 4,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda [1]. Islom moliyasi institutlari faoliyati shariat qonun-qoidalariga asoslangan bo'lib, ular an'anaviy moliya institutlaridan bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha qator amaliy qadamlar tashlandi. 2021-yilda "Islamic Development Bank" va O'zbekiston hukumati o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi. 2022-yilda esa "O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish strategiyasi" ishlab chiqildi [3]. Bu sa'y-harakatlar mamlakatimizda islom moliyasi xizmatlariga bo'lgan talabning yuqoriligidan dalolat beradi.

Islom moliyasi instrumentlarini joriy etish orqali O'zbekiston moliya tizimini diversifikatsiya qilish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Biroq bu jarayonda milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olish va tizimli yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil usullariga asoslangan. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganildi.

Ahmed va boshqalar [2] islom moliyasini an'anaviy moliyadan farqlovchi besh asosiy tamoyilni ajratib ko'rsatadi: ribo (foiz)ning taqiqlanishi, g'arar (noaniqlik) va mayser (qimor)ning man etilishi, aktivlarga asoslangan moliyalashtirish, daromad va zararni taqsimlash, halol faoliyat turlari.

Bekmuxamedova [3] O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Islom moliyasining asosiy instrumentlari tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida murabaha (tovarlarni bo'lib-bo'lib sotish) va ijara (lizing) eng istiqbolli moliyaviy vositalar hisoblanadi [4]. Murabaha mexanizmi orqali korxonalar aylanma mablag'larini moliyalashtirish, ijara esa asosiy vositalarni yangilash uchun qulay imkoniyat yaratadi. Bu instrumentlar O'zbekiston qonunchiligiga nisbatan oson moslashtirilishi va amaliyotga joriy etilishi mumkin.

Sukuk (islomiy obligatsiyalar) emissiyasi orqali davlat va korporativ moliyalashtirish imkoniyatlari mavjud [5]. AAOIFI standartlariga ko'ra, 14 turdagi sukuk mavjud bo'lib, ulardan ijaraga asoslangan sukuk al-ijara eng keng tarqalgan [6]. Sukuk emissiyasi O'zbekiston uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qilishi, Xalqaro islom moliya bozorlaridan mablag' jalb qilish imkoniyatini yaratishi mumkin. Sukuk instrumentini joriy etish uchun dastlab tegishli qonunchilik bazasini shakllantirish, keyin esa bosqichma-bosqich davlat va korporativ sukuk chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Takaful (islomiy sug'urta) bozorini rivojlantirish orqali aholining keng qatlamlarini sug'urta xizmatlaridan foydalanishga jalb etish mumkin [7]. Takaful tizimi o'zaro yordam va hamkorlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, an'anaviy sug'urtadan farqli ravishda, ishtirokchilar o'rtasida tavakkalchiliklar taqsimlanadi. O'zbekistonda takaful xizmatlarini joriy etish uchun alohida qonunchilik bazasi, malakali kadrlar va rivojlangan infrastruktura talab etiladi.

Islom moliyasining yana bir muhim instrumenti mudaraba (sherikchilik) bo'lib, u orqali investitsion loyihalarni moliyalashtirish mumkin. Mudaraba shartnomasi asosida bir taraf (rab-ul-mol) mablag' kiritsa, ikkinchi taraf (mudarib) o'z bilimi va tajribasini qo'shadi. Foydani taqsimlash oldindan kelishilgan nisbatda amalga oshiriladi, zarar esa faqat mablag' egasi tomonidan qoplanadi.

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanishi lozim:

Birinchidan, maxsus qonunchilik bazasini shakllantirish zarur. Bu jarayonda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani inobatga olish, milliy qonunchilikka islom moliyasi instrumentlarini tartibga soluvchi normalarni kiritish talab etiladi.

Ikkinchidan, malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish muhim. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida islom moliyasi yo'nalishlarini ochish, xorijiy ekspertlarni jalb etish, o'quv dasturlarini takomillashtirish lozim.

Uchinchidan, islom moliyasi institutlarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiq. Dastlab islom "oynalari" (an'anaviy bank ichida islomiy xizmatlar ko'rsatuvchi bo'lim), keyinchalik esa to'laqonli islom banklari va boshqa moliya institutlarini tashkil etish mumkin.

To'rtinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur [8]. Islamic Development Bank, AAOIFI kabi xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash, tajriba almashish va texnik ko'mak olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom moliyasini joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat: huquqiy bazaning yetarli emasligi, malakali kadrlar yetishmasligi, aholi o'rtasida islom moliyasi to'g'risida ma'lumot kamligi, an'anaviy moliya institutlari tomonidan raqobatning kuchayishi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi.

Islom moliyasi instrumentlarining O'zbekistondagi istiqbollarini baholash maqsadida quyidagi tahliliy jadvallarni keltiramiz:

Jadval 1.

O'zbekistonda islom moliyasi instrumentlarini joriy etish imkoniyatlari tahlili

Instrument turi	Joriy etish imkoniyati	Huquqiy baza mavjudligi	Talab darajasi
Murabaha	Yuqori	Qisman mavjud	Yuqori
Ijara	Yuqori	Mavjud	O'rta
Sukuk	O'rta	Mavjud emas	Yuqori
Takaful	Past	Mavjud emas	O'rta
Mudaraba	O'rta	Qisman mavjud	Past

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, murabaha va ijara instrumentlarini joriy etish uchun O'zbekistonda nisbatan qulay sharoit mavjud. Bunda mavjud qonunchilik bazasi va bozor talabi muhim rol o'ynaydi. Sukuk va takaful uchun esa maxsus huquqiy baza yaratish talab etiladi.

Jadval 1.2.

Islom moliyasi instrumentlarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Murabaha	Ijara	Sukuk	Takaful
Risk darajasi	Past	Past	O'rta	O'rta
Daromadlilik	12-15%	15-18%	8-10%	10-12%
Likvidlik	Yuqori	O'rta	Yuqori	O'rta
Implementatsiya xarajatlari	Past	O'rta	Yuqori	Yuqori

Ikkinchi jadval ma'lumotlari asosida aytish mumkinki, murabaha va ijara instrumentlari nisbatan yuqori daromadlilik va past risk darajasi bilan ajralib turadi. Sukuk va takaful esa yuqori implementatsiya xarajatlarini talab qiladi, ammo uzoq muddatda barqaror daromad keltirishi mumkin.

Ushbu tahlillar asosida O'zbekistonda islom moliyasi instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda murabaha va ijara instrumentlarini, keyingi bosqichlarda esa sukuk va takaful kabi murakkab instrumentlarni joriy etish tavsiya etiladi. Bu yondashuv bozor ishtirokchilari uchun moslashuv davrini ta'minlaydi va tavakkalchiliklarni kamaytiradi.

Islom moliyasi instrumentlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini baholash natijasida quyidagi ijobiy omillar aniqlandi:

Birinchidan, islom moliyasi xizmatlarining joriy etilishi moliyaviy inklyuzivlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining taxminan 25 foizi an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanmaydi [4]. Islomiy moliyaviy mahsulotlar taklif etilishi bu qatlamni rasmiy moliya sektoriga jalb qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, islom moliyasi instrumentlari real sektor korxonalarini moliyalashtirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Murabaha va ijara mexanizmlari orqali ishlab chiqarish korxonalari o'z aylanma mablag'larini to'ldirish va asosiy vositalarini yangilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, sukuk instrumentini joriy etish davlat va korporativ moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi. Global sukuk bozorining hajmi 2023-yilda 700 mlrd dollarni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega [5].

Islom moliyasi rivojlanishining asosiy to'siqlari ham mavjud:

1. Huquqiy bazaning yetarli emasligi - islom moliyasi instrumentlarini tartibga soluvchi maxsus qonunlar mavjud emas.
2. Kadrlar masalasi - islom moliyasi sohasida malakali mutaxassislar yetishmaydi.
3. Infrastruktura muammolari - shariatga muvofiq auditni amalga oshiruvchi tashkilotlar, reyting agentliklari va boshqa zarur institutlar mavjud emas.
4. Raqobat muhiti - an'anaviy moliya institutlari tomonidan kuchli raqobat mavjud.

O'zbekistonda islom moliyasi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. **2025-yilgacha bo'lgan davrda:**
   - Huquqiy bazani shakllantirish
   - Islom "oynalari"ni ochish
   - Kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish
2. **2025-2030-yillar:**
   - To'laqonli islom banklarini tashkil etish
   - Sukuk emissiyasini boshlash
   - Takaful xizmatlarini joriy etish
3. **2030-yildan keyin:**
   - Islom moliyasi ekotizimini to'liq shakllantirish
   - Xalqaro islom moliya markaziga aylanish
   - Innovatsion islom moliyasi mahsulotlarini ishlab chiqish

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun zarur potensial mavjud. Bu jarayonda tizimli yondashuv va bosqichma-bosqich strategiya muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribani o'rganish va milliy xususiyatlarni hisobga olish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

XULOSA

Islom moliyasi instrumentlarini O'zbekiston moliya tizimiga integratsiya qilish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga xizmat qiladi. Biroq bu jarayonda milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olish va bosqichma-bosqich yondashuv zarur.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi instrumentlarini O'zbekiston moliya tizimiga integratsiya qilish iqtisodiyotni

diversifikatsiya qilish va moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, islom moliyasi zamonaviy global moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Global islom moliyasi aktivlari hajmining barqaror o'sishi va geografik qamrovining kengayishi bu sohaning istiqbolli ekanligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish uchun zarur potensial mavjud. Bunda demografik omillar, aholi talabi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda bu yo'nalishda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro shartnomalar islom moliyasi rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratmoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston sharoitida murabaha va ijara instrumentlari eng istiqbolli hisoblanadi. Bu instrumentlar mavjud qonunchilikka nisbatan oson moslashtirilib, amaliyotga joriy etilishi mumkin. Shuningdek, sukuk va takaful instrumentlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali moliya bozorini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Islom moliyasini rivojlantirish jarayonida qator muammolar mavjud. Bular jumlasiga huquqiy bazaning yetarli emasligi, malakali kadrlar yetishmasligi, infrastruktura muammolari va boshqalar kiradi. Bu muammolarni hal etish uchun kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish talab etiladi.

Shuningdek xalqaro tajriba o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakatlar bosqichma-bosqich strategiyani qo'llagan. O'zbekiston uchun ham bu yondashuv maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Islom moliyasini O'zbekistonda rivojlantirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda maxsus qonunchilik bazasini shakllantirish;
2. Kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va xalqaro ekspertlarni jalb etish;
3. Islom moliyasi institutlarini bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish;
4. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va tajriba almashishni yo'lga qo'yish;

5. Islom moliyasi instrumentlari to'g'risida aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish;

6. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda islom moliyasi xizmatlarini raqamlashtirish.

Ushbu tavsiyalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda islom moliyasining barqaror rivojlanishiga, moliya bozorining diversifikatsiyalashuviga va pirovard natijada iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq bu jarayonda milliy iqtisodiyot xususiyatlarini hisobga olish va bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, shuningdek, tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish jarayonida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islamic Financial Services Board. (2024). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023. Kuala Lumpur: IFSB.

2. Ahmed.H., Asutay. M., & Wilson.R. (2023). Islamic Banking and Financial Crisis. Edinburgh: Edinburgh University Press.

3. Bekmuxamedova.X. (2023). O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish istiqbollari. Moliya va bank ishi, 2(1), 45-52.

4. Hassan.M. K., & Lewis. M. K. (2023). Handbook of Islamic Banking. Edward Elgar Publishing.

5. Бахромов.А. (2023). Исламские облигации сукук: особенности и перспективы внедрения в Узбекистане. Экономика и финансы, 3(2), 78-85.

6. AAOIFI. (2024). Shari'ah Standards. Manama: AAOIFI.

7. Рахимов.З. (2023). Такафул-страхование в Узбекистане: возможности и перспективы. Рынок, деньги и кредит, 1(2), 112-120.

8. Zulkhibri.M., & Ismail.A. G. (2023). Financial Inclusion and Islamic Finance. Palgrave Macmillan.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL MUFASSAL FI SAN’ATIL I’ROB” VA “MUQODDIMAT UL-ADAB” ASARLARIDAGI NAFIS USLUBLAR

Faxrutdinova Nodirabegim Jasur qizi
Tosh.Yangi Asr Universiteti.Filologiya va tillarni o‘qitish (ShMT) 101.24.T. 1-kurs talabasi
ummumanzura@gmail.com +998 90 347 93 39
Ilmiy raxbar: Yuldashxo‘jayev X.X.

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Mahmud Zamaxshariyning asarlari, ular haqida ma’lumotlar, yozilish uslubi va tasnifi, hozirgi kundagi ahamiyati, foydalari haqida keltirilgan. “Al Mufassal” va “Muqaddimat ul-adab” kitoblarining o‘ziga xos jihatlari uslub va xususiyatlari, nashri va tarjima qilingan nusxalari haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar:mufassal, qit’a, nahv, sarf, bob, tamoyil, samiym, unmuzaj

ЭЛЕГАНТНЫЕ СТИЛИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МАХМУДА АЗ-ЗАМАХШАРИ “АЛЬ МУФАССАЛЬ ФИ САНЪАТИЛЬ ИРАБ” И “МУКАДДИМАТ УЛЬ-АДАБ”

Аннотация. В данной статье представлены произведения Махмуда Замахшари, внесшего большой вклад в развитие арабского языка, сведения о них, их стиле письма и классификации, а также их значение и преимущества сегодня. Представлены конкретные аспекты и характеристики книг “Аль Муфассаль” и “Мукаддимат уль-Адаб”, их издания и переводных экземпляров.

Ключевые слова: mufassal, qit’a, nahv, sarf, bob, tamoyil, samiym, unmuzaj

ELEGANT STYLES IN THE WORKS OF MAHMOUD AL-ZAMAKHSHARI "AL MUFASSAL FI SAN'ATIL I'RAB" AND "MUQADDIMAT UL-ADAB"

Abstract. This article presents the works of Mahmoud Zamakhshari, who made a great contribution to the development of the Arabic language, information about

them, their writing style and classification, and their importance and benefits today. The specific aspects and characteristics of the books “Al Mufassal” and “Muqaddimat ul-Adab”, their publication and translated copies.

Keywords: mufassal, qit’a, nahv, sarf, bob, tamoyil, samiym, unmuzaj

الأساليب البالغة في "المفصل في صنعة الإعراب " و المقدّمة الأدب" لمحمود الزمخشري"

ملخّص

هذه المقالة جمع في نفسها أعمال الملاحة محمود الزمخشري الذي أسهم في تطوير اللغة العربية و المعلومات العلمية عنها و أسلوب كتابتها و تصنيفها و أهمّيتها اليوم و فائدتها في تعليم اللغة العربية.و مع ذلك نمثّل عن كتابة الآثار "المفصل في صنعة الإعراب " و المقدمة الأدب" و خصيصتهما و نشرهما و نصخ الذين ترجموا في هذا الباب

الرئيسية الكلمات: mufassal, qit’a, nahv, sarf, bob, tamoyil, samiym, unmuzaj

Til-jamiyat a’zolarining ongida mavjud bo‘lib, ularning barchasi uchun tayyor, umumiy, majburiy bo‘lgan, fikrni shakllantirish va uni ifodalashga xizmat qiladigan birliklar va ularning o‘zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlar yig‘indisidir. Kishilik jamiyati til bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, til yordamida ular o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Til nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tadigan irsiy hodisa emas, balki jamiyat taraqqiyotining mahsulidir.

Arab tili – Somiy tillar guruhining janubiy tarmog‘iga mansub tildir. Yaqin va O‘rta Sharq hamda Afrika shimolidagi yigirmadan ortiq mamlakatning rasmiy davlat tili hisoblanadi. Arab tilida 300 mln. dan ortiq aholi gaplashadi.

Bizga qadimiy Arab tili miloddan avvalgi 5 – 4-asrlarga taalluqli obidalar orqali ma’lumdir. U mumtoz arab tilining paydo bo‘lishiga zamin bo‘lgan. Mumtoz arab tilining leksik va grammatik shakllanishi V - VII - asrlar, shoirlarining og‘zaki ijodlarida namoyon bo‘la boshlagan. Arab tarjimashunosligi tamoyillariga oid ko‘plab adabiyotlar “Arab adabiyoti” kutubxonasida VII-XIX asrlarda arab adabiyotining muhim asarlarini arabcha nashrlari va inglizcha tarjimalari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Shu qatorda Xorazmda tug‘ilib, sharqda “Ustod ul-arab val-ajam” ya‘ni “Arablar va arab bo‘lmaganlar ustozi”, “Xorazm faxri” kabi sharafli nomlarga sazovor bo‘lgan O‘rta Osiyolik allomalardan biri-Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariydir. U dastlabki bilimini Zamaxsharda-o‘z ota-onasidan oladi, xat-savodli bo‘ladi. Mahmud o‘z bilimini

oshirish,ilm bobida mukammal bo‘lish maqsadida Xorazmga (Urganchga, so‘ng ra esa Buxoroga) yo‘l oladi. Ushbu shaharlardagi madrasalarda o‘zining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshiradi. Bilimni yanada chuqurlashtirish maqsadida Isfaxon, Bog‘dod, Makka, Marv, Nishopur, Shom, Hijoz va Iroq kabi madaniyat taraqqiy qilgan shaharlarda bo‘ladi, etuk allomalardan, olimu fozillardan ilm sirlarini o‘rganadi, tinimsiz mehnat qiladi, doimiy izlanishda bo‘ladi. Shunga ko‘ra Mahmud az - Zamaxshariy o‘z zam onasining buyuk allomasiga, ilm-fan homiysiga, dong‘i ketgan mashhur kishisiga aylandi.

Buyuk alloma avlodlar uchun ulkan boy ilmiy meros qoldirdi. U tilshun oslik, lug‘atshunoslik, jo‘g‘rofiya, adabiyot, aruz, tafsir, hadis, fiqh va qiroat ilmiga oid 50 dan ortiq asar yaratdi, ko‘plab she’rlar yozdi.

Mashhur tarixchi Ibn al Qiftiy Mahmud Zamaxshariy haqida shunday deydi “Zamaxshariy ilmu adab, nahv va lug‘at bobida o‘zgalarga misol (namuna) bo‘ladigan alloma edi”[1],, desa, Misr tarixchisi ibn Tag‘riberdi esa Mahmud Zamaxshariy
shayx, buyuk alloma, o‘z davrining yagonasi, o‘z asrining eng peshvosi va i momi bo‘lgan”,- deydi.

Buyuk imom Zamaxshariy tilshunoslik bobida ham qator asarlar yaratdi ,bu asarlar dunyo tilshunosligi fanida alohida qadrlanadi. Mahmud az - Zamaxshariyning tilshunoslikka oid asarlari:

1. “Al mufassal fi san’ati il-i’rob” (E’rob san’ati haqida mufassal kitob)
2. “Al - muhojat bil - masoil an - naxviya av al- axajiy an - nahviya” (Grammatik masalalarga oid jumboqlar)
3. “Al-unmuzaj fin-nahvi” (Grammatik namunalar haqida)
4. “Samiym ul-arabiya” (Arab tilining negizi)
5. “Al-mufrad val-muallif fi-n-nahvi” (Grammatikada birlik va ko‘plik)
6. “Al-mufrad val murakkab fil-arabiya” (Arab tilida birlik va ko‘plik)
7. “Al-amaliy fin-nahvi” (Grammatik qoidalarda orfografiya)
8. “Diyvon ut-tamoyil” (Assimilyatsiya haqida devon)

[1] Maqola: “Mahmud az-Zamaxshariyning tilshunoslikka oid asarlari”; Dildora Musinova; bukhari.uz; imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi;2021-yil; 20-may;

9. “Muqaddimat ul-adab” (Adabiyotga kirish)[2]

Arab tili grammatikasiga oid asarlar ichida Zamaxshariyning “ Al - mufassal” kitobi alohida o‘rin tutadi. Ayni asar arab tilining morfologiyasi va sintaksisiga oid tadqiqot bo‘lib, u musulmon olamida mashhur bo‘lgan va yuksak baholangan.

Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asarida grammatikaga oid masalalar so‘z turkumlari-ot,
fe’l va yuklamalar orqali o‘rganilgan. Asarning har bir bo‘limida morfologiya va sintaksis masalalari ko‘rib chiqilgan. Asar fonetika bo‘limi bilan yakunlanadi. Arab tilidagi nahv va sarfni o‘rganishda muhim dasturiy manba sifatida azaldan Sharqda ham, G‘arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi.

Zamaxshariyning “Mufassal”ni yozishdagi uslubi farqli bo‘lib, nahvdagi taqsimlanishida kalimalarni uchga bo‘lib: ismlar, fe’llar, harflar va nahv, sarfga ko‘ra yuqorida keltirilgan uch turda mushtarak so‘zlarga ajratgan holda yondashgan. Bu usul o‘rganuvchiga eng yengil usul bo‘lib, undan keyingi olimlar ham mana shu sinflanishni asos qilib olib kitoblar yozishgan. Bu kitobga yozilgan sharhlar “Kitob sharhlari” degan nomni olgan bo‘lib, ular ibn Ya’ish sharhi, Saxoviy sharhi va ibn Hojib sharhlaridir. o‘quvchi uchta sharhni bir-biriga solishtirib, undagi qo‘llanilgan metodlar orqali asl manbabi oson tushunishiga turtki bo‘ladi. Muallif “Mufassal” kitobining so‘z boshida shunday yozadi:”Mendan barcha boblarni o‘z ichiga olgan, arab tiliga uni o‘qish bilan yetishiladigan, barcha uchun mos, tartibli bir qo‘llanma so‘rashdi…!”, va yana:” Bu shunday tartibdaki, o‘quvchi u orqali uzoqdagi maqsadga yaqin yo‘l bilan erishadi[3]”.

Bu kitobning eng qadimiy nusxasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida No 11459 raqami osti- dagi nusxa bo’lib, u 1357—1358 yillarda xattot Qutbiddin Sheroziy tomonidan kichik nasx xatida ko’chirilgan.

Ko‘pchilik olimlar ilmiy qimmati jihatidan Zamaxshariyning “al Mufassal” asari arab tilini o‘rganishda taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (vaf. 796) grammatikaga oid mashhur **"الكتاب"** kitobidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi, deb ta’kidlaganlar. Bu asar o’sha davrning o’zidayoq arab xalqlari o‘rinda katta e’tibor qozonadi va arab tilini mukammal o‘rganishda asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida

[2] “Tilshunoslik nazariyasi”; Bakalavriat talabalari uchun o‘quv qo‘llanma; F.Sharipov; Guliston 2024 y; 11-bet;
[3] Educatinal research in universal sciences; “Al Mufassal fi san’ati e’rob” asarida nahv olimlarining fikrlari; Asqarova Saida;2023-y;583-584-betlar;

keng tarqaladi. Hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga va bosh-oyoq sarpo sovg‘a in’om qilishini va’da beradi. Bir qancha kishilar asarni yod olib, hokimning mukofotiga sazovor ham bo‘lganligi manbalarda keltirilgan.[4] Birgina shu misolning o’ziyoq Zamaxshariy asarining qanchalik yuksak baholanganligini ko’rsatadi.

“Al- Mufassal”ning bir qadar ixchamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi “Al-Unmuzaj” («Namuna») nomi bilan ataladi. Bu asarning qo’lyozma nusxalari xorijiy mamlakatlarda saqlanib, Toshkentda uning o’nga yaqin bosma nusxalari mavjud. O’zbekistonlik sharqshunos olim Abduhofiz Abdujabborov “Al-Unmuzaj”ni arabchadan o’zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirgan.

Arab tili grammatikasi va o‘zi ijod etgan davr arab tilining iste’molda bo‘lgan barcha so‘z va iboralarini qamrab olgan yana bir kitobi “Muqaddimat-ul-adab” kitobidir. Arab so‘zlari va ularning etimologiyasiga e‘tibor bergan holda, mukammal lug‘at holida bergan, dastlab, muallif tomonidan arabcha-forscha-turkiycha (xususan, muallif so‘zlashgan til qadimgi xorazmcha) so‘zlardan iborat holda yaratilgan. Muallif ushbu asarni arab bo‘lmagan ajamliklar hamda mahalliy aholiga arab tilini o‘rgatish, arab tilida so‘zlashish va tushunishga imkon beruvchi qo‘llanma maqsadida yaratgan. Asar muallif yashagan davrining o‘zidayoq bir necha nusxada ko‘chirilgan. Xususan, Ilk O‘rta asrlarda Xorazmda hukm surgan hukmron sulola vakili Xorazmshoh Otsiz ushbu asarga moyillik bildirib, allomadan o‘z shaxsiy kutubxonasi uchun nusxa ko‘chirib berishini so‘ragan.[5] So‘ngra Zamaxshariy xattotlik ilmini puxta egallagani sababli, hukmdor kutubxonasi uchun shaxsan o‘zi bu asarni ko‘chirib beradi, xatto, hukmdorning e‘tirofi, e‘tibori va rag‘batiga tushgan bu asar, darhaqiqat, o‘z davrida tilshunoslik, leksikografiyaning asosiy darsligiga aylandi. Qo‘lyozma 533 varoqdan iborat bo‘lib, sahifalar lotin alifbosining kichik “a “ va “b” harflari bilan belgilangan. Asarning grammatik qoidalar berilgan qismi to‘laligicha yetib kelmagan bo‘lsa-da, lug‘at qismining barcha fasl va boblari to‘liq berilgan. Asar oxiri ushbu nusxada kolofon bilan tugallangan, unda asarning yozilgan yili va tugallanish vaqti hijriy

[4] Mahmud az-Zamaxshariy; Nozik iboralar;sharhlar mualifi va tarjimon U.Uvatov;T.; Kamalak; 1992; 25-26-betlar;
[5] Mahmud az-Zamaxshariy asarlarining manbalari; Nigora Sulaymonova; Bookmany print; Toshkent-2022; 55-56 betlar;

yil hisobida, abjad usulida “qit‘a” janri orqali ifodalangan. Asar quyidagi qismlar va boblar, fasllardan tashkil topgan:

1. Muqaddima;((v 001 b – 005 b)
2. Lug‘at qismi; (v 006 a – 533 a)

a) Fe’llar bobi;
b) Harflar bobi;
c) Ismlarning turlanishi;
d) Fe’llarning tuslanishi

3. Xotima qismi (v 533 b)[6]

Matn arab grafikasida yozilgani uchun harflardagi nuqtalar, harakatlar muhim hisoblanadi, siyohlarning sahifalarga o‘tib qolgani qo‘shimcha nuqta va harakatlarning orttirib, so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qishga olib keladi.

“Al Mufassal fi san’atil i’rob” va “Al muqoddimatul-adab” asarlaridagi uslublar bilan tanishadigan bo‘lsak, eng avvalo, ularning yozilgan davri va vaqti diqqat e’tiborni tortadi. Chunki aynan shu sababli yondashilgan uslublar, qo‘llanilgan iboralar farqlanadi. “Al Mufassal fi san’atil i’rob” asari Makkaga sayohat qilgan vaqtlarida, ba’zi manbalarda bir yarim, ba’zilarida esa ikki yarim yil ichida yozilgan va 1121-yil yozib tugatilgan. Asardagi 3-bob, “Mansubotlar” bo‘limi hisoblanib, 9-fasli “Hol” haqidagi fasl hisoblanadi. Bunday daqiq, keng va atroflicha tafsiflash mashhur “Durusun nahv” va “Kofiya” asarlarida keltirilgan “Hol” haqidagi vasflardan ancha farq qiladi. Shu sababli ham asar “O‘zgarishlar san’atining mufassal bayoni” deya bejiz atalmaydi. Asarda arab tilidagi “Hol” ta’rifi bitta mavzuda ta’riflanmagan, balki uch qism: hol, holiy jumla va hol omilini yashiringan holati bayon etilgan. Mana shu faslga yondashilgan uslubning ba’zi qismlarini yoritishga harakat qilamiz.

الحال :الفصل التاسع

ولها .شبه الحال بالمفعول من حيث أنها فضلة مثله جاءت بعد مضي الجملة :شبه المفعول والظرف بالظرف شبه خاص من حيث أنها مفعول فيها ومجيئها لبيان هيأة الفاعل أو المفعول وذلك قولك ضربت زيداً قائماً تجعله حالاً

[6] Theory of scientific researches of whole world; Mahmud Zamaxshariyning “Muqoddimat ul-adab” asarining tarkibi va mazmuniy tavsifi; Muhammadova unisa; 2024-yil;

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

To‘qqizinchi bob:Hol

Hol-maf’ulga va zarfga o‘xshash bo‘ladi.Holning maf‘ulga o‘xshash jihati shuki, u ham maf’ulga o‘xshab o‘zidan oldingi o‘tgan gapga qo‘shimcha ravishda kirgan bo‘ladi. Bundan tashqari uning zarf bilan o‘ziga xos o‘xshashligi bo‘lib, hol unda to‘ldiruvchi vazifasida, foil yoki maf‘ulning ko‘rinishini, holatini bayon qilish uchun keladi. Shu sababli:”Zaydni turgan holimda urdim”,-degan so‘zing uni holga aylantiradi.

الجملة الحالية

ولا تخلو من أن تكون اسمية فعلية فإن كانت اسمية فالواو إلا ما شذ من قولهم كلمته .والجملة تقع حالاً وإن كانت فعلية لم تخل من أن يكون فعلها مضارعاً أو .فوه إلى في، وما عسى ان يعثر عليه في الندرة فإن كان مضارعاً لم يخل من أن يكون مثبتاً أو منفياً[7] .ماضياً

Hol jumla holida kelishi

Jumla-hol bo‘lib kelishi ham mumkin, u ismiy yoki fe’liy jumla bo‘lishing ahamiyati yo‘q.Agar ismiy jumla bo‘lsa, u “vov” bilan keladi faqatgina kam uchraydigan, og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan so‘zlar va nodir holatlarda sodir bo‘luvchi holatlarda bunday bo‘lmaydi. Agar fe’l moziy yoki muzore’ zamonida bo‘lsa ham jumla hol bo‘lib kelishi va uning manfiy yoki musbat bo‘lib kelishi ham mumkin bo‘ladi.

Keltirilgan misollar orqali biz mavzu qanchalik chuqur va mufassil yoritilganiga guvoh bo‘lamiz.

“Muqoddimat ul-adab” asari esa Makkaga ikkinchi bor sayohat qilganida, ya’ni 1137-yil yozilgan. Ikki asar orasida uslublar keskin farq qiladi, bu asar ko‘proq lug‘aviy-teologik asar hisoblanib, grammatik qoidalar kam zikr etilgan bo‘lib, asosan so‘zning lug‘aviy shakllari uch til arab, fors va eski turkiy tillarda keltirilgan bo‘lib, ko‘plik ya’ni ja’m yasash ham turlarga bo‘lingan. Masalan ismlarda:

”آت‘‘ qo‘shimchasini qoshish orqali:

[7] للزمخشري "المفصل في صنعة الإعراب"كتاب
pdf: http://www.al-mostafa.com;

قَصَبَةٌ	قَصَبَاتٌ
ingichka qamish	ingichka qamishlar

”ا” ziyoda qilish orqali:

طِينٌ	أَطْيَانٌ
loy	loylar

”و” ziyoda qilish orqali:

سَهلٌ	سُهُولٌ
osonlik	osonliklar

Fe’llarda esa juda ajoyib va o‘zgacha tarzda bir so‘zning ma’nosi tushuntirilgan. Chunki bir so‘z bir xil holatda yozilsa ham, turli xil ma’nolarni ifoda etishi mumkin.Masalan” نَشَزَ” fe’li:

نَشَزَ مِن مَكَانِهِ	نَشَزَت عَلَى زَوجِهَا[8]
U joyidan ko‘tarildi	U turmush o‘rtog‘iga itoatsizlik qildi

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, bir so‘zning ikki xil ma’nosi asarda gaplar orqali tushuntirilgan, bu bilan o‘quvchiga ularni osongina eslab qolish imkonini beradi.Jumlalar arab, fors va eski turkiy tillardagi bayoni keltirilgan.Shu bilan birga fe’llarning sulosiy mujarrad, mazid boblari ham misollar bilan ko‘rsatilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zamaxshariy har bir asarida arab tilining boy va nafis jihatlarini, ham leksik, ham morfologik va ham teologik holatlarini atroflicha bayon etgan bo‘lib, tilning murakkab, chalkash o‘rinlarini oson va tushunarli uslubda tuhsuntirib bergan. Ikki asar uslubining xilma-xilligining sababi davr va talabga qarab turlicha bo‘lgan. “Al Mufassal fi san’atil i’rob” asarida muallif grammatik jihatdan chuqur yondashgan bo‘lib, mukammal tarzda yoritib bergan. “Al muqoddimatul-adab” asari esa Makkaga ikkinchi safari asnosida yaratilgan bo‘lib, aynan arab bo‘lmagan insonlar oson tushunishlari uchun lug‘’at

[8] كتاب "المقدمة الأدب" للزمخشري، في لبسيا noor-book.com

shaklida keltirilgan, ular qiynalmasliklari uchun sodda va yengil tarzda berilgan. Asarning grammatik jihatlari nisbatan kamroq va teologik bayoni mukammallashtirilgan. Shu sababli bu ikki asar turli xil tillarga tarjima qilinib, hozirgacha boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajadagi tolibi ilmlarga mos bo‘lganligi sababli arab tilini o‘ranishda eng go‘zal debocha va dasturi-amal sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar/References:

1. للزمخشري "المفصل في صنعة الإعراب"كتاب pdf: http://www.al-mostafa.com;
2. للزمخشري، في لبسيا "المقدمة الأدب"كتاب ، noor-book.com;
3. Marcin Grodski, “The book about Mufassal”; english edition; 47-48 pages;
4. “Tilshunoslik nazariyasi” F.Sharipov; Bakalavriyat talabalari uchun elektron majmua; Guliston 2024;
5. “Shuruhul kitab”(Mufassal sharhlari); Abariy, Komil Jabariy Amin; Urdun, 2000-yil;
6. “Al-mufassal fi san’ati e’rob”; Asqarova Saida; Educational Research in universal sciences; 2023-yil;
7. Muhammadova Munisa; “Muqaddimat-ul-adab” asarining tarkibi va mazmuniy tavsifi;
8. “O‘zbek adabiyoti” sayti; rasul.template.uz; “O‘z davrining yagonasi”; 23-bet;
9. Tilshunoslik nazariyasi”; F.Sharipov; Guliston 2024 y;
10. Esiconf.com-2024; Theory of scientific researches of whole world

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

УДК 378.4

РОЛЬ УНИВЕРСИТЕТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ГЛОБАЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА

THE ROLE OF UNIVERSITIES IN THE FORMATION OF THE GLOBAL EDUCATIONAL SPACE

Панферова Ирина Витальевна
PhD, профессор Университета Пучон в г. Ташкент
ORCID: 0000-0002-5049-5078,
Рахимова Зарина
магистрант университета Пучон в г. Ташкент

PhD Panferova Irina Vitalievna
professor, Bucheon University in Tashkent
ORCID: 0000-0002-5049-5078,
Rakhimova Zarina
Master's student of Bucheon University in Tashkent

Аннотация. В статье рассматриваются перспективные направления партнерского взаимодействия университетов на международном уровне. Проведен ретроспективный анализ роли университетов в формировании глобального образовательного пространства. Определены ключевые направления развития международных партнерств в системе высшего образования.

Ключевые слова: глобализация, академическая мобильность, исследовательские проекты, международное сотрудничество, межкультурная компетенция, интеграция.

Annotation. The article examines promising areas of partnership cooperation between universities at the international level. A retrospective analysis of the role of universities in the formation of the global educational space has been conducted. Key directions for the development of international partnerships in the system of higher education have been identified.

Key words: globalization, academic mobility, research projects, international cooperation, intercultural competence, integration.

В условиях стремительной глобализации образования понятие «глобальное образовательное пространство» приобретает все большую актуальность. Оно охватывает широкий спектр взаимодействий между образовательными учреждениями, студентами и преподавателями на международном уровне, создавая динамичную и взаимосвязанную экосистему знаний. Глобальное образовательное пространство включает в себя не только обмен студентами и академическими кадрами, но и совместные исследовательские проекты, онлайн-курсы и программы двойных дипломов, что способствует интеграции образовательных систем разных стран. Университеты играют ключевую роль в формировании этого пространства, выступая центрами знаний и инноваций. Они не только готовят специалистов, способных работать в многонациональных и мультикультурных условиях, но и способствуют развитию критического мышления и межкультурной компетенции у студентов. В условиях глобальных вызовов, таких как изменение климата, экономические кризисы и социальные неравенства, университеты становятся важными игроками в решении этих проблем через международное сотрудничество и обмен знаниями. [1]

Исследование роли университетов в формировании глобального образовательного пространства позволяет выявить ключевые тренды и перспективы, определяющие будущее образования в условиях глобализации. Университеты, как институты высшего образования, имеют долгую и сложную историю, уходящую корнями в средневековую Европу. Первые университеты, такие как Болонский (1088 год) и Парижский (середина XII века), стали центрами академической мысли и культурного обмена. Они предоставляли пространство для обучения, исследования и обсуждения идей, что способствовало формированию интеллектуальной элиты. [3] С течением времени университеты эволюционировали, адаптируясь к изменениям в обществе и экономике. В эпоху Просвещения они стали важными центрами научного прогресса, где развивались новые дисциплины, такие как естественные науки и гуманитарные науки. В XIX веке, с возникновением исследований и профессионального образования, университеты начали

выполнять роль не только образовательных учреждений, но и исследовательских центров.

С конца XX века, в условиях глобализации, университеты начали активно участвовать в международных образовательных инициативах. Развитие технологий и коммуникаций открыло новые возможности для сотрудничества между учебными заведениями по всему миру. Программы обмена студентами, такие как Erasmus в Европе, стали символом этого процесса, позволяя студентам получать опыт обучения за границей и способствуя культурному обмену.

Современные университеты также активно участвуют в международных исследовательских проектах, что способствует созданию глобального пространства знаний. Инициативы, такие как «Глобальное образование» и «Международные программы двойных дипломов», помогают расширять доступ к качественному образованию и повышать его конкурентоспособность на мировом уровне. Таким образом, университеты остаются ключевыми игроками в формировании глобального образовательного пространства, адаптируясь к новым вызовам и возможностям. Их роль как центров знаний и культурного обмена будет только возрастать в будущем, что открывает новые перспективы для студентов и исследователей по всему миру.

В последние десятилетия наблюдается значительное увеличение числа международных студентов, что свидетельствует о растущей мобильности и интернационализации высшего образования. По данным ЮНЕСКО, количество студентов, обучающихся за границей, за последние 20 лет удвоилось, что создает новые возможности для культурного обмена и научного сотрудничества. [6] Университеты становятся не только центрами знаний, но и площадками для межкультурного диалога, что в свою очередь способствует формированию глобального образовательного пространства. Кроме того, исследовательские университеты играют ключевую роль в международном сотрудничестве. Они не только обеспечивают высокий уровень научных исследований, но и создают платформы для совместных проектов с зарубежными учреждениями. Это сотрудничество способствует обмену знаниями и ресурсами, а также помогает решать глобальные проблемы, такие как изменение климата, здоровье населения и устойчивое развитие.

Исследовательские университеты становятся лидерами в создании международных сетей, которые способствуют интеграции знаний и технологий на мировом уровне. Университеты играют центральную роль в формировании глобального образовательного пространства, обеспечивая рост мобильности студентов, развитие онлайн-образования и укрепление международного сотрудничества через исследовательские инициативы. Эти тренды открывают новые перспективы для образования, позволяя создавать более инклюзивные и доступные образовательные системы для будущих поколений.

В современном мире университеты играют ключевую роль в формировании глобального образовательного пространства, однако неравенство доступа к образованию, культурные и языковые барьеры, а также вопросы качества образования и аккредитации остаются значительными вызовами на этом пути. Несмотря на усилия по интернационализации высшего образования, доступ к качественному обучению остается неравномерным. Студенты из развивающихся стран сталкиваются с финансовыми, социальными и политическими преградами, которые ограничивают их возможности получения образования за границей. Это создает дисбаланс в доступе к знаниям и ресурсам, что, в свою очередь, усугубляет существующие социальные и экономические различия. [4]

Глобализация образования приводит к увеличению числа международных студентов, однако культурные различия и языковые барьеры могут препятствовать их успешной интеграции в учебный процесс. Необходимость адаптации к новым культурным контекстам и языковым условиям может вызывать стресс и чувство изоляции у студентов. Университеты должны разрабатывать программы поддержки, которые помогут преодолеть эти барьеры и создать инклюзивную образовательную среду.

В условиях глобализации возникает необходимость стандартизации образовательных программ и оценки их качества. Разные страны имеют различные критерии аккредитации, что может затруднить признание дипломов и квалификаций на международном уровне. Это создает дополнительные сложности для студентов, стремящихся продолжить обучение или работать за границей. Университеты должны активно

участвовать в разработке международных стандартов качества образования и аккредитации. [5]

Для формирования действительно глобального образовательного пространства необходимо разработать стратегии, направленные на устранение неравенства доступа к образованию, преодоление культурных и языковых барьеров, а также обеспечение высокого качества образовательных программ. Университеты могут сыграть ведущую роль в этом процессе, сотрудничая с правительствами, международными организациями и другими образовательными учреждениями для создания более справедливой и инклюзивной системы высшего образования. Современные университеты сталкиваются с изменениями в международной политике и финансировании образования, что требует от них адаптации к новым условиям. Одной из ключевых тенденций является усиление глобального сотрудничества между образовательными учреждениями, которое обусловлено необходимостью обмена знаниями и ресурсами в условиях растущей конкуренции на мировом рынке образования. Важную роль здесь играют международные соглашения и инициативы, такие как Болонский процесс, направленные на гармонизацию образовательных систем и повышение качества образования

Технологический прогресс также значительно влияет на формы сотрудничества между университетами. Появление онлайн-образования и цифровых платформ расширяет доступ к образовательным ресурсам, позволяя студентам из разных стран участвовать в совместных программах и курсах. Это создает новые возможности для создания международных консорциумов и сетевых образовательных проектов. Виртуальная реальность, искусственный интеллект и большие данные становятся инструментами для улучшения качества обучения и взаимодействия между студентами и преподавателями на глобальном уровне. [2]

Для успешной адаптации к этим изменениям университетам необходимо:

– развивать международные партнерства, а именно устанавливать стратегические альянсы с зарубежными университетами и организациями, что позволит укрепить позиции на глобальном рынке образования;

– внедрять современные технологий в учебный процесс и административные функции, что позволит улучшить качество образования и повысить эффективность управления;

– обновлять свои учебные программы с учетом глобальных трендов, включая междисциплинарные подходы и навыки, востребованные на международном рынке труда;

– активно учувствовать в международных научных проектах и привлекать финансирования из различных источников, которые помогут университетам оставаться конкурентоспособными и инновационными.

В свою очередь, через программы академической мобильности, совместные исследовательские проекты и онлайн-курсы университеты создают возможности для студентов и преподавателей взаимодействовать на международном уровне, что способствует расширению их горизонтов и развитию межкультурной компетенции, а также становятся важными игроками в решении глобальных проблем, таких как устойчивое развитие, социальная справедливость и технологические изменения.

В заключении хотелось бы отметить, что университеты играют ключевую роль в формировании глобального образовательного пространства, выступая не только центрами знаний, но и платформами для международного сотрудничества и культурного обмена. Они способствуют разработке и внедрению инновационных образовательных практик, отвечающих на вызовы современности, такие как цифровизация и глобализация. Таким образом, университеты формируют новые подходы к обучению, интегрируя современные технологии и междисциплинарные исследования, что позволяет им оставаться актуальными в быстро меняющемся мире. Высшие учебные заведения не только способствуют формированию квалифицированных специалистов, но и активно участвуют в создании более справедливого и устойчивого глобального общества, что подчеркивает их значимость в контексте глобального образовательного пространства.

Research Science and Innovation House

ЛИТЕРАТУРА

1. Altbach, P. G., Knight, J. (2007). The Internationalization of Higher Education: Motivations and Realities // Journal of Studies in International Education, 11(3-4), 290-305.
2. Fowler, C. (2018). The Role of Artificial Intelligence in Higher Education // International Journal of Educational Technology in Higher Education, 15(1), 1-15.
3. Козлов, И. В. (2015). История высшего образования в Европе // Наука, 45-67.
4. Perkins, R., Neumayer, E. (2014). Geographies of educational mobilities: Exploring the uneven flows of international students // Theorizing Student Mobility, 19(3), 231-244.
5. Schneider, M., Preckel, P. (2017). The Role of Accreditation in the Internationalization of Higher Education // Journal of Studies in International Education, 21(3), 203-217.
6. ЮНЕСКО. (2020). Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000373718

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Культурно-эстетическая компетентность как цель преподавания русского языка: теоретический аспект

Мамедова Шахло Душамбоевна
Ургенчский технологический университет Ранч
mamedovashahlo@gmail.com
Тел: +998937445660

Аннотация: В статье рассматривается культурно-эстетическая компетентность как важная цель преподавания русского языка. В условиях глобализации и межкультурного взаимодействия эта компетенция выступает средством сохранения культурной идентичности, понимания традиций и эстетических ценностей русского народа. Раскрываются сущность культурно-эстетической компетентности, ее ключевые аспекты: знание культурных реалий, развитие эстетического вкуса и овладение языковыми средствами. Подчеркивается роль русского языка как инструмента приобщения к художественным и культурным феноменам. Автор анализирует теоретические подходы (культурологический, коммуникативно-ориентированный и личностно-ориентированный) и методы формирования данной компетентности, включая интеграцию искусства, творческие проекты и обсуждение культурных феноменов. Статья акцентирует значимость развития культурно-эстетической компетентности для личностного роста учащихся, формирования уважения к культурным традициям и межкультурной

Ключевые слова: Культурно-эстетическая компетентность, русский язык, язык и культура, эстетическое развитие, межкультурная коммуникация, искусство в обучении, литературный текст, языковая личность, культурное наследие, личностно-ориентированный подход.

Annotatsiya: Maqolada rus tilini o‘qitishning muhim maqsadi sifatida madaniy-estetik kompetentlik ko‘rib chiqiladi. Globalizatsiya va madaniyatlararo hamkorlik sharoitida ushbu kompetentsiya millat madaniy identifikatsiyasini saqlash, an’analar va rus xalqining estetik qadriyatlarini tushunish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniy-estetik kompetentlikning mohiyati va uning asosiy jihatlari: madaniy voqeliklarni bilish, estetik ta’bni rivojlantirish va til vositalarini o‘zlashtirish kabi jihatlar yoritiladi. Rus tilining san’at va madaniy hodisalarga

yaqinlashtiruvchi vosita sifatidagi ahamiyati ta’kidlanadi. Muallif ushbu kompetentsiyani shakllantirishning nazariy yondashuvlari (madaniyatshunoslik, kommunikativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar) hamda san’atni integratsiya qilish, ijodiy loyihalar yaratish va madaniy hodisalar muhokamasini o‘z ichiga olgan usullarini tahlil qiladi. Maqolada madaniy-estetik kompetentlikni rivojlantirish o‘quvchilarning shaxsiy kamoloti, madaniy an’analarga hurmat va madaniyatlararo bag‘rikenglikni shakllantirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

Kalit so'zlar: Madaniy-estetik kompetensiya, rus tili, til va madaniyat, estetik rivojlanish, madaniyaroq kommunikatsiya, san'at o'qitishda, adabiy matn, tilshunoslik shaxsiyati, madaniy meros, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Abstract: The article examines cultural and aesthetic competence as an important goal in teaching the Russian language. In the context of globalization and intercultural interaction, this competence serves as a means of preserving cultural identity, understanding the traditions, and aesthetic values of the Russian people. The essence of cultural and aesthetic competence is revealed, along with its key aspects: knowledge of cultural realities, development of aesthetic taste, and mastery of linguistic tools. The role of the Russian language as a tool for connecting with artistic and cultural phenomena is emphasized. The author analyzes theoretical approaches (cultural, communicative-oriented, and personality-oriented) and methods of forming this competence, including the integration of art, creative projects, and discussions of cultural phenomena. The article highlights the importance of developing cultural and aesthetic competence for the personal growth of students, fostering respect for cultural traditions, and intercultural communication.

Keywords: Cultural and aesthetic competence, Russian language, language and culture, aesthetic development, intercultural communication, art in teaching, literary text, linguistic identity, cultural heritage, personality-oriented approach.

Современная методика преподавания русского языка уделяет особое внимание формированию культурно-эстетической компетентности как важнейшей цели образовательного процесса. В условиях глобализации и межкультурного взаимодействия эта компетентность становится не только инструментом коммуникации, но и способом сохранения культурной идентичности, понимания традиций и эстетических ценностей русского народа [1][2].

Сущность культурно-эстетической компетентности

Культурно-эстетическая компетентность представляет собой интегративное качество личности, включающее способность понимать, интерпретировать и создавать произведения искусства, осмысленно взаимодействовать с культурными феноменами и выражать свои чувства и мысли средствами языка [3]. Этот аспект компетентности предполагает:

- **Знание культурных реалий** – понимание исторических, социальных и художественных особенностей русской культуры [4].
- **Развитие эстетического вкуса** – способность анализировать и оценивать произведения литературы, живописи, музыки, кино и других видов искусства [5].
- **Овладение языковыми средствами выражения** – умение использовать русский язык для описания, анализа и создания эстетически значимых текстов [6]Роль русского языка в формировании культурно-эстетической компетентности

Русский язык как предмет учебной деятельности выполняет роль посредника между учащимся и культурным наследием. Через язык студенты получают доступ к произведениям Пушкина, Достоевского, Толстого, Чехова и других выдающихся представителей русской литературы. Художественная проза, поэзия и драматургия служат основой для формирования мировоззрения и понимания эстетических ценностей [7][8].

Преподавание языка позволяет:

- Осознать связь языка и культуры. Например, идиомы, фразеологизмы и крылатые выражения раскрывают менталитет народа [9].
- Развивать образное мышление. Чтение литературных текстов способствует восприятию метафор, символов и аллегорий [10].
- Формировать эмоциональный интеллект. Изучение языка через искусство помогает глубже понимать человеческие чувства, переданные в художественной форме [11].

Теоретические подходы к формированию культурно-эстетической компетентности

1. **Культурологический подход**. Этот подход предполагает интеграцию содержания обучения с элементами истории, литературы, искусства и философии [12]. Например, изучение темы «Русская усадьба» может сопровождаться анализом произведений Тургенева, Чайковского и картин русских художников.
2. **Коммуникативно-ориентированный подход**. Основное внимание уделяется диалогу культур и развитию межкультурной компетенции. Учащиеся учатся сравнивать и сопоставлять традиции, эстетические предпочтения своей и русской культуры [13].
3. **Личностно-ориентированный подход**. Обучение строится с учетом индивидуальных интересов учащихся. Например, студенты, интересующиеся музыкой, могут изучать тексты, связанные с творчеством русских композиторов [14].

Методы и приемы

Для достижения цели формирования культурно-эстетической компетентности используются следующие методы:

- **Интеграция искусства**. На уроках можно использовать музыкальные произведения, картины и видеоматериалы. Например, изучение «Евгения Онегина» может сопровождаться обсуждением оперы Чайковского [15].
- **Создание творческих проектов**. Учащиеся могут писать эссе, создавать мультимедийные презентации о русских художниках или режиссерах [16].
- **Обсуждение культурных феноменов**. Темы, связанные с традициями, праздниками или художественными направлениями, мотивируют учащихся к активному участию [17].

Значение культурно-эстетической компетентности

Формирование культурно-эстетической компетентности в процессе преподавания русского языка способствует не только обогащению знаний учащихся, но и их личностному развитию. Она помогает:

- Развивать уважение к культурным традициям и истории [18].
- Формировать толерантность и интерес к другим культурам [19].

- Углублять понимание собственного внутреннего мира через призму искусства и литературы [20].

Заключение

Культурно-эстетическая компетентность играет ключевую роль в современном преподавании русского языка. Ее развитие требует глубокого методологического подхода, интеграции культурных и эстетических компонентов, а также учета личных интересов учащихся. Таким образом, обучение русскому языку становится не просто процессом овладения грамматикой и лексикой, но и способом приобщения к великому культурному наследию России.

Культурно-эстетическая компетентность как цель преподавания русского языка: теоретический аспект

Культурно-эстетическая компетентность (КЭК) представляет собой одну из ключевых составляющих современного образовательного процесса. Она включает способность воспринимать, понимать и интерпретировать культурные явления, а также формировать эстетическое отношение к миру. В преподавании русского языка КЭК становится не только важной целью, но и мощным средством развития личности учащихся. В данной статье рассматриваются теоретические аспекты формирования культурно-эстетической компетентности через преподавание русского языка.

Понятие культурно-эстетической компетентности

Культурно-эстетическая компетентность определяется как способность человека воспринимать, анализировать и интерпретировать художественные, литературные и культурные тексты с опорой на понимание исторического и социокультурного контекста. Она включает:

- знание культурных кодов и символов;
- умение эстетически оценивать произведения искусства;
- способность создавать свои творческие продукты.

В контексте преподавания русского языка КЭК выступает инструментом приобщения учащихся к богатому наследию русской литературы, искусства, традиций и обычаев.

Теоретическое обоснование КЭК

Формирование КЭК связано с идеями таких педагогов и культурологов, как Л.С. Выготский, М.М. Бахтин и Д.С. Лихачёв. Л.С. Выготский

подчеркивал важность культурного контекста в развитии мышления и речи. Согласно его теории, язык является основным инструментом передачи культурных ценностей и эстетических идеалов.

М.М. Бахтин акцентировал внимание на диалоге как методе познания культуры. Через взаимодействие с текстами русской литературы учащиеся осваивают не только язык, но и различные мировоззренческие и художественные позиции.

Д.С. Лихачёв отмечал, что литература является «учебником жизни», способным формировать этические и эстетические ценности. Таким образом, изучение произведений Пушкина, Толстого, Достоевского или Чехова способствует не только языковому, но и культурному развитию учащихся.

Методы формирования КЭК

Формирование культурно-эстетической компетентности в процессе преподавания русского языка может осуществляться через:

1. **Чтение и анализ художественных текстов.** Литература позволяет погрузиться в культурный контекст, освоить эстетические нормы и понять многогранность человеческого опыта.
2. **Интеграцию искусств.** Использование музыки, живописи и театра для иллюстрации литературных произведений помогает учащимся воспринять многомерность русской культуры.
3. **Проектную деятельность.** Темы, связанные с историей, культурой и традициями России, дают возможность учащимся развивать творческие и исследовательские навыки.
4. **Межкультурное сравнение.** Сравнение русской культуры с культурами других народов способствует расширению кругозора и воспитанию уважения к разнообразию.

Роль преподавателя

Преподаватель русского языка играет ключевую роль в формировании КЭК. Он становится медиатором между культурным наследием и современным восприятием учащихся. Это требует от учителя:

- глубоких знаний русской культуры;
- умения подбирать актуальные и интересные материалы;
- готовности к диалогу с учениками, обсуждению их идей и точек зрения.

Заключение

Культурно-эстетическая компетентность является важной целью преподавания русского языка, так как она формирует у учащихся понимание культурных и эстетических ценностей, расширяет их мировоззрение и способствует гармоничному развитию личности. Реализация этой цели требует продуманного подхода к образовательному процессу, включающего использование художественных текстов, интеграцию различных видов искусства и развитие творческих способностей учащихся. Русский язык, будучи носителем богатой культуры, становится важным инструментом для достижения этой задачи.

Список использованной литературы

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1979.
2. Виноградов В. В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981.
3. Гудков Д. Б. Теория и практика межкультурной коммуникации. – М.: Гнозис, 2003.
4. Лотман Ю. М. Культура и взрыв. – М.: Прогресс, 1992.
5. Пассов Е. И. Основы коммуникативной методики обучения иностранным языкам. – Ростов н/Д: Феникс, 2000.
6. Стернин И. А. Русская речевая культура. – Воронеж: ВГУ, 1997.
7. Толстой Л. Н. Собр. соч. в 22 т. Т. 18. – М.: Художественная литература, 1978.
8. Успенский Б. А. Культура и язык. – М.: Искусство, 1987.
9. Шайгородский Ю. А. Межкультурная коммуникация: теория и практика. – М.: Либроком, 2010.
10. Щукин А. Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 2003.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Poyaning ichki tuzulishi

Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiy fanlar fakulteti, Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi **Mamajonova Mushtariy Muhiddin qizi**
Andijon davlat pedagogika inistituti, Tabiy fanlar fakulteti, Biologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi **Ergasheva Maftuna Shavkatjon qizi**

Annotatsiya: Poya yuksak o`simliklaming yer ustidagi asosiy vegetativ organlaridan biridir. Poya urug’ning murtak qismidagi embrional holdagi poyachaning rivojlanishidan hosil bo`ladi. Urug’ning unishi bilan poya yer betiga chiqadi va meristema hujayralarning bo`linishi hamda yiriklashishi hisobiga o`sadi. Missional bog‘laydi. Poya o‘simlikning yer ustidagi bargsiz, kurtaksiz qismi bo`lib, bargni ildiz bilan morfologik hamda funktsional bog’laydi. Uning funktsiyasi suv va unda yerigan minyeral moddalarni ildizdan bargga etkazish hamda bargda hosil bo`lgan organik moddalami ildizga o`tkazishdan iboratdir. Yorug’lik sevuvchi o`simliklarda poya uzun bo`ladi. U ba’zan suv va boshqa zaxira oziq moddalar to‘lovchi ombor vazifasini ham o`taydi. Bundan tashqari, poya nafas oluvchi organ ham hisoblanadi. Ayrim o`simliklarda assimilyatsiya hamda vegetativ ko`payish vazifalarini bajaradi. O`simlik poyalari o`sish xaraktyeriga, shakliga hamda uzun qisqaligiga qarab bir necha xil bo`ladi.

Kalit so‘zlar: kambiy, yog‘ochlik, endoderma, epiderma, parenxima, g‘udda.

Ключевые слова: камбий, древесина, энтодерма, эпидермис, паренхима, клубень.

Key words: cambium, wood, endoderm, epidermis, parenchyma, tuber.

Poyaning birlamchi ichki tuzilishi. Poyaning birlamchi tuzilishida epiderma, birlamchi po'stloq va markaziy silindlar ajratiladi. Epiderma tunika qavatidan shakllanadi. Agarda u bir necha qavat hujayralardan iborat bo'lsa, birlamchi po'stloqning tashqi qavatlari ham hosil bo'lishi mumkin. Birlamchi po'stloq asosiy parenxima to'qimasidan tashkil topib, tashqi qavatidagi hujayralarida xloroplastlar ham kuzatiladi. Ko'pchilik o'simliklarda birlamchi po'stloq tarkibiga mexanik to'qima kollenxima ham kiradi. Sklerenxima kamdan-kam hollarda kam hollarda uchraydi. Birlamchi po'stloqning ichki hujayralari endoderma halqasini hosil qiladi.[1] Markaziy silindr endoderma bilan chegaralangan peritsikl, o'tkazuvchi elementlar sistemasi va o'zakdan tashkil topgan. Peritsikl birlamchi yon meristema

hisoblanib, u kambiy hujayralari, qo'shimcha ildizlar yoki kurtaklarni hosil qiladi. Ko'pchilik o'simliklarda peritsikl butunlay mexanik to'qima yoki asosiy to'qima hujayralariga ajralib ketadi. Markaziy silindrning o'tkazuvchi elementlari o'sish konusidagi maxsus qism, prokambiydan rivojlanadi. Prokambiy birlamchi meristemaning ba'zi hujayralarini bo'yiga bo'linish natijasidan kelib chiqadi. O'ziga xos ingichka va cho'ziq, quyuq, donador sitoplazma bilan to'lgan hujayralar to'dasi paydo bo'lib, ular poyaming markaziga qarab birlamchi yog'ochlik elementlari, chekkalarda esa birlamchi lub elementlarini hosil qiladi. Markaziy silindming ichki qismi o'zakni tashkil etuvchi parenxima to'qima hujayralaridan iborat. O'zakning bo'lishi poyaning ildizdan farq qiluvchi xarakterli belgisidir. Poyaning o'zak qismi parenxima hujayralaridan tashkil topgan. U birlamchi o'zak nurlari orqali birlamchi po'stloq bilan bog'lanadi. O'zak ba'zi o'simliklarda qisman yoki butunlay yemirilib ketadi. Bunda poyaning o‘rtasi bo'shliqdan iborat bo'lib qoladi. O'sish konusida prokambiy turlicha shakllanishi mumkin. Uning shakllanishi va keyingi taraqqiyoti bir pallali o'simliklar poyalarining o'tkazuvchi boylamlarini tuzilishi va joylashish xarakterini belgilaydi.[2]

Poyaning ikkilamchi tuzilishi. Poyaning ikkilamchi tuzilishiga o’tishi uning birlamchi tuzilish xususiyati bilan chambarchas bog’liq va u uchta asosiy turga ajratiladi: Boylamli, oraliq va boylamsiz. Daraxt o’simliklar bilan o’t o’simliklar poyalarining ikkilamchi tuzilishida ham o’ziga xos farqlar kuzatilib, u poyalarning har xil muddatlarda hayot kechirishi bilan bog’liq o’rtacha kengliklardagi bir yilik o’to’simliklarda har yili vegetatsiya davrining oxirida poyasi qurib qoladi. Daraxtlarning poyasi esa ko’p yillik umr ko’radi.[3]

Boylamli tur. Bunday tuzilish poyaning birlamchi tuzilishida bir-biridan ajralgan o’tkazuvchi boylamlarga ega bo’lgan o’simliklar sebarga, tok uchun xosdir Ikkilamchi o’tishda kambiyga xosdir. Ikkilamchi tuzilishga o’tishda kambiy ikkilamchi yog’ochlik va ikkilamchi lublarni hosil qiladi. O’tkazuvchi boylamlarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy to’qima hujayralari boylamlararo kambiyni hosil qiladi. U o’z navbatida o’zak nurlari parenximasiga ajraladi. Shuning uchun ham yaxlit kambiy halqasi hosil bo’lishiga qaramay o’tkazuvchi boylamlar ikkilamchi tuzilishida ajralgan holda qoladi. Ba’zi o’simliklarda boylamlararo kambiy ancha sust rivojlangan. [1,3]

Oraliq tur. Bu ham dastlab ajralgan boylamlarga ega bo’lgan poyali o’simliklar uchun xarakterli bo’lib, keyinchalik boylamli kambiyning faollik

ko’rsatishi hisobiga yaxlit kambiy halqasi vujudga keladi. Oraliq tuming muhim xususiyati shunda shundan iboratki, bunda ikkilamchi yog’ochlik va ikkilamchi lublarbunda ikkalamchi ikkilamchi lublar faqat boylamli kambiydan emas, balki boylamlararo kambiydan hosil bo’ladi. Bu o’z navbatida yangi ikkilamchi o’tkazuvchi boylamlarni keltirib chiqaradi. Barcha boylamlarni sekin-asta o’sishi natijasida ular qo’shilib bir butun yog’ochlik bilan lubni ajratib turuvchi kambiyli halqa (kungaboqar, loviya) shakillanadi, ya’ni boylamli turdan boylamsiz turga o’tish kuzatiladi. Boylamsiz (halqali) tur. Mazkur tur poyaning birlamchi tuzilishida yog’ochlik va lub halqasimon joylashgan o’simliklarda (zig’ir, tamaki) kelib chiqadi. Ikkilamchi meristematik kambiy ham yaxlit halqa shaklida hosil bo’ladi va ikkilamchi yog’ochlik hamda lublaming halqalarini vujudga keltiradi. Po’stloq tarkibiga kambiyning tashqarisida joylashgan barcha to’qimalar kiradi. Po’stloqning tashqi qavatlari perderma hisoblanib, u po’kak, po’kak kambiysi va fellodermalardan tashkal topadi Ba’zan po’kak yuzasida epidena goldiglari kuzatiladi. U ham keyinchalik tushib ketadi, Periderma ostida o’sish konusidagi birlanchi meisteaning ajralishi natijasda hosil bo’lgan birlamchi po’stloq elementlari joylashadi. Unga kollenxima, xloroplastlar, kraxmal donachalani va druzlarga ega bo’lgan asosy parenama huyjayralari kiradi. Poyaning markaziga yaqinroq joyda kambiy faoliyati natijasi da hosil bo’lgan ikkalamchi po’stloq ajratiladi. Ikkilamchi po’stloqda trapetsiya shaklida lub tolalani bilan elaksimon naylar yo’ldosh hujayralar va lub parenamasi bilan navbatla shgan lub bo’laklari ko’rinib turadi elaksimon naylar daraxt poyalarida 2 – 3 yil faolik ko’rsatadi, keyinchalik u moddalarni o’tkazish xususyatini yo’qotadi va yangisi bilan almashinadi. Lub uchastkalari orasi dan asosy parenxima hujayralardan tashkal top gan birlamchi va ikalamchi o’zak nulari o’ tadi. Ularning hujayralani ko’pincha krazanal, moy, shakar kabi ozq moddalarni saglaydi o’zak nurlari orqali poyaning o’zag bilan chekka qisnlarida joylashgan to’qimalar (po’stloq) bilan aloqa bog’lanadi.[4]

Kambiy. Kambiy yupqa qobiqga ega bo’lgan cho’ziq to’g’ri to’rtburchak shakl dagi hujayralardan iborat. Uning tangental yo’nalishida bo’linishi natijasida yog’ochlik va lub elementlari hosl bo’ladi. Shuni ta’kdlab o’tish lozimki, yog’ochlik elementlari ko’prog sonda hosil bo’la di Kambiy halqas da hujayralar ortishi ularning radial yo’nali shida bo’linishi hi soblanib, natijada poyaning cheksiz yo’g’ onlashi sh imkoni yara tiladi. Kambiyning ishlash faoliyati yil davomi da bir za1 emas. U aynigsa bahor faslida ancha faol bo’lib, keyinchalik uning faoliyati sekin-

asta susayadi va kuzga borib butunlay to’xtaydi Yog’ochlik. U naylar, traxeidlar, yog’ ochlik parenamasi va libnfoman iborat. Yog’ochikdan ham o’zak nurlari o’tgan bo’ladi. Yog’ochlik parenzaimas o’zak nuriari da zahira oziq moddalar to’planadi. Kambiyning bir meyorda ishlama slig natijasida yog’ochliki hosl qiluvchi hujayralar bahorda hosil bo‘adi, ya’ni bu kamnbiy jadal ishlagan davrga to’g’ri keladi. Keyinchalik mayda va yupqa devorli hujayralar kelib chiqadi. Yog’ochlik hujayralani amolalar, oshlovchi moddalar, efr moylari kabilarni shimib olib malum rangga bo’yaladi.[5]

Ana shunday yog’ochlikning faollik ko’rsatmay qolgan markaziy qismi yog’ochlikning mag’zi deb ataladi. Yog’ochlikning bevosita kambiyga yaqin joylashgan qismlari suv va unda erigan moddalarni o’tkazish vazifasini bajarib, uni zabolon deyiladi. Zabolon yadro qsmiga nisbatan rangsiz bo’lishi bilan yog’ochlikda ajralib turadi.[6]

O’zak. O’zak poyaning markaziy qismini tashkil etib, hujayralarida har xil moddalar to’plangan va asosiy to’qimadan iboratdir. Daraxt va o’t o’simliklarning poyalari umrining uzun-qisqaligiga ko’ra bir-biridan keskin farqqiladi. O’t o’simliklaming yer ustki novdalari odatda bir yoki ba’zan 2-3 yil hayot kechiradi.

Daraxt o’simliklar poyasi bir necha yil yashaydi, asosiy poyasi tana hosil qiladi. Butalarda esa ayrim yirik poyalarini tanachalar deb qaralishi mumkin.

1. Novda daraxt, buta va yarimbutalaming o`zida kurtak va barg hosil qiladigan bir yillik shoxi

2. Novdalarda barg birikkan joy bo`g`im deyiladi.

3. Ikkita barg oralig’idagi qismi bo`g`im oralig’i deb ataladi.

4.Barglar qo’ltig’ida bittadan yoki bir nechtadan bo`lib kurtak joylashadi.

5.Kuz yaqinlashish bilan novdalarning yashil rangi o`zgarib, qo`ng`ir va qizg’ish rangga kiradi. G‘udaning po‘stida po‘kak qavat hosil qiladi. Chunki bu vaqtda ulaming po`sti qalinlashadi va ostida po‘kak bo`ladi.

7.Novdalar ikki xil bo`ladi.

8.Agar novda barg va kurtaklardan iborat bo`lsa vegetativ novda deyiladi.[2,7]

Ko`pchilik o`simliklar (kungaboqar, makkajo'xori (G'o'za)da poyalar tik o`sadi. Ko`tarilib o'suvchi poyalar esa sho`ra, tuyaqorin, shuvoq, izen' kabi o`simliklarda uchraydi: poyalari tuproqqa suya`nib, o`z gavdasini yuqoriga ko`taradi. Sebarga, o'rmalovchi ayiqtovon va shunga o'xshash qulupnay o`simliklari poyalari qo`shimcha ildiz chiqaradi. Qovun, tarvuz va qovoq o`simliklari palaklari

yer bag'irlab o'sadi. Ayrim poyalar (tok, vika, gorox) tanasini tik tuta olmasligi tufayli boshqa o`simliklarga ilashib o`sadi. Chirmashib o`sadigan o`simliklarga pechak, poyalar kiradi. O`z poyasini tik tutib tura oladigan, ingichka, uzunpoyali, ilashib, o'ralib o'suvchi poyali o`simliklar lianalar deb ataladi.

Lianalar asosan tropik o'rmonlarda o'sadigan o`simliklar hisoblanadi. Hindiston palmasi, «Ratanga» ana shunday o'simliklardan bo`lib, poyasining yo‘g'onligi 2-4 sm, bo`yi 300 metrgacha boradi. Markaziy Osiyoda uchraydigan pechakdoshlar, xmellar tipik o`tsimon lianalar bo`lsa, tok, ilon o'tlar esa daraxtsimon lianalardir.[5,6]

Poyalarning ko’ndalang kesimiga ko‘ra shakli o‘simliklar turiga qarab har xil: ularning yumaloq, silindrsimon (arpa, bug‘doy, qamish), uch qirrali (hiloldoshlar oilasiga mansub qiyoq, salomalaykum), to‘rt qirrali (yalpizdoshlar oilasiga kiruvchi yalpiz, rayhon) shuningdek, qoqidoshlar oilasidan si fiya o simligida va ko`p qirrali poya qovoq, tarvuz, sachratqi, kaktus kabi o`simlik turlarida uchraydi. Tabiatning tashqi muhitlariga moslashgan gulli o‘simliklarning poyasi uzun- qisqa bo`ladi. Bahorda o’sadigan ayrim o`tlar poyasining uzunligi atigi bir necha sm ga boradi. Tabiatda bahaybat daraxtlar ham uchraydi. Dunyoda eng baland daraxt Avstraliya evkalipti, uning balandligi 155 metrgacha boradi. Poyalarining yo’g’onligi ham xilma-xil bazi bir o`simliklarning poyasi yo‘g’on bo`lib, diametri bir necha metrga etsa, bazilariniki bir necha millimetmi tashkil qiladi. Masalan, pechak poyasining yo‘g’oningi 1-3 millimetr, Afrika 1-3 millimetr, Afrika baobob daraxti tanasining diametri esa 10-12 metrga teng keladi.[8]

Poyaning anatomik tuzilishi sistematik guruxlariga kura, sodda yoki murakkab buladi. Masalan tuban yusinlar poyasi faqat bir xil parenxima hujayralaridan, poyabargli yusinlar poyasi qobiq va suv o‘tkazuvchi to‘qimadan, plaunlar poyasi esa ksilema va floemalyan iborat o‘tkazuvchi to‘qimadan tuzilgan.

Bir pallali poyasida kambiy hosil bo‘lib bir pallali o‘simliklar poyasida kambiy hosil bo‘lmagani uchun yo’g’onlashuv uchum yo‘g‘onlashuv xususiyatiga ega emas. Aloe, yukka, dratsena kabi ayrim bir pallali o‘simliklarning poyasi fakat pertsiklda vujudga keladigan ikkilamchi hosil qiluvchi to‘qima hisobiga yo‘gonlashadi. Yer ostida joylashadigan bargi reduksiyalangan poya, odatda, ildizpoya deyiladi.[3,7]

Xulosa.

Poyaning dastlabki rivojlanish bosqichida peritsikl ostida yupqa pardalar uzunchoq hujayralardan iborat hosil qiluvchi to’qima prokambiy vujudga keladi. Prokambiy hujayralarining bulinishi natijasida birlamchi ksilema va birlamchi floema hosil buladi. Ikki pallali va ochiq urug‘li usimliklarda esa birlamchi ksilema va birlamchi floemadan tashqari ikkilamchi hosil qiluvchi to‘qima kambiy ham vujudga keladi. Ko’pchilik bir pallali usimliklar poyasining markaziy kismi parenzama hujayralaridan tuzilgan bulib, ularning orasidan o‘tkazuvchi nay-tolalar tutami o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mustafaev S.M. Botanika. Toshkent. «O’zbekiston»>.2502.470

2. Ikromov M.I., Nomuradov X.N., Yuldahev A.S., Botanika T. «O`zbekiston»>2502. 322 s 3. Vasilev A.E., VoroninN.S., Yelenevskiy A.G., Syerebryakova T.I. <<Botanika, morfologiya rasteniy»> M. «Prosvyesheniya>>. 2018.

4. Burigin V.A., Jongurazov F.X. Botanika. Toshkent. «O`situvchi». 2015.

5. Tojibaev Sh. O`simliklar sistematikasi (tuban o`simliklar). Toshkent, O‘stuvchi 20 <<O‘situvchi»>, 2011.

6. Kursanov. L. I. Botanika II tom. Tosh.2007

7. To`xtaev A. «O`situvchi» 2019. «O`simliklar anatomiyasi va morfologiyasi»>T

8. Umarova A.L. «O`simliklar anatomiyasi va morfologiyasi» dan amaliy mashg’ulotlar. T.: «O’situvchi»>, 2016

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

ATLETIK GIMNASTIKACHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Mirzalimov Muslimbek Saotjon o‘g‘li.
Andijon davlat pedagogika instituti,
Jismoniy madaniyat fakulteti 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Maqolada atletik gimnastikachilar jismoniy tayyorgarligi va maxsus-jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Atletik gimnastika, jismoniy tayyorgarlik, maxsus-jismoniy tayyorgarlik, gimnastikachilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi, fiziologik jarayonlar, metabolik jarayonlar, sportchilarning funksional imkoniyatlari.

KIRISH

Atletik gimnastikasida sport mahoratini oshirishning eng samarali yo‘llarini izlab topish ishlari, mashg‘ulot jarayonini belgilovchi barcha yo‘nalishlarda olib borilmoqda. Musobaqa dasturlari murakkabligini oshishi va ushbu sport turida raqobatni keskin kuchayganligi sababli jismoniy tayyorgarlik muammolari yana ham muhimlashib bormoqda. Atletik gimnastikasida o‘rgatish texnikasi va uslubiyatlari tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarning muhimligini tan olish bilan bir qatorda shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, mashg‘ulot faoliyatining boshqa tarkibiy qismlari kabi texnik tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlikni hisobga olgan holda manzilli takomillashtirilgandagina sport mahoratini takomillashtirish istiqbollarini amalga oshirishga yordam beradi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, ayrim harakat sifatlari (ayniqsa maxsus bo‘lmagan) haddan ortiq rivojlangan bir vaqtda, jismoniy tayyorgarlikni yetarli bo‘lmagan bazasi harakat faoliyatining (ayniqsa yuqori murakkablikdagi) texnik tuzilmalarini buzilishiga olib keladi, texnikani ancha tezroq egallash uchun imkoniyat yaratib bera olmaydi va tayyorgarlikni iqtisodsiz qilib qo‘yadi. Shu bilan birga murakkab va o‘ta murakkab mashqlarning katta hajmini egallash bo‘yicha sportchi va murabbiy oldida turgan vazifalarning qiyinligi ko‘pincha shunga olib keladiki, jismoniy tayyorgarlik (JT) boshqaruvi ikkinchi darajali vazifalarga o‘tib qoladi. Shu bilan bir qatorda, gimnastika dasturlariningo‘sib borayotgan murakkabligi, ularni muntazam yangilab borish

zaruriyati va yuqori darajadagi raqobat ko‘pincha bir kunda ikki, uch martalik mashg‘ulotlarni talab qiluvchi juda katta hajmli ishlarni olib boorish, bu jismoniy tayyorgarlikni mashg‘ulot chidamkorligi ortishi asosida yotgan faol ta’minot bilan bog‘liq yana bir muammoni keltirib chiqaradi. Bularning barchasi JTni hisobga olish, tartibga solish va boshqarish masalalarini atletik gimnastikasida tadqiqot vazifalarini birinchi rejalaridan biriga aylantiradi.

Boshqa sport turlaridagi kabi atletik gimnastikada JT vositalari samaradorligini baholashda, maxsus yo‘naltirilgan yuklamalarni u yoki boshqa harakat sifatlariga va sportchi organizmining funksional imkoniyatlariga ko‘rsatayotgan sifat va miqdoriy ta’sirini aniqlab beradigan hususiyatlardan kelib chiqish maqsadga muvofiq.

Biroq amaliyotda jismoniy tayyorgarlikka bo‘lgan bunday yondoshuvlarni amalga oshirishda ahamiyatli qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Ayrim tadqiqotchilar JT yuklamalarini faqat ikkita mezon- shug‘ullantiruvchi ta’sirlarning xosligi va shug‘ullantiruvchi potensial bo‘yicha aniqlashni taklif qiladilar. Mashg‘ulot ta’sirining o‘ziga xosligi ostida, ularni motor apparatini ishlash tartibida harakat faoliyatlari kabi, quvvat ta’minoti mexanizmlarida ham musobaqa faoliyati talablarini muvofiqlik darajasi tushuniladi. Shug‘ullantiruvchi ta’sirlarning o‘ziga xos hususiyati, o‘ziga xos toliqish (charchash) va o‘ziga xos moslashishni rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, organizmda sodir bo‘ladigan fiziologik va metabolik jarayonlar namoyon bo‘ladi. Amaliyotda bunday mezonlar asosida maxsus jismoniy va umumiy jismoniy tayyorgarlik (muvofiq ravishda MJT va UJT) mashg‘ulot yuklamalari ajratiladi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik mazmuni, qoida bo‘yicha, atletik gimnastikachini har tomonlama umumiy rivojlantirish maqsadlarida aniqlanadi va shu nuqtai nazardan yuqori malakali sportchilar tayyorgarligida katta ahamiyatga ega emas. Bir vaqtning o‘zida gimnastikada yosh gimnastikachilar uchun sport mahoratini shakllantirish bosqichlarida bunday yuklamalarning yuqori nisbati va ahamiyati saqlanib qoladi.

Atletik gimnastikada MJT mazmuni dinamik tavsiflari, ish tartibi va organizmning reaksiya tuzilmasiga ko‘ra sport musobaqa sharoitlariga, yoki barcha talablar, yoki asosiy tarkibiy qismlarga maksimal darajada yaqinlashtirilishi kerak. Gohida MJT yuklamalariga bo‘lgan ushbu talablar ishchi harakatlar amplitudasi qismlariga, maksimal kuch va uni namoyon bo‘lish vaqti, mushaklarning ish

tartibiga urg‘u berish bilan harakatlar amplitudasi va yo‘nalishi bo‘yicha mashg‘ulot va musobaqa mashqlariga o‘xshashini nazarda tutuvchi dinamik muvofiqlik tamoyilida ifodalanadi.

Atletik gimnastikada zamonaviy tayyorgarlikka kelsak, ushbu tamoyil asosiy hisoblanadi. Bundan tashqari, mashg‘ulot mashqlari parametrlarini belgilangan tavsiflari uyg‘unlik va ketma-ketlik bo‘yicha ham o‘xshash bo‘lishi zarur. Maxsus ishchanlik qobiliyatlari asosida maxsus jismoniy tayyorgarlik yotadigan boshqa sport turlaridan farqli o‘laroq, atletik gimnastika uchun yuklamalarni sportchining jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasiga birlashgan ta’siri yuklamalarning o‘ziga xos bo‘lgan eng muhim mezoni hisoblanadi.

MJTning bunday vositalarini samarali shug‘ullantiruvchi imkoniyatlari hamda sport mahoratini oshirish uchun ulardan foydalanishda nafaqat musobaqa sharoitlarini modellashtirish, balki ularni maksimal kuch qiymati, uni rivojlantirish vaqti va metabolik jarayonlar kuchi bo‘yicha oshirish kerak. Amalda bu maqsadi mushak apparatining funksional vazifasi hisoblangan MJT tizimida maxsuslashtirilgan (ixtisoslashtirilgan) kuch yuklamalaridan keng foydalanish bilan bog‘liq. Atletik gimnastikada MJTning bunday o‘ziga xos tomoni boshqa sport turlariga qaraganda qiyoslab bo‘lmaydigan darajada ahamiyatga ega bo‘lib, MTJ yuklamalarining asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bilan birga, atletik gimnastikada MJT mazmuniga qo‘yilgan talab, yetilishning yosh hususiyatlari va harakat apparatining rivojlanishiga yuklanadi. Bundan kelib chiqadiki, mushak kuchining funksional vazifasi yosh atletik gimnastikachilarning yoshga oid rivojlanish davrlari va mushak massasi va kuchini tabiiy o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lgan jinsiy yetilish ko’rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq. Afsuski, gimnastika bo‘yicha maxsus adabiyotlarda ushbu masalalar gimnastikachilar tayyorgarligida muhim o‘rin egallashiga qaramay yetarli darajada yoritib berilmagan.

Gimnastikada MJT mazmuni ushbu omillarga ham uzviy bog‘liq bo‘lib, yosh sportchilarni rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirish va harakat qobiliyatlarini maxsus takomillashtirish uchun funksional poydevor yaratishga yordam beradi. Ko‘pincha bu MJT vositalarini takomillashtirish imkoniyatlari, egiluvchanlik va harakat apparatini mustahkamlash uchun qo‘llanilishida ifodalanadi. Bundan tashqari, ushbu yo‘nalishdagi yuklamalar xususiyatini aniqlash bilan koordinatsiya qobiliyatlarining hilma-hil turlari tuzilmalarini nisbiy mustaqilligini ham hisobga olish lozim.

Sport mahorati shakllangan sari tiklanish jarayonlarini faollashtirish uchun UJT yuklamalarining roli yana ham ortib boradi. Atletik gimnastikada bu mashg‘ulotning yordamchi vositalari miqdorining ko‘p emasligi, asosan musobaqa mashqlari yoki ularning elementlaridan tashkil topgan mashg‘ulot yuklamalari ma’lum monotonlikka ega ekanligi tufayli muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, ushbu tadqiqotlar zarur darajada rivojlanmadi, chunki ko‘p yillik tayyorgarlik samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi kunda JT vositalaridan foydalanishni tashkil etishni tartibga solish masalalari ko‘pincha mashg‘ulotni tuzilish shakllarini ikki toifasi bilan bog‘liq. Bir tomondan, asosiy sharti JT vositalarini yuqori samaradorligini ta’minlash kabi ularni ustuvor yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish usuli, boshqa tomondan tayyorgarlikni muayyan sikllari, davrlari doirasida bunday vositalarni tartiblashtirish usuli nazarda tutiladi. Atletik gimnastikada ushbu masalalar yetarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan.

Ko‘p sonli tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, mashg‘ulot tuzilishining kompleks shaklida, ya’ni mashg‘ulot darslari yoki mikrotsikllar doirasida va tayyorgarlikning ancha davomiy bosqichlarida tayyorgarlikning hilma-hil vazifalari parallel ravishda hal etilganda va turli ustuvor yo‘nalishli JT vositalari qo‘llanilgandagina sportchining garmonik va har tomonlama rivojlanishiga erishish mumkin. Bunday holatlarda bitta harakat qobiliyatning rivojlanishi boshqalarining ham rivojlanishiga yordam berishi to‘g‘risida ma’lumotlar ham mavjud. Shu bilan birga JT yuklamalarining ko‘p qirraliligi, bir yo‘nalishli yuklamalar mazmuniga qaraganda kuch, tezkorlik, chidamkorlik, harakatlarning umumiy koordinatsiyasini ahamiyatli darajada yaxshilaydi. Umumiy universal qoida sifatida barcha darsliklarga kiritilgan harakat ko‘nikmalari va sifatlarining birligi, UJT va MJT birligi uslubiy tamoyillari shunga asoslanadi. Bundan tashqari, hozirgi kuda shunday tendensiya kuzatilmoqdaki, faqat sportchilarni ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida bazaviy tayyorgarlik bosqichlarida yoki bu mahorati nisbatan uncha yuqori bo‘lmagan sportchilarga tegishli bo‘lgandagina bunday yondashuv samaradorligiga erishish mumkin.

Gimnastikaga tegishli bo‘lgan JT jarayonini tashkil etishning bunday “kompleks” shakllarining roli ikkita asosiy sabablarga ko‘ra juda yuqori. Birinchidan, gimnastika ko‘pkurashi turlari bilan bog‘liq maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlikka bo‘lgan talablarning hilma-hilligi. Ikkinchidan, sport mahoratini

shakllantirish aynan sportchilarning yoshga oid rivojlanish davrlariga to‘g‘ri kelganligi tufayli. Bu o‘z-o‘zidan JT bazaviy elementlarining doimiyligi va yosh gimnastikachilar tayyorgarligida ushbu yondoshuvlarni maxsus asoslashni nazarda tutadi.

JT yo‘nalishi to‘g‘risida gapirib, qaysi harakat sifatlari qo‘llaniladigan mashg‘ulot vositalari bilan qanchalik darajagacha rivojlantirilishi kerakligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish lozim. Shuning uchun jismoniy tayyorgarlik tuzilmasi (tarkibiy qismlari) to‘g‘risida batafsil tasavvurga ega bo‘lish JTni dasturlashtirishda zarur shartlardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda yuqori malakali sportchilarda mashg‘ulot yuklamalarini tashkil etishga yuqorida bayon etilgan yondashuvlar yetarli darajada qo‘llanilmayotganligi aniqlanmoqda.

Bu ehtimol yuqori malakali atletik gimnastikachilar yuqori darajada maxsus jismoniy tayyorgarlikka ega ekanliklari bilan bog‘liqdir. Uni faqat u yoki bu yo‘nalishli juda kuchli shug‘ullantiruvchi ta’sir hisobigagina oshirish mumkin. Shu maqsadda u yoki bu yo‘nalishli JT vositalari konsentratsiyasidan foydalanish taklif qilinmoqda. Bunday konsentratsiya gimnastikachilarning maxsus kuch tayyorgarligi uchun eng maqbuli bo‘ldi. Tayyorgarlikni jadallashtirish sharoitlarida bu albatta alohida ahamiyatga egadir. Ko‘rsatilishicha, aynan shunday mashg‘ulot ta’siriga erishishda kuchga yo‘naltirilgan yillik yuklamalar hajmini 10-15%ga kamaytirish mumkin. Biroq, shuni ham inobatga olish kerakki, konsentratsiyalangan kuch yuklamalarini qo‘llanilishi tezkor-kuch ko‘rsatkichlari va o‘ziga xos toliqish natijasi sifatida, harakat apparati proprioretseptorlari sezuvchanligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu o‘z navbatida, texnik mahoratni takomillashtirish vazifalarini hal etilishini qiyinlashtiradi, shuning uchun bir-biriga mos kelmaydigan yoki o‘zaro salbiy aloqaga ega bo‘lgan mashg‘ulot ta’sirlari bilan JT vositalarini vaqt bo‘yicha ajratish taklif qilinadi. Ammo ushbu masalalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga MJTni ahamiyatli darajada jadallashtirishda uni mashg‘ulot jarayonidagi tuzilish samaradorligi, o‘ziga xos toliqish va organizmning umumiy funksional holatidagi o‘zgarishlarni boshqarilishi bilan aniqlanadi. Aynan ular u yoki bu yo‘nalishli JT yuklamalariga gimnastikachilarning tayyorlik holati va texnik takomillashuv imkoniyatlarini belgilab beradi. Biroq, gimnastikachilarni mashg‘ulot chidamkorligi kabi toliqishni o‘ziga xos namoyon bo‘lish hususiyatlarini hisobga olish usullari maxsus tadqiqotlar uchun maydon bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

Keltirilgan ma’lumotlar gimnastikachilarning maxsus jismoniy va texnik tayyorgarligini o‘zaro bog‘liq takomillashtirish uchun ahamiyatli darajada zaxiralar mavjudligi to‘g‘risida guvohlik beradi. Bir vaqtning o‘zida ular atletik gimnastikasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari (bosqichlari) JTni takomillashtirishda katta rol o‘ynashini nazarda tutadi. Uning yuqori darajasi, haddan ortiq charchash, haddan ortiq shug‘ullanganlik holatlari va moslashish jarayonini buzilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan zo‘riqishi, haddan ortiq yuklanishi, oxirigacha tiklanmaslik holatlarini to‘planish ehtimolini kamayishi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Oxirgilari ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida bir qator umuman istalmagan oqibatlarga olib keladi va yuqori natijalar yoshiga bo‘lgan individual imkoniyatlarni amalga oshirilishini chegaralab qo‘yadi. JT roli ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida jarohatlanish ehtimoli va takrorlanishini kamayishida, sport mahoratining o‘sish tempini saqlab qolishda ifodalanishi mumkin. SHuning uchun JTni ma’lum modelga (namuna) mos ravishda takomillashtirish gimnastikachilarning ko‘p yillik tayyorgarlik jarayoni va sport mahoratini o‘sish imkoniyatlarini saqlab qolishda “me’yor” mezonlaridan biri bo‘lishi kerak.

Gimnastikachilarning ko‘p yillik tayyorgarlik tizimi, uning bazaviy holatlari ko‘p sonli mutaxassislarning ishlari bilan alla qachon shakllanib bo‘lgan. Biroq atletik gimnastikaning davom etayotgan rivojlanishi va raqobatni oshib borayotganligini inobatga olish bilan birga, hal etilishi birinchi darajaga ko‘tarilgan bir qator masalalar va qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Bir tomondan tayyorgarlikni ishdividuallashtirish, JT va texnik tayyorgarlik yuklamalarini kompleks modellashtirish tamoyillarini amalga oshirish hamda musobaqa faoliyati kabi, tayyorgarlik jarayoni mazmunini ham aks ettiruvchi JTning model tavsiflarini ishlab chiqish ham ushbu masalalardan eng asosiylari hisoblanadi.

Research Science and Innovation House

REFERENCES

1. Аркаев Л.Я., Сучилин Н.Г. Как готовить чемпионов. /Теория и технология подготовки гимнастов высшей квалификации. М.: ФИС 2004. - 326-б.

2. Гавердовский Ю.К., Лисицкая Т.С., Розин Е.Ю., Смолевский В.М. Спортивная гимнастика (мужчины и женщины). Примерные программы спортивной подготовки для ДЮСШ, СДЮШОР и ШВСМ. Москва 2005. - 511-

3. Гавердовский Ю. К. Теория и методика спортивной гимнастики: учебник в 2 т. - Т. 2/Ю. К. Гавердовский, В.М. Смолевский. - М.: Советский спорт, 2014. - 231-б.

4. Eshtayev A.K., Umarov M.N. ва бошк. «Gimnastika nazariyasi va uslubiyoti» Darslik. T.: 2017. - 500-b.

5. Eshtaev A.K. Gimnastika nazariyasi va uslubiyati [Matn]: o'quv qo'llanma Eshtaev Anvar Kurganovich. - Toshkent. «O'zkitobsavdo-nashriyoti», 2020. - 312-

6. Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов. Издательство «СПОРТ» М.: 2019. - 630 - б.

7. Umarov M.N. va boshq. Gimnastika, darislik. T.Cho'lpon nomidagi BMIU, 2018. - 552-b.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Bargning morfologik va anatomik tuzilishi va xillari

Andijon Davlat pedagogika instituti tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo‘nalishi 1- kurs talabasi Abdubannonov Abdurahmonn Zafarjon oğli

Annotatsiya: Barg o‘simliklarning asosiy qismi bo‘ib,unda fotosintez jarayoni kechadi.Bu jarayon bargning qizib ketmasligini oldini oladi.Barg-oddiy va murakkab barglarga bo‘linadi.

Kalit so‘zlar: Barg,fotosintez,bargning tomirlanishi,oddiy va murakkab barglar,moddalar, barg plastinkasi,geterofiliya,yaproq,gaz almashinuvi, suv va mineral tuzlar.

Kirish: Barg (lotincha folium, yun. phyllon) – yuksak o‘simliklarning asosiy vegetativ organlaridan biri, fotosintez, transpiratsiya va gaz almashinuvi vazifasini bajaradi. Ba’zi o‘simliklar barglari evolyutsiya davomida yashash sharoiti ta’sirida shakli o‘zgarib, oziq yoki suv g‘amlash, himoya qilish, ilashish kabi qo‘shimcha funksiyalarni bajarishga moslashgan. Bargning kattaligi turlicha, odatda 3-10 sm, ayrim o‘simliklar (palma, banan) bargi 20 m ga yetadi. Bargning plastinkasimon kengaygan qismi yaproq deyiladi, novdaga yopishish uchun xizmat qiladigan ingichka qismi barg bandi deyiladi. O‘simliklarda barglar katta sathini tashkil etadi. Yashil barg sathininng asosiy funksiyasi fotosintez, transpiratsiya (suvni bug’lab havoga chiqarish) dan iboratdir.Barg yassi shaklga ega uning ustki va ostki tomonlari dorzoventral (lat. dorzo-orqa, venter-qorin) tuzilgan. Suv transpiratsiya tufayli poya orqali yuqori ko‘tarilib turadi va shu sababli o‘simliklardagi tirik hujayralar suv bilan ta’minlanib turgor hodisasi saqlanadi. Bundan tashqari transpiratsiya vositasi o‘simliklarni qizib ketishidan saqlaydi. Barg sathining o‘sishi yorug’likni tutishiga, gaz almashinishini kuchaytirishga va suvni bug’latishga bo‘lgan moslamadir. Bu moslama uzoq davom etgan evolutsiya jarayonida o‘simliklarni muhitga moslanishi natijasida vujudga kelgan. Yetilgan tipik barg uch qismdan: barg (plastinkasi, barg bandi va barg asosi (tagi)dan iborat. Kuzga ko‘rinadigan tipik barg (plastinka)ning eng xususiyatli tomoni shundan iboratki, u yassi shaklda,dorzoventral tuzilishda bo‘lib, uning o‘sishi cheklangan. Bargning katta-kichikligi har xil, eng yirik barg rafiya deb atalgan, patsimon bargli daraxtlarida 15-20 m, Janubiy Amerikaning tropik qismida, ayniqsa, Amazonka daryosi havzalarida ko‘p tarqalgan Viktoriya regiya bargning diametri 2 metrgacha,

eng kichik barg, volfiyada esa bir necha sm. gacha.

Asosiy qism: Bargning asosiy funksiyasi fotosintez, transpiratsiya, gaz almashinish, barg plastinkasida sodir bo‘ladi. Barg plastinkasi bilan barg asosi o‘rtasida barg bandi joylashgan. Uning shakli silindrsimon, yassi, uzun (yong’oqda) yoki qisqa (tolda) bo‘lishi mumkin. Bandi bor barglar bandli barglar deb ataladi. Bargning fotosintez qiladigan sathi yaproqning shakli va kattaligiga bog‘liq Yaproqning yassi bo‘lishi bargning fotosintez qiladigan yuzasi sathini oshiradi. Barg oddiy va murakkab bo‘ladi. Oddiy barg bandida bitta, murakkab barg bandida bir necha yaproq bor. Oddiy barg. yaprog‘ining shakliga ko‘ra yumaloq, tuxumsimon, nashtarsimon, to‘g‘ri chiziqpi, ninasimon, yuraksimon, doirasimon va boshqa; qirrasining tuzilishiga ko‘ra tekis qirrali, tishli, kungurali; i. 1 mm2 barg yuzasida og‘izchalar soni 40 dan 500 gacha, ba’zan undan ham ko‘proq bo‘ladi. Og‘izchalar ayniqsa sernam joylarda o‘sadigan o‘simliklar bargi kutikula, yog‘simon moddalar yoki tuklar bilan qoplangan, barg plastinkasi kichik, ko‘pincha etli; barg orqali suvning ko‘p bug‘lanishiga imkon bermaydi. Ko‘pgina o‘simliklarda esa bargning asosi tarnovga o‘xshab kengaygan bo‘lib, poyani bir qismini o‘rab oladi va barg navi yoki barg g’ilofi deyiladi. Barg g’ilofi bir pallali (bug’doydoshlarda) va ba’zi ikki pallali (ziradoshlarda) uchraydi. Barg g’ilofi tiniq (shaffof) parda (po‘st)li yoki qo‘ng’ir, kulrang bo‘lishi mumkin. Ko‘pgina o‘simliklarda barg bilan poyaning qo‘shiladigan joyida ya’ni barg bandining asosida (tagida) bir juft alohida o‘simtalar chiqadi, bularga yon bargchalar deb ataladi. Yon bargchalarning shakli pardaga, qobiqqa, mayda-mayda bargchalarga qiltanoq va ba’zan haqiqiy barglarga o‘xshaydi. Yiriklashgan yonbargchalar fotosintez vazifasini bajaradi (masalan, no‘xat, astradoshlarning ko‘pchilik vakillarida).

Barg shakllari. Barglar har xil shaklda bo‘ladi. Barg oddiy va murakkab barglarga bo‘linadi. Barglarning tomirlanish sistemasi: O‘simliklarda barg plastinkasining tomirlanishi sistemasi barg bandi va poyaga ketadigan nay-tola bog’lamlaridan iborat bo‘lib, ular orqali suv, mineral tuzlar va organik moddalar harakatlanadi. Suv va mineral tuzlar barglardagi hujayralarga tomon, organik moddalar esa doimo barglardagi hujayralardan poyaga tomon harakat qiladi.

Tomirlanish sistemasi barg plastinkasida har xil: dixotomik, parallel, yoysimon, panjasimon va tursimon shaklda bo‘ladi. Filogenetik jihatdan uncha takomillashmagan tomirlanishning qadimgi xili dixotomik yoki ayrimsimon tomirlanish hisoblanadi. Bu xildagi tomirlanish mezozoy erasidan ayrim joylarda

saqlanib qolgan relikt (lat.reliktus-qoldirilgan) kam uchraydigan ginkgoning barglariga xosdir. Ko‘pchilik qirqquloqlarda va sodda tuzilgan urug’li o‘simliklarda bitta yoki ikkita bir-biriga bilan tutashmagan oddiy tomirlar bo‘ladi. Bug’doydoshlarda parallel, piyozguldoshlarda yoysimon tomirlanishni ko‘rish mumkin. Barglarning novda o`qida joylanish tartibi. O‘simliklarning barglari novda o‘qida ma’lum bir qonun asosida joylashib radial simmetriya hosil qiladi. Barglarning poyaga joylashish tartibi irsiy belgi bo‘lib, har qaysi oilalarda ma’lum tartibda joylanish bo‘ladi.

Geterofiliya (yunon.geteros-turlicha, har xil, fillon-barg)- biror o‘simlik novdasidagi yoki poyasidagi barglarning har xil shaklda bo‘lishiga geterofilliya deb ataladi. Bu ayniqsa, suvda o‘suvchi o‘simliklarda ko‘p tarqalgan chunki ularni suv ostidagi barglari qirqilgan yoki uzun lentasimon bo‘lsa, suvning yuzasidagi barglari butunlay boshqacha shaklda bo‘lishligi bilan farq qiladi (suv ayiqtovoni, o‘q barg) . Ekologik sharoit ta’sirida hosil bo‘ladigan geterofilliya hodisasini issiq xonalarda o‘stirilayotgan avstraliya akatsiyasi misolida ko‘rish mumkin. Namlik yetarli bo‘lganda unib chiqqan o‘simtaning urug’pallalaridan keyin rivojlangan juft patsimon barglari, fillodiy (yunon. fillon-barg, eydos-qiyofa) deb ataladigan bargga o‘xshagan keng barg bandida hosil bo‘ladi. Geterofiliya tut, evkalipt, yovvoyi nok kabi quruqlikka o‘suvchi o‘simliklarda ham ko‘rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.”BOTANIKA(morfologiya, anatomiya,sistematika, geobotanika)”
O‘.Pratov,L.Shamsuvaliyevna,E.Sulaymonov,X.Axunov,K.Ibodov,V.Maxmudv
Toshkent 2010
2.w.w.w.arxiv.uz

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ А.П. ЧЕХОВА

Абдуллаев Дилшод Кодирович
Ургенческий технологический университет Ранч

Аннотация: В данном исследовании рассматривается образ женщины в русской литературе, с акцентом на анализ женских персонажей в прозе, чтобы раскрыть идейно-эстетический замысел авторов. Основная цель исследования – изучение женских образов в произведениях А. П. Чехова для выявления их идейно-эстетической функции.

Ключевые слова: женский образ, проза, русская литература, персонажи произведений.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot rus adabiyotidagi ayol obrazlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, nasriy asarlarda ayol qahramonlarning muallif tomonidan tasvirlangan g‘oyaviy va estetik ma’nosini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – A. P. Chexov asarlaridagi ayol obrazlarini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: ayol obrazi, nasr, rus adabiyoti, asar qahramonlari.

Abstract: This research explores the representation of women in Russian literature, focusing on female characters in prose to uncover the authors' ideological and aesthetic intentions. The study aims to analyze the depiction of women in A. P. Chekhov's works to understand their ideological and aesthetic roles.

Key words: female image, prose, Russian literature, characters.

Основной текст:

Антон Павлович Чехов – один из величайших русских писателей, который на протяжении своей литературной карьеры создал множество ярких, многослойных персонажей. Особое внимание в его произведениях уделяется женщинам, образы которых бывают как трагичными, так и комичными, глубокими и противоречивыми. Женщины в рассказах Чехова изображены не только как матери, жены или возлюбленные, но и как отдельные личности, с собственными переживаниями, амбициями и судьбами.

В статье рассматриваются типы женских образов в русской литературе XVIII–XIX веков, уделяя внимание их роли в культурных и социальных контекстах. В центре исследования – произведения А. П. Чехова, где женские образы часто становятся ключевыми. Чехов создает сложных и многослойных героинь, выходящих за рамки традиционных типажей.

Чеховские женские персонажи, как и его произведения в целом, отличаются глубоким психологизмом. Они живут в реальном, порой безрадостном мире, полном мелких и крупных неприятностей, и, несмотря на это, продолжают искать счастье, любовь и смысл жизни.

В рассказах Чехова часто встречаются женщины, чьи жизни сосредоточены вокруг семьи. Одна из таких героинь — Наталья в рассказе "Жена". Она олицетворяет собой образ женщины, которая, жертвуя собой ради семьи, находит удовлетворение в роли матери и жены. Однако её жизнь наполнена внутренними конфликтами и неоправданными ожиданиями от мужа, который не способен оценить её усилия и жертвы. Это произведение показывает, как женщина может стать жертвой собственных идеалов о семейном счастье.

Образ невесты, мечтающей о замужестве, является одним из наиболее часто встречающихся. Так, в рассказе «Перед свадьбой» героиня Подзатылкина представлена как заурядная девушка, чьи характеристики намеренно подчеркивают ее обыденность. Автор с иронией описывает типичный женский образ своего времени.

В рассказе «Дачница» героиня Леля, принадлежащая к категории «невест-институток», сталкивается с внутренним конфликтом между своими мечтами и реальностью. Идеализированный образ мужчины, созданный ее воображением, резко контрастирует с ее супругом и окружающими, что становится источником ее разочарования.

В рассказах Чехова можно встретить и женщин, которые стремятся к самовыражению, ищут собственный путь в жизни. Примером является образ Лизы в рассказе "Леди с собачкой". Она — женщина, которая в поисках любви и внутренней свободы выходит за рамки своего привычного окружения. Лиза и её отношения с Гуровым символизируют стремление женщины к личной независимости, но в то же время к чувственному переживанию жизни, что делает этот образ особенно трагичным.

Отдельную категорию у Чехова составляют героини-актрисы, для которых сцена становится смыслом жизни. В рассказе «Он и она» представлена многоплановая героиня, певица, чей образ трактуется через взгляды автора и мужа. С одной стороны, автор подчеркивает ее несоответствие общепринятым представлениям о красоте, а с другой – демонстрирует ее сценическую и социальную яркость, создавая сложный, противоречивый портрет.

Антон Павлович Чехов — мастер краткой формы, который сумел запечатлеть множество оттенков человеческой натуры в своих рассказах. Женские образы в его произведениях занимают особое место. Они разнообразны, живы и многогранны, и через них Чехов раскрывает как внутренний мир героинь, так и особенности времени, в котором они живут.

Многогранность женских характеров

Чехов создает персонажей, которые выходят за рамки стандартных представлений о женщинах того времени. Его героини — это не только жены, дочери или возлюбленные, но и личности с собственными мечтами, сомнениями и трагедиями. Например, в рассказе "Ионыч" Екатерина Ивановна Туркина мечтает о карьере пианистки и стремится к самостоятельности, хотя её попытки вырваться из провинциальной рутины заканчиваются неудачей. Через этот образ Чехов показывает, как общественные и семейные устои подавляют индивидуальные устремления.

В "Душечке" автор исследует тему женской зависимости от мужчин. Главная героиня, Ольга Семёновна, полностью растворяется в каждом из своих мужчин, теряя собственное "я". Этот образ часто трактуется как сатирический, но он также вызывает сочувствие: Чехов показывает, как общественные нормы формируют таких женщин.

Женщина как зеркало эпохи

Женские образы у Чехова отражают социальные и культурные реалии конца XIX — начала XX века. В его рассказах можно увидеть, как героини сталкиваются с проблемами неравенства, отсутствия выбора и моральных предрассудков. В рассказе "Анна на шее" главная героиня оказывается заложницей брака по расчёту. Анна сначала подчиняется мужу, но затем,

пользуясь своим обаянием и связями, начинает вести независимую жизнь, что становится вызовом для патриархального общества.

Чувственность и психологизм

Чехов уделяет большое внимание внутреннему миру своих героинь. Через тонкие детали он показывает их эмоциональные переживания, страхи и надежды. В рассказе "Дама с собачкой" Ганна Сергеевна предстает перед читателем как женщина, переживающая глубокий внутренний конфликт между моральными установками и чувством любви. Чехов избегает однозначных оценок, позволяя читателю самому судить о её поступках.

Женские образы в рассказах Чехова — это не просто персонажи, это многослойные портреты, через которые автор исследует человеческую природу. Чехов показывает женщин такими, какие они есть, с их слабостями и силой, страстями и сомнениями. Его героини остаются актуальными и по сей день, напоминая нам о сложной и противоречивой природе человеческой души.

Таким образом, женские образы в творчестве Чехова играют значимую роль в отражении как личных, так и общественных конфликтов, обогащая идейно-эстетическую составляющую его произведений.

Описание героини в рассказах Чехова часто строится на основе ироничного переосмысления литературных стереотипов. Детализированное изображение подчеркивает впечатление, которое героиня производит на окружающих. Внешние черты отступают на второй план, уступая место акценту на аксессуарах — драгоценностях, дорогой одежде, прическе, улыбке и жестах, демонстрирующих стремление героини нравиться.

Альтернативная точка зрения, принадлежащая мужу героини, представлена в виде его записей, где внешность жены описывается с особой дотошностью: она изображается непривлекательной, с грубыми чертами лица и отсутствием женственности. Эта характеристика контрастирует с образом, который героиня создает в обществе.

Одним из распространенных типов женских персонажей в ранних рассказах Чехова является «женщина-вамп», подавляющая волю мужчин своей харизмой и использующая привлекательность для достижения личных целей. Яркий пример — Сусанна Моисеевна из рассказа «Тина» (1886),

которая направляет свою энергию на манипуляции и удовлетворение собственных желаний. Женщина-хищница у Чехова часто описывается через животные образы: «стиснутые зубы», «сжатый кулак», немигающий взгляд и сравнения с кошкой, угрем или змеей.

В некоторых произведениях Чехов противопоставляет женские типажи — верную жену и любовницу, хищницу и жертву, невесту и возлюбленную. Для создания женских образов он активно использует анималистические сравнения: ласковые и капризные «кошечки», красивые, но опасные «гадюки», разнообразные «птички», такие как соловьи, мокрые куры или павлины. Эти образы ярко подчеркивают характер и типаж героинь.

В раннем творчестве Чехов также применяет непрямую характеристику персонажей через интертекстуальные аналогии или развернутые описания, представленные самим автором или другими персонажами. Стремление к лаконичности выражается в выделении семантически значимых деталей, которые становятся важным инструментом в создании женских образов.

Особое внимание заслуживают рассказы Чехова с однотипными названиями, написанные в 1887 году: «Полинька», «Верочка», «Зиночка». В них главными героинями становятся молодые девушки, а сюжет вращается вокруг их влюбленности. В «рассказах о невестах» желание героинь выйти замуж имеет глубокую мотивацию: они ищут не просто брака, а взаимной любви.

В женских образах этого периода на первый план выходит характер, который становится ключевым фактором в отношениях героини с миром. Все чаще Чехов изображает женщин, стремящихся реализовать себя вне рамок семьи, что отражает осознание ими новых духовных потребностей и поисков личного пути.

Антон Павлович Чехов — один из крупнейших русских писателей, чье творчество отличается глубоким психологизмом и вниманием к внутреннему миру человека. Женские образы в его рассказах занимают особое место, раскрывая многогранность женской натуры и отражая общественные и культурные реалии своего времени.

Героини с яркой индивидуальностью

Чехов создавал сложные и многогранные женские образы, каждая из которых обладает уникальным характером. Например, в рассказе **«Анна на шее»** героиня Анна предстает как жертва социальных условий, но одновременно показывает силу характера и стремление к свободе. Она вынуждена выйти замуж за нелюбимого, но обеспеченного человека, чтобы помочь своей семье. Однако, достигнув определенного положения в обществе, она находит способ наслаждаться жизнью, несмотря на моральные компромиссы.

В рассказе **«Дама с собачкой»** Ганна Сергеевна — это пример героини, которая переживает глубокий внутренний конфликт. Она чувствует себя пленницей брака, который лишен любви и понимания. Встреча с Дмитрием Гуровым пробуждает в ней чувство истинной любви, хотя эта любовь оказывается запретной и трудной.

Женские образы и общественные стереотипы

Чехов часто поднимал тему социальных ролей и стереотипов, связанных с женщинами. В его рассказах героини часто сталкиваются с ожиданиями общества, которое ограничивает их свободу выбора. Например, в рассказе **«Попрыгунья»** главная героиня Ольга Ивановна изображена как легкомысленная и поверхностная женщина, чье стремление к развлечениям и вниманию окружающих приводит к трагическим последствиям. Через ее образ Чехов подчеркивает несостоятельность попыток следовать исключительно внешним ценностям.

Женщины и их внутренний мир

Одной из ключевых черт женских образов в рассказах Чехова является их глубокий внутренний мир. Героини часто изображаются в моменты размышлений, сомнений и эмоциональных переживаний. Это делает их образы реалистичными и близкими читателю. В рассказе **«Ионыч»** героиня Екатерина Ивановна (Котик) представлена как талантливая и амбициозная девушка, которая стремится к независимости и свободе. Однако со временем её мечты угасают под давлением обыденности и социальных устоев.

Трагедия и надежда

Чеховские героини зачастую оказываются в трагических обстоятельствах, что подчеркивает несовершенство общества и человеческих взаимоотношений. Тем не менее, в их образах присутствует искра надежды, стремление к лучшей жизни и способности к изменению. Чехов умело передает эту двойственность, позволяя читателю сочувствовать и понимать своих героинь.

Заключение

Образы женщин в рассказах А.П. Чехова — это отражение множества внутренних конфликтов и переживаний, которые находятся в гармонии с их внешними условиями. Чехов не дает прямых моральных оценок своим героиням, оставляя их судьбы открытыми для интерпретации читателем. Женщины в его рассказах – это живые, многогранные личности, чьи внутренние миры так же сложны и многослойны, как и сам мир, в котором они живут.

Использованная литература

1. Чехов А.П. Полное собрание сочинений и писем: В 30 т. Сочинения: В 18 т. Письма: В 12 т. М.: Наука, 1974 - 1983. Т.1 Там же.
2. Чехов А.П. Полное собрание сочинений и писем: В 30 т. Сочинения: В 18 т. Письма: В 12 т. М.: Наука, 1974 - 1983. Т.3. с.11
3. Чехов А.П. Полное собрание сочинений и писем: В 30 т. Сочинения: В 18 т. Письма: В 12 т. М.: Наука, 1974 - 1983. Т.3.с.12Там же.
4. Чехов А.П. Полное собрание сочинений и писем: В 30 т. Сочинения: В 18 т. Письма: В 12 т. М.: Наука, 1974 - 1983. Т.1.с.239
5. Чехов А.П. Полное собрание сочинений и писем: В 30 т. Сочинения: В 18 т. Письма: В 12 т. М.: Наука, 1974 - 1983. Т.1.с.239-240

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

ABDUQAYUM YO‘LDOSH HIKOYALARIDA JAMIYAT VA INSON MUNOSABATLARI TALQINI

Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna,
filologiya fanlari doktori (DSc), BuxDU professori v.b.

Annotatsiya. Maqolada hozirgi o‘zbek nasrining taniqli vakillaridan biri Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida jamiyat va inson munosabatlari, ijtimoiy muammolar talqini masalasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Hikoya, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalari, badiiy talqin, badiiy obraz, poetik mahorat, ruhiyat tasviri, jamiyat va inson talqini.

Adabiyotda inson va uning atrof muhit, jamiyat bilan munosabati, kishilarning o‘zlari mansub bo‘lgan sharoit bilan aloqalari masalasi azaldan talqin etib kelingan. Bu, albatta, tabiiy. Chunki inson yakka o‘zi mavjud bo‘la olmagani qatorida, bir o‘zi hayot kechirib ham bilmaydi. Tabiiyki, u umri davomida tabiat va jamiyat bilan bog‘liqlikda bo‘ladi. Kishilarning yashash sharoiti, harakat qilayotgan zamini, tug‘ilib o‘sgan yoki turmush kechirayotgan hududi, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sharoiti ular hayotining mazmuniga muayyan iz qoldiradi. Insonning ma’naviy dunyosi, ruhiy olami, borliq haqidagi tasavvurlari va qarashlarida yashash tarzi va o‘zaro aloqada bo‘lgan odamlarning sezilarli ta’siri bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida jamiyat va inson munosabatlarining turli-tuman murakkab qirralari yoritilgan asarlarni uchratishimiz mumkin. Hikoya janrida barakali qalam tebratib kelayotgan ijodkorlar Xurshid Do‘stmuhammad, Abduqayum Yo‘ldoshev, Nabi Jaloliddin, Nazar Eshonqul, Zulfiya Qurolboy qizi, Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam singari ijodkorlar asarlarida jamiyat muammolari

va inson shaxsiyati, xarakteri, ruhiyati turli tomonlama talqin etib kelinmoqda. Bu borada Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyalari alohida e’tiborni tortadi.

Yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning “Osmon og‘ushi” (2018), “Qaydasan mo‘'jiza...” (2019), “Puankare” (2019), “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari” (2021) kabi to‘plamlaridan o‘rin olgan ko‘plab hikoyalarida yangi davrning muammolari, insonlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan ixtiloflar, ma’naviyat, milliylik masalalari qalamga olinadi.

Adibning hikoyalarida yangi zamon o‘zgarishlari va bularni turlicha qabul qilgan odamlarni ham, shaxsiy manfaatlari yo‘lida o‘zgalarni qurbon qilishdan qaytmaydigan shafqatsiz kimsalarni ham, o‘zgalarga ishonib, hammani o‘ziday deb bilib, pand yegan kishilarni ham uchratishimiz mumkin. Bularning bari hayotdagiday murakkab va hayotdagiday haqqoniy qilib ko‘rsatiladi. Aytish mumkinki, adib hikoyalarida turmushning achchiq haqiqatlarini ochiq-oydin, boricha ko‘rsatish va talqin etish harakati kuzatiladi. “Bozor”, “Quduq”, “Boy”, “Aybdor”, “Otasining qizi”, “Hayot endi boshlanadi”, “Hayot shafqatsiz”, “Alvido, go‘zallik” kabi bir qator hikoyalar misolida bunga amin bo‘lish mumkin.

Insonning o‘zi yashab turgan sharoitga tez moslashib ketishi, odamlar bilan iliq munosabat o‘rnatishi, albatta, ijobiy holat. Lekin jamiyat va inson munosabatlarida ko‘zga tashlanadigan ayrim ziddiyatlar ham mavjudki, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida aks etgan voqeliklar asosida bu borada xilma-xil fikr va qarashlarning yuzaga kelishiga bois bo‘ladi. Inson yon-atrofidagi kishilar bilan mustahkam aloqaga kirishishi va yurtining rivojiga munosib hissasini qo‘shishi bu – e’tirofga loyiq jihat. Ammo atrof-muhit ta’sirida insonning o‘zligi, e’tiqodi, qarashlari, ma’naviyati o‘zgarishi esa o‘yga toldiradigan masaladir. Bu, albatta, masalaning qay tarafga evrilgani bilan bog‘liqdir. Har bir inson o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatning muhim bir uzvi sifatida uning taraqqiysi uchun mas’ul. Biroq bunda

ijtimoiy holatning qay ahvolda ekanligi bilan bog‘liq jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolar, tabiiyki, jamiyat va inson munosabatlari talqinida murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy muhit ta’siriga tushgan va bu jarayonda qiyinchiliklarga uchragan qahramonlar yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshevning ko‘plab hikoyalarida uchratiladi. Iqtisodiy sharotning og‘irligi va jamiyatdagi adolatsizliklar sabab orzulari ushalmagan, kelajakka umidvor bo‘lib hayot kechirgan Toshkentboy (“Hayot endi boshlanadi”); yon-atrofdagilarning shafqatsizligi, ko‘ngliga ozor berishi tufayli tushkunlikka tushib qolgan Tirkash muallim (“Quduq”); o‘z manfaati yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan pastkash kimsalar ta'sirida qalbi ozorlangan Asrorqul (“Bandi”) kabi qahramonlar adibning turmush mashaqqatlarini, hayotning murakkabligini o‘z taqdirida namoyon qilgan insonlarning yorqin timsollaridir.

Yozuvchining “Alvido, go‘zallik” hikoyasi “Saksoninchi yillarning oxirlari edi” [3.79] degan jumla bilan boshlanadi. Asar hikoyachisi voqealar silsilasida muhim o‘rin tutmaydi, biroq o‘sha ovulning bir vakili sifatida bo‘lib o‘tgan hodisalarni kuzatuvchi va bayon qilib beruvchi vazifasini o‘taydi. Qahramon dastlab ovul odamlarini, ya’ni jamoani tasvirlaydi. Asar qahramonlari sahroda dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan oddiy mehnatkash odamlar. Hikoyachining bayonidan anglash mumkinki, u yerlardan fayz ketgan: yerlar sho‘rlay boshlagan, daraxtlar qurib bormoqda edi, hosildorlik sezilarli darajada pasaygan. Bu holatni tabiiy sharoit bilan asoslash mumkin, albatta. Ammo ovul kishilarining yashash tarzi ham havas qilgulik ahvolda emasligi ayonlashadi: “Ovulimizning aksariyat erkaklari ichishni yaxshi ko‘rishar, shu sabablimi to‘ylar janjalsiz o‘tmasdi; ayollari esa kun bo‘yi mol-hol tashvishi bilan band edilar. Kechqurunlari, televizorda biron bachkana, uzundan-uzoq serial bo‘lib qolsagina ko‘pchilik dasturxon atrofida o‘tirib, shuni tomosha qilishardi.

Mana shunday ikki tomchi suv yanglig‘ bir xil o‘tib borayotgan kunlarimizdan birida ovulimizda yaqinda armiyadan qaytgan Muslim aka uylandi. To‘yda odatdagidek molday to‘yib ichib olgan erkaklar janjal qilishdi, ayollar uy-uylariga narsa tashishdi” [3.79].

Voqealar bayoni orqali anglashiladiki, ovul kishilari hayotida yorug‘lik ko‘rinmaydi. Asarda nomlari alohida tilga olingan qahramonlar – Muslim aka, uning onasi Marvarid momo va xotini Oysuluv yanga. Asar voqealarining tuguni ana shu yuqoridagi parchada aks etgan Muslim aka va Oysuluv yanganing to‘ylaridan keyingi holatlar ta’siri bilan bog‘liq. Yangi tushgan kelinchakning ta’rifi ovuldagi jonlanishga sabab bo‘ladi. Ya’ni kelinchakning go‘zalligi, latofati hammaning e’tiborini tortayotgan edi. Ayni paytda “Cho‘l shamolida rosa qoraygan, lablari, qo‘llari taram-taram yorilib ketgan, faqat ko‘z oqigina yiltirab ko‘rinib turgan qishloq ayollari” [3.81] tasviri bilan “Atlas qo‘ylak-lozim kiygan, yaltirab turgan sochi taqimini o‘padigan, oppoq yuzli, kipriklari uzun-uzun, jismi nozikkina” [3.81] kelinchak o‘rtasidagi tafovut kitobxonning ham diqqatini jalb etadi. Bular, albatta, tashqi jihatlar. Jismoniy mehnatning og‘irligi, tabiiyki, ayollarning tashqi ko‘rinishiga ta’sirini o‘tkazishi mumkin. Biroq ovul kishilarining ma’naviy olamida ham salbiy holatlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Beg‘ubor qalbli bolalar “Kumush yanga” deb ta’riflagan qahramonga turmush o‘rtog‘i Muslim aka “kampir”, deya murojaat qiladi. Hatto ayolining joni ozorlangan paytida ham unga qo‘pollik bilan munosabatda bo‘ladi, uning qishloq erkaklariga xos g‘ururi shuni taqozo qilar edi. Ayollar ham Oysuluv yanganing holatini tushunmas edilar. Uning o‘z sharoitlariga asta-sekin ko‘nikishi uchun imkoniyat yaratib bermadilar, balki uning ko‘nglini ozorlashda davom etdilar. “Ayniqsa, ayollarning shang‘i ovozda bir-birlarini mensimay gaplashishlari, hatto behayo so‘zlarni bemalol aytib tashlashlarini ko‘rib kalovlanar, bunday mahallari kiprik qoqmay ayollarga qarab qolar, ammo miq etib

og‘iz ochmasdi. O‘z navbatida chopiqchi ayollar Oysuluv yanganing kamsuqumligidan, jur'atsizligidan battar asabiylashishar va uni gap bilan chimdib-chimdib olib xumordan chiqishardi. O‘, o‘zim necha marta ko‘rganman Oysuluv yanganing chekka-chekkaga o‘tib, yum-yum yig‘lab olganlarini. Yanga yig‘lardi-yu, lekin ovovzini chiqarmasdi. Mening nazarimda, bularning bari bir taraf edi-yu, erining qo‘pol muomalasi bir taraf edi Oysuluv yangaga” [3.83]. Bularning ta’sirida sodda, samimiy, tortinchoq kelinchak qattiq eziladi, bu uning tashqi ko‘rinishida ham zohir bo‘lgani qatorida ichki holatlarida ham yuz ko‘rsatadi. U hatto turli gap-so‘zlar ta’sirida she’r, xotira yozib yuradigan daftarlarini ham “qumg‘on tagiga tutantiriq izlayotgan oshpaz opaga berib yubordi” [3.84]. Tabiiyki, hikoya voqealari ana shunday ayanchli holatlar tasviri asosida rivojlantirilib borilar ekan, ayolning ruhiyatida, keyingi hayotida qanday o‘zgarishlar bo‘lganligi kitobxonni qiziqtirib qo‘yadi. Buni hikoyachining keyingi jarayonlarda ovul hayotidan uzilishi bilan dalillanadi. O‘qishdan ta’til paytida qaytgan qahramon butunlay o‘zgacha manzaraning guvohi bo‘ladi. “Paqirlarini plastmassa idishlarini sisterna quvuridan oqayotgan suvga birinchi bo‘lib qo‘yishga urinib bir-birlarini sur-sur qilayotgan ayollar to‘pi ichida turgan bir qop-qoragina, dog‘ bosgan mushtday yuzini ajin to‘rlatgan, sochlari to‘zib ketgan, eski xalat kiygan juvon baqirmoqda edi. Darvoqe, ayollarning hammasi baqir-chaqir qilishar, ammo men faqat shu juvonning so‘zlarini eshitardim” [3.85]. Ko‘rinib turibdiki, hikoya avvalida yon-atrofdagi ayollardan latofati va ibosi bilan alohida ajralib turgan kelinchak, asar so‘ngida ularning safiga qo‘shiladi. Ya’ni o‘sha ovuldagi boshqa ayollarga xos bo‘lgan salbiy jihatlarni o‘zlashtirib oldi. Ayolning tashqi ko‘rinishidagi o‘zgarishlar noqulay ob-havo, qiyin sharoitda mehnat qilayotganligi bilan bog‘liq, albatta. Ammo uning o‘sha ayollar kabi baqirib gapirishi, holati tasviri hikoyachi qahramon qatorida o‘quvchiga ham ta'sir ko‘rsatadi. “Nahot, nahot tirikchilik, bir burda non tashvishlari

shunday suluv juvonni bir yil ichida kampirga aylantirgan bo‘lsa. Qani men ko‘rgan Oysuluv yanganing suluvligi, ibosi? Qani men Oysuluv yanganing ko‘zlarida ko‘rgan o‘t? Bugun, ikki paqir sho‘r suv uchun jonini jabborga berib talashayotgan, shu suvni olgani uchun o‘zini baxtiyor sezayotgan Oysuluv yangani kim, kimlar bu ko‘yga soldi… Nahot, nahot endi bir insonning umri shu bilan o‘tib ketsa…” [3.86].

Hikoyada jamiyat va inson munosabatlarida ko‘zga tashlanadigan ana shunday ziddiyatli masalalar qamrab olingan. Iqtisodiy ahvoldagi tushkunlik, kishilarning bir-birlariga bo‘lgan ta’sirlari, go‘zallikka soya soldi. Asarning boshlanishida yozuvchi tasvirlagan tabiatdagi tushkunlik, yerlarning sho‘rlashi, daraxtlarning qurib borayotgani tasviri asar qahramonining taqdiriga ishora qiladi. Voqealar yakunida go‘zallikni his qilmagan, uni asrab-avaylamagan jamiyat uni mahv etadi, o‘z girdobiga tortadi, degan xulosani chiqarish mumkin. Asar orqali og‘ir ijtimoiy, iqtisodiy sharoit kishilarning nafaqat jismoniy holatiga, balki ma’naviy dunyosiga ham salbiy ta’sir etganligini ko‘rish mumkin. Chindan ham “Yozuvchi “Alvido, go‘zallik…” hikoyasida sho‘rolar davrida ko‘p yillar hukmronlik qilib, insonni haqiqiy go‘zallikdan mahrum etgan: “Go‘zallikning manbai mehnatdadir”, degan aqidaga ham tuzatish kiritadi. O‘zi uchun emas, ko‘pchilik uchun jamoa xo‘jaligida qilingan majburiy mehnat Oysuluvdek nozik va ma’suma ayol go‘zalligini barbod qildi. Go‘zallik qadrlangan joyida azizdir. U qo‘llab-quvvatlansa, unib-o‘sishi, yashnashi uchun sharoit yaratib berilsagina kamolga yetadi” [4]. Ijodkor Oysuluv va u kelin bo‘lib tushgan ovul odamlari tasviri orqali inson va jamiyat muammosini qalamga olgan, deyish mumkin. Cho‘llarni o‘zlashtirish siyosatining salbiy oqibatlari, kishilarning turmush sharoitlaridagi og‘ir ahvol va bu holatlar ta’siriga tushgan odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni yozuvchi “Alvido, go‘zallik” hikoyasida tashqi va ichki olamida go‘zallik zohir bo‘lgan

o‘zbek ayoli – murakkab davrning vakilasi badiiy timsolini yaratish orqali ochib berdi.

Umuman olganda, Abduqayum Yo‘ldosh hikoyalarida inson olami ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, davrning murakkabliklari bilan bog‘liqlikda talqin etib berildi.

Adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.
2. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Т.: Yangi nashr, 2010. – 364 б.
3. Yo‘ldoshev A. Albido, go‘zallik. / Yo‘ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 79-86.
4. Солижонов Й. Гўзалликнинг турфа ранглари. Бир ҳикоя атрофидаги ўйлар. / Интернет сайти: https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abduqayum-yoldosh-alvido-gozallik-yoldosh-solijonov-gozallikning-turfa-ranglari-abduqayum-yoldosh-sunbulaning-ilk-shanbasi.html
5. To‘rayev D. Yangi o‘zbek adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan. 2008. – 192 b.

Research Science and Innovation House

"JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN" JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Interpretation of genre and subject scope and poetics of Jadid literature

To`rayeva Umriniso Rahmatovna
Ph.D., teacher
Bukhara State University,
niso2019@mail.ru

Annotation: One of the most important events in the cultural and spiritual life of Turkestan modernism is the appearance of the new literature of Turkestan. As we know, a new generation has entered the field of our literature since the 1990s. This period is characterized by a number of talents such as Hamza Hakimzada Niyazi, Mirmuhsin, Avloni, Behbudi. This generation gave up the old way of thinking and gave up completely new ideas and views about social life and the role of art in society.

Key words: modernism, new literature, ocial satire, russian occupation, renewal of poetic content and form

Jadid literature and the creativity of its representatives have been studied by experts in various aspects. We can see that Begali Kasimov, a historian, turned to hundreds of sources while researching this topic. At this point, the famous literary critic and critic Otajon Hashim of the twenties divided the development of the history of Uzbek literature into two major stages:

1. Chigatai literature
2. Modern literature

"Chigatoy literature is the most flourishing period of our literature, and the literature up to modern times consists mainly of the reduced form of the literature of this period." In our opinion, the "Literature of the Chigatoy period" emphasized by Otajon Hashim is the literature of the national renaissance, the literature that laid the foundation for the emergence of modern literature. A number of artists such as Turdi Farogiy, Gulkhaniy, Muqimiy, Ogahiy are recognized as representatives of the literature of this period (emphasis is ours - U. Torayeva). Begali Kasimov does not deny these opinions and gives his views: "Jadid literature renewed our literature that has been coming for centuries. This literature is a new literature both ideologically and artistically. This literature is national literature. His ideas served as the ideology of the national awakening and national liberation movements, which started at the

end of the 19th century, rose sharply in the beginning of the 20th century, and in the 20th years led the masses into a life-and-death struggle. This literature was born in the second half of the 19th century due to the concrete socio-political conditions in Turkestan. Mukimi, who began to feel the social satire and the national and religious decline in the country that began as a result of the Russian occupation, and put it on the agenda of literature, and his literary thought served as a foundation for this literature.

It was mainly formed at the beginning of the 20th century. In its formation, the appearance of our intellectuals in the world, in particular, the establishment of relations with the Islamic world, first of all, the desire of Russian Muslims for mutual cooperation and unity, and finally, the arrival of the press, were of great importance. However, the true fruits of this literature became visible in the 20s after the October events. Cholpon's three poetry collections: "Awakening" (1922), "Springs" (1923), "Tong Sirlari" (1926) defined the original characteristics of new Uzbek poetry. Abdulla Qadiri started the Uzbek novel, which is an important phenomenon of Uzbek literature, with the novel "Otkan Kunlar". Fitrat, Hamza, Behbudi were able to transfer Uzbek drama to the national foundations, and Fitrat laid the first bricks of the science of the new Uzbek language and literature. "

In this way, the research scientist considers it appropriate to define the boundaries of modern Uzbek literature as 1865-1929. Although it was mainly formed from 1905, and its creators began to be repressed from 1925, it is not right to ignore the period before and after it. Since 1929, the direction of this literature has changed, socialization has become noticeable.

It is proved that the renewal of poetic content and form in Jadid literature. Professor B. Qasimov explains some features of the new literature as follows: "The Nation and the Homeland and its situation and fate were at the center of the new Uzbek literature. Both the presentation and the solution of this topic are fundamentally different from our traditional literature. For our ancestors, this is a clear concept. For example, the Motherland, this is Turkestan, Movarounnahr, and the Nation, first of all, Turkestans, Uzbeks. We read "vatan" by the poet Tavallo. In Dilshod Barno's ghazal, which begins with "Hey fellow-minded, fellow-minded, fellow-citizen, fellow-countrymen", "Tashkent, Khoqand and Ferganas" are mentioned as symbols of the motherland. Loving the country, appreciating it is considered a sign of faith. Hamza Hakimzada Niyazi calls it "sweet soul of bodies,

blood of veins". Tavallo rhymes the word "homeland" with "jonu tan" and writes "bu vatandur body". One of the urgent problems of that time was the freedom of women and their role in society. This issue was widely discussed in the literary process, Karimbek Kami, Saidahmad Vasli, Sharafiddin Khurshid defended "Tasattiri Kisvan". Anbar Otin, Tavallo, and Nozimakhanim entered into a debate with them and brought up the education of girls and equal marriage in all respects. In Tavallo's poem "From the language of oppressed girls, our relatives and nurses", we find such lines:

Let the teacher die in the vorgon, the groom's age,
Ikov is also a scholar, let us die young and at the same age.
May he die happily in this world, and may our brother die in the hereafter,
If we fall into old age, let us die of greed.
God, save us from this worldly disaster.

New literature grew step by step with the events of the time. In particular, the description of the national liberation movements, which took place in 1916 in connection with the decree of Tsar Nicholas II on the recruitment of Turkestan residents into labor, which went down in history under the name "Labor events", is an important page of new literature. Although songs, poems, epics, and dramatic works have been created dedicated to this event, they have not yet been studied from a literary-problematic, literary-historical point of view. Master scientist B. Kasimov says about this: "One can count about ten collections of poetry. For example, Hamza's "Complex of National Poems for National Anthems" written in 1917, Avloni's "Workers' Ashuvala", Sidqi's "Rabotchilar Demonstration", "The Workers' Arrival", Akbariy Tashkandi's "Service to the Motherland" can be cited as several examples.

In Uzbek literature, a 1500-line epic was written and published in a very short period of time about the Russian revolution of February 1917. The research scientist, the author of the saga, Sidkiy Khondayliky, thoroughly thinks about the reason and essence of the February events, and systematically analyzes the process in such a way that we can't help but recognize his ability to observe and protect, as well as his ability to acquire and use information.

New literature grew step by step with the events of the time. In particular, the description of the national liberation movements, which took place in 1916 in connection with the decree of Tsar Nicholas II on the recruitment of Turkestan

residents into labor, which went down in history under the name "Labor events", is an important page of new literature. Although songs, poems, epics, and dramatic works have been created dedicated to this event, they have not yet been studied from a literary-problematic, literary-historical point of view. Master scientist B. Kasimov says about this: "One can count about ten collections of poetry. For example, Hamza's "Complex of National Poems for National Anthems" written in 1917, Avloni's "Workers' Ashuvala", Sidqi's "Rabotchilar Demonstration", "The Workers' Arrival", Akbariy Tashkandi's "Service to the Motherland" can be cited as several examples.

In Uzbek literature, a 1500-line epic was written and published in a very short period of time about the Russian revolution of February 1917. The research scientist, the author of the saga, Sidkiy Khondayliky, thoroughly thinks about the reason and essence of the February events, and systematically analyzes the process in such a way that we can't help but recognize his ability to observe and protect, as well as his ability to acquire and use information.

It can be seen from the poem that the poets are no longer in love with a neighbor, but with freedom and a man. Along with the traditional didactic, syncretic prose, the use of realistic prose characteristic of European literature is noticeable. As an example of this, in 1914, Mirmuhsin Shermuhamedov's "Befarzand Ochildiboy" and Hamza's "Yangi Saodat" national novels appeared. The scientist proved through his research that these works served as an experiment and a test for the later novels of Qadiri and Cholpon. It was also during this period that publicism was established, as well as the emergence of dramaturgy and the formation of theater was very difficult. After all, the attitude of Islam to the theater and independence in general was known.

The researcher says that it was not for nothing that poet Tavallo wrote in 1914: "Whoever you see on stage, this is his courage." Despite this, the theater developed rapidly from 1913-1914, and in a very short period of three to four years, more than 30 plays were staged. In such poems, the enlightenment, cultural and spiritual views of the nation rose to the level of a poetic image. Such as the fate of the characters in A. Qadiri's play "The Unfortunate Groom" and the factors that caused it, or the fate of Tashmurod in "Padarkush" by Behbudi. Today's new Uzbek literature is the legal heir of this literature, says the researcher.

Uzbek literary studies, which has been formed over the centuries, sometimes rising, sometimes experiencing a crisis, and withstanding various ideological pressures, today is rising to a new stage of development. With the honor of independence, a completely new approach to cultural heritage, in particular, artistic creativity and its history, is being formed. Researching the unexplored aspects of our literature, reforming the principles of literary studies and the history of literature on this basis, forming them based on the requirements of the new era, and giving an impartial assessment are among the current issues on the agenda today.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. B. Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik.
2. B. Qosimov. Излай-излай топганим....Тошкент. Адабиёт ва санъат. 1983 й., бет 128
3. Toraeva U. R. Definition and research methods of Uzbek modern literature //Current research journal of philological sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 104-107.
4. Turaeva U. R. Determination of characteristics of uzbek jadid schools and literature //наука и инновации в xxi веке: актуальные вопросы, открытия и достижения. – 2021. – С. 154-156.
5. Rakhmatovna T. U. UDC: 82.09. 575.1 Literary critic begali kasimov is a researcher of modern literature //scientific reports of bukhara state university. – С. 114.
6. Rakhmatovna T. U. Research of heritage of representatives of uzbek literature of the period of national renaissance //principal issues of scientific research and modern education. – 2022. – Т. 1. – №. 7.
7. Torayeva U. The Tatar press and Turkestan Jadidism In The researches of Begali Kasimov //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №.
8. Torayeva U. O‘zbek jadid adabiyoti va jahon ijtimoiy-adabiy harakatchiligi masalasining tadqiq etilishi //Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 206-211.
9. Raxmatovna T. U. Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 869-875
10. To‘rayeva U. Self-education in Navoi's work //conference on the role and importance of science in the modern world. – 2024. – т. 1. – №. 4. – с. 213-221.

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

O‘smir va o‘spirin yoshda stressga bardoshlilik

Quranboyeva Zumrad Ravshanbekovna
Urganch Davlat Universiteti sport faoliyati va pedagogika psixologiya fakulteti amaliy psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.
quranboyevazumradxon@gmail.com
Ilmiy rahbar: Zamira Atamuratova

Annotatsiya: "Stress - bu bizning hayotimizdagi tabiiy bir qismdir; muhim bo'lgan narsa, uni qanday boshqarishimizdir." "Stressni qanday boshqarishni o'rganish, hayotimizdagi eng muhim ko'nikmalardan biridir." "Ba'zan stressni eng yaxshi dori sifatida ko'rishimiz mumkin; u bizni harakatga keltiradi va o'zgarishga undaydi." Chunki stressning hozirgi kundagi dolzarbligi bir qator omillar bilan bog‘liq. Zamonaviy turmush sharoitlari, ish va shaxsiy hayotdagi talablar, ijtimoiy o‘zgarishlar va texnologik rivojlanish stress darajasini oshirishi mumkin. Quyida stressning dolzarbligi haqida ba’zi asosiy jihatlar: ijtimoiy, iqtisodiy omillar, ish joyidagi bosim, shaxs hayotidagi o‘zgarishlar, texnologik rivojlanish, ruhiy salomatlik ta’sir ko‘rsatish jihatlari keltirib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: GAS, metabalizm, kartizol, stressga bardoshlilik,distress, eustress

Gans-Sele -" stress" tushunchasini ilk bora fanga kiritilgan olimlardan biri hisoblanadi.Gans Sele (Hans Selye, 1907–1982) — stress nazariyasini yaratgan taniqli olim va fiziolog. U Avstriya-Vengriyada tug‘ilgan va keyinchalik Kanadada ishlagan. Selye inson organizmining stressga javobini tadqiq qilib, bu sohada poydevor yaratgan. U " General adaptation syndrome" (GAS) modelini ishlab chiqadi. Bu model stressning 3 bosqichini alarm, resistance va exhaustion o‘z ichiga oladi. General Adaptation Syndrome (GAS) – bu stressga javob berish jarayonini tushuntiruvchi model bo'lib, GAS uchta asosiy bosqichdan iborat:

1. Alarm Reaction (Ogohlantirish Reaktsiyasi):

• Bu bosqich stressor (tashqi yoki ichki omil) ta'sir qilganda boshlanadi. Organizm "jang yoki qochish" (fight or flight) reaktsiyasini ko'rsatadi, bu esa

adrenalinni va boshqa stress gormonlarini chiqarishga olib keladi. Bu gormonlar yurak urishini tezlashtiradi, qon bosimini oshiradi va energiya zaxiralarini faollashtiradi.

2. Resistance (Qarshilik):

• Agar stressor davom etsa, organizm uning ta'siriga moslashishga harakat qiladi. Bu bosqichda organizm o'z resurslarini stressga qarshi kurashish uchun ishlatadi. Biroq, bu jarayon uzoq davom etsa, organizmning resurslari kamayadi va stressga qarshi kurashish qiyinlashadi.

3. Exhaustion (Charchoq):

Agar stressor uzoq vaqt davom etsa va organizmning moslashuvchanlik qobiliyati tugasa, charchoq bosqichi boshlanadi.Bu bosqichda organizmning energiya zaxiralari tugaydi va immun tizimi zaiflashadi.Natijada, organizm turli kasalliklar va sog'liq muammolariga duch kelishi mumkin.GAS modeli stressning inson salomatligiga ta'siri va organizmning stressga qanday javob berishini tushunishga yordam beradi.

Gans Sele o‘z tadqiqotlarida stressga javob berish jarayonida yuzaga keladigan garmonal o‘zgarishlar xususan, kortizol miqdoring o‘zgarishini ta’kidlaydi. Kortizol – bu inson organizmida ishlab chiqariladigan asosiy stress gormoni bo'lib, u adrenal bezlarida sintezlanadi. U ko'plab muhim funksiyalarga ega va organizmning stressga javob berishida muhim rol o'ynaydi. Kortizolning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Metabolizmni boshqarish: Kortizol, uglevodlar, yog'lar va oqsillar metabolizmini tartibga solishda ishtirok etadi. U energiya zaxiralarini (masalan, glyukoza) oshirishga yordam beradi.

2. Stressga javob: Stress holatida kortizol darajasi oshadi, bu esa organizmga "jang yoki qochish" reaktsiyasini amalga oshirish imkonini beradi. Bu jarayon yurak urishini tezlashtiradi va qon bosimini oshiradi.

3. Immun tizimiga ta'siri: Kortizolning yallig'lanishga qarshi xususiyatlari bor, shuning uchun u immun tizimining faoliyatini tartibga solishda ham muhimdir.

Biroq, uzoq muddatli yuqori kortizol darajalari immun tizimini zaiflashtirishi mumkin.

4. Suyak va mushak sog'lig'i: U suyak zichligini kamaytirishi va mushak massasi yo'qotilishiga olib kelishi mumkin, agar darajalari uzoq vaqt davomida yuqori bo'lsa.

5. Ruhiy holat: Kortizol darajalari ruhiy holatga ham ta'sir qiladi. Yuqori darajadagi kortizol depressiya va tashvish kabi ruhiy holatlarni kuchaytirishi mumkin. Kortizol darajalari kundalik hayotda tabiiy ravishda o'zgaradi, masalan, ertalab yuqori bo'lishi va kechqurun pasayishi odatiy holatdir. Biroq, uzoq muddatli stress yoki boshqa omillar kortizol darajasining doimiy ravishda yuqori bo'lishiga olib kelishi mumkin, bu esa sog'liq uchun salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Stress haqida ba'zi terminlar va iqtiboslar keltirib o'tiladi:

1. Stress - bu shaxsning muhitdagi talablar yoki bosimlarga qarshi kurashish qobiliyati va resurslari o'rtasidagi nomutanosiblik holati.

2. Eustress - ijobiy stress, bu motivatsiya va energiya beruvchi, shaxsning rivojlanishiga yordam beruvchi stress turidir.

3. Distress - salbiy stress, bu insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga zarar yetkazuvchi, noqulaylik va xavotir keltiruvchi stressdir.

Stress bo‘yicha olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar ko‘plab sohalarda jumladan: psixologiya, nevrologiya , tibbiyot va sotsiologiya kabi sohalarda amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar stressning sabablarini uning inson salomatligiga ta’sirini va stressni boshqarish usullarini o‘rganishga qaratilgan. Stress orqali insonning muayyan vaziyatlarga yoki tashqi omillarga javoban his qiladigan ruhiy va jismoniy holati. U har bir inson uchun o‘ziga xosdir va uni boshqarish ko‘nikmalari ham o‘ziga xosdir. Ko‘p stressga tushgan insonlarda stress zo‘riqishining oqibatlari quyidagi holatlarda namoyon bo’lishi keltirib o’tilgan:

-diqqatni jamlay olmaslik

- ishda xatoliklarga yo‘l qo‘yish

- xotiraning yomonlashuvi

- charchash holati ko‘p kuzatiladi

- tez tez gapirish

- fikrni jamlay olmaslik

- ishtaxani yo‘qolishi kabi holatlar ko‘p kuzatiladi. Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha kasalliklarning 70% emotsional buzilishlar ya' ni stress holati bilan bog‘liq ekan. Yevropa mamlakatlarida yiliga millionga yaqin insonlar stressogen vaziyatlar tufayli, yurak faoliyati buzilishidan vafot etar ekan. Xususan o‘spirinlik yosh davrida stressli vaziyatga uchragan yoshlarning stressni qabul qilmaslik oqibatida, yuzaga keladigan surunkali uyqu ehtiyojining ortishi yoki tajanglik bosqichida tez asabiylashish, tushkunlik holatlari hukm surishi kuzatiladi.

Biz ham ushbu fikrlarni dalillash maqsadida jami (.45) nafar o‘spirin yosh davridagi i sinaluvchilarda tadqiqot o‘tkazdik. Unda stressni o‘rganishga mo‘ljallangan PSM-25 metodidan foydalandik. Quyida jadvalda gender tafovutga ko‘ra natijalar tahlili keltirilgan:

PSM-25 metodikasi yosh davrlari natijalar tahlili (Styudent-T mezoni bo□yicha n=45)

Shkalalar	**Yoshi**	**N**	**O□rtacha rang**	**t**	**p**
Stressga bardoshlilik darajasi	O‘smirlar	22	90,5909	2,807	0,008**
	O‘spirinlar	23	69,8696		

Izoh: **p<0,01

Tadqiqotimiz natijalar tahliliga ko□ra, stressga bardoshlilik darajasi shkalasi bo‘yicha o□smirlik va o□spirinlik yosh davridagi sinaluvchilar orasida ahamiyatli tafovutlar kuzatildi (t=2,807; p<0,01). Mazkur holat o‘smir va o‘spirin yoshdagilar stressga bardoshlilik darajasi bo‘yicha farqlanishi bir qancha omillarga bog‘liq. O‘smirlar, odatda, hayot tajribasi va hissiy rivojlanish nuqtai nazaridan ko‘proq resurslarga ega bo‘lishadi, bu esa ularning stressga bardoshliligini oshiradi.O‘smirlarda stressga bardoshlilik darajasi yuqori bo‘lishi mumkin, lekin har bir shaxsning individual xususiyatlari va hayot sharoitlari ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlar ko‘proq resurslarga ega bo‘lishlari sababli stressga bardoshlilik darajalari yuqori bo‘lishi mumkin. Ularning hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalari, shuningdek, hayotdagi turli tajribalar stressli vaziyatlarda samarali muomala qilishlariga yordam beradi. Biroq, har bir shaxsning individual xususiyatlari, sharoitlari va stressga nisbatan reaksiyalari farq qilishi mumkin. Shu sababli, o‘smir va o‘spirin yoshdagilar orasida stressga bardoshlilik darajasi har xil bo‘lishi mumkin va bu holatlarni yaxshiroq tushunish uchun individual yondashuv zarur.

Foydalangan adabiyotlar

1.Гамезо М.В, Домашенко И.А Атлас по психологии М; «Просвещение» 1986 г

2.Гиппенрейтпер Ю. Б, Введение в общую психологию: Курс лекций: Учебное пособие для вузов. — М.: ЧеРо, 1997.

3.Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y

4.Джемс В. Психология.- М., 1991

5. Ergash G‘oziyev "Umumiy psixologiya" T- 2002y

6.Karimova V.M. Psixologiya T-2002 y

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

TUPROQLAR UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA MOSH NAVLARIGA AZOTABACTER CHROCOCCUM A-2 SHTAMMI SAQLAGAN BIOPREPARAT QO’LLASH SAMARADORLIGI

Ro’zmetov Rasulbek Shukurullayevich
Urganch davlat universiteti, rasulbekruzmetov1998@gmail.com

ANNOTATSIYA

Azotabacter.chroococcum mikroaerofil o'simlik o'sishini rag'batlantiruvchi rizobakteriya bo’lib, bu bacillus shaklli va gramm manfiy bakteriyadir. Mezofil sifatida bu bakteriya o'rtacha haroratli tuproqlarda yaxshi rivojlanadi va neytral pH muhitini talab qiladi. U aerob sharoitida azotni o’zlashtirishga qodir bo’lgan bakteriyalar qatoriga kiradi. Tuproqda fosforli birikmalar kam bo'lishi mumkin emas, aks holda azotni o’zlashtirishga to'sqinlik qilishi mumkin. Fosfordan tashqari, bu bakteriyalar azotni o’zlashtirishi uchun kaliy, oltingugurt, magniy va kaltsiy kerak bo’ladi. Azotni o’zlashtirishi uchun *Azotabacter chroococcum* uchta ferment (katalaza, peroksidaza va superoksid dismutaza) ishlab chiqaradi.

Tayanch so’zlar: Azotabakteriya, “Durdona”, ”Qahrabo”, ”Radost”, ”Yer malhami”, tuproq , unuvchanlik, shtamm, mikrobiologik tekshiruv, dukkak, purkash.

Kirish.

So'nggi paytlarda o'simliklar o'sishini rag'batlantiruvchi rizobakteriyalar ekinlar hosildorligini oshirish va qishloq xo'jaligi barqarorligini oshirish uchun qo'llanildi. O'simliklar o'sishini rag'batlantiruvchi rizobakteriyalar biologik azot fiksatsiyasi, fitogormonlar ishlab chiqarish, fosfor kabi minerallarning eruvchanligi va temirni xelyatsiya orqali o'simlik ildizlariga yetkazib beradigan sideroforlarning sintezi orqali azotni ko'paytirishda yaxshi ishtirok etadi. [19]

Azotabakteriya inokulyatsiyasi orqali o'simliklarning o'sishini rag'batlantirish bir necha omillarning sinergik ta'siriga bog'liq bo'lishi mumkin. Kalaiarasi va Dinakar (2015) [29] Azotobacter va Paenibacillus hujayralarining turli formalarini qo'llashni o'rgandilar. In vitro sharoitida makkajo'xorining o'sish va hosildorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha 75% N va P darajasi bilan bir shtammli emlash, birgalikda emlash va koagregatlarni qo'llashni tavfsiya

qildilar. Ular Azotobacter va Paenibacillus ning har bir formasi ta'sirida makkajo'xori o'sishi va hosildorligi, emlanmagan nazorat bilan solishtirganda yuqori darajasini kuzatdilar. Shunga qaramay, Azotobacter va Paenibacillus hujayralarini tabiiy koagregatlar sifatida qo'llash maksimal samaradorlikni, so'ngra o’sishni boshqaruvchi rizobakteriyalar hujayralarini birgalikda va bitta shtammli inokulyatsiyani aniqladi. Azotobakter izolatlari Helminthosporium sp qo'ziqoriniga qarshi maksimal antifungal xususiyatga ega. Macrophomina sp. ga minimal miqdorda anti ta’sirga ega. Izolyatsiyalarning tasdiqlangan patogenlar bilan to'qnashuvi natijasida erishilgan RGI shtammi 10% dan 48% gacha.

Tadqiqot metodologiyasi: Dala tajribamizni Paxta seleksiyasi urug’chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Xorazm ilmiy tajriba stansiyasi dala tajriba maydonida olib borildi. Tajribada keng dalada bug’doydan bo’shagan maydonga qatorlab ekildi. Qator oralig’i 60-60 smli qilib, qatorning ikkala tomoniga ekildi. Ekish bir- biridan uzoq masofada yer malhamining tarkibida azotabacter chrococcum A-2 shtammi saqlagan biopreparatning suvli eritmasida mosh navlarining urug’lari yarim soat davomida ishlov berilib bir tarafga ekildi. Bu maydonning qarama-qarshi tomonidagi ajratilgan yerda esa mosh navlarining urug’lari oddiy suvli eritmada yarim soat ishlov berib ekildi. Ushbu maydondagi o’simliklardagi o’zgarishlar Beydemanning fenologik tajriba – kuzatish usulidan, “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (O‘zPITI, 2007) kabi uslubiy qo‘llanmalari asosida bajarildi. Yer malhami biopreparatidan foydalanish Xorazm viloyati, Urganch shahri, ”BIO O’G’IT” ishlab chiqarish korxonasi yo’riqnomasi asosida amalga oshirildi.

Tahlil va natijalar: Paxta seleksiyasi urug’chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti Xorazm ilmiy tajriba stansiyasi dala maydoni (PSUYEAITI Xorazm filiali) da 2024 yilda o’tkazildi. Bunda moshning Durdona navi urug`lariga ekishdan oldin tarkibida azotabacter chrococcum A-2 shtammini saqlagan biopreparat ta’sir ettirildi.

Tajriba dalada davom ettirilib, urug’larni ikki xil maydonga ekildi. Biri yer malhami azotabacter chrococcum A-2 shtammini saqlagan biopreparat bilan ishlov berilgan urug’ ekilgan maydonda, biri esa oddiy suv bilan ishlov berilgan urug’ ekilgan maydonda olib borildi (1-rasm).



1-rasm. Urug’larni yer malhami bilan ishlov berilishi.

Har o’simlik unib chiqish davridan to hosil qilish davrigacha fenologik kuzatuvlar qilinib borildi. Biz uchun asosiy rizosfera qism bo’lganligi sababli o’simlikning dukkaklash fazasida ildizlari kavlaniv tugunaklari olib o’rganildi. Eritma o’sish davrida o’simlik bargiga purkaldi.

Ikki xil usulda ekilgan maydondagi tafovutlar aniqlandi. Bu jarayonda azotabakteriya hosil bo’lishi, tugunaklar yirik-maydaligi, shakli, rangi og’irliklari bilan oddiy sharoitda o’sgan mosh o’simligidan, yer malhamili muhitda o’sgan mosh o’simligi rizosferasi ustunligi yaqqol ko’rindi.

Vegetatsiya davrida shohlanish va biomassa jihatidan Radost va Qahrabo yetakchi o’rinni egallagan bo’lsada, bizga kerakli bo’lgan hosil ko’rsatgichlarida asosan Durdona mosh navi o’zib ketdi. Ularda azotabakteriya tugunaklari asosan gullash davridan to dukkaklar pishish davrigacha ro’y berdi. Yer malhami ta’sirida ildizda ayniqsa, ildizning poyaga yaqin qismida azotabakteriya tugunaklari g’uj-g’uj bo’lib joylashib olgan (2-rasm). Bu shu o’simlik tuproqida azotabakteriyalar kulturasining faolligidan va ko’pligidan darak beradi. Azotabakteriyalar tuproqda qanchalik ko’p bo’lsa, ulardagi fiksatsiya jarayoni ham shunchalik kuchli bo’ladi va tuproq unumdorligi yanada oshadi. Bu kabi biologik preparatlardan foydalanish qishloq xo’jaligining boshqa ekinlarida ham qo’llanilishi mumkin. Bu orqali biz hosildorlikni zararsiz, tabiiy usullar yordamida amalga oshirib, aholini ekologik toza mahsulotlar bilan ta’minlashga yordam beramiz.

Research Science and Innovation House

A B



2-rasm. Daladagi o’simlilk ildizlaridagi azotabakteriya tugunaklari. A) taqqoslash uchun olingan o’simlik rizosferasi. B) azotabacter chrococcum A-2 shtammi saqlagan biopreparat orqali ishlov berilgan o’simlik rizosferasi.

Bunda yaqqol ko’rinib turibdiki, o’simliklar rizasferasidagi tugunaklar miqdori ildiz sistemasiga mos ravishda poyaga yaqin qismida ko’proq uchraydi. Ular asosan asosiy va yon ildizlarga ba’zan qo’shimcha ildizlarda ham uchraydi. Ulardagi barcha tugunaklarni mos ravishda 3 ta idishga solib oldik. Bunda 1 ta o’simlikdan dastlab tugunaklar yig’ib olinib, tarozida og’irligi o’lchandi (1-jadval) va ildizlar sistemasi o’lchami o’rganildi (3-rasm).



3-rasm. Durdona, Qahrabo va Radost navlarining ildiz sistemasi tafovutlari.

Ildiz sistemasi har bir o’simlkik turiga bog’liq ravishda o’zgarib turadi. Azotabakteriyalar tugunaklari ham ildizlarda bir xilda joylashmay, o’simlikning ildiz bo’g’zida ba’zan qo’shimcha ildizlarda ham uchraydi. Qo’shimcha ildizlar rivojlanishiga yordam beradi.

1-jadval. Mosh navlarining yer malhami va suv bilan ishlob berib ekilgan o`simlik ildizi tugunaklarining og’irligi (gram)..

T/r		Mosh navlari	Takrorlanish	1 ta o`simlik ildizidagi tugunaklar ogi`rligi	3 ta o`simlik ildizidagi tugunaklar ogi`rligi
1	Yer malhami bilan ishlov berilganda	Durdona	R1	1.78	5.95
2		Durdona	R2	1.81	6.3
3		Durdona	R3	1.58	5.25
4		Radost	R1	1.67	6.24
5		Radost	R2	1.56	5.85
6		Radost	R3	1.48	5.46
7		Qahrabo	R1	2.55	8.25
8		Qahrabo	R2	2.36	7.59
9		Qahrabo	R3	2.23	6.6
10	Oddiy suvli muhitda	Durdona	R1	0.98	2.52
11		Durdona	R2	0.94	2.28
12		Durdona	R3	1.25	3.42
13		Radost	R1	0.91	2.58
14		Radost	R2	0.92	2.63
15		Radost	R3	1.01	3.02
16		Qahrabo	R1	1.02	3.04
17		Qahrabo	R2	1.01	2.72
18		Qahrabo	R3	1.02	2.84

Tugunaklardagi azotabakteriyalarning faoliyat yuritib turgan yoki hujayralari tirik ekanligini o’rganish maqsadida laboratoriya xonasida tugunaklarni tozalab, ulardan birini pinset

yordamida kesib buyum oynasiga qo’yib surtma tayyorladik. Surtmaga 1 tomchi suv tomizib mikraskopda ko’rganimizda azotabakteriyalar koloniyasi juda gavjum va harakatda ekanligini, ko’pchiligida flagellalari mavjudligini ko’rdik.

Moshning Durdona, Radost va Qahrabo navlarida pishish davrida o`simlikning dukakklari sonida navlar va yer malhami bilan ishlov berilgan varinatlarda farqlarni ko`rildi.

Mosh hosili bo’yicha durdona navi yetakchi hisoblanadi. Sababi hosil qanday bo’lishi meva joylashgan qismga bog’liq. Durdona mosh navida dukkaklar o’simlikning yuqorigi qismida juda ko’p hosil bo’lganligi sababli hosil ham shunga munosib ravishda yuqori. Qolgan moshning Radost va Qahrabo turlarida dukkaklar o’simlikning tanasining o’ziga xos joylarida siyrak joylashgan. Biomassa ya’ni boshqa ko’rsatgichlari jihatidan moshning Radost va Qahrabo turlari yetakchi bo’lib hisoblansada, bizga kerakli qism ya’ni dukkaklash, urug’ miqdori jihatidan moshning Durdona navi alohida ajralib turadi.

Biopreparat ta’sir qildirilgan o’simliklar rizosfera hajmining kattaligi, undagi tugunaklar miqdorining ko’pligi poya va barglarning to’liq baquvvat bo’lib shakillanishiga, o’z vaqtida gullashning yaxshi bo’lishiga ya’ni gullagan o’simlik gullarining shamolda to’kilib ketmaslikiga katta ta’sir ko’rsatdi. Natijada o’simlikning gullaridan hosil bo’lgan dukkaklar tabiiy sharoitda o’sib turga mosh o’simligi dukkaklariga qaraganda yirik va og’ir ekanligini guvohi bo’ldik.

Xulosalar. Dala tajribalarida distillangan va yer malhami azotabacter chrococcum A-2 shtammini saqlagan biopreparat eritmasini bilan ivitilgan urug`lardan ungan o`simliklarning bo`yi o`sishida ham ijobiy tasir ko`rsatilganligi va azotabacter chrococcum A-2 shtammini saqlagan biopreparat eritmasini bilan ivitilganda o`simliklar bo`yi balandroq ekanligi qayd qilingan.

Vegetatsiya davrida mosh navlarining azotabacter chrococcum A-2 shtammini saqlagan biopreparat va suv bilan namlantrib ekilganda o`simlik shoxlanishni va bargalarning soni suv bilan ivitilganga nisbatan yaxshilashgani aniqlangan.

Yer malhami biopreparati o’simlik hosildorligiga ham katta ta’sir ko’rsatdi. Sababi ildizda o’simlik uchun kerakli moddalar qanchalik yetarli bo’lsa, o’simlik hosildorligi ham shuncha yuqori bo’ladi.

Research Science and Innovation House

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Martyniuk S, Martyniuk M (2003) Occurrence of Azotobacter Spp. in some polish soils. Pol J Environ Stud 12(3):371–374
2. Arun KS (2007) Bio-fertilizers for sustainable agriculture, 6th edn. Agribios Publishers, Jodhpur, pp 76–77
3. George MG (2005) "Part B: the gammaproteobacteria". Bergey's manual of systematic bacteriology. The proteobacteria, 2nd edn. Springer, New York. ISBN 0387950400
4. Dhanasekar R, Viruthagiri T, Sabarathinam PL (2003) Poly(3-hydroxy butyrate) synthesis from a mutant strain Azotobacter vinelandii utilizing glucose in a batch reactor. Biochem Eng J 16:1–8
5. Xorazm viloyati, Urganch shahri, "BIO O'G'IT" ishlab chiqarish korxonasi yo'riqnomasi.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

ÓSPIRIMLER USHIN AWQATLANIW BOYINSHA QOLLANBA

Atabek Kóshkinbaev Manas ulı
Berdaq atindaǵi Qaraqalpaq mámleketlik universitetiniń Ámeliy filologiya kafedrasi baspa is qánigeligi 2 – kurs studenti

Annotatsiya: Óspirimlik jilları tez ósiw hám rawajlanıw dáwiri bolıp, bul basqıshta durıs awqatlanıw júdá áhmiyetli. Bul dáwirde áhmiyetli rol oynaytuǵın tiykargı azıqlıq zatlardan biri bul protein bolip tabıladı. Bul maqala protein hám onıń áhmiyetin úyrenedi jas óspirimler ushın basqa da áhmiyetli azıqlıq zatlar, salamat awqatlanıw ushın keń kólemli qollanba.

Tayanish sazlar: Óspirimler, Awqatlanıw, Pishiriw, Paydalı qásiyetler, Qáwipsizlik, Densawlıq, Gigiena, Allergiyalar.

KIRISIW

Protein hárbir insan ushın júdá áhmiyetli azıqlıq zat bolıp esaplanadı, biraq ol ásirese jas óspirimler ushın áhmiyetli. Óspirimler úlkeygen sayın olar kóbirek nárseni talap etedi bul jıllar dawamında júz bergen tez fizikalıq ózgerisler hám rawajlanıwdı qollap-quwatlaw ushın protein júdá zárúr.

TIYKARǴI BÓLIM

Proteinniń tiykarǵi wazıypası dene toqimaların quriw, saqlaw hám tiklew bolip tabıladı. Ulıwma ósiw hám rawajlanıw ushin sheshiwshi áhmiyetke iye bolgan gormonlar hám fermentlerdi islep shigariwda úlken áhmiyetke iye. Bunnan tısqarı, protein energiya beredi hám immunitet sistemasın bekkemlewge járdem beriwi múmkin. Óspirimlik dáwirinde dene sezilerli fizikalıq ózgerislerdi basınan keshiredi, máselen, boy hám salmaqtı arttırıw hám bulshiq etler hám súyeklerdiń rawajlanıwı. Protein bul ózgerislerdi qollap-quwatlawda sheshiwshi rol oynaydı. Bulshıq etlerdi uslap turıw hám bul súyek salamatlıǵı ushın júdá áhmietli.

Óspirimler ushın kúnlik protein zárúrligi jası, jınısı hám fizikalıq belsendilik dárejesi sıyaqlı faktorlarga qarap ózgeredi. Biraq, uliwma kórsetpe sonnan ibarat, 14 jastan 18 jasqa shekem bolgan ul hám qızlar shama menen 52 gramm hám 46 gramm awqatlanıwı kerek. Proteindi hár túrli azıq-awqat dereklerinde tabiw mumkin. Haywanlarda belok

dereklerine gósh, balıq, máyek hám sút kiredi. Ósimlik dereklerine loviya, yasmiq, goza, tuqimlar hám pútkil dán kiredi.

Óspirimler ushın awqatlanıwda paydalı qásiyetlerden bazıları tómendegiler:

1. Pishiriw waqtında tez hám ápiwayı: Óspirimler ushın awqat tayarlaw ańsat hám tez bolıwı kerek. Ushıwshınıń awqattı pisiriw waqtı hám energiyasın únemlew ushın, receptlerdiń ápiwayı hám tez bolıwı áhmietli.

2. Taqvimli awqatlanıw: Óspirimler awqatlanıwında taqvimli awqatlar tayarlaw, tuwri waqıtta awqatlanıwdı baslaw hám tamamlaw áhmiyetli. Bul, óspirimler ushın awqatlanıwdıń tiykarǵı sistemasın jaratıwǵa járdem beredi.

3. Azıq-awqat muǵdarı hám túrleri: Óspirimler ushın awqatlanıwda azıq-awqat muǵdarı hám túrleri áhmiyetli. Olar ushın zárúr muǵdarda vitaminler, mineral quramındaǵı awqatlar beriliwi kerek.

4. Salamatlıq quramı: Óspirimler ushın awqatlanıwda salamatlıq quramına itibar qaratıw zárúr. Jeńillik, protein, uglevodlar hám basqa da zárúr zatlar beriliwi kerek.

5. Mazalı hám kóbirek reńli: Óspirimler ushın awqatlanıw mazalı hám kóbirek reńli bolıwı kerek. Bul, olardıń awqatlanıw procesindegi qızıǵıwshılıǵın arttırıwı múmkin.

6. Awqattıń kóbirek áyyemgiligi: Óspirimler ushın awqatlanıwda kóbirek áyyemgiligi, tiykarǵı dámi hám kórinetuǵın forması áhmiyetli. Bul olardıń awqatlanıwın mazalı hám qızıqlı etiwi hám salamat awqatlanıwǵa jol qoyıwı ushın áhmietli.

Óspirimler ushın awqat tayarlaw procesiniń áhmiyetli qádemleri tómendegilerden ibarat boliwi múmkin:

1. Oylaw hám reje dúziw: Óspirimler ushın awqat tayarlawdıń birinshi qádemi, awqatlar rejesin dúziw hám awqat tayarlaw ushin duris ónimlerdi tańlaw bolıp esaplanadı. Bul proceste maqsetler, awqatlanıw waqtı, túrleri, muǵdarı sıyaqlı elementler itibarǵa alınadı.

2. Ónimlerdi satıp aliw: Keyingi jıllarda azıq-awqatlar bazarda keń túrde bar. Óspirimler ushın awqatlanıw procesinde ónimlerdi satıp alıwda

jergilikli hám máwsimlik ónimlerdi tańlaw áhmietli, sebebi olar kóbirek mazalı hám áemgiligin saqlap qaladı.

3. Tayarlaw hám pisiriw: Awqattı tayarlaw hám pisiriw procesi diqqat penen ámelge asırılıwı kerek. Bul qádem awqattıń dámi hám quramına qatań tásir etedi. Awqatlar tayarlawda ásbap-úskene, awqat pisiriw qásiyetleri hám densawlıqtı saqlawǵa itibar qaratıladı.

4. Servis etiw: Óspirimler ushin awqatlanıwdı tayarlawda servis etiw de áhmiyetli. Awqatlanıwdıń kórsetiliwi, reń-reńli hám kóp sesliligi óspirimler ushın qızıqlı hám mazalı boliwı kerek.

5. Awqatlanıw waqtı: Óspirimler ushın awqatlanıwdı tayarlaw procesinde awqatlanıw waqtı da áhmiyetli. Awqattı ózi tayarlaw, awqat tayarlaw waqtı waqıcha rejim waqtı boyinsha belgileniwi kerek.

6. Tayar awqatlar: Óspirimler ushın awqatlanıwda tayar awqatlar da áhmiyetli. Tayar awqatlar óspirimler ushın awqatlanıwdıń tez hám ápiwayılı boliwına járdem beredi, olardıń qollanılıwın asıradı hám salamat awqatlanıwdı támiyinleydi.

Óspirimler ushın awqatlanıwda abaylılıq qaǵıydaları tómendegiler boliwi múmkin:

1. Salamatlıq ushin quramdı abaylap tańlaw: Óspirimler ushın awqatlanıw quramına jeńillik, protein, vitaminler hám mineral zatlar kirgiziliwi kerek. Kerekli muǵdarda qant, maylar hám duzdı belgilengen shegaralardı ótkeriw kerek.

2. Ónimlerdi sapalı satıp aliw: Taza, sapalı hám kóp sózli ónimlerdi satıp aliw áhmiyetli. Qutısız hám qaynaǵan yemes ónimlerden paydalanıliwı kerek.

3. Awqat tayarlawda gigiena qaǵıydaları: Óspirimler ushın awqatlanıwda awqat tayarlawda gigiena qaǵıydaları áhmiyetli. Qollanılǵan ónimlerdi jaqsı juwiw, qulıp alıw hám azıq-awqattı taza waqıtlarda saqlaw kerek.

4. Porciya muǵdarı: Óspirimler ushın awqatlanıwda porciya muǵdarı áhmiyetli. Awqatlanıwdı tayarlawda qansha awqat tayarlaw kerek ekenligi, óspirimlerdiń turaqlılıǵı hám iskerlik dárejesine qarap belgileniwi kerek.

5. Allergiyalar hám intolerenciyalar: Óspirimler ushın awqatlanıw tayarlawda allergiyalar hám intolerenciyalar abaylılılıq penen sheshiliwi kerek. Olar ushin kerekli muǵdardağı zatlar hám túrler abaylap tańlanıwı kerek.

6. Tayar awqatlar hám tayar ónimlerdi satıp aliw: Óspirimler ushın awqatlanıwda tayar awqatlar hám tayar ónimlerdi satıp aliw kerek. Olar óspirimler ushın awqatlanıwdıń tez hám ápiwayı bolıwına járdem beredi, olardıń qollanılıwın asıradı hám salamat awqatlanıwdı támiyinleydi.

Óspirimler awqatlanıwına proteinge bay awqatlardı kirgiziwdiń kóplegen usılları bar. Mine bir neshe usınıslar:

Azańgı awqat: Kúnni proteinli azańgı awqat penen baslań. Bul máyek, belok untağı menen smetana.

Túski awqat: Túski awqat ushın maysız góshli sendvich yamasa loviya menen salatın qáliplestiriw kerek.

Keshki awqat: Keshki awqatqa balıq yamasa tawıqtıń bir bólegi, ayırım ovoshlar hám tolıq dánler kirgiziliwi múmkin.

Protein júdá áhmiyetli bolsa da, teń salmaqlı dietada hár túrli azıqlıq zatlar boliwi kerekligin yadta saqlaw kerek. Uglevodlar hám maylar da energiya menen támiyinlew ushın zárúr, vitaminler hám minerallar bolsa hár qıylı dene funkciyaları ushın júdá zárúr.

Nan, makaron hám gúrish sıyaqlı kraxmallı awqatlar uglevodlardıń ájayıp derekleri bolıp, olar deneni azıqlıq penen támiyinleydi.Sút ónimleri hám olardıń alternativleri súyek salamatlığı ushın júdá áhmietli bolgan kalciydiń ájayıp deregi bolıp esaplanadı. Olar da qosimsha protein menen támiyinleydi. Miywe hám ovoshlar áhmiyetli vitaminler, minerallar hám talshıqqa bay. Olar óspirimniń dietasınan áhmiyetli bólegin quriwı kerek. Siziń óspiriminiz hár kúni 5 1⁄2 untsiya proteinge bay awqat jew kerek. Jaqsı dereklerge maysız gósh, qus góshi yamasa balıq kiredi. Basqa belok dereklerińiń bir untsiya ekvivalentleri arasında 1⁄2 kese loviya yamasa tofu, bir máyek, bir as qasiq jer mayı hám 1⁄2 untsiya goza yamasa tuqimlar bar.

JUWMAQ

Óspirimler ushın teń salmaqlı awqatlanıwdan tısqarı, salamat turmıs tárizi júdá áhmietli. Bul turaqlı fizikalıq iskerlikti óz ishine aladı,

jeterli uyqı hám ıǵallıq. Turaqlı fizikalıq shınıǵıw ulıwma salamatlıq hám abadanlıq ushın zárúr. Bul súyekler hám bulshıq etlerdi bekkemlewge, salamat salmaq saqlawǵa, keypiyat hám energiya dárejesin arttırıwǵa járdem beredi. Óspirimlik dáwirinde tez ósiw hám rawajlanıwdı qollap-quwatlaw ushın durıs awqatlanıw júdá áhmiyetli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tina Lond-Kolk.To’g’ri ovqatlaning va o’zingizni ajoyip his qiling.2023.
2. Mayya A.Xovard.Yangi boshlanuvchilar uchun yuqori proteinli o'simliklarga asoslangan dieta.2021.
3. Anita Bean.Vegetarian sportchining oshxona kitobi.2016.
4. Nutrition of Adolescents (10–19 Years) kitabi.2021.
5. Doktor JK Evans.”Oziqlanish va fitness bo’yicha o’smirlar uchun qo’llanma”.2023.
6. Doktor JK Evans.O’smirlar ovqatlanishi: Ota-oanalar va o’smirlar uchun eng yaxshi qollanma.2023.
7. Vonda Rayt .40 yoshdan keyin fitnes.2015.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА БЛАНКЕТ ДИСПОЗИЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Пулатов Бекзод Адилбаевич
Ўзбекистон Республикаси Президентининг
Тошкент вилойатидаги Халқ қабулхонаси бош мутахассиси

Аннотация: Мақолада жиноят ҳуқуқи нормасининг тушунчаси кўриб чиқилиб, унинг моҳияти, мазмуни, тузилиши ва манбалари аниқланади; жиноят-ҳуқуқий норманинг бланкет диспозицияси таҳлил қилинади, унинг тушунчаси ва асосий хусусиятлари (жиҳатлари) ишлаб чиқилади: техник-юридик, лингвистик ва норматив-ҳуқуқий; бланкет диспозицияли жиноят ҳуқуқи нормаларини қўллашнинг махсус қоидалари шакллантирилган.

Калит сўзлар: жиноят ҳуқуқи нормаси, жиноят-ҳуқуқий норманинг бланкет диспозицияси; жиноий жавобгарлик тўғрисидаги қонуннинг бланкет диспозициясида жиноят ҳуқуқи нормаларини қўллаш қоидалари.

ЗНАЧЕНИЕ БЛАНКЕТНОЙ ДИСПОЗИЦИИ В УГОЛОВНОМ ПРАВЕ

Аннотация: В статье рассматривается понятие нормы уголовного права, выясняется ее сущность, содержание, структура, источники; анализируется бланкетная диспозиция уголовно-правовой нормы, разрабатываются ее понятие и основные черты (аспекты): технико-юридические, лингвистические и нормативно-правовые; сформулированы специальные правила применения норм уголовного права с бланкетной диспозицией.

Ключевые слова: норма уголовного права, бланкетная диспозиция уголовно-правовой нормы; правила применения норм уголовного права при бланкетной диспозиции закона об уголовной ответственности.

Жиноят қонунчилигининг кўп йиллик ривожланиш тарихи ва уни қўллаш амалиёти жиноий қилмишларни аниқ ва тўлиқ белгилайдиган, айрим жиноят таркибларининг аломатларига қисқа ва шу билан бирга батафсил

кўрсатмалар берадиган жиноят қонунларини яратиш заруратини тақозо этади. Бироқ айрим жиноий-ҳуқуқий тақиқларни шакллантиришда жиноий қилмишнинг бир қисми ҳисобланган бошқа ҳуқуқ соҳалари нормаларининг бузилишини кўрсатиш зарурияти пайдо бўлади. Бундай ҳолларда қонун чиқарувчи жиноят-ҳуқуқий нормани баён этишнинг энг мураккаб шаклларидан бири бўлган бланкет нормалардан фойдаланишга мажбур бўлади. Бланкет нормаларнинг ўзига хослиги шундаки, жиноят таркиби аломатларининг тавсифи нафақат жиноят қонунида, балки ҳуқуқнинг бошқа тармоқларига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда ҳам мавжуд бўлиб, бу уларни қўллашда муайян қийинчиликлар ва ўзига хосликларни юзага келтиради. Тадқиқотчи сўровнома ўтказган ички ишлар органлари ходимларининг 94 фоизи ўз амалий фаолиятида бланкет нормаларини қўллаш билан боғлиқ қийинчиликларга дуч келганликларини таъкидлашган.

Шу билан бирга, тадқиқотлар бланкет нормаларининг мавжудлиги муқаррар эканлигини кўрсатди. Бу ҳуқуқнинг барча соҳалари ва нормалари ўзаро боғлиқ бўлган тизимли хусусияти ҳамда ҳуқуқий кўрсатмаларнинг аниқлик ва умумийлик ўртасидаги мақбул нисбатни топишни талаб қилувчи қонунчилик техникаси билан асосланади. Бланкет нормаларнинг мавжудлиги ва кўпайиши ижтимоий ташкилотнинг янада мураккаблашуви, иқтисодий фаолиятнинг янги турларининг пайдо бўлиши, техник воситалар ва технологияларнинг ривожланиши, замонавий фаннинг ютуқлари билан боғлиқдир.

Ички ишлар органларининг терговчилари ва суриштирувчилари томонидан амалга ошириладиган жиноятларни Жиноят кодексининг бланкет нормаларини ўз ичига олган моддаларига мувофиқ тўғри квалификация қилиш кўп жиҳатдан уларнинг бланкет нормаларининг моҳиятини тушунишига ва уларни тўғри талқин қилишига боғлиқ. Бироқ ҳозирга қадар жиноят ҳуқуқи фанида бланкет нормасининг моҳиятини очиб берадиган ягона тушунча ишлаб чиқилмаган. Бунинг натижасида ички ишлар органлари ходимлари ўртасида ўтказилган сўровда иштирок этганларнинг 88,2 фоизи бланкет нормалари ҳақида фақат умумий тасаввурга эга эканликларини айтишган.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг бланкет нормаларида нафақат қонунларга, балки бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ҳам ҳаволалар мавжуд. Бу қонунларнинг айрим нормалари яна бошқа норматив-

ҳуқуқий ҳужжатлар билан аниқланади, батафсил тушунтирилади ва изоҳланади. Шу сабабли, жиноят қонуни ва бошқа ҳуқуқ соҳаларидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ўзаро нисбати масаласи, шунингдек, бошқа қонунчилик соҳалари манбалари жиноят ҳуқуқи манбалари бўлиши мумкинлиги ҳақидаги фикр ҳанузгача баҳс-мунозарали бўлиб қолмоқда.

Ҳуқуқни қўлловчи шахс бланкет жиноят-ҳуқуқий норманинг мазмунини тушуниш учун мурожаат қиладиган қонунлар ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар жуда беқарор. Бу эса унга муайян мажбуриятларни юклайди: тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга киритилган барча ўзгартириш ва қўшимчаларни билиш, ижтимоий хавфли қилмиш содир этилган пайтда айнан қайси норма ва қайси таҳрирда амал қилганини аниқлаш. Жиноят кодексининг бланкет нормаларини ўз ичига олган моддаларига мувофиқ жиноятларни квалификация қилишда муайян қийинчиликлар мавжуд. Бу қийинчиликлар бланкет белгиларни талқин қилиш ва жиноят қонунининг бланкет нормаларини қўллаш бўйича барқарор суд-тергов амалиётининг йўқлиги билан боғлиқ.

Шундай қилиб, ҳозирги босқичда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлари томонидан бланкет нормаларининг моҳиятини англаш ва уларни қўллаш хусусиятларини аниқлаш билан боғлиқ масалалар комплекс кўп қиррали таҳлил қилиш заруратини келтириб чиқармоқда. Бу эса мазкур мавзусининг долзарблигини белгилаб беради. Диспозиция ўзи нима? Диспозиция — ҳуқуқ нормасини таркибий қисми ҳисоблани бунда гипотезада кўрсатилган ҳолатлар мавжуд бўлганида ҳуқуқ субъектлари риоя этишлари лозим ҳисобланган хатти-ҳаракат қоидаси[1]. Диспозитсия сўзи лотин тилидан олинган бўлиб, жойлашиш деган маънони англатади. Ўз навбатида диспозиция тузилишига кўра қуйидаги турларга бўлинади:

1) Оддий диспозицияда жиноят таркибининг белгилари кўрсатилмай, фақат жиноятнинг номигина èзилади. Масалан, 97-модданинг 1- қисми, 102-модданинг 1-қисми ва ҳоказолар.

2) *Тавсифловчи диспозиция* – ҳуқуқ субъектларининг субъектив ҳуқуқ ва юридик мажбуриятлари ҳамда хатти-ҳаракатларининг тўлиқ баёнини ифода

[1]Пикуров Н.И. Бланкет белгиларли жиноятларни квалификация қилиш: Монография. - М.: Россия одил судлов академияси, 2009. - 31-б.

этилади. Масалан, Жиноят кодексининг 169-моддаси “Ўғрилик”, яъни ўзганинг мол-мулкини яширин равишда талон-торож қилиш (қонунда, гарчанд бу мантиқан ўринли бўлмасада, талон-торож қилиш деб ёзилган). Бунда норма диспозицияси ҳаммага тушунарли бўлиши учун маълум бир маънода, қисқа шаклда изоҳ берилади.

3) *Бланкет диспозиция* - ҳуқуқ нормасида кўрсатилган ҳуқуқ субъектларининг субъектив ҳуқуқ ва юридик мажбуриятларининг мазмунини аниқлаш учун бошқа ҳужжатларнинг нормаларида белгиланган тегишли қоидаларга ҳавола қилади.

4) *Ҳавола этувчи диспозиция* - деганда қўлланаётган ҳуқуқ нормаси мансуб бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг бошқа нормасига (масалан, Жиноят кодексининг 110-моддаси – “Қийнаш”) ёки бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатга мурожаат этишни назарда тутувчи диспозиция ҳавола этувчи диспозиция сифатида тушунилади. Умуман олганда Диспозиция деб жиноятнинг аниқ белгилари кўрсатилган қисмига айтилади. ЖК Махсус қисмининг асосий кўпчилик моддалари тасвирлов диспозиция шаклида қабул қилинган. Ҳаволаки диспозицияда муайян жиноятнинг белгилари кўрсатилмай, бу жиноятнинг белгиларини кўрсатиш учун бошқа бир жиноятнинг белгиларига ҳавола қилинади. Масалан, ЖК нинг 107-моддасида зарурий мудофаа чегарасидан четга чиқиб, қасддан баданга оғир шикаст етказиш, — дейилади. Демак, зарурий мудофаа чегарасидан четга чиқиб баданга оғир шикаст етказилганлигини аниқлаш учун ЖКнинг 104-моддасининг 1-қисмида назарда тутилган белгиларга мурожаат қилинади. Бошқача қилиб айтганда, қилмишни ЖК нинг 107-моддаси билан квалификация қилиш учун жиноят зарурий мудофаа чегарасидан четга чиқиб қилинган бўлиши ва 104-модданинг 1-қисмида назарда тутилган белгилардан бири бўлиши керак. ЖК Махсус қисмининг моддалари бир неча қисмдан иборат бўлса, иккинчи, учинчи ва ҳоказо қисмлари ҳаволаки диспо-зиция шаклида бўлиб, жиноятнинг номи ҳам, белгилари ҳам кўрсатилмай, шу модданинг 1-қисмидаги таъриф ва белгиларига ҳавола қилинади. Бланкет диспозицияда жиноят таърифланмай ёки унинг белгилари кўрсатилмай бошқа қонун ёки норматив акт бузганлиги кўрсатилади. Бланкет диспозицияли модда билан айбдорнинг қилмишини квалификация қилиш учун бошқа қонун ёки норматив акт бузилган ва ўша қонун ёки норматив акт бузилганлиги

натижасида ЖК нинг бланкет диспозицияли моддасида назарда тутилган оқибатлар юз берган бўлиши керак. ЖКнинг кўпгина моддалари бланкет диспозиция шаклида тузилган. Хўжалик фаолияти соҳасидаги, экология соҳасидаги, жамоат хавфсизлиги соҳасидаги, транспорт ҳаракати ва ундан фойдаланиш хавфсизлигига қарши жиноятларнинг асосий кўпчилиги бланкет диспозиция шаклида тузилган. Масалан, қилмишни ЖК нинг 257-моддаси билан квалификация қилиш учун меҳнатни муҳофаза қилиш қоидалари бузилган ва бунинг оқибатида шу моддада назарда тутилган оқибат юз берган бўлиши керак, ва ҳоказолар.

Ўрганишлар натижасида қуйидаги хулосаларга келинди: (шу жумладан, ретроспектив таҳлил) шуни кўрсатадики, амалдаги жиноят қонунчилигидаги бланкет нормаларнинг мавжудлиги Ўзбекистон жиноят қонунчилигини қўллаш ва ривожлантириш жараёнининг объектив зарурияти билан боғлиқ. Бу, хусусан, ҳимоя қилувчи жиноят-ҳуқуқий нормаларнинг бошқа қонунчилик соҳаларидаги тартибга солувчи нормалар билан функционал алоқадорлигида намоён бўлади. Жиноят қонунчилигида бланкет нормаларнинг йўқлиги эса жиноят қонуни матнида ҳуқуқнинг бошқа соҳаларига оид нормаларни такрорлаш заруриятини келтириб чиқаради.

Бланкет жиноят-ҳуқуқий нормаларни қўллашдаги мавжуд муаммоларни бартараф этишнинг энг самарали усули сифатида ички ишлар органлари ва бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш тан олиниши лозим, жиноят қонуни нормаларининг тузилишини ўзгартириш эмас.

Жиноят қонунчилигининг бланкет нормаси деганда "жиноят қонунининг бир ёки бир нечта таркибий элементларида бошқа ҳуқуқ соҳаларининг қонунлари ёки бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларига мурожаат қилмасдан тушуниб бўлмайдиган белгилар (белги) мавжуд бўлган нормаси" тушунилиши таклиф этилади. Бланкет нормалар уларни муайян гуруҳларга таснифлаш имконини берадиган кўплаб турли хил белгилар билан тавсифланади. Адабиётларда мавжуд бўлган бланкет нормалар тизимининг таснифини қуйидаги асослар билан тўлдириш таклиф этилади:

- бошқа ҳуқуқ тармоғининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари билан алоқаси бўйича: 1) у ёки бу қоидалар, қонунлар, қонунчилик бузилганлигини кўрсатувчи белгиларга эга бўлган нормалар; 2) қилмишнинг қонунга

хилофлигини кўрсатувчи белгиларга эга бўлган нормалар; 3) мазмуни бошқа ҳуқуқ тармоқларининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларида очиб бериладиган атамаларни ўз ичига олган нормалар;

- бланкет норма боғлиқ бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг соҳавий мансублиги бўйича: маъмурий, фуқаролик, божхона ва бошқа қонун ҳужжатларининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари билан боғлиқ нормалар;

- ифода шаклига кўра: 1) "очиқ" бланкетли нормалар; 2) "яширин" бланкетли нормалар; 3) "аралаш" бланкетли нормалар;

- жиноят таркиби элементларининг қуйидаги таркибий қисмларининг бланкет тавсифи бўйича: 1) объект; 2) предмет; 3) жабрланувчининг хулқ-атвори; 4) жабрланувчининг белгилари; 5) субъектнинг хулқ-атвори (қилмиши); 6) жиноят содир этилган жой; 7) қуроллар (воситалар); 8) усул; 9) жиноят содир этилган вақт; 10) оқибатлар; 11) махсус субъектнинг белгилари;

- норма тузилишида бланкет белгиларининг жойлашуви бўйича: 1) гипотезада белгиларни ўз ичига олган; 2) диспозицияда; 3) санкцияда;

- индикатор сўзларнинг мавжудлигига кўра: 1) индикатор сўзларга эга бўлган нормалар; 2) индикатор сўзларга эга бўлмаган нормалар.

Жиноят қонунчилигининг бланкет нормаларини талқин қилишнинг моҳияти, бошқа ҳар қандай ҳуқуқий нормалар сингари, улардаги ҳуқуқий кўрсатмаларни (яъни, ушбу нормаларнинг қонунчилик маъносини) очиб бериш ва тушунтиришдан иборат бўлиб, бу уларнинг тўғри қўлланилишини таъминлайди. Ҳуқуқ нормаларини шарҳлаш ҳуқуқни қўллаш жараёнининг зарурий шарти ва ажралмас қисмидир. Бланкет нормаларини талқин қилишнинг асосий усули сифатида тизимли усулни тан олиш лозим. Шундай қилиб, ҳуқуқни қўллаш жараёнида жиноят қонунининг ўрганилган нормаларида мавжуд бўлган тушунчалар ва атамаларни (бланкет белгиларини) жиноят-ҳуқуқий нормаларни белгилаб берувчи тартибга солувчи қонунчилик соҳаларининг тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатларида қандай маънода қўлланилса, айнан ўша маънода талқин қилиш зарур.

Ички ишлар органларининг ҳуқуқни қўллаш амалиётида Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг бланкет нормаларини ўз ичига олган моддалари бўйича жиноятларни квалификация қилишда йўл қўйиладиган хатоларнинг кўпчилиги ушбу нормаларни нотўғри талқин қилиш билан боғлиқ. Бунинг асосий сабаби шундаки, бир қатор нормаларда тегишли

субъектларнинг аниқ ҳаракатларида аниқлаш қийин бўлган белгилар назарда тутилади. Шу ўринда қонун чиқарувчи томонидан бланкет-баҳоловчи тоифага киритилган белгилардан кенг фойдаланилишига ҳам эътибор қаратиш лозим. Бундай белгиларнинг мавжудлиги кўриб чиқилаётган нормаларни ҳуқуқни қўллаш амалиётида қўлланиши қийин бўлган қоидаларга айлантиради.

Нормаларни қўллаш жараёнида йўл қўйиладиган хатолар нафақат уларни тузиш, талқин қилиш, замон ва маконда амал қилиш хусусиятлари билан, балки айрим ички ишлар органлари ходимларининг етарли даражада касбий тайёргарликка эга эмаслиги билан ҳам боғлиқ. Жиноятчиликка қарши курашиш чегаралари нафақат объектив, балки субъектив омиллар билан ҳам белгиланади. Қўлланиш нуқтаи назаридан жиноят қонуни маълум бир шахслар доирасига мўлжалланган. Бу шахсларнинг ҳуқуқий билимларидан қандай фойдаланишлари, типик ҳуқуқий вазиятларни баҳолаш, тўғри қарорлар қабул қилиш ва қонуний ҳаракатларни амалга ошириш кўникмалари ҳамда потенциал имкониятларига, пировард натижада, ўрганилаётган нормаларни қўллашнинг қонунийлиги ва самарадорлиги боғлиқ бўлади.

Ички ишлар органларининг фаолиятида бланкет жиноят-ҳуқуқий нормаларини қўллаш сифатини ошириш учта асосий йўналишга **эътибор беришлари** лозим:

- жиноят қонунчилигининг айрим белгиларини шарҳлаш қийинлиги туфайли қўлланилиши мураккаб бўлган бланкет нормаларини жиноят-ҳуқуқий жиҳатдан такомиллаштириш;

- бланкет жиноят-ҳуқуқий нормаларни қўллаш амалиётини тизимли равишда умумлаштириш ва бу борада олий суд органларининг зарур шарҳларини ҳамда Ўзбекистон Республикаси ИИВ ҳузуридаги Тергов қўмитасининг услубий тавсияларини ишлаб чиқиш;

- Ўзбекистон Республикаси ИИВ тизимидаги олий ўқув юртлари учун жиноят ҳуқуқи бўйича мавжуд намунавий дастурларга "Жиноят қонунининг бланкет нормаларини квалификация қилиш хусусиятлари" мавзусини киритиш орқали ички ишлар органлари ходимларининг тайёргарлик даражасини ошириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўхати

1. Пикуров Н.И. Бланкет белгиларли жиноятларни квалификация қилиш: Монография. - М.: Россия одил судлов академияси, 2009. - 31-б.

2. Михайлова И.А. Жиноят қонунидаги бланкет нормалар ва уларни ички ишлар органлари томонидан қўлланилиши: - М.: Российская

ю.ф.н. диссертацияси автореферати. 2009. 7-б.

3. Пшипий Р.М. РФ ЖК 22-боби моддалари нормаларида диспозициялар бланкетлиги характери // Журнал

4. Пикуров, Н. И. Квалификация преступлений с бланкетными признаками состава / Н. И. Пикуров. — М. : Российская академия правосудия, 2009. — 288 с. Вернуться к статье 2. Люблинский, П. И. Техника, толкование и казуистика Уголовного кодекса / П. И. Люблинский ; под ред. и с предисл. В. А. Томсинова. — М. : Зерцало, 2004. — 248 с. Вернуться к статье 3. Черданцев, А. Ф. Понятие технико-юридических норм и их роль в формировании общественных отношений / А. Ф. Черданцев // Советское государство и право. — 1964. — № 7. — С. 134–138.

5.Лазарев В.В. , Липень С.В. , Саидов А.Х. Теория государства и права : Учебник . Под ред . Абдурахманова К.Х. М .: Рос . экон . акад . , 2008. - 620 с .

6.Нажимов М.К. , Сайдуллаев Ш.А. Қонунчилик техникаси . Ўқув қўлланма . Қайта ишланган ва тўлдирилган 2 - нашр . -Т .: ТДЮИ , 2009. -172 б . ,

7.Odilqoriev X. Davlat va huquq nazariyasi . Darslik . - Toshkent : Adolat , 2018. - 528 b .

8.Одилқориев Х.Т. , Тультеев И.Т. ва бошқ . Давлат ва ҳуқуқ назарияси : Дарслик / Х.Т.Одилкориев таҳрири остида . - Т .: Sharq , 2009. - 592 б

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy o‘yinli faoliyat jarayonida xalq amaliy san’atining ahamiyatliligi

Ahmedov Temurjon Yusubbayevich - UrDU Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi,
Yangibozor pedagogika kolleji maxsus fan o‘qituvchisi
Saparova Nargiza Yuldashbayevna

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy o‘yinli faoliyat xalq amaliy san’atining ahamiyatliligi mavzusida asosiy tushunchalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’limiy o‘yinlar, ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, tevarak-atrofdagi.

Kirish

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy o‘yinli faoliyat bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhimdir. Ushbu faoliyat jarayonida xalq amaliy san’ati o‘zining betakror va boy merosi bilan muhim o‘rin tutadi. Bu referatda ta’limiy o‘yinlar va xalq amaliy san’atining ahamiyati, ularning o‘zaro aloqasi va ta’lim jarayonidagi roli ko‘rib chiqiladi

Ta’limiy o‘yinlar bolalarning ko‘p tomonlama rivojlanishiga yordam beruvchi faoliyat turidir. O‘yin jarayonida bolalar yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, shuningdek, kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradilar. O‘yinlar orqali bolalar quyidagi qobiliyatlarni rivojlantiradilar:

1. Kognitiv rivojlanish: O‘yinlar bolalarning mantiqiy fikrlashini, diqqat va xotirani oshiradi.

2. Ijodkorlik: O‘yin jarayonida bolalar o‘z tasavvurlarini ishga soladilar va yangi g‘oyalar bilan chiqadilar.

3. Ijtimoiy ko‘nikmalar: O‘yinlar orqali bolalar bir-birlari bilan muloqot qilishni, jamoada ishlashni o‘rganadilar.

Xalq amaliy san’ati

Xalq amaliy san’ati – bu xalqning tarixiy, madaniy va estetik an'analari orqali shakllangan qo‘l san’atlari va hunarlarni o‘z ichiga oladi. Bular ichida to‘qimachilik, savat to‘qish, loydan narsalar yasash, qo‘l san’atlari va boshqalar mavjud. Xalq amaliy san’atining bolalarga ta’siri quyidagi jihatlar bilan ifodalanadi:

1. Madaniy meros: Xalq amaliy san’ati bolalarga o‘z xalqining madaniy merosini o‘rganish va unga nisbatan hurmat bilan yondashishni o‘rgatadi.

2. Ijodiy fikrlash: Bolalar amaliy san’at orqali o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

3. Qobiliyatlarni rivojlantirish: San’atga qiziqish bolalarda nazorat va qo‘l ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’limiy o‘yinlar va xalq amaliy san’ati o‘rtasidagi aloqalar

Ta’limiy o‘yinlar va xalq amaliy san’ati o‘rtasidagi aloqalar bolalarning o‘ziga xos rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, xalq amaliy san’ati elementlarini o‘yin jarayoniga qo‘shish orqali bolalar quyidagi afzalliklarni qo‘lga kiritadilar:

- O‘z-o‘zini ifoda etish: Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini va fikrlarini san’at orqali ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

- Kreativlik: Xalq amaliy san’ati orqali bolalar yangi narsalarni yaratishda ilhom oladilar.

- Tarbiya va ahloqiy qadriyatlar: Xalq san’ati orqali bolalarda tarixiy qadriyatlar va an’analar o‘zlashtiriladi.

Ta’limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi. Ta’limiy o‘yinlarda bolalarning yosh, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O‘yinda o‘yin tempi va ritmi katta rol o‘ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko‘p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o‘yin ishtirokchilarini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Ta’limiy o‘yinlarning quyidagi turlari mavjud:

a) buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan;

b) stol-bosma; d) og‘zaki so‘z o‘yinlari.

Buyum va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o‘ynaladigan o‘yin turi hisoblanadi.

Xalq o‘yinlari, jumladan bolalar folklor o‘yinlari, eng qadim vaqtlarda boshlab xalq xayoti tarzini, ma’naviy-ma’rifiy, jismoniy tayyorgarligini, estetik dunyoqarashini mujassamlashtirgan holda shu kunimizga qadar o‘sib, mazmun maqsadiga ko‘ra teranlashib bizga etib kelgandir. Boshqa san’at turlaridan farqligi o‘laroq o‘yinlarda xalq ruxiyati, psixologiyasi, koloriti, yosh avlod tarbiyasiga bo‘lgan munosabatida yorqin aks etadi.

Bunda bolalarning tasavurlari, diqqatlari o‘yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to‘g‘risida umumiy tushuncha hosil bo‘ladi. O‘yinda o‘ynaladigan har bir buyum yoki o‘yinchoq o‘zining tashqi ko‘rinishiga ega bo‘lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o‘yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi·

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy o‘yinli faoliyat va xalq amaliy san’ati o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bolalarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu faoliyatlar bolalar uchun qiziqarli, ijodiy va foydali bo‘lib, ularni kelajakda muvaffaqiyatli insonlar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Ta’lim jarayonida xalq amaliy san’atining ahamiyatini tan olish va uni ta’limiy o‘yinlar bilan birlashtirish, bolalarning madaniy va ijodiy rivojlanishida muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.N.Djamilova. “Maktabgacha metodika fanlarini o‘qitish texnologiyasi” TDPU. 2017y.

2. D.R. Babayeva. “Bolalarni nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. -T.: “Ilim ziyo zakovat”. 2022y.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

TERGOV EKSPERIMENTINI O‘TKAZISH TAKTIKASI

Mamanarov Xaitmurat
Termiz davlat universiteti, yuridik fakulteti o’qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tergov eksperimentini o‘tkazishning kriminalistik taktikasi, uning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Tergov eksperimentini tashkil etish va o‘tkazish usullari, asosiy qoidalari hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi. Tergov eksperimenti jinoyatlarni tergov qilish jarayonida muhim o‘rin tutadi. U voqealar rivojini aniqlash, dalillarni tekshirish va turli versiyalarni isbotlash maqsadida o‘tkaziladi. Mazkur protsessual harakat tergovchini voqea tafsilotlarini aniqlashga imkon beruvchi metodikaga asoslanadi. Tergov eksperimenti yuqori aniqlik va ehtiyotkorlikni talab qiladi. Uni o‘tkazish uchun maxsus taktika va usullar qo‘llanilib, jarayonning qonuniylik va ob’ektivlik tamoyillariga rioya qilinadi. Ushbu maqolada tergov eksperimentining taktik asoslari, uni amalga oshirishda qo‘llaniladigan asosiy qoidalar va usullar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar. Eksperiment, tergov, taktika, tanib olish, tergov eksperimentini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish, tergov eksperimentini o‘tkazish tartibi, taktikasi, natijalar, rasmiylashtirish.

Abstract

This article discusses the forensic tactics of conducting an investigative experiment, its role and significance. The methods of organizing and conducting an investigative experiment, the main rules and ways of their effective use are analyzed. An investigative experiment plays an important role in the process of investigating crimes. It is conducted to determine the course of events, verify evidence and prove various versions. This procedural action is based on a methodology that allows the investigator to determine the details of the incident. An investigative experiment requires high accuracy and caution. Special tactics and methods are used to conduct it, and the principles of legality and objectivity of the process are observed. This article analyzes the tactical foundations of an investigative experiment, the main rules and methods used in its implementation.

Keywords. Experiment, investigation, tactics, recognition, preparation for conducting an investigative experiment, procedure for conducting an investigative experiment, tactics, results, formalization.

KIRISH

Tergov eksperimenti jinoyatlarni tergov qilish jarayonida muhim tergov harakatlaridan biri hisoblanadi. Bu usul jinoyat qanday sodir etilganligini aniqlash yoki tergovchi tomonidan ilgari surilgan farazlarni tasdiqlash yoki rad etish uchun amalga oshiriladi. Tergov eksperimenti orqali jinoyatchi yoki guvohlarning harakatlari, jinoyat sodir bo‘lgan vaqt va joy sharoitlarini qayta tiklash imkoniyati tug‘iladi.

Tergov eksperimenti jinoyatga oid harakatlarni qayta tiklash orqali dalillarni tasdiqlash va ularni to‘g‘ri talqin qilish uchun amalga oshiriladi. Bu jarayonda tergovchi voqea tafsilotlarini chuqur o‘rganadi va bu ma’lumotlar keyinchalik tergovning to‘g‘ri olib borilishi uchun muhim bo‘ladi. Tergov eksperimentini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun bir qator taktika va qoidalar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tergov eksperimenti bo‘yicha ilmiy va amaliy adabiyotlar ushbu protsessual harakatning turli jihatlarini yoritib beradi. A. R. Belkin va boshqa mutaxassislarning ishlarida tergov eksperimentini tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi keng o‘rganilgan. Masalan, ularning tadqiqotlarida tergov eksperimenti quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi qayd etilgan:

Dalillarni tasdiqlash yoki rad etish: Hodisa tafsilotlarini aniqlash uchun avval topilgan dalillarga aniqlik kiritish.

Voqea rivojini modellashtirish: Hodisaning qanday yuz berganini o‘rganish va uning mexanizmini aniqlash.

Turli versiyalarni tekshirish: Hodisa bilan bog‘liq taxminlarni sinovdan o‘tkazish.

Adabiyotlarda tergov eksperimenti quyidagi asosiy qoidalarga tayanadi:

Eksperimentning qonuniyligi: Har bir harakat qonuniy asosda o‘tkazilishi va protsessual qoidalarga muvofiq bo‘lishi lozim.

Aniqlik va ehtiyotkorlik: Eksperiment paytida aniqlik bilan dalillar to‘planishi va ularning buzilmasligi ta’minlanadi.

Tergov versiyalarini tasdiqlash: Eksperiment tergovchi tomonidan ishlab chiqilgan versiyalarni isbotlash yoki rad etish maqsadida olib boriladi.

Ushbu maqolada tergov eksperimentini o‘tkazish bo‘yicha quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil: Kriminalistika bo‘yicha ilmiy manbalar va amaliy tavsiyalar o‘rganildi.

Taqqoslash: Turli tergov eksperimentlari natijalari tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholandi.

Case-study: Tergov amaliyotidagi konkret holatlar o‘rganildi va ular asosida tavsiyalar ishlab chiqildi.

Praktik kuzatuv: Eksperiment jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish usullari ko‘rib chiqildi.

NATIJALAR

Tergov eksperimenti bir qator muhim maqsadlarni ko‘zlaydi:

1. Jinoyat qanday sodir bo‘lganini tushunish: Tergovchi jinoyatning qanday sodir bo‘lganligini aniqlash uchun voqealarni qayta tiklaydi. Jinoyatchi yoki guvohlarning harakatlari va hodisa joyidagi sharoitlar o‘rganiladi.

2. Tergov farazlarini tasdiqlash yoki rad etish: Tergovchi tomonidan ilgari surilgan farazlarni tergov eksperimenti orqali tasdiqlash yoki rad etish mumkin. Bu farazlar jinoyatchining qaerda bo‘lgani, qanday harakat qilgani va qanday vositalardan foydalanganini o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Dalillarning ishonchliligini tekshirish: Tergov eksperimenti orqali olingan dalillarning haqiqiyligini yoki ularning boshqa tafsilotlar bilan qanday bog‘liqligini aniqlash mumkin. Bu jarayonda tergovchi turli xil sharoitlarni modellashtiradi va dalillarning hodisaga qanday ta’sir ko‘rsatganini o‘rganadi.

4. Guvoh ko‘rsatmalarining to‘g‘riligini tekshirish: Jinoyat sodir bo‘lgan vaqtda guvohlar tomonidan berilgan ko‘rsatmalar tergov eksperimenti yordamida tekshiriladi. Bu orqali guvohlarning so‘zlariga qanchalik ishonchli ekani aniqlanadi.

Research Science and Innovation House



Tergov eksperimenti jarayonida quyidagi qoidalarga rioya qilinishi lozim:

1. Tayyorlov bosqichi

Tergov eksperimenti oldindan rejalashtirilishi kerak. Bu bosqichda tergovchi eksperiment o‘tkazish joyini, ishtirokchilarni va eksperiment davomida qo‘llaniladigan vositalarni aniq belgilab olishi kerak. Tayyorlov bosqichida shuningdek, eksperiment o‘tkazish sharoitlari, vaqti va zarur jihozlar ham rejalashtiriladi.

- Eksperimentni rejalashtirish: Tergovchi tergov eksperimentini o‘tkazishdan oldin, unga qanday tayyorgarlik ko‘rishni rejalashtiradi. Bu reja eksperimentni qanday o‘tkazish, kimni jalb qilish va qanday maqsadga erishishni belgilaydi.

- Eksperimentda ishtirok etuvchilarni tanlash: Tergov eksperimentida guvohlar, jabrlanuvchilar, gumondorlar yoki boshqa tergovchilar ishtirok etishi mumkin. Har bir ishtirokchining roli oldindan belgilanishi va ular eksperiment davomida qanday vazifalarni bajarishini aniqlab olish kerak.

2. Aniqlik va haqqoniylik qoidasi

Tergov eksperimenti jarayonida jinoyat sodir bo‘lgan sharoitlar va voqealar iloji boricha to‘g‘ri va aniq qayta tiklanishi kerak. Voqealarning haqqoniy tiklanishi tergov eksperimentining ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi. Bu jarayonda voqea tafsilotlariga e’tibor berilishi, shuningdek, dalillar va ko‘rsatmalarni to‘g‘ri moslashtirish lozim.

- Voqeani haqqoniy tiklash: Eksperiment davomida jinoyat joyi va sharoitlari to‘liq qayta tiklanishi lozim. Masalan, hodisa joyidagi yorug‘lik darajasi, ovozlar va boshqa tafsilotlar iloji boricha haqiqiy sharoitga mos bo‘lishi kerak.

- Dalillarni aniqlik bilan o‘rganish: Tergovchi jinoyat sodir bo‘lgan paytdagi har bir detalni aniq tekshirishi kerak. Masalan, o‘lchamlar, masofalar, tezlik va harakatlar haqida aniq ma’lumot olish uchun maxsus o‘lchov vositalari qo‘llaniladi.

3. Tizimli yondashuv qoidasi

Tergov eksperimenti izchil va tizimli tarzda amalga oshirilishi kerak. Har bir bosqich oldindan belgilanib, ishtirokchilarning harakatlari aniq rejalashtiriladi. Eksperiment jarayonida har bir detal va o‘zgarish qayd etilishi lozim.

- Eksperimentning izchil o‘tkazilishi: Tergovchi eksperimentni dastlabki bosqichdan to yakuniy bosqichgacha aniq reja asosida o‘tkazadi. Har bir qadam muhim bo‘lib, ular izchil tarzda o‘rganiladi.

- Natijalarni qayd qilish: Eksperiment davomida tergovchi har bir natijani yozib borishi kerak. Bu natijalar keyinchalik tergov jarayonida dalil sifatida foydalanilishi mumkin.

4. Xavfsizlik qoidasi

Tergov eksperimenti davomida xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilish zarur. Eksperiment vaqtida ishtirokchilarning xavfsizligini ta’minlash uchun kerakli choralar ko‘rilishi kerak, ayniqsa, jinoyatchi tomonidan xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan holatlarda alohida e’tibor berilishi lozim.

- Xavfli vaziyatlardan qochish: Agar tergov eksperimenti davomida shaxsiy xavfsizlikka tahdid bo‘lsa, tergovchilar xavfsizlik choralarini ko‘rishlari shart. Agar jinoyatchi qurollangan bo‘lsa yoki jinoyat joyi xavfli bo‘lsa, tegishli kuch ishlatish xizmatlari jalb qilinishi mumkin.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishi tergov amaliyotida advokat himoyasini samarali tashkil etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarining qanday afzalliklari va imkoniyatlari mavjudligini tahlil qiladi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarning amaliyotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammo va cheklovlarni ham ko‘rib chiqadi. Ushbu maqola raqamli texnologik vositalarning nafaqat advokatning o‘z ishini samarali bajarishidagi, balki tergov jarayonidagi ish materiallarining to’g’ri tahlil qilinish jarayonidagi ahamiyatini ham yoritib beradi.

Kalit so’zlar: advokat himoyasi, tergov jarayoni, sun’iy intellekt, psixologik yondashuvlar, elektron hujjatlar, onlayn platforma.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organlar tizimi va sud-huquq amaliyotini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, tergov jarayonida advokat himoyasini samarali tashkil etishda ushbu texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalari advokatlarga huquqiy hujjatlarni osonroq tahlil qilish, ma'lumotlarni tezkor yig‘ish va qayta ishlash, shuningdek, fuqarolarning huquqiy himoyasini oqilona tashkil etishda muhim rol o’ynaydi.

Yangi texnologiyalarning tergov va sud amaliyotiga tatbiq etilishi advokatlar uchun yangi imkoniyatlar ochib, tergov jarayonidagi murakkabliklarni kamaytirish va ortiqcha byurokratik to’siqlarning oldini olishga xizmat qiladi. Masalan, elektron bazalar orqali sud amaliyoti bilan bog‘liq qarorlarni tahlil qilish, ekspert xulosalari va boshqa muhim ma’lumotlarga tezkor kirish kabi jarayonlar advokat himoyasi sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, onlayn platformalar va raqamli

vositalar advokatlarga ishonch bildiruvchi shaxslar bilan masofaviy tarzda muloqot qilish, tezkor hujjatlar almashinuvi va masalalarni yanada strategik yondashuv bilan hal qilish imkonini beradi.

Zamonaviy tergov amaliyoti an’anaviy usullardan farqli ravishda texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va huquqiy tamoyillar asosida tashkil etiladi. Bu, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, inson huquqlarining muhofaza qilinishini ham kafolatlaydi. Quyida zamonaviy tergov amaliyotining asosiy o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan:

- Elektron axborot tizimlaridan foydalangan holda dalillarni yig‘ish va tahlil qilish. Masalan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga aloqador bo’lgan ma’lumotlarni vakolatli davlat organlaridan onlayn shaklda olish imkoniyati.
- Sun’iy intellekt va ma'lumotlar tahlili: rivojlangan huquqiy-demokratik davlatlar amaliyotida jinoyatlarni tezroq ochish va murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish uchun sun’iy intellektdan foydalanish.[1]
- Video yozuv va kuzatuv texnologiyalari: jinoyat joyidagi kuzatuv kameralarining yozuvlari va dronlar yordamida dalillar yig‘ish.[2]
- Shaffoflik: tergov jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun so‘roq va boshqa protsessual harakatlarning audio yoki videoyozuv shaklida yozib olinishi.
- Xalqaro hamkorlik: transmilliy jinoyatlarda boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish amaliyoti.
- Maxsus bilimlar: kiberjinoyatlar bo‘yicha tergov qilish uchun mutaxassislar zamonaviy dasturiy ta’minot va texnologiyalardan foydalanish.
- Virtual muhitdagi dalillar: elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, internet trafik yozuvlari va boshqa virtual dalillarni to‘plash usullari.
- DNK ekspertizasi: jinoyatchini aniqlash yoki dalillarni tasdiqlashda eng ishonchli usullardan biri hisoblanadi.[3]
- Biometrik texnologiyalar: Barmoq izlari, ko‘z qorachig‘i yoki yuz tanib olish tizimlari orqali shaxsni aniqlash.

[1] https://www.dw.com/en/how-chinas-ai-is-automating-the-legal-system/a-64465988
[2] https://consortiq.com/uas-resources/how-drones-improve-crime-scene-investigation
[3] Law enforcement use of genetic genealogy databases in criminal investigations: Nomenclature, definition and scope - PMC

- Kiberxavfsizlik tahlillari: elektron tizimlarda sodir bo‘lgan buzilishlar yoki izlarni aniqlash uchun maxsus ekspertiza amalga oshirish.
- Big Data tahlili: katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatlar orasidagi bog‘liqliklarni aniqlash imkoniyati.
- Onlayn muloqot: guvohlar yoki boshqa mutaxassislar bilan masofadan turib so‘roq va maslahatlar olib borish imkoniyati.
- Zamonaviy tergov amaliyotida jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar keng qo‘llaniladi. Masalan, jinoyat sodir etilish xavfi yuqori bo’lgan zonalarni kuzatish va potensial jinoyatchilarni oldindan aniqlash texnologiyalari.
- Tergovchilarni zamonaviy texnologiyalar va metodikalar bo‘yicha doimiy o‘qitish. Bu ularga yangi jinoyat turlarini ochishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

Ta’kidlash joiz bo’lgan eng muhim masalardan yana biri bu tergovning barcha bosqichlarida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining o’z huquqlaridan samarali foydalanishidir. Bu jarayonda advokatlarning ishtiroki muhim sanaladi va ular uchun ham himoya huquqi haqidagi bir qancha zamonaviy yondashuvlar mavjud. Tergov jarayonida advokat himoyasini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati huquqiy tizimning samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquqlarini kafolatlashda muhim o‘rin tutadi. Quyida ushbu yondashuvlarning asosiy ahamiyati va ular orqali erishiladigan natijalar yoritiladi:

- Zamonaviy yondashuvlar advokatning mustaqilligini oshirishga, jumladan: himoya strategiyalarini aniq va asosli ishlab chiqishga yordam beradi.
- Tergov jarayonida o’z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarning huquqlari ta’minlanishini yaxshilaydi.
- Elektron hujjatlar bilan ishlash: yangi texnologiyalar hujjatlarni yig‘ish va tahlil qilishda vaqtni tejaydi.
- Sun’iy intellekt vositalari: advokat ishga aloqador bo’lgan qonun hujjatlarini tezkor tahlil qilishda yordam beradi.[4]
- Onlayn platformalar orqali yuridik yordamning yanada qulay va tezkor bo‘lishi.[5]

[4] https://www.unesco.org/en/articles/judicial-operators-100-countries-express-interest-learning-about-ai-and-rule-law-unesco
[5] www.rocketlawyer.com

- Ishonch bildiruvchi shaxslarga qonuniy huquq va manfaatlarini tushuntirishda zamonaviy vizual va interaktiv usullardan foydalanish.

- Psixologik yondashuvlarning ahamiyati: advokatning mijoz bilan ishlash davomida zamonaviy psixologik usullardan foydalanish ularning huquqiy himoyasi samarali ta’minlanishini kafolatlaydi. Bunga mijoz bilan psixologik kontakt o’rnatish, ichki qo’rquv va xavotirlarini kamaytirish uchun u bilan ochiq va xolis muloqot qilish, shuningdek ularni aktiv tinglash orqali muammolarini aniq tushunish orqali erishish mumkin. Bunda advokatning professional psixologlar bilan ishlashi tavsiya etiladi.[6]

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif qilish mumkin:

-Elektron axborot tizimlari va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali tergov jarayonini optimallashtirish.

- Guvoh va jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun zamonaviy kuzatuv va shaffoflik vositalarini tatbiq etish.

- Kiberjinoyatlar va raqamli dalillar bilan ishlash bo‘yicha malaka oshirish.

- BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standart va tavsiyalarni mahalliy tizimga tatbiq etish.

- Transmilliy jinoyatlar bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

-Advokatlarning mijoz bilan ishlashida psixologik qo‘llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish, protsess ishtirokchilari bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish uchun maxsus treninglar o‘tkazish.

Taklif qilingan choralar huquqiy tizimni zamonaviylashtirish va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tergov jarayonida advokatlarning himoyasi sifatini oshirish va texnologik yondashuvlarni tatbiq etish bilan mamlakatning huquqiy tizimi xalqaro talablar darajasiga chiqishi mumkin.

Xulosa o’rnida shuni qayd etish joizki, zamonaviy tergov amaliyotida advokatlik himoyasining ahamiyati faqat texnologik imkoniyatlarni qo‘llash bilangina cheklanib qolmay, balki huquqiy tizimning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa milliy va xalqaro darajada huquqiy davlat qurilishida muhim qadam hisoblanadi.

[6] Psychology and Law: Exploring the Intriguing Connection - AP PGECET

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Artificial Intelligence and Legal Analytics: New Tools for Law Practice in the Digital Age" by Kevin D. Ashley. 2017

2. Cybercrime and Digital Forensics: An Introduction" by Thomas J. Holt, Adam M. Bossler, and Kathryn C. Seigfried-Spellar. 2015.

3. "Psychology and Law: Exploring the Intriguing Connection" – AP PGECET.

4. "How China's AI is Automating the Legal System" – DW, https://www.dw.com/en/how-chinas-ai-is-automating-the-legal-system/a-64465988.

5. "Law Enforcement Use of Genetic Genealogy Databases in Criminal Investigations: Nomenclature, Definition and Scope" – PMC, https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/.

6. "How Drones Improve Crime Scene Investigation" – Consortiq, https://consortiq.com/uas-resources/how-drones-improve-crime-scene-investigation.

7. Xalqaro yuridik platformalar bo‘yicha tahliliy materiallar, www.rocketlawyer.com.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

“GIMNASTIKA SPORT TURINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING O’ZBEKISTON JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA TUTGAN O’RNI”

Mirzalimov Muslimbek Saotjon o‘g‘li.
Andijon davlat pedagogika instituti,
Jismoniy madaniyat 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Gimnastika sport turining kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari va O’zbekiston jismoniy tarbiya tizimida gimnastikaning o’rni, davlat ta’lim standartlarida uning bajarilishi, mamlakatimizda bu sport turi uchun yaratilayotgan shart sharoitlar hamda erishilayotgan yutuqlari xaqidagi materiallar o’rin olgan. Bo’lajak jismoniy tarbiya yo’nalishidagi mutaxassislarni gimnastika sport turining kelib chiqish tarixi va mamlakatimizda jismoniy tarbiyaning bugungi kundagi ta’lim tizimidagi o’rni haqidagi bilimlarini oshirishda muhim axamiyat kasb etishi tadqiq qilingan.

Kalit so’zlar: Gimnastika, gimnos, ta’lim, tarbiya, reabilitatsiya, egiluvchanlik, anpilituda, fediratsiyai.

KIRISH

O’zbekistonda jismoniy tarbiya vosita va uslublarining yagona tizimi yaratilgan. Mazkur vositalarning eng ommaviylaridan biri bo’lgan Gimnastika bu tizimda haqli ravishda muhim o’rin tutadi. Gimnastika mashg’ulotlari-«yosh avlodni bolalik chog’idan boshlab jismoniy jihatdan sog’lom qilib tarbiyalashni, ularda jismoniy va ma’naviy kuchlarni garmonik tarzda rivojlantirishni ta’minlash» vazifasini hal qilishga yordam beradi. Gimnastika sport turi qadimdan barcha sport turlarining onasi ham deb etirof etilganligi bejiz emas, chunki juda kup sport turlari uchun jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish vositalari ya’ni sport anjomlari va inshoatlardagi jixozlar gimnastika sport turining azaliy anjomlari bo’lib kelgan.

«Gimnastika» yunoncha «gimnos» so’zidan kelib chiqqan bo’lib, «yalang’och» degan ma’noni anglatadi. Shuningdek, yunoncha gimnotsike (gummazs-mashq qildiraman so’zidan) so’zining kishi salomatligini mustahkamlash, uni har tomonlama jismonan tarbiyalash va harakat qobiliyatlarini,

kuchi, chaqqonligi, harakat tezkorligi, chidamliligi va boshqa xususiyatlarini takomillashtirish uchun ishlatadigan maxsus tanlangan jismoniy mashqlar, uslubiy usullarining tizimi, degan ma’nosi ham bor.

Ayniqsa bolalar va o’smirlarni jismoniy shakllantirishda Gimnastikaning ahamiyati katta. Gimnastikaning xilma-xil vosita va uslublari yordamida boshlang’ich jismoniy tarbiya vazifalari muvafaqiyatliroq hal qilinadi, bolalar va o’smirlarda jismoniy hamda harakat qobiliyatlarini rivojlantirish uchun asos yaratiladi, ularning funksional va ko’nikish imkoniyatlari ancha kengayadi.

Gimnastikaning juda katta gigiena-sog’lomlashtirish ahamiyati bor. Qadimgi dunyoning atoqli mutafakkirlaridan biri Plutarx Gimnastikaning sog’lomlashtirish ahamiyatiga baho berib: «Gimnastika meditsinaning shifobaxsh qismidir»-degan edi. Jahon fanining atoqli arboblari bo’lgan rus olimlari I.M. Sechenov, I.P. Pavlov, I.N. Mechnikov, P.F. Lesgaft, V.V. Gorinevskiylar jismoniy mashqlarga, jumladan, Gimnastika mashqlariga katta ahamiyat berib, bu mashqlarni hayotiy va faoliyat va ishchanlik qobiliyatini oshirishning, shuningdek sog’lomlashish va faol dam olishning eng yaxshi vositasi deb bilgan edilar.

Gimnastika bilan hamma-bolalar-u kattalar, keksalar-u yoshlar, yaxshi tayyorgarlik ko’rganlar-u endi boshlovchilar, sog’lom kishilar-u va, hatto notob kishilar-shug’ullanishlari mumkin. Gimnastika bilan maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarida, maktablarda, o’rta va oliy o’quv yurtlarida, ko’ngilli sport jamiyatlarida, ishlab chiqarish joylari va davolash maskanlarida, dam olish oylari va sanatoriyalarida, O’zbekiston Armiyasi va flotida ham shug’ullaniladi. Gimnastika bilan ko’plar o’z uylarida radiodan eshitib, televizorlardan ko’rib turib, uy boshqarmalariga qarashli turar joy va hokazolarda ham shug’ullanishganlar. Gimnastikaning bunchalik keng yoyilganligiga sabab uning vositalarining barchaga tushunarli va xilma-xil ekanligida, jismoniy tarbiyaning turli vazifalarini hal qilish uchun mashqlar tanlash imkoniyati katta ekanligidadir. Gimnastika mashg’ulotlarida hayotiy zarur malaka hamda ko’nikmalar orttiriladi va takomillashtiriladi. Gimnastikaning ta’limiy ahamiyati ham juda katta. O’quv topshiriqlari aniq taqsimlanishining shartliligi, harakatlar analizi va sintezining keng ishlatilishi o’rganilgan harakat faoliyatlarining xilma-xil ijro variantlarida murakkablashtirilishi, harakatlarni cheksiz kombinatsiyalash, forma va koordinatsiya jihatidan xilma-xil bo’lgan juda ko’p jismoniy mashqlarni o’rganish-bularning hammasi shug’ullanuvchilarga o’zlarining harakat imkoniyatlarini

baholashni va harakat faoliyati umumiy, qonuniyatlarini aniqlab olishni o’rganish imkonini beradi.

XULOSA

Gimnastika insonni estetik tarbiyalashning samarali vositasi hisoblanadi. Gimnastika mashqlarini ijro etish texnikasining gimnastikaga xos uslub talab qiladigan darajada mukammal bo’lishi uchun harakatlar ravon va ifodali bo’lishi, ijrochining harakatlari o’ziga yarashadigan, nafis bo’lishi kerak. Gimnastika bilan shug’ullanish natijasida kelishgan qaddi-qomatga ega bo’linadi, gavda tuzilishidagi nuqsonlar tuzaladi, gavdaning ayrim bug’inlari taraqqiyotida ham, umuman gavda taraqqiyotida ham juda yaxshi mutanosiblikka erishiladi.

Nihoyat, Gimnastika-aqliy ta’lim bilan jismoniy tarbiya birligining yorqin namunasidir. Gimnastikada qullaniladigan uslublar shug’ullanuvchilarning intelektual faoliyati. Faolligini rag’batlantirish imkonini beradi, markaziy nerv tizimining moyilligini, uning muskul faoliyatining turli holatlariga moslasha olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. P.F. Lesgaft Gimnastikaning maktabdagi ahamiyatini baholab, bunday deb yozgan edi: «Aqliy va jismoniy ta’lim o’zaro shunchalik chambarchas bog’lanib ketadiki, natijada ular maktabning ajralmas vazifasini tashkil etadi; chunki har qanday bir yoqlama rivojlanish ta’lim berishni bo’zadi, albatta va barkamol inson bo’lib shakllanish uchun sharoit yaratib bermaydi».

FOYDANALINGAN ADABIYOTLAR

1. И.И Маргунова Гимнастика ва уни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма.

2013 йил Тошкент “ILM ZIYO”

2. Tursunpulatovich, M. N. (2022). ACTIVE FORMS OF REST FOR INCREASING

THE WORKABILITY OF GYMNASTS. Modern Journal of Social Sciences and

Humanities, 4, 183–185. Retrieved from

https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/97

3. Navruz, M. (2022). FEATURES OF PSYCHOLOGICAL

PREPARATION OF GYMNASTS. Modern Journal of Social

Sciences and Humanities, 4, 186–188. Retrieved from

https://mjssh.academicjournal.io/index.php/mjssh/article/view/98

4. ВЛИЯНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ НА ИНТЕНСИВНОСТЬ ТРЕНИРОВКИ Мухаммадиев Н.Т. Молодой ученый. 2021. № 27 (369). С. 281-283. 5. ВЛИЯНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКИ НА ВЫПОЛНЕНИЕ ТРЕНЕРОВОЧНЫХ НАВЫКОВ И УМЕНИЙ Мухаммадиев Н.Т. Мировая наука. 2021. № 7 (52). С. 59-63.

6. Xasanov Ilyos Tuychievich. (2022). Development Stages and Characteristics of

The History of Physical Education. Journal of Pedagogical Inventions and Practices,

5, 96–99. Retrieved from https://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/813

7. Xasanov, I. T., & Sodiqova, D. B. (2022). Specific ways to develop physical activity in preschool children. Miasto Przyszłości, 24, 20-25.

8. Tuychievich, H. I. . (2022). Paralympic Sports Competitions - A Field of Courage

and Courage!. International Journal of Culture and Modernity, 17, 474–477. Retrieved from https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/371

9. Hasanov I.T. (2022) ORGANIZATIONAL BASIS OF PHYSICAL EDUCATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI (YAPONIYANING “TOSHIBA” KORPORATSIYASI MISOLIDA)

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕГО ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ (НА ПРИМЕРЕ ЯПОНСКОЙ КОРПОРАЦИИ «TOSHIBA»)

FOREIGN EXPERIENCE IN DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT AND ITS PRACTICAL IMPORTANCE (BASED ON THE EXAMPLE OF THE JAPANESE CORPORATION «TOSHIBA»)

Otakuzieva Zuxra Maratdaevna
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor v.b.
e-mail: zukhra.otakuzieva@rambler.ru
Tel: +998 91 163 51 15

Xakimova (Isayeva) Lobar Baxodirovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, hisobchi
Tel: +998 94 603 38 83

Annotasiya. Ushbu maqola hozirgi kunda dunyo amaliyotidagi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasiga, xususan, O‘zbekiston uchun ularning ahamiyatli jihatlariga bag’ishlangan.

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, iqtisodiyotni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, transaksion sektor, moliya-bank tizimi, tranzaksiyalar, moliyaviy texnologiyalar, raqamli banking, raqamli moliyaviy aktivlar, operatsion daromadlar

Аннотация. Данная статья посвящена зарубежному опыту развития цифровой экономики в современной мировой практике, в частности, их значимым для Узбекистана аспектам.

Ключевые слова: цифровизация, цифровизация экономики, цифровые технологии, транзакционный сектор, финансово-банковская система, транзакции, финансовые технологии, цифровой банкинг, цифровые финансовые активы, операционный доход

Abstract. This article is devoted to foreign experience in the development of the digital economy in modern world practice, in particular, their significant aspects for Uzbekistan.

Key words: digitalization, digitalization of the economy, digital technologies, transaction sector, financial and banking system, transactions, financial technologies, digital banking, digital financial assets, operating income

Taraqqiy etgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va korxonalar faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida strategik takomillashtirish borasida katta tajriba to'plangan.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda so'nggi 10-15-yil ichida raqamli iqtisodiyot rivojlanishi tez va intensiv kechmoqda. Bu, avvalo, iqtisodiyotda axborot sektorining muttasil va nisbiy o'sishida, uning doimiy diversifikatsiyasi bilan birga namoyon bo'ladi. Bu barcha aniq iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi: umumiy xizmat ko'rsatish va axborot sohasida band bo'lganlar sonining oshishi, xususan, tegishlicha ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) tuzilishining miqdoriy qiymati va moddiy jihatidan o'zgarishi, milliy iqtisodiyotda band bo'lganlar kasb-hunar va malaka tuzilmasining o'zgarishi va boshqalar.

Raqamli iqtisodiyot amaliy va nazariy muammolarini ko'rib chiqish u yoki bu darajada axborot nazariyasi sohasidagi tadqiqotlarga asoslangan.

XX asr boshida, axborot texnologiyalari bozorlarida mamlakatlarning ikki guruhi:

1) fundamental fani rivojlangan ilg'or mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya va boshqalar);

2) birinchi guruh mamlakatlar (Tayvan, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqalar)ning innovatsiya va texnologiyalaridan foydalanadigan mamlakatlar samarali faoliyat yuritganlar.

Keyinchalik uchinchi guruh mamlakatlar ham paydo bo'ldi: Finlyandiya, Shvesiya, Norvegiya, Irlandiya va Isroil, ular ta'lim, ilm-fan va axborot texnologiyalari tizimlarini samarali modernizatsiya qilish orqali jahon bozorlariga chiqishga muvaffaq bo'ldilar. Bugungi kunda, raqamli iqtisodiyotda ilg'or va yetakchi mamlakatlarga Norvegiya, Shvesiya va Shveysariyani kiritish mumkin. TOP 10 talikka AQSh, Buyuk Britaniya, Daniya, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya va Gonkong ham kiradi. AQShda raqamli iqtisodiyotning ulushi 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Yevropa Ittifoqida 8,2 foiz, Braziliyada 6,2 foiz, Rossiyada esa 3,9 foizni tashkil etadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida bir qator mamlakatlar, jumladan 2000-yilda – Daniya, 2005-yilda – Singapur, 2008-yilda – Avstraliya, Gonkong, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, 2009-yilda – YeI, 2010-yilda – Kanada, 2012-

yilda – Malayziya, 2013-yilda – Janubiy Koreya, Meksika, 2014-yilda – Kanada, Kolumbiya, Chili, Isroil, Singapur, Estoniya, 2015-yilda – Xitoy, Hindiston, Qozog'iston, 2017-yilda – Germaniya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston o'z dasturlarini qabul qildilar. Hozirda iqtisodiyotni raqamlashtirishga o'tishi shartlari va mexanizmlarini aniqlash dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu esa, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqroq baholashni taqozo etadi.

AQSh iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotning uchdan bir qismi (33 foizi) raqamli texnologiyalar ta'siri ostida va AQSh moliya sektorining katta ulushi (60 foizi) raqamli asosga o'tkazilgan, shuning uchun AQSh moliya sektori dunyoda eng rivojlangan hisoblanadi. Unga yaqin aloqa sohasi bo'lib, u uzoq muddatli rivojlanish uchun zamonaviy, barqaror raqamli platformani yaratishga va uning ahamiyatini sezilarli darajada oshirishga intilmoqda. Raqamlashtirish sohasida Amerika Qo'shma Shtatlarining asosiy raqobatchisi Xitoy hisoblanadi, 2018-yilda uning B2C (Business-to-consumer) raqamli bozori daromadi 765 mlrd. dollardan ortiqni tashkil etdi va shu tariqa mamlakat jahon bozori yetakchisiga aylandi. 2018-yilda raqamli bozor AQShda 700 mlrd. dollardan ortiq daromad keltirdi, yevropaning 5 ta mamlakati (Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya)da esa raqamli bozor daromadi 500 mlrd. dollardan ortiq bo'ldi.

Internet foydalanuvchilarining asosiy ulushi Osiyoda joylashgan, ammo aholi orasida internetdan foydalanuvchilar ulushi bo'yicha Osiyo ikkinchi o'rinda turadi, aholining faqat yarmi internetdan foydalanadi (49,7 foiz). Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Shimoliy Amerika birinchilardan bo'lib, uning internet foydalanuvchilari mintaqa aholisining 88 foizini tashkil etadi. Internetdan foydalanuvchilarning eng yuqori darajada o'sishi Shimoliy Yevropa (94 foiz), G'arbiy Yevropa (90 foiz) va Shimoliy Amerikada (88 foiz) kuzatilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda, xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiyada internetdan foydalanuvchilar aholining o'rtacha 81 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda internetdan foydalanish ulushi esa 40 foizni, Rossiya, MDH va Sharqiy Yevropa kabi o'tish iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan mamlakatlarda 15 foizni tashkil etmoqda. Xitoyga aholi soni bo'yicha (aholisining 55,8 foizi) dunyodagi eng yirik internet auditoriya, shu jumladan, mobil banking foydalanuvchilari (97,5 foiz) tegishlidir.

Raqamli texnologiyalar internet orqali savdo va xizmatlar ko'rsatishda o'zlarini yorqinroq namoyon etdi. Xitoy Alibaba Group kompaniyasi internet-tijoratni rivojlantirish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Internet xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha – Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya – raqamli sanoatni rivojlantirishda qiziquvchi ishlab chiqaruvchilarni keng jalb qilish orqali innovatsion yechimlar rivojlanishini ta'minlaydigan infratuzilmani faol yaratishda

ilg‘or hisoblanadi. Yevropa komissiyasi ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot “Katta yigirmatalik” guruhi mamlakatlarida 3,2 trln. yevroga baholanmoqda va yalpi ichki mahsulotning taxminan 8 foizni tashkil etib, rivojlanish hamda ish o‘rinlarini yaratishni rag‘batlantirmoqda. Bundan tashqari, Internetda yaratilgan qo‘shimcha qiymatning 75 foizdan ortig‘i an’anaviy tarmoqlarga tegishli bo‘lib, bu esa ularning yuqori mehnat unumdorligi bilan bog‘liqdir.

Moliyaviy sohada raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga doir misollarni banklar o‘rtasida elektron hisob-kitoblar va to‘lovlardan foydalanishni keltirish mumkin. Jumladan, 200 mamlakatdan 9000 dan ortiq kredit muassasalarini o‘z ichiga olgan SWIFT tizimi har yili 2,5 mlrd.dan ortiq to‘lovlarni amalga oshiradi. 2007-yilda TARGET 1 tizimini almashtirgan TARGET 2 to‘lov tizimi Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar 28 ta Markaziy bankining axborot oqimlarini birlashtiradi, bu esa to‘lovlarni onlayn tarzda tez amalga oshirish imkonini beradi. Real vaqt tartibida bruto-hisob-kitoblarni o‘tkazadigan Fedwire – Federal avtomatlashtirilgan pul o‘tkazmalari tizimidan pul vositalarini 6 mingta banklar o‘rtasida o‘tkazishda va AQShdagi kredit muassasalariga barcha to‘lovlarning 99 foizni amalga oshirishda foydalaniladi.

Moliya sohasida internet orqali nafaqat bank xizmatlarini, balki boshqa xizmatlarni ham ko‘rsatish mumkin. Sug‘urta sohasida ham onlayn xizmatlar ko‘rsatila boshlandi. Sug‘urta kompaniyalari saytida ko‘rsatilgan xizmatlar bilan tanishish, anketa to‘ldirish, eng yaxshi sug‘urta shartlarini tanlash va sug‘urta polisini sotib olish mumkin. Bir qator mamlakatlarda umumiy portal mavjud bo‘lib, unda barcha sug‘urta kompaniyalari haqida ma’lumot topish mumkin, bu esa mijozlarga mavjud kompaniyalar mahsulotlarini solishtirish imkonini beradi.

Quyida 1.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, “Toshiba” korporatsiyasida 2018-2022-yillarda mahsulotlarni sotish hajmini pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, birinchi navbatda, koronavirus pandemiyasi tufayli korporatsiya tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarga nisbatan jahon bozorlarida talabning pasayib ketganligi bilan izohlanadi.

1.2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Toshiba” korporatsiyasida operatsion daromadlar miqdori 2021-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Ammo, 2022-yilda operatsion daromadlar miqdori 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada ko‘paygan. Bu esa, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida koronavirus pandemiyasi munosabati bilan joriy qilingan cheklovlarni yumshatilganligi yoki olib tashlanganligi bilan izohlanadi.

Korxonalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilinishi mahsulotlar tannarxini pasaytirishi bilan birga, korxonalarning joriy aktivlari va joriy passivlari

o‘rtasidagi nisbatning ijobiy o‘zgarishiga olib kelishi lozim. Bu esa, kompaniyaning likvidliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

1.1-jadval

“Toshiba” korporatsiyasida (Yaponiya) sotish hajmi va operatsion daromadlar, mlrd. iyen[1]

Ko‘rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Sotish hajmi	3 947	3 693	3 389	3054	3 336
Operatsion daromadlar	86	35	130	104	158


1.1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Toshiba” korporatsiyasida 2020-2022-yillarda joriy aktivlar miqdorining o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, korporatsiyaning likvidliligini ta’minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Shuningdek, ushbu korporatsiyada 2019-2021-yillarda joriy majburiyatlar miqdorining pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa, korporatsiya faoliyatini takomillashtirish nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, Toshiba korporatsiyasi faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan, innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish uzluksiz jarayon hisoblanadi. Bu esa, korporatsiya faoliyatini takomillashtirishda muhim o‘rin tutmoqda.

Toshiba korporatsiyasi faoliyatiga Bluetooth Developer Studio uchun ulanadigan modelni joriy qilinishi Bluetooth komponentlari asosida ishlaydigan Buyumlar interneti va boshqa tizimlarni qurilmalarini ishlab chiqarish vaqtini qisqartirdi.

Research Science and Innovation House

[1] Jadval mualliflar tomonidan “Toshiba” korporasiyasining yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.



1.1-rasm. “Toshiba” korporatsiyasida (Yaponiya) joriy aktivlar va joriy majburiyatlar miqdori, mlrd. iyen[2]

Bluetooth Developer Studio (BDS) – bu Bluetooth SIG guruhi tomonidan tarqatiladigan ilovalarni ishlab chiqish uchun qo‘llaniladigan instrumentdir. Bu esa, ishlab chiquvchilarga turli mikrosxemalar va platformalar uchun Bluetoothning standartlashgan xizmatlari va ilovalarini yaratishga yordam beradi.

Bluetooth Special Interest Group tomonidan yaratilgan BDS ilovasi personal kompyuterlarda ishlaydi va foydalanuvchilarga BLE profili uchun grafik loyihalashning to‘liq imkoniyatlarini taqdim etadi.

Toshibaning BDS uchun ulanadigan moduli serverdan foydalanuvchi mijozlarga katta qulayliklar yaratish imkonini beradi.

1.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, “Toshiba” korporatsiyasida pul mablag‘larining joriy aktivlar hajmidagi ulushi 2022-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Biroq, mazkur davrda kreditor qarzdorlikning joriy majburiyatlar hajmidagi salmog‘i ham sezilarli darajada kamaygan.

1.2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, “Toshiba” korporatsiyasining joriy majburiyatlari hajmida kreditor qarzdorlikning salmog‘i 2019-2021-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo Toshibalgan. Biroq, ushbu ko‘rsatkich 2022-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada pasaygan. Bu esa,

[2] Rasm mualliflar tomonidan “TOSHIBA” korporasiyasining yillik hisobotlari ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Kompaniya faoliyatining barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

1.2-jadval

"Toshiba" korporatsiyasida (Yaponiya) pul mablag'larining joriy aktivlar hajmidagi ulushi va kreditor qarzdorlikning joriy majburiyatlar hajmidagi ulushi, foizda[3]

Ko'rsatkichlar	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Pul mablag'larining joriy aktivlar hajmidagi salmog'i	44,0	18,4	24,6	18,6
Kreditor qarzdorlikning joriy majburiyatlar hajmidagi salmog'i	35,1	35,9	38,4	31,9

Korxonalar faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlarni tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki:

– korxona miqyosidagi raqamli transformasiya an'anaviy IT xizmatdan insonga yo'naltirilgan ochiq tizimga o'tishni anglatadi va buning natijasida axborot va raqamli texnologiyalar korxonaning ichki resursi hamda aktivi vazifasi bilan cheklanib qolmaydi, balki tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omiliga aylanadi;

– korxonalarda biznes faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq bo'lgan tahdidlardan biri bo'lib, axborot xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi va mazkur tahdid texnologik risklar bilan bog'liqdir;

– korxonalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilish to'lovlar qiymatini pasaytirish va yangi daromad manbalarini ochish imkonini beradi, global bozorga chiqishni osonlashtiradigan omillar yuzaga keladi.

Адабиётлар рўйхати

1. Norman A. Information Society. Kluwer Academic Publishers, 2008.P. 240.
2. Авдеенко Т.В., Алетдинова А.А.. Цифровизация экономики на основе совершенствования экспертных систем управления знаниями.// Научно-технические ведомости Санкт-Петербургского

[3] Jadval mualliflar tomonidan "Toshiba" korporasiyasining yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

государственного политехнического университета Петра Великого. Экономические науки.-Том 10, №1, 2017. – С.9.
3. Стародубцева Е.Б., Маркова О.М.. Цифровая трансформация мировой экономики//Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика, 2018. - С. 124-129.
4. Катасонов В. Оцифрованный мир денег. URL: https://kv-journal.su/content/ocifrovannyy-mir-deneg (дата обращения: 14.09.2020).
5. Payment systems//www.ecb.eu.
6. Тчаро Хоноре, Воробьев А.Е., Воробьев К.А. Цифровизация нефтяной промышленности: базовые подходы и обоснование «интеллектуальных» технологий//Вестник Евразийской науки. – Москва, 2018. No2. https://esj.today/PDF/88NZVN218.pdf.
7. Otakuziyeva Z.M. Development of information economy in Uzbekistan. Global science. Development and novelty. Collection of scientific papers, on materials of the IV international scientific-practical conference December 25, 2016.Lisbon.Ed. SPC "LJournal", 2016. – 13-17 p.
8. Otakuziyeva Z.M. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini ta’minlashda korxona faoliyatini strategik takomillashtirish // Iqtisodiyot va ta’lim - Toshkent, 2021. - №5. 370-380-

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

“NAVOLARNI BOSHQARUVCHI USUL ZARBINING ZAVQI: MA’NAVIY VA MUSIQIY ASOSLARI”

Yunus Rajabiy nomidagi O‘z.MMSI “Maqom cholg‘u ijrochilik kafedrasi” dotsenti **Samadov Rahmatulla Sunatullayevich**

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning ajralmas qismiga aylangan o‘zbek cholg‘ulari, xususan, doira sozining musiqiy ijrodagi o‘rni va ahamiyati batafsil yoritilgan. Ajdodlardan meros bo‘lib qolgan manba risolalaridagi cholg‘u san'ati haqidagi fikr-mulohazalar ko‘rib chiqilgan. Zamonaviy musiqiy ustozlarning ijro mahorati va ularga ishongan shogirdlarning nomlari eslatib o‘tilgan. Yakuniy xulosada esa, barcha cholg‘ularni boshqaruvchi cholg‘u sifatida doira sozi alohida ta'kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Usullar, urma cholg‘ular, ritm, musiqiy san'at, musiqashunoslik, tadqiqotlar, manba, meros, Afshona, maqom, lad.

Abstract: This article explores the role and significance of the **doyra** (a traditional percussion instrument) in the context of Uzbek folk instruments, which are an integral part of our cultural heritage. The article examines thoughts and reflections on traditional instruments found in ancestral sources and manuscripts. It highlights the performance skills of contemporary masters and mentions the names of their devoted students. In the concluding remarks, the **doyra** is emphasized as the central instrument that governs all other folk instruments.

Keywords: Methods, percussion instruments, rhythm, musical Art, musicology, research, sources, heritage, Afshona, maqom, scale.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается место и значение **дойры** среди узбекских народных инструментов, являющихся неотъемлемой частью нашего культурного наследия. Изучены размышления о музыкальных инструментах, представленных в источниках, оставшихся от предков. Упоминаются исполнительские мастерства современных наставников и имена их преданных учеников. В заключении подчеркивается, что **дойра** является главным инструментом, управляющим всеми другими народными инструментами.

Ключевые слова: Методы, ударные инструменты, ритм, музыкальное искусство, музыкознание, исследования, источники, наследие, Афшона, макам, лад.

Musiqa san’atining kirishi, rivojlanishi, o‘z navbatida, musiqashunoslik ilmining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Natijada, bu ilm-fan sifatida shakllandi. Ana shu fanning asoschilari mashhur olimlar IX asrning 70-yillarida Sirdaryo bo‘yidagi Farob qishlog’ida tug‘ilgan Abu Nasr Farobiy va Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida tug‘ilgan Ibn Sinolar edi. Ular o‘z ijodlarida musiqa, musiqashunoslik ilmiga katta e’tibor berib asarlar yaratishdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili haqida so’z yuritar ekanmiz, Farobiyning musiqa haqidagi “Kitob-al-musiqiy-ul-kabir” asarini alohida qayd etishimiz lozim. Buyuk tibbiyot olimi Ibn Sino musiqa ilmi haqidagi qarashlarini “Kitob ushshifo” risolasiga alohida bir bob qilib kiritib, musiqaning turli kasalliklarga davo ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Olim musiqani inson ruhiyatiga ta’sir kuchini izchillik bilan ochib, ruhiy bemorlarni aynan musiqa yordamida davolash mumkin, degan xulosaga keldi.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik san’ati tajribasi asosida shakllangan bo‘lib ular o‘z risolalarida doira usullari o‘zbek musiqasida ahamiyatli va zarur jihatlarni o‘zida mujassam etganligini ta’kidlaganlar. Musiqa san’ati juda qadimga borib taqalsada, unga e’tibor, musiqaning inson hayotining ajralmas bir bo‘lagi sifatida shakllanib rivoj topishi X-XII asrlarga borib taqaladi.

Maxmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk” kitobidagi qo‘shiqlar xalq orasida juda mashhur bo‘lgan. Ana shu davrda rud, doyra, tanbur, kus, tabl, kubiz, rubob, taburok, zir, nay, chagona, shaypur, surnay, karnay, qonun kabi torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg‘ular mavjud bo‘lgan. Ushbu sozlar va kuylar juda ko‘p sharq mamlakatlarida saqlanib qolib, hamon xalqlarning sevimli sozlari va kuylariga aylanib, odam kayfiyatini ko‘taruvchi vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Bizning zamonimizgacha musiqiy usullarning turli namunalari jilolanib kelmoqda. Har doim usullar davrning ijtimoiy rivoji bilan birgalikda xalq ma’naviyatiga xizmat qilgan. Taraqqiyot rivojini e’tiborga olgan holda, yangi usullar yaratilib, ijrochilik amaliyotida uslublar ijrosining rang-barang usullari yuzaga kelgan.

Xalq ijrochilik amaliyotlari:

a) oddiy amaliy usullar, an’anaviy ommaviy marosimlar, qo‘shiq va laparlar, ijrochilikda qo‘llaniladigan va unchalik murakkab bo‘lmagan usullar.

b) maqsadli usullar, xalqni jalb etish, to‘plash, diqqatni qaratish kabi muayyan ma’noga ega bo‘lgan chaqiriq usullari;

v) murakkab usullar, ya’ni xalq mumtoz musiqa ijodiyotida qo‘llaniladigan usullar vositasi shakllanib, o‘z darajalari asosida turlangan.

O‘rta Osiyo va Sharq xalqlari qatori, o‘zbek usullari, ya’ni ritmik yo‘llari va ularning rivojlanish usullari alohida o‘rin egallaydi. Chalish usullar qoida bo‘yicha urib chalinadigan musiqa asboblari ijrosida qo‘llaniladi. Eng ko‘p tarqalgan urma zarbli musiqa asboblaridan, O‘zbekistonda, Tojikistonda va Uyg‘ur xalqlarida va shu bilan bir qatorda, Sharqda o‘zining shirali ovoziga ega bo‘lgan, musiqa cholg‘u asbobi doira hisoblanadi.

Bizga ma’lumki, doira iborasi ba’zan «Dapp», «Childirma», «Chirmanda» deb ham yuritiladi. Xorazmda dapp, childirma ijrochini esa “Dappchi”- childirmachi deb aytadilar, Buxoroda doiradast, Farg‘onada chirmandachi, Samarqanda esa doirachi deb yuritiladi.

Tadqiqot metodologiyasining omili bo’lgan doyra cholg’usi haqida so’z borar ekan, o‘zbek xalqi qadimdan doyra asbobini juda ardoqlab kelganligi bizga ma’lumdir. O‘tmishda bu asboblarning sadolari ostida xalqni maydonlarga, to‘y-tomoshalarga, musobaqa kurashlarga va har-xil sayillarga chaqirganlar.

Darvish Ali Changiy o‘z davri (XVII asr) da mavjud bo‘lgan cholg‘u ansambllari va ularning ijrochilari haqida ma’lumot bergan. Saroyda 60 cholg‘uchidan iborat ansambl bo‘lgan. «Nog‘ora xona» deb atalgan 60 kishilik cholg‘uchilar ansamblni nog‘orachi boshqargan. Darvish Ali misol tariqasida shunday dalilni keltiradi: «Sulton Husayn saroyida ansamblning rahbar-mehtar vazifasini nog‘orachi Sayid Ahmadbin mehtariy Miroqiy bajargan. «Nog‘ora xona» nog‘ora va damli musiqa cholg‘ularida kuy chalayotgan paytda ijrochilar joylashgan xona ko‘zda tutiladi.

Xalqimizning ma'naviy boyligi, xalq ijodida asrlar osha shakllanib, rivojlanib kelgan maqomlarda asosiy negiz lad va usuldir. Shuning uchun milliy musiqamizning shoh asarlari bo‘lmish maqomlar ijrochiligini doirasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Maqomlarning Nasr va Mushkulot ijro yo‘llarini yuqori malakali ijrochi sozandalar-u hofizlar doira bilan hamkorlikda ijro etishgan. Ma'lumki, doira va barcha zarbli cholg‘ular ijrochiligi vujudga kelishi va ravnaqi jarayonida Markaziy

Osiyo miqyosida har bir vohada o‘ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllangan. Bu uslublarda har bir vohaning o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyat kasb etuvchi tomonlari hamon o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg'ona-Toshkent doira ijrochiligini misol qilib keltirishimiz mumkin.

XVIII va XIX asrlarda O‘zbekistonda doira soziga xassos san'atkor O‘zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilov asos soldi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekistonda doira ijrochiligining yangi uslubi, ya'ni uning yakka soz sifatida qo‘llanishi rivojlana boshladi.

Yaqin zamondosh ustozlardan Dadaxo‘ja Sottixo‘jayevning xizmatlarini alohida ta’kidlamaslikning iloji yo‘q albatta. U inson mashhur maqomdon ustoz, bastakor, hofiz Yunus Rajabiy bilan birgalikda “Maqom ansambli”ni tashkil etishda faol ishtirok etadi va bu ansamblda doirachi sifatida ishga qabul qilinadi. Ustoz-san’atkor Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev umrining so‘nggi kuniga qadar mana shu jamoada faoliyat olib boradi. Respublikamiz musiqiy hayotida mumtoz musiqa namunalarini magnit lenta va plastinki lappaklariga muhrlanishida Dadaxo‘ja Sottixo‘jaev ritmik asos vazifasida doira cholg‘usida bosh bo‘lib qatnashadi. Tojiali Olimov, Sobir Saibikromov, aka-uka Rahmatilla va Qudratilla Samadovlar ustaning ishongan izdoshlaridir. 1983-yilda hukumatimiz tomonidan Dadaxo‘ja Sottixo‘jaevning ko‘p yillik ijodiy-ijrochilik faoliyati e’tiborga olinib, ijodkorga “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” faxriy unvoni bilan taqdirlanadi. Ijodkor faoliyati davomida quyidagi shiorni ilgari surgan: “Maqom usullari aniq ravon va asl holida ijro etish” edi. Chunki, maqom usullarining sayqali ham, zer-u zabari ham o‘zi bilan. Unga ortiqcha bezak, pardoz berish yaramaydi. Maqom ijrochiligining asosiy qoidasi ham mana shunda.

1930-yillardan so‘ng doyra usullari, ya’ni "Bum" chiziq ostiga "Bak" esa chiziq ustiga yozilib, ijro etiladigan bo‘ldi. Bu doira usullarini A.Eyxgorn, V.Leysok, N.Mironov, V.Uspenskiylar bir nota chiziq oralig‘ida nota yo‘lida yozganlar. Ular doira cholg‘u usullarini, asosan urma cholg‘ular uchun amaliyotda qabul qilingan bir chiziqli nota yozuvi uslubida ko‘rsatib berganlar. Pastki ikki chiziqqa o‘ng qo‘l, yuqorida qo‘l zarblari tushuriladi. XX asrning 50-60-yillariga kelib, doirani chalish usullari A.I.Petrosyans tomonidan o‘zgartirildi, Toshkent eksperemental labaratoriyasida tasdiqlanib, ko‘pchilik musiqashunos olimlar tomonidan 4 qatorlik doira chalish usuli joriy etildi va hozirgacha qo‘llanilib kelinmoqda. Har bir qo‘lning, ya’ni o‘ng va chap qo‘llarning ovozlari tovushlari alohida yoziladi.

Tahlil va natijalar shuni ko’rsatadiki, doyrani tovush balandligi noaniq, ya’ni uning terisi qanday tortilganiga qarab sado beradi, aniq bir nota, ya’ni tovush, ovoz bir xil chiqmaydi .Bum bilan bak oralig‘i kvarta intervaliga yaqinroq. Ijro har xil usul bilan kelishi, barmoqlar harakatida tovushlarning o‘zgarishiga olib keladi. Doira ijrosi, o‘ng qo‘l bilan chap qo‘l harakatiga bog‘liq, doirani qaysi yeriga, gardish o‘rtasiga yo chetiga yoki bo‘lmasa gardishdan ozgina o‘rtasiga yaqinroq urib chalish, o‘ziga xos tovush chiqaradi. Mana shunday ijro etilgan bum bilan bumni, bak bilan bakni farqi juda katta bo‘ladi.

Yakuniy xulosa va takliflar shundan iboratki, o‘zbek san’atining janrlaridan bo‘lgan xox maqom bo‘lsin, xox u estrada, folklyor va bastakorlik ijodi namunalari-yu xalq kuylari bo‘lsin, hamma ohangning ustuni va yuragi usuldir. Biror navo kuyning o‘zi yo‘qki, doira usulisiz bo‘lsa. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday yaratilgan ijod mahsulidagi navolarda usulning o‘rni beqiyos va uning ishtirokisiz na kuyda va na ritmda tartib bo‘ladi. Shunday ekan ishonch bilan aytish mumkinki, navolarni boshqaruvchi, cholg‘u sozlarning yetakchi boshqaruvchisi doira va undagi usulning jo‘rligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikromov I. va Lutfullaev A. Doira (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, “Musiqa” nashriyoti, 2012-yil.
2. Ashrafxo‘jaev T. Doira. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 2003-yil.
3. Ikromov I. Doira darsligi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” 1997yil.
4. Islomov D. Maxsus cholg‘u. Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2016-yil.
5. Samadov R. Zarblar xazinasi. Toshkent, 2012-yil.
6. Samadov R. An’anaviy doira ijrochiligi. Toshkent, 2005- yil.
7. Kamolxo‘jaev O., Leviyev A. Doira darsligi. Toshkent, 1985-yil.

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

OLIY O‘QUV YURTLARI TA’LIM SIFATINI NAZORATINI TASHKIL ETISHI

Qurbanov Baxrom
GulDPI Pedagogika kafedrasi
dotsenti
qurbanovbaxrom@gmail.com
+9989-91-101-61-27

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunning dolzarb ta’limning muammolaridan biri proffessor-o‘qituvchilarning orasida bo‘lajak o‘qituvchilarning dars mashg’ulotlarini sifatli tarzda tashkil etishda uchraydigan sabablari va yechimlari to‘g’risida so‘z boradi. talim mussasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va uning maqsad va vazifalarini amalga oshrishning asosiy elementlarining pedagogik moxiyatlarini tushuntirish qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘qitishning maqsadi, o‘quv mazmunini, o‘quv vositalari, o‘qitish usullari va baxolashning monitoringini olib borish asosida talimning sifati nazorati tashkil etiladi.

Kalit so‘zlar: talim mussasa, o‘quv jarayoni, o‘qitish maqsadi, o‘quv mazmuni, o‘quv vositalari, o‘qitish usullari va baxolash monitoringi.

O‘zbekiston oliy talim muassasalarida o‘quv jarayonining tashkil etilishi va olib borilishi birinchi navbatda boshqaruv mexanizimining to‘g’ri tanlanishiga bog’liqdir. Boshqarishning bosh vazifalaridan biri o‘quv jarayonlarining tashkil etish va uning sifatini nazoratini olib borishdan iborat.

Shunga asosan talim mussasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va uning maqsad va vazifalarini amalga oshrishning asosiy elementlarining pedagogik moxiyatlarini tushuntirish qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘qitishning maqsadi, o‘quv mazmunini, o‘quv vositalari, o‘qitish usullari va baxolashning monitoringini olib borish asosida talimning sifati nazorati tashkil etiladi.

Talim muassasalarida talimning sifatini nazoratini olib borishdan oldin, o‘quv jarayoniniilmiy asosda tashkil etishda xar bir raxbar (fakultet dekani) quydagi vazifalarin mazmun va mohiyatini mukammal bilishi va ularning bajarilishini sifat ko‘rsatkichlarini tahlilini olib borish zarur:

- Talimning maqsadlari
- Talimning mazmuni
- Talimning o‘quv vositasi
- Talimning usullari
- Talimda baxolash.

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

O‘quv jarayonining tashkil etilishdagi ushbts elementlarni xar birini bajarilishini taminlashda aniq maqsadlarga yonaltirilgan rejalar tuzimidagi va belgilangan muddatlarda meyoriy ishlari olib boriladi:

O‘quv jarayoni

Talimning maqsadlari	Nima uchun o‘qitish
Talimning mazmuni	Nimani o‘qitish
Talimning o‘quv vositalari	Nima bilan o‘qtish
Talimiy usullar	Qanday o‘qitish
Talimda baxolash	Qanday baxolash

1 shakl

quv jarayonining tashkiliy mavchad va vazifalaridan kelib chiqqan xolda talim muassasalarida talim mazmuni va sifatini nazoratini olib borish uchun birinchi navbatda

Xar bir raxbar (fakultet dekani) va pedagoglar quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- Talimda boshqaruv mexanizmning ilmiy asosda to‘g’ri tashkil etish;
- Talimda sifat nazoratini tashkil etish;
- Talim sifatini buruvchi omillar;
- Sifat nazoratini olib boruvchilar (dekan o‘rinbosarlari va komissiya).
- Sifatni baxolash mezonlari;
- Nazorat monitoringi va uni yuritilishi;
- Natijalarni baholash va qo‘shimcha tadbirlar belgilash;

Sifat qo‘yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan ishlarnining nazorat va baxolash bo‘yicha olingan natijalarni monitoringi.

Talim muassasalarini moddiy texnik bazasi, o‘quv metodik taminot, zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, pedogoglarning malakalari bilan taminlanishdan asosiy maqsad zamonaviy talim berish va talimning sifati darajasini oshirilishiga qaratilgan.

Zamonaviy o‘quv jihozlari va o‘quv metodik materiallar, didaktik materiallardan dars jarayoni samarali foydalanish va talabalarning nazaraiy bilimlarini oshirishda, amaliy ko‘nikma va malakalarini shakllanishida talimning sifat nazoratini tashkil etish mexanizmlarini fakultet rahbariyati, kafedra mudiri tomonidan ishlab chiqilishi lozim va doimiy ravishda uning monitoringini olib borishdir.

Buning uchun birinchi navbatda fakultet rahbari, mounlari va pedagogik jamoasi tomonidan talim sifatini belgilovchi omillar aniqlab olinishi lozim.

Belgilab olingan omillarni bajarilishi yoki mavjud kamchilik va muammolar fakultet rahbariyati va kafedra mudiri tomonidan bartaraf etilib, talim sifati nazariyasi tuzilishi lozim va ularning xar birining vazifalari belgilab beriladi va bajarish monitoringi olib boriladi.

Talim sifatini belgilovchi omillar

- Pedagogika o‘quv amaliyoti chizmasi
- DTS o‘quv reja o‘quv dasturlari
- Darslik o‘quv qo‘llanmalar
- Pedagoglar
- Talim sifatini belilovchi omillar
- O‘qitishni texnik vositalari
With at least 10 tubes to determine the class of spun yarns thread is selected. Each product unit is wound on a screen winding machine with a pitch of 1.5 mm on a black board up to 100 m long, and the class of yarn for each side is determined by comparison with benchmarks. The work of wrapping the spun threads on the board is carried out evenly. In order to easily calculate the defects in the spun yarn, a template made of black cardboard is placed on the wound yarn. This pattern is divided into 10 rectangles. Each rectangle is 20mm high and 25mm wide to view

25 twisted yarns, 5m on 1 side and 5m on 2nd side, sum of yarn defects calculated and compared to the table, the class of the thread is determined.

A cardboard template is placed on a board wrapped in thread. It has about 10 rectangular holes. The length of the strings inside the rectangle is 5 m. Defects on the threads inside the rectangles on both sides of the board are considered. According to the obtained result, the number of defects corresponding to 1 g of thread is determined by the following formula.

$$n_1 = \frac{10^3 \cdot n}{T \cdot L}$$

where: linear density of T-thread, tyeks; n-10 m number of defects in the thread; L=10 m.

Subsequently, several methods and equipment projects have been developed in the spinning industry to control product defects. Currently, visual, gravimetric, mechanical, capacitive, photoelectric and other types of measuring methods are widely used for these purposes.

The method and tools of the company "Sylveger" (Switzerland) for determining the defects of spun yarns occupy one of the top places. One of the most common equipment for detecting defects of spun yarns in the spinning process is "Uster-Tester". The following features are obtained in the equipment: common defects in 1 km of spun yarn - thinning (-20, -40, -50, -80%); thickened (+35, +50, +70, +100 %), knots (+140, +200, +280, +400 %). The equipment has high performance and diagnoses the condition of the equipment in the technological process.

Another device that determines the cleanliness of threads is the AOPN-5 photocell-based device. In the photocell method, defects are detected based on the passage between a different type of photocell (vacuum, phototriode, photoamplifier, etc.) and a light source. For example, device defects divided into: large thickening, threads with a diameter of 1.5, thickening, threads with a diameter greater than 1.5 and a length of more than 10 cm; super thickening, threads larger than 2 diameters: thinning threads less than 0.6 diameter and threads less than 0.6 diameter with a length of more than 10 cm. In addition, devices with capacitive sensors are used to determine and control the cleanliness of threads. The test leads are passed through

the plate capacitor, resulting in a change in its resistance. The resistance of a capacitor is inversely proportional to its capacitance, and the larger the mass of the wire, the smaller it is.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tanos.P.Pelos “Yigirish texnologiyasi va jihozlari” Darslik 2010 yil
2. T.A.G‘aniyev ’’To’qimachilik sanoatida mehnat muhofaazasi’’ O’zbekiston 1995 yil
3. Xasanov B.K. Sodiqova N.R. Iplarni to’qishga tayyorlash jarayonlarini nazariyasi va texnologiyasi.Darslik N ’’O’zbekiston’’ 2004
4. G. Mahmudova, A. Siddiqov, A. Karimov, O. Sarimsaqov— “Study of the movement of cotton particles and heavy impuritiesin the working chamber of a pneumatic cleaner” UNIVERSUM: Технические науки. ISSN: 2311-5122, Website: **https://7universum.com** February- 2021
5. G. Mahmudova, Q. Toshmirzayev “About automation of loading and unloading of cotton raw materials at cotton factory stations” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, ISSN: 2249-7137, https://saarj.com October 2021
6. Maxmudova G, Yo‘ldashev X, Qurbanov D “Investigation of foreign lint cleaning system technologies” PEDAGOGLAR huquqiy, tibbiy, ijtimoiy, ilmiy jurnali, www.pedagoglar.uz Dekabr 2021
7. М.М. Убайдуллаев, Г.О. Махмудова «Дефолиация-высокая урожайность» Journal of Advanced Research and Stability, www.sciencebox.uz/ May 2022
8. Ubaydullaev M.M, Makhmudova G.O “Medium fiber S-8290 and S-6775 cotton agrotechnics of sowing varieties” european international journal of multidisciplinary research and management studies, European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/163 MAY 2022
9. М.Н. Бабаева, Г.О. Исламова, Н.М. Каримов, О.Ш. Саримсаков Пахта пневмотранспорти қувурида ҳаво зичлиги ва тезлигининг ўзгаришини назарий йўл билан текшириш, ФарПИ илмий-техникаYU I KJ журнали, ISSN 2181-7200 May 2020

10. G.O.Maxmudova “Paxta zavodlaridagi paxta xomashyosini qabul qilish tizimini avtomatlashtirish tahlili” Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy-texnik jurnal, Buxoro № 6/2022. ISSN 2181-8193 https://journal.bmti.uz/
11. G.O.Maxmudova “Analysis of the dynamics of moving cotton in pipes” European Journal of Emerging Technology and Discoveries ISSN (E) 2938-3617 JIF:8.925 https://europeanscience.org/index.php/1/article/view/95
12. D.U.Turg‘unov, G.O.Maxmudova Paxta chigitini tashishda chigit harakatining dinamik modeli tahlili Farpi ilmiy-texnik jurnal ISSN 2181-7200 №2 2023 yil
13. D.U.Turg‘unov, G.O.Maxmudova Paxta separatori uchun yangi ish organlar konstruksiyasini yigiruvchanlik ko‘rsatkichi tahlili Farpi ilmiy-texnik jurnal ISSN 2181-7200 №6 2023 yil
14. G.O.Maxmudova Paxta chigitini aerodinamik usulda tashish jarayonini ishlab chiqish Farpi ilmiy-texnik jurnal ISSN 2181-7200 №8 2023 yil

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

CHAKANA SAVDO VA UNING RIVOJLANISH OMILLARI

Ahmedov Shohjahon Kahramon o‘g‘li
Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi, iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
shohjahon.ahmedov.1994@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada chakana savdo va uning o‘zi iqtisodiy faoliyat sifatida rivojlanishi xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirish omillari tahlil qilinib, chakana savdoda sotish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuv va mexanizmlari ko‘rsatiladi.

Аннотация. В данной статье рассматривается розничная торговля и ее развитие как вида экономической деятельности. Также анализируются факторы развития розничной торговой сети, показаны современные подходы и механизмы совершенствования системы розничных продаж.

Abstract. This article discusses retail trade and its development as an economic activity. Also, the factors of development of the retail trade network are analyzed, modern approaches and mechanisms for improving the retail sales system are shown.

Kalit so‘zlar. Chakana savdo, iqtisodiy faoliyat, chakana savdo tarmog‘i, tovar, tovarlarni sotish shakllari, tovarlar assortimenti, chakana tovar aylanmasi.

Ключевые слова. Розничная торговля, экономическая деятельность, розничная торговая сеть, товары, формы реализации товаров, ассортимент товаров, оборот розничных товаров.

Key words. Retail trade, economic activity, retail trade network, goods, forms of sale of goods, assortment of goods, turnover of retail goods.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda chakana savdo tarmog‘ini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “Respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish. Bunda har bir hududda yirik ulgurji-savdo markazlari, jumladan logistika, muzlatgich, omborxonalarni tashkil etish, yirik

tuman va shaharlarda kamida 3 tadan zamonaviy savdo markazlarini tashkil etish, qishloq joylarda ko‘chma savdo nuqtalarini ko‘paytirish, aholiga erkin savdoni amalga oshirish imkonini beruvchi chegaraoldi hududlarda savdo markazlarini tashkil etishni nazarda tutish”[1] vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi chakana savdo tarmog‘ini hududiy rivojlantirish, savdoda erkin raqobat muhitini shakllantirish, chakana savdo tarmog‘ini iste’molchilarga yo‘naltirilgan konsepsiya asosida tashkil etish, chakana savdoda sotish tizimini takomillashtirishning zamonaviy yondashuv va mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Chakana savdoni rivojlanish jihatlari bo‘yicha xorij va respublikamiz tadqiqotchi olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, D.Ferni chakana savdo korxonalarida elektron savdoni rivojlantirish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish masalalarini tadqiq qilgan.[2] V.Snigereva esa tovarlar assortimentini boshqarish orqali savdo xizmatini oshirish masalalarini o‘rgangan[3]. Shuningdek, S.Sisoyeva xaridorlarga tovarlarni sotish jarayonida ko‘rsatiladigan asosiy va qo‘shimcha savdo xizmatlarini tadqiqot ilmiy ishida yoritgan[4].

Respublikamizda savdo sohasi muammolari o‘rganilib, turli olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topadi. Xususan, B.Abdukarimov ta’rifiga ko‘ra, savdo xizmatning alohida turi bo‘lib, u bir tomondan, ishlab chiqaruvchilarga xizmat qiladi, ikkinchi tomondan, iste’molchilarga, uchinchi tomondan davlatga xizmat qiladi va to‘rtinchidan, u boshqa iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga ham xizmat ko‘rsatadi, ularni xizmatlarining iste’molchi sifatida foydalanadi va ular bilan aloqada bo‘ladi[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Chakana savdo tarmog‘i – bu turli xil savdo korxonalari va tovarlarni sotish nuqtalarining to‘plamidir, xususan tuzilmasi, tovarlar assortimenti va mijozlarga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish shakllari

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni www.lex.uz

[2] Джон Ферни и др. Принципы розничной торговли. Пер. с англ. Сапциной У.– М.: ЗАО «Олимп – Бизнес», 2008. – 416 с.

[3] Снегирева В. Розничный магазин. Управление ассортиментом по товарным категориям. – СПб.: Питер, 2005. – 416 с.


[4] Сысоева С.В., Крок Г.Г. Большая книга директора магазина. – СПб.: Питер, 2009. - 432 с.

[5] Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 2-qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. - 42 б.

bo‘yicha bir-biridan farq qiladigan do‘konlar, chodirlar, pavilyonlar, savdo rastalari va kiosklar[6].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining chakana savdo tarmog‘ini barqaror va mutanosib rivojlantirishga qaratilgan 2003-yil 13-fevralda 75-sonli Qarori qabul qilingan[7]. Unga ko‘ra, chakana savdo – savdo sohasida yakuniy iste’mol uchun undan tijorat maqsadlarida foydalanish huquqisiz aholiga tovarlarni donalab yoki ko‘p bo‘lmagan miqdorlarda (sonda) naqd pulga yoki bank plastik kartalari (korporativ bank kartasi bundan mustasno) yoxud kontaktsiz onlayn to‘lov tizimlari orqali sotishni nazarda tutuvchi faoliyatni amalga oshirishdir. Ushbu savdoni asosida hisob-kitob shakllarini ham amalga oshirish yotadi.

Chakana savdoning o‘zi iqtisodiy faoliyat sifatida rivojlanadi. Chunki ushbu savdo bevosita xaridor va sotuvchilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilib, ularning bir-biriga nisbatan aloqalarini mustahkamlash ta’minlanadi. Natijada chakana savdo o‘z mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi turli xil jihatlarga asoslangan asosiy yo‘nalishlarga ega bo‘ladi (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Chakana savdo faoliyatining asosiy yo‘nalishlari[8]

[6] Абоимова Н.Э. Организация и технология розничной торговли: учебник для учреждений нач. проф. образования / Н.Э.Абоимова. - М.: Издательский центр “Академия”, 2013. - 256 с.
[7] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevralda O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida 75-son Qarori. https://lex.uz/docs/-243235
[8] Manba: Muallif ishlanmasi

Mazkur rasmga asosan, chakana savdoni amalga oshirish uchun mohiyatiga ko‘ra, aylanma mablag‘lar, asosiy vositalar va mehnat resurslari uchun investitsiya zarur bo‘ladi, sotish hajmiga asosan daromadlar shakllanib, uni o‘zi tarqatish xarajatlari va foyda kabi qismlarga ajratiladi.

Shuningdek, chakana savdoni samarali tashkil etish orqali iqtisodiyotda uni boshqa sohalar kabi rivojlantirish mumkin. Bu borada ushbu savdoni taraqqiy qilishi ta’minlanadi va uni rivojlanishi turli omillar va shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Chakana savdo tarmog‘ining rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir qiladi[9]:

- uy-joy qurilishi istiqbollari;
- aholi sonini o‘zgarish tendensiyalari;
- talab hajmi va tarkibi;
- tovarlarni sotish shakllari;
- turmush darajasi va uning o‘zgarishi tendensiyalari;
- tovar resurslarini olish imkoniyati.

Chakana savdo aholiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar sotish va xizmat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatini o‘z ichiga oladi[10]. Chakana savdo tovarlar assortimentining shakllanishida qatnashadi. Xaridorlarga tovarlar sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risida axborotlar beradi. Tovarlarni saqlash, qo‘shimcha ishlash, narxlarni o‘rnatish va boshqa vazifalarini bajaradi. Natijada tovarlarning oxirgi iste’molchilari bilan oldi-sotdi shartnomasini bajaradi.

Chakana savdo mulkchilik shakli, usuli va xizmat ko‘rsatishlari bilan turlanadi. Xususiy hissadorlar, ijara va qo‘shma mulklarga asoslangan chakana savdo hozirgi kunda barcha mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Chakana savdoning moddiy-texnika asosini do‘konlar, univermaglar, maxsuslashgan do‘konlar, supermarketlar, oshxonalar va ko‘pchilik mayda shoxobchalar tashkil etadi. Chakana tovar aylanmasining mohiyatini asosida tovar muomalasida mavjud bo‘lgan munosabatlar yotadi[11].

Chakana savdo tarmog‘i iste’molchilarga tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy, oilaviy va maishiy foydalanish uchun tovarlarning chakana

[9] ℑΣ⌋‖ ⌊®◊ ℘.⊗. ∈□©⋎⋃◊⌉□ □⌊⌇⌊⌅⌈ ∫⌊□©⌊®⌊⌊. © ⌈∑⟨.□⌈⌋⌊⟨⌊∑.□– ∪□⌈ ⌈⌋⌉: ∪⌈ ™–®⌊ ∪℘©, 2005.□– ⟩.22

[10] https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13626-2021-07-08-07-13-32

[11] Abdukarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti. Darslik. 2-qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. - 178 б.

savdosini, shuningdek xizmatlarni ko‘rsatishni amalga oshiradi. Chakana savdo tarmog‘i moddiy-texnika bazasining asosiy qismi bo‘lib, u orqali shaxsiy iste’mol uchun mo‘ljallangan jami ijtimoiy mahsulotning salmoqli qismini sotish amalga oshiriladi va takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi[12].

Xulosa va takliflar. Faqat do‘konda xaridor o‘ziga kerak bo‘lgan tovarlar bilan uchrashadi. Binobarin, savdo xizmatlarining sifati qancha savdo korxonalari mavjudligiga, ularning qay darajada to‘g‘ri joylashganligiga va assortimentga ega bo‘lishiga bog‘liqdir.

Darhaqiqat, chakana savdo korxonalari savdo tarmog‘ining tayanchi bo‘lib hisoblanadi. Bozor o‘zgarishlari savdo tarmog‘idagi o‘zgarishlar va yangi turdagi do‘konlarning paydo bo‘lishi bilan birga amalga oshiriladi. Tizimsiz chakana savdo korxonalarining xilma-xilligi savdo tarmog‘ining rivojlanishini tartibga solishni imkonsiz qiladi. Chakana savdo iqtisodiyot tarmoqlarining tovarlarni sotish va sotib olish yo‘li bilan sotadigan tarmog‘idir. Takror ishlab chiqarish tizimida u ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’molni birlashtiradi, shuningdek, ishlab chiqarilgan tovarlarni tovarga aylantiradi. Savdo mamlakatning yagona iqtisodiyot tarmoqlari majmuasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ta’lim funksiyalarini ham bajaradi.

Research Science and Innovation House

[12] Чкалова О. В. Формирование и развитие розничной торговой сети в мегаполисе: Монография. – Н. Новгород: Издательство Нижегородского госуниверситета им. Н.И. Лобачевского, 2003. – 11 с.

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

YOSHLARNING BO‘SH VAQTINI MAZMUNLI O‘TKAZISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING ROLI

Urazbayeva Ro‘za Xajiboyevna
Urganch davlat pedagogika instituti
Filologiya va tarix fakulteti
Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Annotasiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘qish va ishdan bo‘sh paytlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ularni turli foydali kasb-hunarlarga o‘rgatishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning ahamiyati xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Yoshlar, besh tashabbus, talaba, oila, ong, insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar,

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Shunday ekan yoshlarimizning o‘qish va ishdan bo‘sh paytlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ularni turli foydali kasb-hunarlarga o‘rgatish jamiyatimizni yuksaltirishning eng asosiy manbaidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham o‘z nutqlarida yoshlarga qarata “Sizlarning shijoat va intilishingizni ko‘rib, yonib turgan ko‘zlaringizga boqib, o‘zimga bitmas-tuganmas kuch olaman”,-deya qayta-qayta ta’kidlaydilar. Albatta, hozirgi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish oson emas. Bu borada mahallalardagi 6 milliondan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning iste’dodini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha Besh tashabbus olimpiadasi

yo‘lga qo‘yildi. Yoshlarni vaqtini qanday o‘tkazayotganligini ota-onalar, ustoz va murabbiylar, mahalla faollari doimiy ravishda kuzatib borishlari shart. Chunki jamiyatimizning yosh avlodlariga to‘g‘ri yo‘lni kattalar ko‘rsatmasa ularning mafkurasini buzuvchilar topiladi.

Dinimizda ham ilm o‘rganish farz ekanligi ko‘p hadis va oyatlarda keltirilgan. Xalqimizda shunday naql bor yoshlikda olingan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir. Misol uchun bir niholni yerga ekib unga vaqtida parvarish berib begana o‘tlardan tozalanmasa u nihol nozik va qiyshiq bo‘lib rivojlanadi va kutilgan natijani bermaydi. Huddi shunday yoshlarni ham bo‘sh vaqtini qanday ishlarga sarflayotganini o‘rganib ularni to‘g‘ri yo‘lga solmasak kelajagimizni buyuk qila olmaymiz. Bu yo‘lda millatimmizning yorqin namoyondalrini o‘zimizga o‘rnak bilib harakat qimo‘g‘imiz darkor. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishga doir belgilab bergan besh tashabbuslari ham mamlakatimiz rivojiga kata ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19 mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bu yig‘ilishda ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilishi ta’kidlandi. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala ekanligi prezidentimiz tomonlaridan mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga vazifa qilib yuklandi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi.

Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Besh tashabbus o‘z ichiga sport, musiqa, kitobxonlik, xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratish kabilarni o‘z ichiga oladi. Bu ishlar Xorazm viloyatida ham davom ettirilib, "Ma’rifat karvoni" tashkil etildi.

Ota-onalar o‘z farzandlarini oilasidan uzoq vaqtida qanday ishlar bilan bantligini o‘rganib borishlari shart. Chunki yosh avlodni o‘z holicha qarovsiz tashlab bo‘lmaydi. Bundan tashqari oila boshliqlari o‘z farzandlarini qiziqishlarini

to‘g‘ri baholab o‘z yo‘llarini tanlashlarida ko‘maklashishlari kerak. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek telefondan qanday foydalanish kerak, uning vazifasi nima, yoshlarimizning kompyuter savodxonligini oshirish va internet saytlaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish lozim. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan shunday vaziyatda yosh avlodning dunyoqarashini o‘stirib bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishga odatlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dono xalqimizda “Vaqting ketdi-naqding ketdi” degan naql bor. Yoshlarimizni bo‘sh vaqtlarini kitob mutolaa qilish, hunar o‘rganish, turli sport o‘yinlariga
qiziqtirish uchun ularni kichikligidan shu narsalarga ko‘niktirib borish muhimdir. Undan tashqari yoshlarimizni ozodalikka, mehnatsevarlikka o‘rgatishimiz lozim va lobuddir.

Aks holda ular dangasa va tartibsiz bo‘lib ulg‘ayishadi. Shuning uchun har yili xalqimizda umumxalq hasharlari, “Yashil makon” aksiyalari uyushtirilib bunga ko‘plab yoshlarimiz jalb qilinadi. Bu hasharlarda keksalarimiz o‘z boshchiligida kelajak avlodlarning mehnatga bo‘lgan layoqatini shakllanishida o‘z hissalarini qo‘shadilar. Ozodalik avvalo o‘z xonasidan boshlanadi. Shuning uchun talaba yoshlarning qanday uylarda va qay holatda yashayotgaliklarini kuzatib boriladi. Ozodalik bo‘lgan joyda xotirjamlik bo‘ladi. Kayfiyat ham a’lo darajada turadi. Ozodalikka rioya qilish dinimizda ham farz sanaladi. Ozodalik bo‘lgan joyda yangi-yangi g‘oyalar, fikrlar vujudga keladi. Yoshlarimiz oilasidan uzoqda yashab mustaqil hayotga o‘rganar ekan ularni bu yo‘lda kimlarni o‘ziga hamroh qilishi juda muhim omildir. Ularning do‘sti kim? Nima bilan shug‘ullanyapti? Bo‘sh vaqtini nimalarga sarflaydi? Zararli illatlari yo‘qmi? Ozodalikka rioya qiladimi? Va shu kabi jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Chunki ota-bobolarimizdan qolgan bir naql “Menga do‘stingni qandayligini ayt, men seni qandayligingni aytib beraman” bizni farzandlarimizni kimlar bilan do‘st tutinayotgani haqida o‘ylashga majbur qiladi.

Yoshlarimizning har bir o‘tkazayotgan vaqtlariga kattalar befarq bo‘lmasalar, ular o‘z to‘g‘ri yo‘llaridan adashmaydilar. Unutmaylik, qaysi jamiyatda yoshlar kattalarning e’tiborida bo‘lib, yoshligini ilmu-hunar o‘rganishga sarflasa bu jamiyat yuksaladi, aksincha, biron jamiyatda befarqlik va loqaydlik avj olsa o‘sha jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Bu borada 20-asr boshlarida yurtimizdan yetishib chiqqan Jadidchilik harakati nomoyondalaridan biri Muhmudxo‘ja

Behbudiy “Dunnyoda turmoq uchun dunyoviy ilmlarni o‘rganmoq lozim” degan edi. Agar biz yoshlarning bo‘sh vaqtlarini foydali ilmlarni o‘rganishlariga yo‘naltira olsak o‘ylaymanki diyorimizdan yana Ibn Sinolar, Xorazmiylar, Beruniylar, Navoiylay ko‘plab yetishib chiqadi. Bu sohada hozirda o‘qiyman, hunar o‘rganaman degan har bir yoshga O‘zbekistonimizda yatarlicha shart-sharoitlar yaratib qo‘yilgan. Shu o‘rinda bir savol tug‘ilishi tabiiy albatta. Nima uchun shunday erkinlik va tinchlik xukm surgan jamiyatda yuksalish uchun nima qarshilik ko‘rsatyapti? Buning birgina javobi o‘tayotgan vaqtimizning qadriga yetmasligimizdir. Bir tasavvur qiling, millatimizdan yetishib chiqqan buyuk ajdodlarimizda hozir bizda bo‘lgan sharoitlar bo‘lganmi? Har birimizning ongimizga shu savolni eshitishimiz bilanoq beixtiyor yo‘q degan javob keladi. Chunki ular bizningdek yorug‘ va shinam uylarda emas tor va sovuq kulbalarda kechasi oy shulasida bo‘lsa ham o‘qib izlanishgan. Kunduzlari o‘z kasbu- korlari bilan mashg‘ul bo‘lishgan. Xo‘sh, bizni nima to‘sib turibdi ilm olishdan.

Talaba yoshlar darsdan bo‘sh vaqtlarini o‘z yotoqxonalaridan chiqmay turib ham mazmunli o‘tkazishlari mumkin. Masalan, kitob o‘qishlari, shashka va shaxmat aqlni charxlovchi o‘yinlarni o‘ynashlari, onlayn til kurslarini tomosha qilishlari va shu kabi o‘zi qiziqqan boshqa foydali mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishlari foydadan holi bo‘lmaydi. Prezidentimiz ham bu borada talaba yoshlarimizning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishlari uchun ularni o‘qishdan keyingi paytlarda o‘z sohalari bo‘yicha ishlashga imkoniyat berdilar. Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o‘yinlari markazlarini tashkil etish, ularda bolalar va yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo‘lishi zarurligini o‘z yig‘ilishlarida alohida ta’kidlab o‘tdilar. Yoshlarda bolalik chog‘idan kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo‘llarida mustahkam zamin bo‘ladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmunida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash masalasining kun tartibiga qo‘yish zaruriyatining yuzaga kelganligi munosabati bilan tub o‘zgarishlar yuz berdi. Eng muhim qadriyat inson omili hisoblanadi. Hayot insonga bir marta beriladi. Shuning uchun ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarda uni mazmunli, o‘zgalar va o‘zining hayoti ma’nosini anglagan holda o‘tkazish kerakligi haqida ko‘plab rivoyat, hikmat va pand-

nasihatlar mavjud. Ma’naviy-axloqiy tarbiyada yana bir eng qimmatli qadriyat erkinlikdir. Ta’limni demokratlashtirish bilan birga shaxs erki va huquqini hurmat qilish rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida farzand shaxsida mas’uliyatni his etish, ongli intizomga rioya etish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. Shuningdek, vatanparvarlik, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlik, mas’uliyatni his etish, burch, or-nomus, vijdonlilik, tartiblilik, adolatlilik va boshqa xislatlar tarbiyasi katta ahamiyatga ega. Yoshlar bilan ishlash faoliyatida yosh avlodni axloqiy tarbiyalash masalalari azaldan Sharq xalqlari, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tajribasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, ko‘plab mutafakkirlarimiz asarlarida xalkimizning murakkab tarixiy – madaniy tajribasi mobaynida yuz bergan voqea – hodisalar mohiyatini jamiyatning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan oiladan izlash an’anasini uchratamiz. Xususan, oila va oilaviy tarbiyaga oid fikrlar Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayxon Beruniyning “ “Mineralogiya ”, “Geodeziya”, “Hindiston”, “O‘tgan avlodlar obidalari”, Abu Ali ibn Sinoning “Axloq”, “Axloq fani”, “Oila xo‘jaligi”, Alisher Navoiyning “Hayrat – ul – abror” va “Mahbub – ul – qulub” asarlarida o‘z ifodasini topgan. Millatimiz boshiga tushgan ko‘pgina achchiq qismatlar dastavval oila tarbiyasidagi kamchiliklar oqibati ekanini ma’rifat ahllari yaxshi anglashgan. Bizning ham fikrimizcha, bundan xolos bo‘lishda oila tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Fitratning “Oila yoki oilani boshqarish tarbiyalari” asarida bu haqda ibratli mulohazalar ilgari suriladi. “Har bir millatning saodati va izzati, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq” – deb yozadi u, tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Oilada farzandning ma’naviy-axloqiy hislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo‘lishi shart.

Xulosa qilib aytganda yoshlarning ma`naviy axloqiy barkamol bo‘lib shakllanishida tyutorlar va Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosarlarining o`rni alohida ahamiyatga ega ammo barcha talaba yoshlarimiz qalbida mehr-muruvvat va rahmdillik tuyg‘ularini shakllantirish va kamol toptirish tuyg‘ularini printsipial mohiyatga ega bo‘lib, bu vazifaning izchil amalga oshirilishi ota-ona zimmasidir. Zero ota-onaning burchlaridan eng oliysi ana shu ma’naviy tarbiya orqali, qadriyatlar orqali, vatanga sodiq farzandlarning tarbiyalash va ularda vataniga, o‘z xalqiga nisbatan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otishdir.

ADABIYOTLAR

1. “YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI TO‘G‘RISIDA”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son
2. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006 – 142 b.
3. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis.... psixol.fan.nomzodi:
4. https://lyceum.tma.uz/besh-muhim-tashabbus/

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

SIYOSIY MULOQOTDA LINGVISTIK MANIPULYASIYA

Shi Jinding,
“Asia Trans Gas” MChJ QK ofis va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Til fikrni shakllantirishga qodir bo’lganligi sababli, ma’lum til vositalari yordamida fikrlash jarayonlarini manipulyatsiya qilish ham mumkin. Siyosatchilar hozirgi voqealar to’g’risida ommaviy qarashlarning paydo bo’lishiga ta’sir qiladi, ma’lum bir mafkurani shakllantiradi yoki manipulyativ til yordamida uni o’zgartiradi. Ushbu til vositalarini tahlil qilish orqali hatto siyosatchilar barqarorlikni buzishga, aralashtirib yuborishga yoki siyosiy masalalarni orqa planga surib qo’yishga, savollardan qochishga yoki atrofidagilarning his-tuyg’ularni uyg’otishga urinayotgan vaziyatlarni aniqlash mumkin. Shunday qilib, lingvistik manipulyatsiya ko’pincha siyosiy muloqotda bir nechta vazifalarni bajarish uchun ishlatiladi.

Matnni tahlil qilish lingvistik manipulyatsiya jarayonining sxematik bog’langan elementlardan tashkil topgan tuzilishini tavsiflash imkonini beradi, ularni "lingvopolitik strategiyalar" deb ham atash mumkin. Siyosatchining pragmatik niyatiga qarab, bu strategiyalarni gipotetik jihatdan bir necha guruhlarga ajratish mumkin.

Kalit so’zlar: siyosat, lingvopolitika, siyosiy aloqa, manipulyatsiya, lingvistik manipulyatsiya strategiyalari.

"Lingvistik manipulyatsiya" zamonaviy tilshunoslikning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Nutq ta'siri nazariyasi bir nechta tushunchalar bilan shug'ullanadi - "nutq ta'siri", "nutqni manipulyatsiya qilish", "lingvistik manipulyatsiya" bo'lib, ular o'zaro bog'liq tushunchalar sifatida ham, qarama-qarshi tushunchalar sifatida ham qo'llaniladi, bundan tashqari, birini boshqasining tarkibiy qismi sifatida belgilash mumkin. Nutq ta'siri qasddan xarakterga ega bo'lib, shaxsga ta'sir o'tkazilayotganda va ta'sir og'zaki shaklda amalga oshiriladi [2]. Lingvistik manipulyatsiya - bu so'zlovchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi samarali muloqot bo'lib, unda ma'ruzachi nutq yordamida qabul qiluvchining xatti-harakatlarini o'z xohishiga ko'ra tuzatish orqali kerakli natijaga erishishga qaratilgan. P.B. Parshin bu hodisani keng ma'noda shaxs yoki bir guruh shaxslar ongiga lingvistik vositalar yordamida ta'sir qilish, tor ma'noda esa munosabatni o'zgartirishga qodir bo'lgan nutqning shakllanishi sifatida tavsiflanadiva qabul qiluvchining harakat usuli deb belgiladi [5].

Siyosat - bu davlat va fuqarolar, davlat amaldorlari va fuqarolar o’rtasida ommaviy muloqotni talab qiladigan jamoaviy, jumboqli va maqsadli faoliyat. Siyosiy muloqotning o’ziga xos xususiyatlari - oshkoralik, bir kishiga yo’naltirilgan (adresat - murojaat qiluvchi), auditoriyaning turli xilligidir. Davlat va siyosiy jarayonlarning rivojlanishi siyosiy muloqotda manipulyatsiya tamoyilini kuchaytiradi. Siyosiy kommunikatsion vaziyatni belgilovchi til, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, etnik, diniy kabi omillarni, umuman olganda, aniq tushunish zarur bo’lganligi sababli, o’zgarishlarni bilimga asoslangan holda o’rganish faqat o’z ichiga oladi.

Manipulyativ vositalar zamonaviy siyosiy matnlarga keng ko'lamga ega. Turli siyosiy strategiyalarni amalga oshirishda til vositalarining rolini o'rganish zamonaviy lingvosiyosatning dolzarb vazifalaridan biridir. Lingvistik dunyo xaritasi, lingvistik o'ziga xoslik va lingvistik tafakkurda antropologik nazariyalarning etakchi roli ushbu tadqiqotni kognitiv sohaning rivojlanish qat'iyatiga aylantiradi: "...ba'zi odamlar boshqalarning fikri va xatti-harakatlarini nazorat qilish orqali tildan o'z fikrlari yoki his-tuyg'ularini etkazish uchun emas, balki undan o'z foydasi uchun foydalanadilar. Ko'rinib turibdiki, ularning maqsadi muloqot emas, balki manipulyatsiyadir" [6, 173]. Jahon siyosiy amaliyotida keng tarqalgan hodisa – siyosiy ongni manipulyatsiya qilish yetarli darajada yoritilmagan va bu uni har tomonlama o'rganishni taqozo etadi. Umumiy siyosiy jarayonni tashkil etuvchi shart va sabablarni o'rganish katta qiziqish uyg'otadi [3; 4; 6]. Bu omillar asosan matnni shakllantirishning extralingvistik omillarini va uning manipulyatsiya unumdorligini belgilaydi. Shunday qilib, siyosiy manipulyatsiya - bu ob'ektiv yashirin bilimlar orqali joriy etishga qaratilgan ta'sirning o'ziga xos shakli, ammo ba'zi siyosiy guruhlar uchun mazmun shunday kiritilishi kerakki, qabul qiluvchilar kerakli fikrni shakllantirishlari mumkin. Ijtimoiy ongga manipulyatsiyaviy ta'sir ko'rsatadigan turli xil usullarning juda boy to'plami mavjud bo'lib, ular - faktlarni to'g'ridan-to'g'ri manipulyatsiya qilish va ataylab yolg'on ma'lumotlarni tarqatishdan tortib nozikroq ta'sir qilish usullarigacha bo'lib, ular orasida lingvistik usullar alohida qiziqish uyg'otadi. Til orqali manipulyatsiya - bu siyosatchilarning nuqtai nazarini ongsiz ravishda qabul qilish uchun auditoriyaga bilvosita ta'sir ko'rsatishga qaratilgan til elementlari va ulardan foydalanish tamoyillaridan foydalanish hisoblanadi. Bunday hollarda, R.Blakar ta'kidlaganidek, "til ijtimoiy hokimiyat quroli sifatida ishlatiladi" [2, 90]. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, siyosatchilar auditoriyaga ma'lum bir g'oyani singdirish, ularga mo'ljallangan munosabatni shakllantirish, auditoriya mustaqil ravishda shakllantirishi mumkin bo'lmagan hissiy reaktsiyalarni qo'zg'atish uchun lingvistik maniputlyatsiyadan, foydalanishadi. To'g'ridan-to'g'ri lingvistik tahlilni professional lingvistik tahlilsiz aniqlash mumkin emas, masalan: kontent tahlili, nutq tahlili, niyat tahlili, psixolingvistik tahlil, kognitiv tahlil va boshqalar. Demak, lingvistik manipulyatsiya fanlararo tadqiqot ob'ekti hisoblanadi, jumladan: siyosat, tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va madaniyatshunoslik. X.Grisning postulatlari lingvosiyosiy manipulyatsiyani muloqotning muvaffaqiyatli turi deb hisoblash uchun juda mos keladi [8]. U bilan bog'liq holda, siyosatchilar muvaffaqiyatli muloqotga erishish uchun ongsiz ravishda amal qiladigan to'rtta eng muhim tamoyil mavjud:

1) axborot mazmuni postulati (yangi narsani aytib berish);
2) aniqlik postulati (aniq gapirish, noaniqlikdan qochish);
3) izchillik postulati (mavzudan chetga chiqmaslik);
4) haqiqat postulati (samimiy gapirish).

Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini, jamoatchilik ongini shakllantirish, ko'pincha siyosiy jarayonda bevosita ishtirok etuvchi ijtimoiy xulq-atvorni tashkil etishda jamiyatning eng ta'sirli sohasi ekanligi inkor etib bo'lmaydi. Ommaviy axborot vositalarining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlari kabi davlat hokimiyati vositalariga ega bo'lmasa

ham, siyosiy jarayonlarga eng ko’p ta’sir ko’rsatishi mumkin, ular hokimiyatni nazorat qilish, jamiyat nomidan gapiradigan odamlarning manfaatlarini e’lon qilish va himoya qilishga chaqiriladi. Matnni tahlil qilish lingvistik manipulyatsiya jarayonining strukturasini tavsiflash imkonini beradi, u sxematik tarzda bog’langan elementlardan iborat:

• motiv - tashqi yoki ob’ektiv sabab, ob’ektiv yoki ichki sabablar orqali suhbatdoshni fikrini o’zgartirish;

• niyat – suhbatdoshga ma’lum ma’lumotlarni yetkazish bo’yicha muloqot;

• strategiya – siyosatchilarning o’z oldiga qo’ygan yakuniy maqsadi;

• taktika – tanlangan strategiyalarni amalga oshirish uchun siyosatchilar tomonidan ko’rilgan amaliy yondashuvlar.

• lingvistik vositalar – siyosatchilar foydalanadigan barcha til darajasidagi materiallar. Shuni ta’kidlash kerakki, turli xil lingvistik talqinlar asosan lingvistik vositalarni tanlash imkoniyati bilan belgilanadi. Agar bir xil lingvistik vositalar ba’zi hollarda mohirlik bilan chalg’itishga xizmat qilsa, lekin boshqalarida noxush xabarning mutlaqligini yumshatish yoki shunchaki xabarni yanada yorqinroq ifodalash, jarayonida ifodalash uchun lingvistik manipulyatsiya hosil bo’ladi. Matn darajasida lingvosiyosiy strategiyalarni gipotetik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) yashirinlik (yashirin strategiyalar) va aniqlik (emotiv sintaktik tuzilmalar, rangli lug’at, stilistik vositalar va boshqalar) strategiyalari;

2) tahdidni ifodalovchi lingvistik vositalar (qattiq strategiyalar - qo’zg’alish va to’g’ridan-to’g’ri ta’sir qilishning qo’pol "ustun" usullarini nazarda tutadi) va betahdid bo’lmaslik (yumshoq strategiyalar) manipulyatsiya lingvistik strategiyalari;

3) lingvistik manipulyatsiya strategiyalari bilan to’yinganlik darajasi bo’yicha farqlanadigan siyosiy media matnlarining turlari - faktik yangiliklar matnlari manipulyatsiya fonidan deyarli mahrum bo’lishi mumkin, tahliliy matnlar esa odatda ushbu "virus" bilan to’liq "yuqtirilgan" [1].

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, siyosiy muloqot katta auditoriya orasida ma’lum bir dunyoqarashni - ma’lum bir dunyo rasmini shakllantirishga qaratilgan bo’ladi. Muloqotning ushbu o’ziga xos turi tilni boshqarishning tarkibiy qismi bo’lishi mumkin - u turli til guruhlarida lingvomadaniy qadriyatlardan "tayanch tosh" sifatida foydalangan holda qanday modellashtirilganligini, ijtimoiy tartib qanday targ’ib qilinishini, lingvistik dunyo xaritasining qaysi elementlari chegaradan tashqarida qolayotganini aks ettiradi. Siyosatchilar tomonidan qollaniladigan manipulyativ lingvistik strategiyalar yoki har bir til hamjamiyatiga xos bo’lgan kontseptual so’z tasviri shakllanadi.

Adabiyotlar

1. Aoki K. Introduction: Language as a Virus // Miami University Review, –1999, Vol. 53, No. 4. – pp. 961–971

2. Блакар Р.В. Язык как инструмент социальной власти // Моделирование языка и социальной взаимозависимости, - М.: Прогресс, -1987. – Страницы 88-125

3. Chilton P. Political Discourse Analysis: Theory and Practice. – London: Routledge, – 2004. – 224 p.

4. Dijk T.A. Political discourse and ideology // Doxa Comunicación Social relations and interdisciplinary curricula review. – January, 2002, – pp. 207-225 URL: http://www.discourse-in-society.org/dis-pol-ideo.htm

5. Паршин П.Б. Речевое воздействие: основные формы ва разновидности / П.Б. Паршин // Рекламный текст: Семиотика и лингвистика. - М.: Эксмо, 2000. - 372 с.

6. Wodak R. The Discourse of Politics in Action: Politics as Usual. – London: Palgrave Macmillan, – 2009. – 251 p.

7. Zeynalova, S.S., Allohverdiyeva. A.M. Introduction to Rhetoric. – Baku: Mutarjim, – 2017. – 240 p.

8. Грейс Г.П. Логика и речевое общение / пер. Английский В. В. Туровского // – Новое в зарубежной лингвистике. Лингвестическая прагматика, - Москва, -1985, т.16, - с.217-237

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

O’RTA OSIYODA O’ZBEKISTONNING MADANIY-MA'RIFIY JIXATDAN TUTGAN O’RNI

Shaxnoza Almasovna Ashurova
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi “Chet tillari va ishbilarmonlik muloqoti” kafedrasi dotsenti
PhD, dotsent
ashurovashahnoza1881@gmail.com
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Qadimgi savdo yo‘llarining tarixiy tarmog‘i bo‘lgan Ipak yo‘li Sharq va G‘arb o‘rtasidagi integratsiya va almashinuvda muhim rol o‘ynab, qariyb ikki ming yillik sivilizatsiyalarning gullab-yashnashiga ta’sir ko‘rsatdi. Chang‘andan (hozirgi Sian) boshlanib, yo‘nalish Sharqiy Osiyo, O‘rta yer dengizi va Hindiston yarimoroli bo‘ylab 10 ming kilometrdan ortiq masofani bosib o‘tdi. Miloddan avvalgi 2-asrdan boshlab. e. eramizning XVI asr oxirigacha. Miloddan avvalgi davrda u turli xil tovarlar, jumladan, Xitoy ipaklari, qimmatbaho metallar, kulolchilik va ziravorlar savdosini osonlashtirgan. Ipak yo‘li nafaqat savdo-sotiqni osonlashtiribgina qolmay, balki buddizm, islom, nasroniylik kabi dinlarni, shuningdek, ilm-fan va texnika yutuqlarini, jumladan qog‘oz va poroxni ham tarqatdi. Arxitektura va muhandislik innovatsiyalari, tibbiy bilimlar va oshpazlik an'analari almashinuvi ham yo'nalish bo'ylab jamiyatlarni boyitdi. Ipak yo‘lining merosi karvonsaroylar, ko‘priklar va savdo shaharlari kabi ko‘plab yodgorliklarda, shuningdek, u o‘tgan hududlarning relyefi, me’morchiligi, iqtisodiy taraqqiyoti va madaniy an’analariga ta’sirida o‘z aksini topgan.

Kalit so’zlar: Ipak yo‘li, Infratuzilma, masjid, madrasa, mehmonxona, karvonsaroy, savdogarlar, tarixiy obida

Abstract: The Silk Road, a historic network of ancient trade routes, played a key role in the integration and exchange between East and West, influencing the prosperity of civilizations for nearly two millennia. Beginning in Chang'an (modern-day Xi'an), the route stretched across East Asia, the Mediterranean, and the Indian subcontinent, covering more than 10,000 kilometers. From the 2nd century BCE to the late 16th century CE, it facilitated the trade of a variety of goods, including Chinese silk, precious metals, ceramics, and spices. In addition to facilitating trade, the Silk Road also spread religions such as Buddhism, Islam, and Christianity, as well as scientific and technological advances, including paper and gunpowder. The exchange of architectural and engineering innovations, medical knowledge, and culinary traditions also enriched societies along the route. The legacy of the Silk Road is reflected in numerous monuments such as caravanserais, bridges and trading cities, as well as in its influence on the topography, architecture, economic development and cultural traditions of the regions through which it passed.

Keywords: Silk Road, Infrastructure, mosque, madrasa, hotel, caravanserai, merchants, historical site

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Аннотация: Шелковый путь, историческая сеть древних торговых путей, сыграл важную роль в интеграции и обмене между Востоком и Западом, влияя на расцвет цивилизаций на протяжении почти двух тысяч лет. Начиная с Чанъаня (ныне Сиань), маршрут охватывал более 10 000 километров через Восточную Азию, Средиземное море и Индийский субконтинент. Со 2 века до н.э. е. до конца 16 века нашей эры. э., он способствовал торговле различными товарами, включая китайский шелк, драгоценные металлы, керамику и специи. Шелковый путь не только способствовал торговле, но и распространял такие религии, как буддизм, ислам и христианство, а также достижения науки и техники, включая бумагу и порох. Архитектурные и инженерные инновации, медицинские знания и обмен кулинарными традициями также обогатили общества вдоль маршрута. Наследие Шелкового пути отражено во многих памятниках, таких как караван-сараи, мосты и торговые города, а также в влиянии на местность, архитектуру, экономическое развитие и культурные традиции территорий, через которые он проходил.

Ключевые слова: Шелковый путь, инфраструктура, мечеть, медресе, гостиница, караван-сарай, купцы, историческое место.

KIRISH

Ipak yo‘li Sharq va G‘arb o‘rtasidagi integratsiya, almashinuv va muloqotni osonlashtirgan, qariyb ikki ming yil davomida sivilizatsiyalar gullab-yashnashiga chuqur ta’sir ko‘rsatgan qadimiy savdo yo‘llari tarmog‘idir. Dastlab Chang'an (zamonaviy Sian) shahrida paydo bo'lgan bu ulkan tarmoq Sharqiy Osiyodan O'rta er dengizi orqali Hindiston yarimoroligacha cho'zilgan va 10 000 kilometrdan ortiq masofani egallagan. Miloddan avvalgi 2-asr va milodiy 16-asr oxirlari orasida ayniqsa gullab-yashnagan Ipak yo‘li turli tovarlarning qit’alararo kuchli savdosini ta’minlagan. Shunisi e'tiborga loyiqki, Xitoy ipaklari qimmatbaho metallar, kulolchilik, ziravorlar va madaniy artefaktlar bilan bir qatorda, to'qimachilik, shisha, sharob va otlarga almashtirilgan [4].

Ipak yo‘li savdo-sotiqdan tashqari dinlar, jumladan, buddizm, iudaizm, nasroniylik, islom, zardushtiylik va manixeylik dinining tarqalishi uchun kanal bo‘lib xizmat qilgan. Qog‘oz ishlab chiqarish, bosmaxona, porox, cho‘yan, arbalet, magnit kompas, chinni kabi ilm-fan va texnika yutuqlarining keng tarqalishiga ham hissa qo‘shgan. Arxitektura va muhandislik innovatsiyalari, qishloq xo'jaligi texnikasi, tibbiy bilimlar va oshpazlik an'analari ham almashildi, bu yo'nalish bo'ylab jamiyatlarni boyitdi.

Ipak yo‘li jahon iqtisodiyoti, jamiyati, madaniyati va atrof-muhitida o‘chmas iz qoldirgani uning yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan turli yodgorliklar, manzilgohlar va madaniy landshaftlardan dalolat beradi. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Infratuzilma: Karvonsaroylar, mehmonxonalar, harbiy postlar, garnizon stansiyalari, istehkomlar, ko‘priklar, irrigatsiya tizimlari va savdo va transport uchun muhim tabiiy diqqatga sazovor joylar.

2. Ishlab chiqarish: Ipak yo'li bo'ylab savdo qilinadigan tog'-kon korxonalari, metallni qayta ishlash markazlari, ishlab chiqarish markazlari, hunarmandchilik ustaxonalari va boshqa sanoat ob'ektlari.

3. Natijalar: tijorat shaharlari, shahar markazlari, diniy joylar, ziyoratgohlar va siyosiy voqealar, badiiy yutuqlar va intellektual almashinuvlar bilan bog'liq joylar.

Ipak yo'li mulkining ajoyib universal qiymatining atributlariga quyidagilar kiradi:

- Topografik va tabiiy xususiyatlar: cho'llardan to tog'lar, daryolar va vohalargacha bo'lgan turli xil landshaftlar savdo yo'llari va aholi punktlarini belgilab berdi.
- Shahar modellari va arxitektura loyihalari: madaniy va texnologik almashinuvni aks ettiruvchi turli xil arxitektura uslublari, shahar tartiblari va monumental tuzilmalar.
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: Savdo va madaniy hamkorlikning mahalliy iqtisodiyotlarga, ijtimoiy tuzilmalarga va boshqaruv tizimlariga ta'siri.
- Siyosiy voqealar: diplomatik munosabatlar va siyosiy ittifoqlar yaratilgan va transkontinental savdo yo‘llari ta’sirida bo‘lgan joylar.
- Diniy-ma’naviy qadriyatlar: Ipak yo‘li bo‘ylab turli konfessiyalarning tarqalishi va birga yashashini aks ettiruvchi ziyoratgohlar, ibodatxonalar, masjidlar va ziyoratgohlar.
- Fan va texnologiya yutuqlari: Astronomiya, matematika, tibbiyot va muhandislik kabi turli sohalardagi innovatsiyalar butun qit'alarga tarqaldi.
- san'at sohasidagi yutuqlar: haykaltaroshlik, rangtasvir, kulolchilik, to'qimachilik va madaniyatlararo o'zaro ta'sir ta'sirida vujudga kelgan badiiy ijodning boshqa turlari.
- Nomoddiy meros: Ipak yo‘li bo‘ylab uchrashuv va almashishlar natijasida shakllangan og‘zaki ijod, tillar, musiqa, raqs, folklor va adabiy asarlar [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ipak yo'li mulki Ajoyib universal qiymat mezonlariga javob beradi:

- 1 mezon: savdo-sotiq va madaniy an'analarning keng masofalarga tarqalishi, madaniy almashinuv va o'zaro tushunishni rag'batlantirish namunasi bo'lib xizmat qiladi.
- 2 mezon: Uzoq muddatli savdo va madaniy almashinuvni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan alohida shahar, arxitektura va texnologik ansambllarni o'z ichiga oladi.
- 3-mezon: Insonning turli xil muhitlar bilan o'zaro ta'siri, savdo yo'llari bo'ylab landshaftlarning moslashishi va o'zgarishining ajoyib dalillarini o'z ichiga oladi.
- 4 mezon: Ipak yo‘li hududlarida aks-sado berishda davom etayotgan tarixiy va hayotiy an’analar, e’tiqodlar va qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, Ipak yo‘li hududi insoniyat tarixidagi muhim bosqich bo‘lib, iqtisodiy, madaniy va texnologik innovatsiyalar butun qit’alar bo‘ylab tsivilizatsiyalarni bog‘lab, jahon ahamiyatiga molik meros qoldirdi.

Islom me’morchiligi va yodgorliklari

- Masjidlar. O‘zbekistonda ko‘plab masjidlar joylashgan bo‘lib, ularning har birida o‘ziga xos me’moriy uslublar va rang-barang koshinlar, murakkab geometrik naqshlar va xattotlik kabi bezak elementlari aks etgan.
Кроме того, тот факт, что 38 из 70 государственных вузов (54%) завершили отчетный период, то есть первую половину 2023 года с убытками, еще более подчеркивает серьезность ситуации.

Таким образом, из приведенных цифр очевидно, что несмотря на то, что мы находимся в рыночной экономике уже более 30 лет, проблема рационального и экономного расходования средств, строгого соблюдения экономического режима и эффективного использования средств остается актуальной. Это особенно важно для вузов, которые осуществляют свою деятельность, включая финансирование за счет бюджетных средств.

Рекомендуемая литература:

1. Сведения о доходах и расходах государственных высших учебных заведений по состоянию на 1 июля 2023 года (полугодие 2023 года) https://edu.uz/media/a899a3bd-e40e-9829-2305-9a809da94f69.pdf
2. Xayriddinov, S. (2024). Oliy ta'lim muassasalarida budjet mablag 'laridan samarali va aniq foydalanishni ta'minlashga qaratilgan eng muhim qaror va u haqida ayrim mulohazalar.
3. Botirovich, K. A., & Batirovich, K. S. (2020). MAIN DIRECTIONS OF STATE BUDGET REVENUE FORMATION. SPECIAL ISSUE ON

FINANCIAL DEVELOPMENT PERSPECTIVES OF THE LIFE STANDARD IN CENTRAL ASIA APRIL 2020 DOI NUMBER: 10.5958/2249-877X. 2020.00028. 4, 5.

4. Narkulovich, D. O. (2023). CASES-AS METHODS OF PREPARING STUDENTS FOR THE RATIONAL ORGANIZATION OF WORK. Intent Research Scientific Journal, 2(6), 187-192.

5. Juraev, O. N. (2021). Theoretical Fundamentals of Location of Production Forces. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 423-431.

6. Xayriddinov, S. B. (2023). O’ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATLARI MOLIYAVIY NATIJALARIGA BIR NAZAR. Research Focus, 2(11), 35-39.

7. Хайриддинов, Ш. Б., & Мухаммадсалиев, М. М. (2024). Некоторые Принципные Вопросы Эффективного Использования Бюджетных Средств В Вузах. Miasto Przyszłości, 55, 706-708.

8. Хайриддинов, Б. Ш. (2024). “Янги Ўзбекистон” да Олий таълим ташкилотларининг даромад ва зарарлари. Indexing, 1(1).

9. Хайриддинов, Ш. Б. (2024). олий таълимда бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш муаммоси ва унинг қонунчиликда акс этиши. Research Focus, 3(2), 122-126.

10. Xayriddinov, S. B. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida budjet mablag ‘laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari. Research Focus International Scientific Journal, 2(9), 65-68.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

YOSHLARGA OID 5 MUHIM TASHABBUSNING AMALIYOTGA TADBIG’I

Radjabova Madina Gaibnazarovna
Xiva Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi o’quv ishlari bo’yicha direktor o’rinbosari

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan yoshlarni bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil qilish yuzasidan 5 ta muhim tashabbuv va uning bugungi kundagi yoshlar tarbiyasidagi amaliyotga tadbig’i yoritildi.

Kalit so‘zlar: Yangilanayotgan O‘zbekiston, besh tashabbus, yoshlar, barkamol avlod, jamiyat, taraqqiyot, islohotlar.

Аннотация. В статье рассматриваются 5 важных принципов по инициативе Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева по эффективной организации молодежного досуга и его роли в воспитании современной молодежи.

Ключевые слова: Обновленный Узбекистан, пять инициатив, молодежь, гармонично развитое поколение, общество, развитие, реформы.

Annotation. The article discusses 5 important principles at the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev for the effective organization of youth leisure and its role in the education of modern youth.

Keywords: Renewed Uzbekistan, five initiatives, youth, harmoniously developed generation, society, development, reforms.

Bugun O‘zbekiston o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lidan borib yangi bosqichga qadam qo‘ymoqda. Mamlakatimizda fuqarolarga o‘z iqtidorini namoyon qilish va orzularini ro‘yobga chiqarish imkon beradigan tizim shakllandi. Har qanday davlatning taqdiri, kelajagi yosh avlodga, uning jismoniy, ma’naviy kamolotiga bog‘liq. Chunki jismonan baquvvat, iymon-e’tiqodli, bilimli, ma’naviyati yuksak, vatanparvar, barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham yurtimizda yoshlarning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun zarur sharoitlar yaratilib, ko‘pgina ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi

kunda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga etmaganlar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, yoshlarimizning dunyoqarashi va kayfiyati, ularning hayotga munosabatini tubdan o‘zgartirish va yuksaltirish, ayniqsa ma’lum bir kasb bilan shug‘ullanishlariga keng imkoniyatlar yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, ularda turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev rahbarligida “Yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o‘qishga qiziqishini oshirish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to‘g‘risida” o‘tkazilgan videoselektor majlisida quyidagi 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi:

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To‘rtinchi tashabbus yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalarini nazarda tutadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining Vatan oldidagi asosiy burchlari mamlakatimiz Qomusi - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 59, 60, 61, 62, 63, 64 - moddalarida belgilab berilgan. Ya’ni, ular «Fuqarolar Konstitutsiya va Qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning

huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr qimmatini hurmat qilishga majburdirlar. Fuqarolar O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar. O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish - O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir, fuqarolar Qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar” [1, 18-19-bb.], – deyilgan.

Xalqimizning ma’naviy merosi hisoblanadigan mehnatsevarlik, mehr-oqibatlilik, birodarlik, insonparvarlik, mardlik, halollik, iymon-e’tiqodlilik kabi fazilatlarni, Abu Rayhon Beruniy, Najmiddin Kubro, Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Imom al-Buxoriy, imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband va shu kabi mutafakkirlarimizning ma’naviy merosini avaylab-asrash, asrlar davomida qadriyat darajasiga ko‘tarilgai milliy ma’naviy merosni kelajak avlodga etkazish har birimizning jamiyat oldidagi, insoniyat oldidagi, kelajak avlod oldidagi burchimizdir.

Vatan - bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan muborak joyi, mahallasi, qishlog‘i, shahri, ona yurtidir. U yashayotgan zamindir. Mana shu vatanni himoya qilish, vatanning gullab-yashnashi uchun halol mehnat qilish, kerak bo‘lsa, vatan himoyasi uchun jonini fido qilish O‘zbekistonda yashayotgan har bir fuqaroning burchidir.

Insonning eng katta boyligi bu - Vatandir. Shuningdek, burch – ado etilishi majburiy bo‘lgan insoniy vazifalar va insoniylik yuzasidan bajarilishi mumkin bo‘lgan axloqiy qoidalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Ulamolarning bayon qilishicha: “Ota-onaning farzandiga nisbatan saksonta haqi bor ekan. Ularning qirqtasi tiriklik vaqtida va qolgan qirqtasi o‘lgandan keyin amalga oshiriladi. Tiriklik chog‘idagi qirqta haqning o‘ntasi tanga, o‘ntasi tilga, o‘ntasi dilga va o‘ntasi molga taalluqlidir” [2, 30-b.].

Xiva Abu Ali ibn Sino nomidahi jamoat salomatligi texnikumida Muhtaram Prezidentimiz tomonidan taklif qilingan barcha tashabbuslar bo‘yicha imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratilgan, uchinchi tashabbus - yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish, to‘rtinchi tashabbus - yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish va

beshinchi tashabbus – yoshlar va xotin□qizlarni ish bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Xulosa sifatida aytish joizki, mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo‘lida ekan,

bundan buyon ham oila, ta’lim muassasi, mahallalar yoshlarning har tomonlama

barkamol insonlar etib tarbiyalashdagi rolini yanada oshirish, talabalarning madaniy-ma’rifiy, siyosiy-huquqiy bilimlarini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqaligina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin.

Adabiyotlar:

1. http://www.uzdaily.uz/uz/post/5328.

Президент: ёшларни тарбиялашдаги муҳим 5 та ташаббус.

2.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent, Adolat, 2023.

3.Abdulla Avloniy. Odob bo‘stoni va ahloq gulistoni. – Toshkent; Fan, 1994.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

TALABALARNING KREATIV FAOLIYATINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Atayeva Maloxat Isakovna-Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi” o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bўlажак ўқитувчиларнинг креатив функцияларини шакллантиришdagi muhim инновацион усулларнинг yangi ko’rinishlari va turli даражаларда farqlanishi, педагогик тажрибада педагогик инновацияларни ижодий қўллаш, shuningdek, бўлажак ўқитувчиларнинг креатив функцияларини ривожлантириш, уларни педагогик инновациялар билан изчил қуроллантириб бориш, инновацион усулларни таҳлил ва татбиқ қилишга ўргатиш вазифаси xususida atroflicha muloxazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kryativlik, pedagogik innovatsiya, lokal daraja, absolyut daraja, subektiv o’lchov-daraja, innovatsion muhit, ijobiy natija

Аннотация. В данной статье рассматриваются новые взгляды и различия на разных уровнях важных инновационных методов формирования творческих функций будущих учителей, творческого применения педагогических инноваций в педагогическом опыте, а также задачи развития творческих функций будущих учителей, последовательного их вооружения. с педагогическими инновациями и обучением их анализу и внедрению инновационных методов.

Ключевые слова: креативность, педагогическая инновация, локальный уровень, абсолютный уровень, субъективный измерительный уровень, инновационная среда, положительный результат

Abstract. This article provides detailed considerations on the new forms and different degrees of differentiation of important innovative methods in the formation of the creative functions of future teachers, the creative application of pedagogical innovations in pedagogical practice, as well as the task of developing the creative functions of future teachers, consistently equipping them with pedagogical innovations, and teaching them to analyze and apply innovative methods.

Key words: creativity, pedagogical innovation, local level, absolute level, subjective measurement-level, innovative environment, positive outcome

Ma’lumki, kraytiv va kryativlik tushunchalari bugungi pedagogika sohasida juda ko’p ishlatilayotgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha o’zida xilmaxillikni aks ettiradi. Pedagogikada o’qituvchi kasbiy faoliyatidagi ijodiy yonashuvda yaqqol namoyyon bo’ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini shakllantirishdagi muhim innovatsion usullarning yangi ko’rinishlari mavjud bo’lib, ular bir necha darajalarda farqlanadi. Birinchi, absolyut daraja; ikkinchi,lokal-absolyut daraja; uchinchisi esa shartli daraja; yana biri sub’ektiv daraja kabilar. Bu farqlar ularning qo‘llanish sohasi va aniqlik darajasi bilan bog‘liqdir. Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o‘lchovi sifatida optimallik o‘qituvchi va o‘quvchilarning oldindan belgilangan bilimlar natijasi uchun kuch-quvvat sarflashni talab etadi. Belgilangan natija uchun bir xilda kuch sarflansa-da, natijalar har xil bo’ladi. Shuning uchun ham imkon qadar natija uchun kam kuch sarflash, ayniqsa, kam vaqt sarflash evaziga yuqori samaradorlikka erishishni ko’zlash muhim. Xuddi mana shuning o‘zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini ko’rsata oladi. Innovatsion usullar o’qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochishga xizmat qilishi kerak. Lokal, absolyut, shartli, subektiv o’lchov-darajadagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o‘qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo‘ladi. Pedagogik amaliyotda yangi g‘oyalar va texnologiyalar tor, cheklangan darajada qo‘llanish doirasiga ega bo‘lib qoladi. Bu asosan o‘quv jarayonining texnik ta’minoti va o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Bunday vaziyatda pedagogik yangiliklar haqida fikr yuritish ahamiyacizdir.

O‘qituvchilarni yangi tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga egaligiga ishontirish asosida ularda yangiliklarni o‘zlashtirish ehtiyoji hosil qilinadi. Bu yangiliklar mutaxassislar tomonidan tezkor maslahatlar berish, maxsus seminarlar va treninglar tashkil etish, konferensiyalarda chiqishlar qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarga esa turkum ma’ruzalar o‘qish orqali etkaziladi[3].

Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. Mazkur innovatsiyalar tajriba sinovdan o‘tkazilib, ob’ektiv baholangandan so‘ng ommaviy tarzda qo‘llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda bo‘lajak

o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik ijodning rang-barang shakllarini o‘zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan g‘oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o‘z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo‘lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo‘llash metodlarini bo‘lajak o‘qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy-psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash talab etiladi. SHu maqsadda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o‘rgatish vazifasini qo‘yish lozim[1]:

1. Oliy ta’lim muassasasida innovatsion muhitni vujudga keltirmaslik bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sifatiga ham keskin ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, ulardagi ijodkorlik, yaratuvchilikning rivojlanmasligiga, so‘nib borishiga sabab bo‘ladi. Yosh o‘qituvchilarning innovatsiyalarni izchil o‘zlashtirganliklari sababli pedagogik jamoadagi qulay muhitda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar orasidagi qarama-qarshiliklar darajasi pasayib, kasbiy faoliyatdagi eski qoliplar bartaraf etiladi. Ta’lim muassasasidagi innovatsion muhitda o‘qituvchining yangilikka bo‘lgan munosabati yaqqol namoyon bo‘ladi

2. O‘qituvchining innovatsion faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan tashxislash metodlari ham rang-barangdir. Pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va qo‘llash imkonin beradigan texnologik muammolar pedagogik tajribalarni tashxislash negizida o‘rganilishi lozim. Tashxislash metodlaridan foydalanish o‘qituvchi faoliyatining kuchli jihatlarini namoyon qiladi. SHuning uchun ham talabalarni tashxislashning zamonaviy metodikalari bilan qurollantirish davr talabidir. Talabalarning kasbiy istaklari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularda kasbiy-pedagogik madaniyatni shakllantirish va muntazam rivojlantirishga yo‘naltirilgan to‘laqonli maqsadli faoliyatni amalga oshirish lozim. SHu asosda har

bir yosh o‘qituvchining ijod qilishi, yaratuvchilik faoliyati bilan shug‘ullanishi, tashabbus ko‘rsatishi uchun qulay sharoit yaratish nazarda tutiladi.

Tashxislash asosida pedagogik innovatsiyalarni o‘rganishda har bir o‘qituvchi tajribasida ijobiy, rivojlantiruvchi holatlar bilan bir qatorda salbiy ko‘rinishlar ham mavjudligini hisobga olish zarurligini unutmaslik kerak. Yosh o‘qituvchi ta’lim muassasasida samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun uning ish tajribasida mavjud bo‘lgan ijobiy hamda salbiy jihatlarni tashxislash asosida yaqqol ko‘rsatish talab etiladi.

- bo‘lajak o‘qituvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalar, konsepsiyalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalarni izlab topish va oliy pedagogik ta’lim amaliyotiga joriy etish;

- bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish va qo‘llash jarayonidagi o‘ziga xoslik va ularning turli-tuman ko‘rinishlarini aniqlash, bunda namoyish qilish, tasvirlash, ochiq darslar o‘tkazish, yangi manbalar ustida ishlash, ma’ruzalar tashkil etish, tajriba-sinov ishlarida ishtirok etish kabi ish turlaridan keng foydalanish kabilar. Pedagogik innovatsiyalarni tashxislash asosida o‘rganishga yo‘naltirilgan amaliy ishlarni ham bir necha bosqichlarda o‘tkazish tavsiya etiladi:

1. Dastlabki bosqichda bo‘lajak o‘qituvchilardan anketa so‘rovlari, anketa savollariga olingan javoblarni tashxisdan o‘tkazish, individual suhbatlar tashkil etish va anketa savollariga olingan javoblardagi ma’lumotlarni tasdiqlash, tashxis natijalari asosida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish.

2. Mazkur bosqichda birinchi bosqich natijalari asosida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy pedagogik malakasini oshirishga yo‘naltirilgan tadbirlar rejalashtiriladi hamda ularni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatiladi.

3. Ushbu bosqichda amalga oshirilgan ishlar yakunlanib, takroriy tashxislash o‘tkaziladi.

Mazkur jarayonda bo‘lajak o‘qituvchining faoliyati oraliq hamda yakuniy natijalarni olishga yo‘naltiriladi. Guruhdagi talabalar faoliyatida ro‘y bergan o‘zgarishlar chuqur tahlil qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarning hosil qilgan kasbiy ko‘nikma, malaka va tajribalarini tashxislash hamda ularni tashxislash metodlari bilan qurollantirish kasbiy pedagogik ta’lim jarayonini innovatsion g‘oyalar asosida qayta qurish, ularni yangi yo’nalishlarini vujudga kelishi

talabalarning kreativ faoliyatini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni ijodiy faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlikka undash imkoniyati vujudga keladi. Vujudga kelgan imkoniyat asosidagi faoliyat nafaqat ijodiy qobiliyatni o’stirafdi, balki u o’zini-o’zi ijodiy faollashtirishga imkoniyat tug’diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Мациева М.Н, Ярйчев Н.У. Сушчностъ и особенности осушчествления обмена знаниями в общчеобразователъной организации ҳттп://топ-течнологиес.ру/ру/артисле/виеw? ид=36301, 2016 йил, ў. 10–11-bet.

2.Nurullayeva Shaxlo Uktamovna. Pedagogik ta’lim jarayonini modellashtirish va loyihalashtirish yo‘llari. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish yo‘llari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Termiz. 2023. 23-27-betlar

3.Ibragimova G.N. Pedagogik innovatsiyalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish. Zamonaviy ta’lim 2015, 3/ Ta’lim texnologiyalari / 50-54-betlar

4. Atayeva Maloxat Isakovna. Samarali boshqaruv qarorini qabul qilishda ta’lim logistikasiga bo‘lgan ehtiyoj. ILM SARCHASHMALARI 8-son (avgust 2024) 64-68-betlar.

5.Atayeva Maloxat Isakovna. DIRECTING PEDAGOGICAL INNOVATIONS TO EFFECTIVE GOALS. THE USA JOURNALSTHE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS. 2024yil 52-54-betlar

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari

Axmedova Maxliyo
UrDU 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yo‘llari haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiy rayoning imkoniyatlarini to‘liq anglash, iqtisodiy o’sishni ta’minlash maqsadida kelajakdagi istiqbollari haqida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni, tabiiy resurslar, qishloq xo‘jaligi, turizm, kichik sanoat zonalari, moderinizatsiya va diversifikatsiya

Пути эффективного использования природно-экономического потенциала Нижнеамударьинского экономического района

Ахмедова Махлиё
Магистрант 1 ступени УрГУ

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути эффективного использования природно-экономического потенциала Нижнеамударьинского экономического района. При этом были разработаны предложения и рекомендации о дальнейших перспективах экономического района в целях полного понимания возможностей экономического района, обеспечения экономического роста.

Ключевые слова: Нижнеамударьинский экономический район, природные ресурсы, сельское хозяйство, туризм, малые промышленные зоны, модернизация и диверсификация.

Ways to effectively use the natural and economic potential of the Lower Amudarya economic region

Akhmedova Makhliyo
1st stage master's student of UrSU

Abstract: This article discusses ways to effectively use the natural and economic potential of the Lower Amudarya economic region. At the same time,

proposals and recommendations about the future prospects of the economic region were developed in order to fully understand the possibilities of the economic region, to ensure economic growth.

Key words: Lower Amudarya economic region, natural resources, agriculture, tourism, small industrial zones, modernization and diversification

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning strategik ahamiyatga ega hududlaridan biri bo‘lib,hudud tabiiy resurslarining xilma-xilligi, unumdor tuproqlari, suv resurslari,shuningdek iqtisodiy ma’daniy salohiyati bilan ajralib turadi. Ushbu imkoniyatlardansamarali foydalanish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, innovatsiyalar yondashuvlar va mintaqaviy hamkorlikni kuchytirish muhimdir. Bu borada iqtisodiyotning har bir jabhasiga turtki bo‘ladigan, hukumat islohotlarining ahamiyati beqiyosdir. 2017-2021-yillarga va keyinchalik 2021-2026 yillarga mo‘jallangan “Harakatlar strategiyasi” davlat dasturlarida bunday islohotlarini amalga oshirish, ayniqsa o’z ifodasini topgan[1].

Viloyat, tuman va shaharlarni, kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish bo’yicha davlat dasturlarida quyidagilarga alohida e’tibor qaratilgan:

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral-xomashyo,sanoat, qishloq xo‘jaligi turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta’minlash;
- hududlar iqtisodiyotini moderinizatsiyaa va diversifikatsiya qilish ko’lamini kengaytirish, rivojlanish darajasi nisbatan past bo’lgan tuman va shaharlarni, eng avvalo, sanoat va eksport salohiyatini oshirish yo‘li bilan jadal rivojlantirish hisobiga mintaqaalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish farqlarini kamaytirish;
- yangi sanoat korxonalari va servis markazlarini tashkil etish, kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, yirik xo’jalik birlashmalarining mablag’larini, banklarning kreditlari va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga kichik shaharlar va shaharchalarni jadal rivojlantirish [1].

Ushbu farmon ijrosi doirasida Quyi Amudaryo iqtisodiy rayon hududida amalga oshirilgan ishlar mintaqani kompleks rivojlanishidajuda muhim rol o’ynadi.

Jumladan, iqtisodiy rayonning tabiiy salohiyatiga qaraydigan bo'lsak quyidagi tabiiy resusrlarga boy:

1) Yer resurslari: Mintaqada unumdor yer maydonlari va o'ziga xos iqlim sharoitlari bilan qishloq xo'jaligi uchun qulay hisoblanadi. Ayniqsa, paxta, g'alla, sabzovot, poliz mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi o'rinda turadi.
2) Suv resurslari:Amudaryo va uning irmoqlari hududning asosiy suv manbai bo'lib, qishloq xo'jaligi va ichimlik suvi ta'minotida muhim ahamiyat kasb etadi.
3) Foydali qazilmalar: Neft gaz,qurilish materiallari va boshqa foydali qazilmalar zahirasi mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatiga nazar soladigan bo'lsak:

1) Qishloq xo'jaligi:Mintaqa aholisi qishloq xo'jaligiga tayanadi.Sug'orish texnologiyalarni yangilash va ekologik toza maxsulot etishtirish mintaqaviy raqobatdoshlikni oshiradi [3].
2) Sanoati: Neft-gaz sanoati, paxta tozalash korxonalari, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati hudud iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi. Ushbu sohalarni diversifikatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish zarur.
3) Turizm: Xiva shahri va boshqa tarixiy- madaniy meros obidalari xalqaro sayyohlarni jalb qilish imkonini beradi. Eko-turizm va gastronomik turizmni rivojlantirish ham hudud salohiyatini kengaytiradi.

Mintaqada tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan foydalanish yo'llari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- ✓ Resurslarni oqilona boshqarish: Suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, sug'orish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va tuproq eroziyasini oldini olish choralrini ko'rish zarur [3].
- ✓ Sanoat klasterini tashkil etish:Paxta etishtirish va uni qayta ishlashni bir tizimga birlashtirib sanoat klasterini tashkil etish mintaqa iqtisodiyoti uchun katta foyda keltiradi[2].
- ✓ Yashil texnologiyalarni joriy etish: Qayta tiklanadigan energiya (quyosh va shamol energiyasini) rivojlantirish va ekologik xavfsiz ishlab chiqarish tizimlarini yo'lga qo'yish muhimdir.
- ✓ Innovatsion qishloq xo'jaligi:Tomchilatib sug'orish, gidroponika va agrodronlardan foydalanish samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

- ✓ Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish: Hududni ichki va tashqi bozorlar bilan bog‘laydigan transport tizimini takomillashtirish, ayniqsa, temir yo‘l va avomobil yo‘llarini modernizatsiya qilish lozim.
- ✓ Kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash:Mahallaiy aholini ish bilan ta’minlash va daromadlarini oshirish uchun kichik biznesni rivojlantirishga e’tibor qaratish kerak

Xulosa qilib aytganda, Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Tabiiy va iqtisodiy salohiyatida samarali foydalanish uchun innovatsion yondashuvlar, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish zarur. Ushbu hududni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyoti va aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 3-ILOVA

2.O‘zbekiston Respublikasi statistika qo’mitasi. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati (2022-yil yanvar-iyun) Toshkent-2022.

3.O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Babajonov A.R, Muqumov A.M, Sharipov S,R,’’Hududlarni rivojlantirish’’(o‘quv qo‘llanma)

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Til o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar

Xalliyeva Qizilgul Rajapboyevna
Urganch Innovatsion University
nemis tili fani katta o‘qituvchisi
xalliyevaqizilgul@urgiu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy til o‘qitish yondashuvlari tahlil qilinadi. Asosiy diqqat metodologiyalarga, shuningdek, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qaratiladi. Maqolada til o‘qitishda kommunikativ yondashuv, faol o‘qitish usullari va interaktiv texnologiyalarning o‘rni hamda o‘quvchilarni o‘zlashtirish jarayonida motivatsiyaning ahamiyati ko‘rsatiladi. Zamonaviy o‘qituvchilar uchun tavsiyalar berilib, o‘qitish jarayonini samaraliroq qilish uchun yangi metodlar va strategiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: metodologiya, innovatsion texnologiya, kommunikativ yondashuv, interaktiv texnologiya, o‘qitish usullari, motivatsiya.

Kirish. Zamonaviy ta‘limda til o‘qitish jarayoni oldiga bir qator yangi talablar qo‘yilmoqda. Globalizatsiya va kommunikativ texnologiyalarning rivojlanishi natijasida, o‘quvchilar o‘zaro aloqalar, muloqot qilish va turli madaniyatlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bois, til o‘qitish metodlari ham yangilanmoqda. Quyida metodlarga misollar keltilgan:

1. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuv – bu tilni o‘qitishda eng samarali usullardan biri bo‘lib, asosiy e’tibor kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda talabalar tilni faqat nazariy o‘rganmay, balki haqiqiy hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishadi. Yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Real hayotiy vaziyatlar
- O‘zaro muloqot
- Mavzu va tillarni integratsiyalash

O‘qituvchilar o‘z darslarini haqiqiy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab olib borishlari kerak. Masalan, restoran muhitini yaratish, xarid qilish yoki sayohat qilish sahnalarini tasvirlash orqali o‘quvchilar tilni amaliy muloqotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Faol o‘qitish usullari

Faol o‘qitish usullari o‘quvchilarni o‘z faoliyatida jalb qilishga qaratilgan. Ushbu yondashuv ko‘plab interaktiv metodlarni o‘z ichiga oladi, masalan:

- Guruhli ishlar

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, muayyan masalani yechishlari yoki ma’lum bir mavzuda fikr almashishlari so‘raladi. Bu jarayon ularning muloqot ko‘nikmalarini oshiradi.

- Rolli o‘yinlar

O‘quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarib, muloqot ko‘nikmalarini yaxshilaydi. Rol o‘yinlari orqali ular haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qanday muloqot qilishni o‘rganadilar.

- Vaziyatli simulyatsiyalar

Shunga o‘xshash simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar turli vaziyatlarga tayyorlanib, ularda qanday muloqot qilishlarini amalda sinab ko‘rishlari mumkin.

Bu usullar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalay olish, muloqot qilish va guruhda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

3. Innovatsion texnologiyalar va o‘qitish

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, onlayn kurslar, ta’lim platformalari va multimediya vositalari til o‘qitishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu vositalar yordamida o‘quvchilar:

- Interaktiv darslarda ishtirok etishadi
- Online resurslardan foydalanishadi
- O‘z bilimlarini nazorat qilish imkoniyatini oladilar

Coursera, Duolingo yoki edX kabi platformalar orqali o‘quvchilar o‘z vaqtlarida mustaqil ravishda o‘qib, o‘z bilimlarini oshirishlari mumkin. Video, audio va interaktiv dasturlar yordamida til o‘qitish jarayoni ko‘proq qiziqarli va samararali bo‘ladi. Masalan, YouTubeda taqdim etilgan turli darslar orqali o‘quvchilar tilning talaffuzini va nutq adabiyotlarini yaxshilashlari mumkin.

4. Motivatsiyaning roli

O‘quvchilarni motivatsiyalash o‘qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar turli usullarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi mumkin. Masalan, o‘quv jarayonini gamifikatsiya qilish, o‘yin elementlarini kiritish va o‘zaro raqobat muhitini yaratish. O‘yin elementlarini dars jarayoniga kiritib, o‘quvchilarni motivatsiyalash mumkin. Masalan, doimiy ravishda “ma’lumot

to‘plovchi turnirlar” o‘z vaqtida vaqt ichida o‘z bilimlarini baholashga yordam beradi. O‘quvchilarni bir-biriga raqobat qilishga undiradigan faoliyatlar yaratish, masalan, til bilish bo‘yicha musobaqalar o‘zaro hamjihatlikni kuchaytirishi mumkin.

Xulosa. Zamonaviy til o‘qitish yondashuvlari davom etayotgan globalizatsiya jarayonida hayotiy ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashmoqda. O‘qituvchilar zamonaviy metodlarni, innovatsion texnologiyalarni va samara beruvchi yondashuvlarni qo‘llab, o‘quvchilarni tilni o‘rganishga rag‘batlantirishlari zarur. Ushbu maqolada ko‘rsatilgan yondashuvlar va takliflar til o‘qituvchilari uchun foydali bo‘lishi mumkin. Yana bir bor qayd etish joizki, har bir yondashuv va metod o‘ziga xos sharoitlarda samaralidir, shuning uchun ularni mustaqil ravishda moslashtirish va sinab ko‘rish kerakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.

2. Wright, A., & Betteridge, D. (2015). Games for Language Learning. Cambridge University Press.

3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

4. Blin, F., & Jalkanen, J. (2018). Technology in Language Teaching. In The Handbook of Technology and Second Language Teaching and Learning.

5. Ur, P. (2012). A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge University Press.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

Hissiyot ifodasi siyosiy nutqlarda: verbal va noverbal usullar

Yusupova Dilnoza Umarjonovna
Urganch innovatsion university
ingliz tili fani o‘qituvchisi
dilnozayusupova@urgiu.uz

Annotatsiya: Bu maqolada, siyosiy nutqlarda hissiyotlarni ifodalash uchun qo‘llaniladigan verbal va noverbal usullar, ularning ahamiyati va amaliy qo‘llanilish shakllari ko‘rib chiqiladi. Ahamiyatli ahamiyatga ega bo‘lgan bu usullar, siyosiy muloqotning nozik va effektli jihatlarini yana bir bor aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: siyosiy nutq, verbal, noverbal, emotsional so‘zlar, tasvirlash, metafora, tana tili, ovoz, intonatsiya, muloqot masofasi, nutq, mimika.

Kirish. Siyosiy nutqlar, xalqlar va jamoatchilik bilan muloqotda gazetachilar, rahbarlar va siyosatchilar tomonidan muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu nutqlarda hissiyotlarni etkazish, nafaqat muhim masalalarni ochib berish, balki jamoatchilikni birlashtirish, rag‘batlantirish va o‘zgarishlarga tayyorlashda ham muhim ahamiyatga ega. Hissiy ta’sir, nutq nomi va mazmunidan kelib chiqadi, ammo u verbal (so‘zlar orqali) va noverbal (tana tili, mimika, ovoz) usullar bilan yanada kuchaytiriladi.

I. Verbal usullar

1. Emotsional so‘zlar

Siyosiy nutqlarda so‘zlar orqali ishlatiladigan emotsional so‘zlar auditoriyani harakatga keltirishi yoki hissiyotlarni kuchaytirishi mumkin. O‘quvchilar, “himoya”, “birlashish”, “maqsad” kabi so‘zlarni eshitishganda, ular kuchli ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘ularni his qilishlari mumkin. Keling, “birgalikda” so‘zi misoli orqali buni ko‘raylik – bu so‘z, hamkorlik va jamoaviylik hissini keltirib chiqaradi.

2. Rhetorik so‘roqlar

Rhetorik so‘roqlar, ta’sirchan nutqning muhim qismidir. Ular auditoriyani o‘z fikrlash jarayonlariga jalb etadi va ularni his-tuyg‘ularini ifodalashga undaydi. Masalan, “Biz kim uchun kurashyapmiz?” kabi savollar auditoriyaga o‘z ko‘rsatmalarini ko‘rsatadi, bu esa qat’iylik va mas’ullik hisini yaratadi.

3. Tasvirlash va metafora

Tasvirlar va metaforalar, noaniqlikni bartaraf etish va hissiyotlarni kuchaytirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, “Biz qiyinchiliklarda belgimizni topamiz” degan ibora, halqlik va matonatni namoyon qiladi. Ularning yordamida, ko‘chma ma’nolar va tasvirlar, o‘quvchining hayajon va motivatsiyasini oshiradi.

4. Repetitsiya

Repetitsiya, ma’lum bir fikr yoki g‘oyani ko‘paytirish uchun foydalaniladi. Bu usul, qisqa, lekin ta’sirchan iboralarni takrorlash orqali auditoriyaning e’tiborini saqlash va kuchaytirishga yordam beradi. Masalan, “Ozodlik! Ozodlik!” iborasi kuchli hissiyotlarni uyg‘otishi mumkin.

II. Noverbal usullar

1. Tana tili

Siyosiy rahbarlarning tana tili, ular orqali etkazilayotgan hissiyotlarning kuchli aksidir. Masalan, quloqlari pasaygan holda gapirish, rahbarning qiziqligini yoki salbiy his-tuyg‘ularni ifodalaydi. Ochiq pozitsiya, qo‘l harakatlari va mimikalar, nutqning og‘zaki ifodasini kuchaytiradi.

2. Ovoz va intonatsiya

Nutqning ovoz balandligi, tonalligi va ritmi ham hissiyotlarni kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ovoz balandligi kutilmagan joylarda oshirilganda, hissiy ta’sirni kuchaytiradi. Masalan, “Biz buni amalga oshiramiz!” deb qichqirgan rahbarning ovozi, kuchli motivatsiya yaratadi.

3. Muloqot masofasi

Muloqot masofasi, uning noverbal jihatiga ta’sir qiladi. Rahbar auditoriyaga yaqin bo‘lsa, bu ularning maxsusi ekanligini ko‘rsatadi va ijobiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Masofaning ko‘payishi esa aloqa muammolarini yaratishi mumkin.

III. Verbal va noverbal usullarni qo‘llash

Talabalar va rahbarlar verbal va noverbal usullarni birgalikda qo‘llash orqali nutqning ta’sirchanligini, maqsadli va samimiyligini oshirishlari mumkin. Bu o‘zaro aloqani kuchaytiradi va hissiy ta’sirni yanada kuchaytiradi.

A. Misol: Barack Obamaning nutqi

Barak Obama, o‘z nutqlarida verbal va noverbal usullarni mukammal birlashtiradi. U emotsional so‘zlar, tasvirlar va rahbarlik qilishni osonlashtiradi. U shuningdek, shaxsiy tajribalarini va maqsadlarini aniq qilishiga ko‘p e’tibor beradi.

Obamaning nutqidagi ijobiy energiya va barchaga erishish istagi, auditoriyaga kuchli his-tuyg‘ularni etkazadi.

B. Misol: Angela Merkelning nutqi

Angela Merkel ko‘pincha noverbal usullarga e’tibor berib, so‘zlari orqali kuchli his-tuyg‘ularni etkazishdan ko‘ra, muloqotda mustaqil fikrlarni ilgari suradi. Uning ishongan ovozi va atrofida qiziqarli namoyishlar, uni auditoriyaga yanada yaqinlashtiradi.

Xulosa. Siyosiy nutqlarda hissiyotlarni ifodalash uchun verbal va noverbal usullar kuchli vositalardir. Verbal usullar, so‘zlar orqali hissiyotlarni kuchaytirish, auditoriyani harakatga keltirish va fikrlashga undash orqali muhim rol o‘ynaydi. Noverbal usullar esa, tana tili, ovoz va aloqa masofasini hisobga olgan holda, auditoriyaga ko‘proq hissiy ta’sirni taqdim etadi.

Verbal va noverbal usullarni muvaffaqiyatli birlashtirish, siyosiy nutqning haqiqatini, kuchini va ta’sirini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda siyosiy rahbarlar va mutaxassislar, bu metodlarni o‘z muloqotlarida keng qo‘llashlari zarur, chunki ijtimoiy va siyosiy jarayonlarda hissiyotlarni ifodalash har qanday siyosiy muvaffaqiyat uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle. (2007). "Rhetoric." Dover Publications.
2. Burke, K. (1969). "A Rhetoric of Motives." University of California Press.
3. Goffman, E. (1959). "The Presentation of Self in Everyday Life." Anchor Books.
4. Mehrabian, A. (1972). "Nonverbal Communication." Aldine-Atherton.
5. Tannen, D. (1993). "Gender and Conversational Interaction." Oxford University Press.
6. Kauffman, L. (2015). "Public Speaking: The Evolving Art." Cengage Learning.
7. Ranco, K., & Jereb, E. (2011). "The Impact of Nonverbal Communication in Political Discourse." Journal of Human Communication Research, 37(2), 224-246.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

KO'KYO'TAL KASALLIKINING O'ZBEKISTONDA TARQALISHINI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi 2- kurs 23 -16-guruh talabasi
Odiljonov Ozodbek Odiljonovich
Email-odiljonnorkulov0@gmail.com
Ilmiy rahbari **Sultonov Ravshan Komiljonovich**
Email-ravshansultonov605@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ko‘kyo‘tal kasalligining tarqalishini oldini olish chora-tadbirlari o‘rganiladi. Tadqiqotda kasallikning epidemiologik xususiyatlari, tarqalish omillari va diagnostika usullari tahlil qilingan. Kasallikka qarshi samarali profilaktika choralarini amalga oshirish, jumladan emlash dasturlari, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va aholining xabardorligini oshirish kabi yo‘nalishlarga e’tibor qaratilgan. Maqolada O‘zbekistonda ko‘kyo‘talga qarshi olib borilayotgan davlat dasturlari, xalqaro tajribalar va ilg‘or texnologiyalar asosida kasallikning oldini olish strategiyalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ko‘kyo‘tal, epidemiologiya, profilaktika, vaksinalar, immunizatsiya, diagnostika, sanitar-gigiyena, kasallik tarqalishi, emlash dasturi, O‘zbekiston sog‘liqni saqlash.

Asosiy qism. 1. Ko‘kyo‘tal kasalligining epidemiologiyasi va tarqalishi. Ko‘kyo‘tal (pertussis) - bu yuqori nafas yo‘llarini zararlaydigan, asosan bolalar va yoshlar o‘rtasida tarqaladigan infeksion kasallikdir. Kasallikning rivojlanishiga mikroorganizmlar – Bordetella pertussis bakteriyasi sabab bo‘ladi. Ko‘kyo‘tal asosan havoda tarqaladi va nafas olish yo‘llari orqali yuqadi. Kasallikning asosiy belgilari o‘tkir yo‘tal, nafas qisishi, yallig‘lanish va ba’zan qusish bilan namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda ko‘kyo‘tal kasalligi aniqlanishi, epidemik tarqalish va xavf guruhlari o‘rganilgan holda, kasallikning muayyan mintaqalarda, ayniqsa, bolalar orasida yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kuzatilgan. Bolalar, ayniqsa, emlanmagan yoki to‘liq emlanmaganlar, yuqori xavf guruhiga kiradi. Ko‘kyo‘talning tarqalishini oshiruvchi omillar orasida emlashning yetishmasligi,

sanitariya-gigiyena sharoitlarining pastligi va tibbiy xizmatlarga cheklangan kirish imkoniyatlari mavjud.

2. Kasallikning oldini olish va profilaktika choralari. Ko‘kyo‘tal kasalligi tarqalishini oldini olishning asosiy vositasi vaksinalashdir. WHO (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti) va UNICEFning tavsiyalariga ko‘ra, emlash dasturlari bolalar va xavf guruhidagi yoshlarni qamrab olishi kerak. O‘zbekistonda ko‘kyo‘talga qarshi vaksinalash, DTP (Difteriya, tetenus, va pertussis) vaktsinasining bir qismi sifatida amalga oshiriladi va barcha bolalar uchun majburiy emlash dasturiga kiritilgan. Emlashning to‘liq kursi bolalar 2, 3 va 4 oylik yoshlarida amalga oshiriladi, va 6 oylik yoshgacha bolalar uchun reformlar bilan takroriy emlashlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish, ya'ni qo‘lni to‘g‘ri yuvish, havo orqali yuqadigan kasalliklar bilan o‘ralgan hududlarda odamlar orasidagi masofani saqlash ham profilaktika uchun muhim omillardir.

3. O‘zbekistonda ko‘kyo‘talga qarshi olib borilayotgan davlat dasturlari. O‘zbekistonda ko‘kyo‘tal kasalligi bilan kurashishda davlat tomonidan bir qator profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan barcha tibbiyot muassasalarida emlashning yetarlicha darajada amalga oshirilishini ta’minlash uchun yil davomida doimiy monitoring o‘tkaziladi. Respublikada bolalar va homilador ayollarni vaksinalashda qo‘llanilayotgan DTP vaksinasining samaradorligi yuqori. Shuningdek, ko‘kyo‘tal kasalligini aniqlash va tashxislashda tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, kasallikning alomatlari va profilaktika haqida aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli axborot-targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

4. Xalqaro tajribalar va ilg‘or texnologiyalari. Dunyoning bir qator rivojlangan davlatlarida ko‘kyo‘tal kasalligi tarqalishini kamaytirish uchun innovatsion texnologiyalar va yangi vaksinalardan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Xususan, ko‘kyo‘talning profilaktikasini takomillashtirishda keng qo‘llanilayotgan DTP vaktsinasidan tashqari, yangi genetik asoslangan vaksinalar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, ko‘kyo‘talning tez va samarali diagnostikasi uchun PCR (polimeraza zanjir reaksiyasi) va serologik tekshiruvlar metodlari rivojlanib, ularning qo‘llanilishi kasallikni erta bosqichda aniqlash va davolashda yordam bermoqda.

5. Kasallikning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar. Ko‘kyo‘tal kasalligini oldini olishda quyidagi chora-tadbirlar samarali bo‘lishi mumkin. Emlash dasturlarini

kengaytirish va vaksinalarning samaradorligini oshirish. Tibbiyot xodimlarini malakasini oshirish va yangi diagnostika texnologiyalarini joriy etish. Aholining xabardorligini oshirish va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilishni targ‘ib qilish. Erta tashxislash va davolashni takomillashtirish. Sog‘lom turmush tarzini tarbiyalash, ayniqsa, bolalar o‘rtasida.

Xulosa;

sergaklik, mahorat, bilim talab qiladi. Shu tarzda insonning asta-sekin aqliy salohiyati takomillashib, u komillikka intilib boradi. Bularni amalga oshirish uchun esa tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyatli munosabat (muloqat), sharafli mehnat, qunt, iroda va shu kabi axloqiy xislatlar talab etiladi. Insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi (mahalla, ko‘cha, bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurti), ijtimoiy (jamiyatdagi) muhit va bolaga (tarbiyalanuvchiga) bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, yoshlarning amaliy faoliyatlarida, o‘qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish usullari, xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu sohada olib borilgan ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijalarining ko‘rsatishicha, ma’naviy- axloqiy tarbiyaning uzluksizligini quyidagi ko‘rinishda olib borish maqsadga muvofiq ekan: ona qornida → oilada → maktabgacha ta’lim muassasasida («Xonadon bog‘chasi», «Fermer xo‘jaligi bog‘chasi», «Bolalar bog‘chasi – maktabgacha ta’lim muassasasi» majmualari) → boshlang‘ich maktabda → o‘rta maktabda → o‘rta maxsus kasb-hunar t’limida → oliy o‘quv yurtida → oliy o‘quv yurtidan keyingi faoliyatda.

Tarbiya inson umrining oxirigacha davom etadigan jarayon bo‘lib (inson umrining oxirigacha o‘rganadi, degan naql asosida tarbiyalanib), inson doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib, komillikka intilib yashaydi.

Quyida uzluksiz ravishda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning har bir bosqichi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

1. Oilada ma’naviy- axloqiy tarbiya. Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta’kidlab o‘tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma’nan sog‘lom ota-onadan sog‘lom farzand dunyoga keladi.

Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo‘lishi, bolaning sog‘lom o‘sishiga, odob-axloqli bo‘lishiga olib keladi. Bolani lozim bo‘lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyot bo‘lishini uqtirish, axloqsiz so‘z va gaplardan uzoqroqda bo‘lishini ta’minlash, o‘rtoqlari bilan urishmaslik yo‘llarini o‘rgatish – ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy ta’sir hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya. Maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasasidagi davr bola tarbiyasidagi eng muhim davr hisoblanadi. Chunki, bu davrda paydo bo‘lgan taassurotlar izi inson xotirasida umrbod saqlanib qoladi. «Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqsh», deb bejiz aytishmagan dono xalqimiz.

Bu davr bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o‘sishi, dunyoni bilishga intilishi, atrof-muhitga o‘z munosabatini bildirish istagi kuchayib borayotgan davrdir. Shu sababli ham bolalar juda sersavol, qiziquvchan bo‘lib qoladilar. Ular nima?, nima uchun?, qanday qilib?, qayerda? degan savollarni juda ko‘p berishadi. Ota-ona va tarbiyachilar esa bolalarning to‘g‘ri o‘sishlari, aqliy va axloqiy, ma’naviy, estetik jihatdan tarbiyalanishiga jiddiy e’tibor berishlari lozim. Buning uchun o‘yinlar va ertaklar asosida axloqiy tarbiya berish mumkin, chunki bu yoshdagi bolalar, asosan, o‘yin faoliyatida bo‘ladi, o‘yinlarning rang-barang bo‘lishi va jamiyatimiz maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etilishi juda muhim.

3. Boshlang‘ich ta’limda ma’naviy- axloqiy tarbiya. Boshlang‘ich ta’limda bola hayotida yangi, qiziqarli va muhim davr boshlanadi. Chunki, bola maktabga kelgach yangi muhit, yangi tartib-qoida, yangi talablarga duch keladi. Bu davrda bolalar hali o‘yin faoliyatini to‘liq tark etmaganligini inobatga olib, o‘tiladigan dars mashg‘ulotlarini qiziqarli qilib olib borish lozim.

Bu davrga kelib bolaga tarbiyaviy ta’sir yo‘llari bir muncha aniq va tizimli ravishda bo‘lib qoladi. Chunki endi xususan «Odobnoma» darslari o‘tila boshlaydi, bundan tashqari Alifbe, O‘qish, Ona tili, Matematika, Atrofimizdagi olam kabi fanlarda ham muntazam ravishda axloqiy tarbiya berib boriladi. Endi bolalar asta-sekin nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini, bunyodkorlik nima-yu, vayronkorlik nima, ijobiy va salbiy xislatlar qanday ekanligini, qanday fazilatlarga ega bo‘lish lozim-u, qanday qusurlardan xoli bo‘lish lozimligini anglay boshlaydilar. Bu davrda turli to‘garaklarni uyushtirish ham o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Bunda o‘qituvchining pedagogik mahorati, bilimi, umuman, pedagogik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O‘rta umumiy ta’limda ma’naviy- axloqiy tarbiya. O‘rta maktab davriga kelib o‘quvchi o‘rganadigan fanlar ham asta-sekinlik bilan murakkablasha boradi, shunga ko‘ra o‘quvchining fikrlashi va dunyoqarashi ham kengayib boradi. Bu davrda o‘quvchilarga o‘zaro odob-axloqqa doir maqollar va hadis namunalaridan ko‘proq aytish orqali musobaqa uyushtirish hamda ushbu maqol va hadislarga o‘zlari ham amal qilishlarini tarbiyalash mumkin.

Endi o‘quvchilar burch, vijdon, nomus, adolat, ezgulik kabi axloqiy tushunchalarning ma’nisini tushunib yetadilar. Ularga ota-ona va Vatan oldidagi burchlarini tushuntirib borish, turli musobaqalar va ommaviy mehnat tadbirlari orqali jamoa nomusini saqlash, bunga esa adolat yo‘li bilan vijdonli baho berish orqali erishishni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

5. O‘MKHTda ma’naviy-axloqiy tarbiya. O‘MKHTda endi bolalar qiziqishi va intilishi hisobiga akademik liseylar yoki kasb-hunar kollejlarida ta’lim ola boshlaydilar. Bu davr o‘quvchilar tarbiyasida juda murakkab davr hisoblanadi.

Chunki, bu yoshdagi o‘quvchilarda ham jismoniy ham ruhiy jihatdan keskin o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bu davr o‘smirlik davri bo‘lib, o‘tish davri deb ham ataladi.

Ko‘pchilik o‘quvchilar bu davrda o‘zlariga ideal tanlaydilar, o‘qituvchi esa bunda o‘quvchilarga munosib ideal tanlashda yordam berishi va shu idealning ijobiy xislatlarini egallashga intilishini ko‘chaytirishi lozim. Bu davrda o‘quvchilarda halollik, rostgo‘ylik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik, bosiqlik, xushfe’llilik, kamsuqumlik, shirinsuxanlik kabi axloqiy fazilatlarni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

6. Oliy o‘quv yurtlarida ma’naviy- axloqiy tarbiya. Oliy ta’limda o`quvchilar endi biror mutaxassislikni tanlagan holda, o‘zining mustaqil fikri, dunyoqarashi, intellektual qiziqishiga ega bo‘ladilar. O`quvchilar o‘zlarining hozirgi faoliyatiga kelajakdagi hayotida o‘z o‘rnini topish, belgilash nuqtai nazaridan qaraydilar. Shu sababli bu davrda bo‘lajak mutaxassislarni axloqiy jihatdan tarbiyalash muhim. Chunki bu davrda o`quvchi o‘zining madaniy-ma’naviy saviyasini oshirishga intiladi, o‘z ustida qunt bilan ishlaydi, radio, televideniye, Internet va barcha informasion vositalardan unumli foydalanadi, turli asarlar bilan tanishadi. Bu esa yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun yordam beradi.

Endi biz shu o‘rinda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining axloqiy tarbiyasi haqida so‘z yuritamiz. Ushbu bo‘lajak mutaxassislarda axloqiy tarbiyalanganlik mas’uliyati kuchliroq bo‘ladi. Chunki, ertangi kunda ularning qo‘liga Vatanimiz kelajagi bo‘lmish yosh avlodni ishonib topshiramiz. Shu sababli bu davrda o`quvchilarda insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, tinchliksevarlik, shirinsuxanlik, xushfe’llilik, kamtarlik, bosiqlik kabi fazilatlarni rivojlantirish shart.

7. Oliy ta’limdan keyingi ma’naviy- axloqiy tarbiya. O`quvchi uzoq muddatli va tizimiy ta’lim natijasida mutaxassis sifatida shakllandi. Endi u nazariy jihatdan egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llab yosh avlodga ta’lim-tarbiya beradi, uning o‘zi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy ruhda tarbiyalay boshlaydi. Uzluksiz ravishda uzoq muddatli olib borilgan ta’lim-tarbiya samarasi mana endi ko‘zga tashlanadi.

Bola shaxsining kamol topishida doimiy ravishda muhitning ta’siri sezilib turadi. Muhit – bu insonga ta’sir etuvchi tashqi voqyea-hodisalar yig‘indisi hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi uzluksiz tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqyea-hodisalar o‘zining ijobiy yoki salbiy ta’sirini o‘tkazib turadi. Buning uchun esa tarbiyalanuvchidagi o‘zgarishlarga ota-onalar va tarbiyachi, o‘qituvchilar doimiy ravishda e’tiborli bo‘lib, tashqi muhitning salbiy ta’sirini oldini olib, ijobiy ta’sirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim.

Yoshlarda ma’naviy- ahloqiy tarbiyani shakllantirishga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

- uzluksiz olib boriladigan ta’lim-tarbiyaning har bir bo‘g‘inida beriladigan ma’naviy- axloqiy tarbiyaning maqsadga erishish yo‘llarini izlab topish;
- ta’lim jarayonida turli ma’naviy va ma’rifiy ta’sir vositalaridan foydalanish orqali axloqiy tarbiya berishni muntazam ravishda jamiyat taraqiyotiga moslab takomillashtirib borish;
- ma’naviy- axloqiy tarbiya berishda tarbiyalanuvchining yoshi va dunyoqarashini hisobga olgan holda zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- o`quvchi-yoshlarning ma’naviy- axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so‘rovlarini o‘tkazib, natijalarini qayd etib borish;
- ma’naviy- axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga erishish va h.k.

Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma’naviy-axloqiy his-tuyg`ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o‘z xulqiga nisbatan his-tuyg`ularni uyg`otishga rag`bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi.

Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko‘ra, ma’naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag`bat bilan hosil bo‘ladigan faoliyat eng asosiy bo‘lib hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlarda ma’naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo‘lishi shart. Demak, ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o‘quvchi tomonidan axloqiy me’yor va tamoyillar mohiyatini o‘rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musurmonova O. «Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». – Toshkent: «O`qituvchi», 1996 , 369 b.
2. Qurbonov Sh. va boshqalar. «Barkamol avlod orzusi». – Toshkent: «Sharq» NMK, 1999 ,185 b.
3. Quranov M. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. T.: “Ma’naviyat”, 2008, 317-b

4. Olimov Sh.Sh. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarida axloqiy-estetik idealni shakllantirishning pedagogik asoslari. P.f.n.diss.avt. – Toshkent: 2002, 17 b

5. Pedagogika //A./.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O`qituvchi, 1996. 463 b

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР

Курбанбаева Муқаддас Козибаевна, Тошкент Гуманитар фанлар университети ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада инсон ҳаётининг муҳим даври - мактабгача ёшда болани ҳар томонлама ривожлантиришга замонавий ёндашувлар ҳақида гап боради.

Калит сўзлар: ўйин, ёш хусусияти, ижтимоий-эмоционал ривожланиш, ижодий салоҳият, майда моторика.

Кириш

Мактабгача ёш – инсон ҳаётидаги муҳим давр бўлиб, бу даврда боланинг шахсияти шакллана бошлайди, унинг ақлий, жисмоний ва ижтимоий ривожланиши тез суръатларда кечади. Шу сабабли, мактабгача ёшдаги болаларни тарбиялашга замонавий ёндашувларни қўллаш, уларнинг баркамол инсон бўлиб вояга етишлари учун муҳим аҳамиятга эга. Бу мақолада мактабгача таълимнинг актуал масалалари ва самарали тарбия усулларига тўхталиб ўтамиз.

1. Ўйин орқали тарбиялаш:

Мактабгача ёшдаги болалар учун ўйин – ҳаётнинг асосий тарзидир. Ўйин орқали болалар дунёни англайди, янги билимларни ўзлаштириб, мулоқот кўникмаларини ривожлантиради. Замонавий таълимда дидактик ўйинлар, ролли ўйинлар, сюжетли-ролли ўйинлар ва бошқа турдаги ўйинлар кенг қўлланилади. Бу ўйинлар болаларнинг тафаккурини, тасаввурини, эҳтиётини ривожлантиради, шунингдек уларда ижодийликни шакллантиради. Ўйинларни танлашда болаларнинг ёш хусусиятлари ва қизиқишларини инобатга олиш муҳим.

Шу билан бирга, инсон жисмоний ривожланишининг енг муҳим ва ҳал қилувчи босқичларидан бири боланинг ёши бўлиб, бу унинг мотор фаоллигининг енг юқори чўққисига, ажралмас муносабатларга таъсир кўрсатиш имкониятлари юқори ва жисмоний ва бирдамликка боғлиқ бўлган ёшдир. Ҳаётнинг олтинчи йилида болалар ҳайдаш маҳоратини жадал шакллантириш даврини бошдан кечира бошлайдилар. Бунинг учун яхши

маълум бўлган шартлар мавжуд: тананинг нисбатлари ўзгариб, барқарорлигини таъминлайди, мувозанат ҳисси тикланади, функционал тизим ва ортилган тажриба асосида ҳаракатларнинг мувофиқлаштирилиши яхшиланади, мушаклар кучи ошади.[1]

2. Ижтимоий-эмоционал ривожланиш:

Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоий-эмоционал ривожланиши уларнинг келажакдаги ҳаётлари учун муҳим аҳамиятга эга. Болалар ўзларини бошқаларга нисбатан англашлари, ҳис-туйғуларини ифодалашлари, муносабатларни қуришлари ва муаммоларни ечишларини ўрганишга муҳтож. Бунинг учун тарбиячилар болалар билан суҳбатлар ўтказади, турли хил вазиятларни ўйнайди ва болаларнинг эмоционал аҳволини кузатади. Эмоционал интеллектга асосланган тарбиявий методларни қўллаш муҳимдир.

3. Ноанъанавий таълим усуллари:

Замонавий таълимда ноанъанавий усуллардан кенг фойдаланиш болаларнинг таълим жараёнига бўлган қизиқишларини оширади ва уларнинг фаоллигини кучайтиради. Бу усулларга қўшиқлар, шеърлар, эртакларга асосланган машғулотлар, театрлашган саҳналар, тасвирий санъат ва бошқалар киради. Бу усуллар болаларнинг ижодий салоҳиятини ривожлантиришга ёрдам беради.

Театрлашган саҳналар:

* Ижодий фикрлашни ривожлантиради: Болалар ролларни ўйнаш, режалаштириш, диалогларни яратиш ва саҳнани безаш жараёнларида ижодий фикрлашларини ривожлантирадилар. Улар ўзларини бошқа шахсларнинг ўрнига қўйишни, вазиятларни таҳлил қилишни ва муаммоларни ечишни ўрганадилар.

* Мулоқот кўникмаларини яхшилайди: Театрлашган саҳналар болалар ўртасидаги мулоқотни кучайтиради, улар бир-бирлари билан ҳамкорлик қилишни, ўз фикрларини аниқ ва тушунарли ифода этишни ўрганадилар.

* Ишончни оширади: Саҳнада чиқиш болаларнинг ўзларига бўлган ишончини оширади, уларнинг жамоадаги ўз ўринларини англашларига ёрдам беради.

[1] **Khurshida Berdieva., Turaboy Dusuyarov.** BOLALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI.

* Эмоционал интеллект ривожланишига ҳисса қўшади: Болалар турли хил ролларни ўйнаш орқали турли ҳис-туйғуларни бошдан кечирадилар ва уларни англашни ўрганадилар.

Тасвирий санъат:

* Тасаввурни бойитади: Расм чизиш, ҳайкалтарошлик, аппликация ясаш каби фаолиятлар болаларнинг тасаввурини бойитади, уларнинг дунёни ўз кўзлари билан кўришларига ва уни ўзларича ифода этишларига имкон беради.

* Майда моторикани ривожлантиради: Тасвирий санъат болаларнинг майда моторикасини, қўл ва бармоқларининг нозик ҳаракатларини ривожлантиради, бу эса уларнинг ақлий ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

* Ранглар ва шаклларни англашга ёрдам беради: Болалар ранглар ва шакллар билан ишлаш орқали уларни англашни ва фарқлашни ўрганадилар.

* Эстетик тарбия беради: Тасвирий санъат болаларнинг эстетик тарбиясига ҳисса қўшади, уларнинг гўзалликни сезиш ва қадрлаш кўникмаларини ривожлантиради.

Бошқа усуллар:

Булардан ташқари, болаларнинг ижодий салоҳиятини ривожлантиришга ёрдам берувчи бошқа кўплаб усуллар мавжуд, масалан: мусиқа, рақс, ҳунармандчилик, конструкторлар билан ўйнаш ва ҳ.к. Муҳими, бу усуллар болаларнинг ёшига, қизиқишларига ва имкониятларига мос келиши керак. Уларнинг шахсий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, уларга ижодий ишлаш учун қулай ва рағбатлантирувчи муҳит яратиш зарур.

4. Ота-оналар билан ҳамкорлик:

Мактабгача тарбия муассасаларининг самарали ишлаши учун ота-оналар билан яқин ҳамкорлик қилиш муҳимдир. Ота-оналар болаларининг тарбиясида фаол иштирок этишлари, тарбиячилар билан мунтазам алоқада бўлишлари, болаларининг ривожланишини кузатишлари ва уларга ёрдам беришлари зарур. Ота-оналар учун семинарлар, тренинглар ва бошқа тадбирларни ўтказиш орқали уларнинг билим ва кўникмаларини ошириш мумкин.

Болаларнинг билимларини, дунёқарашларини аниқлаш мақсадида турли методикалардан фойдаланиш мумкин. Масалан, образли, сўз-мантиқли

тафаккур турини баҳолаш учун методикалар шулар жумласидандир. У қуйидаги тартибда ўтказилса мақсадга мувофиқ бўлади.

«Мантиқсиз тасвирлар» методикаси

Ушбу методика ёрдамида болани атрофдаги борлиқ ҳамда ушбу моддий дунёдаги бир қанча объектларнинг орасида ўзаро боғланишлар ва муносабатлар ҳақида элементар образли тасаввурлари баҳоланади: ҳайвонлар билан, уларнинг ҳаётий кўринишлари билан, табиат билан.

Ушбу методика ёрдамида боланинг мантиқий мулоҳазаси ва ўз фикрини грамматик жиҳатдан тўғри ифодалай олиши аниқланади. Методикани ташкил қилиш жараёни қуйидагича олиб борилади:

Расмда тасвирланган кўринишлар болага тавсия қилинади, унда ҳайвонлар билан боғлиқ бир қанча «мантиқсиз» ҳодисалар мавжуд.


Болага расмни кўрсатиш жараёнида, унга қуйидаги маънода кўрсатма берилади: «Диққат билан ушбу расмдаги тасвирларни кўриб чиқиб, рассом томонидан қандай хатоликларга йўл қўйилганлигини айтиб бер? Агар сен қайсидир объектни ўз жойида тасвирланган эмас деб ҳисобласанг, нима учун шундай бўлиш кераклигини тушунтириб бер ва аслида қандай бўлиши кераклигини айт?».

Кўрсатманинг иккала қисми ҳам кетма-кетлик билан бажарилади. Биринчи навбатда бола мантиқсизликларни айтиб беради ва расмларда кўрсатиб беради, сўнгра ҳақиқатда қандай бўлишлигини изоҳлаб беради.

Расмларни кўриш ва топшириқни бажаришга уч дақиқа вақт берилади. Бу вақт мобайнида бола иложи борича мантиқсиз воқеаликни кўпроқ топиши ва ҳақиқатдан қандай бўлиш кераклигини шарҳлаб бериши керак.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869



Натижаларни баҳолаш.

10 балл -агар бола берилган 3 дақиқа мобайнида расмдаги ҳамма мантиқсиз тасвирларни (жами 7 та) аниқлаб, қониқарли тушунтириб бера олишга улгурса ва ҳақиқатдан қандай бўлишини шарҳлаб бера олса.

8-9 балл- бола ҳамма мантиқсиз тасвирларни аниқлаб ва белгилаб чиқса, аммо бирдан учтагача тасвирни ҳақиқатдан қандай бўлишини шарҳлаб бера олмаса;

6-7- балл бола ҳамма мантиқсиз тасвирларни аниқлаб ва белгилаб чиқса, аммо 3 дан 4 гача тасвирни ҳақиқатдан қандай бўлишини шарҳлаб бера олмаса;

4-5- балл бола ҳамма мантиқсиз тасвирларни аниқлади, аммо 5 — 7 тагача тасвирни чегараланган вақт мобайнида шарҳлаб беришга улгура олмаса;

2-3- балл бола чегараланган вақт мобайнида 1 — 4тагача тасвирни аниқлаб бера олмади ва шарҳлашга вақти етмаса;

0-1 балл-чегараланган вақт мобайнида бола расмдаги 7 та мантиқсиз тасвирлардан 4 тасини топса.

Хулоса

Мактабгача ёшдаги болаларни тарбиялаш жараёни мураккаб ва кўп жиҳатлидир. Замонавий ёндашувлар болаларнинг ҳар томонлама ривожланишини таъминлашга, уларнинг ижодий салоҳиятини очишга, уларда

мустақил фикрлаш ва муаммоларни ҳал этиш кўникмаларини шакллантиришга қаратилган бўлиши керак. Ўйин орқали тарбиялаш, ижтимоий-эмоционал ривожланишга эътибор бериш, ноанъанавий таълим усулларидан фойдаланиш ва ота-оналар билан ҳамкорлик қилиш мактабгача тарбиянинг самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Рихсиева. ПСИХОЛОГИК ТРЕНИНГЛАР ВА МЕТОДИКАЛАР ТЎПЛАМИ (Амалиётчи психологлар учун) Жиззах, 2019 йил.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo`yilgan Davlat talablari. 2018.

3.Kurbanbayeva Muqaddas. BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA SIFATLI VA SAMARALI TAYYORLASH. (2024). TAMADDUN NURI JURNALI, 4(55), 425-428. https://doi.org/10.69691/wnanmp84

4. **Mahliyo Razzoqova.** MAKTABGACHA YOSH DAVRIDA GENDER IDENTIFIKATSIYASINI RIVOJLANTIRISH. (2024). TAMADDUN NURI JURNALI, 11(62), 179-181. https://doi.org/10.69691/d3fcsf35

5. **Khurshida Berdieva., Turaboy Dusuyarov.** BOLALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI. (2024). TAMADDUN NURI JURNALI, 11(62), 29-31. https://doi.org/10.69691/8kw0hr97

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

YENGIL SANOAT SOHASIDA 3D TEXNOLOGIYALAR: KIYIM VA TIKUV MAHSULOTLARINI LOYIHALASH

Nizamova B.
Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi, Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston
Xomidjonova Sh.
Talaba, Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Raxmonova M.
Talaba, Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada yengil sanoat sohasida 3D texnologiyalarining qo'llanilishi, ularning dizayn jarayonlarini optimallashtirish va mahsulot sifatini oshirishdagi roli tahlil qilinadi. 3D skanerlash, 3D bosib chiqarish va virtual kiyim sinovlari kabi texnologiyalar yordamida an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq va ekologik toza yechimlar yaratilmoqda. Shuningdek, maqolada 3D texnologiyalarining kelajakdagi istiqbollari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: 3D texnologiyalar, yengil sanoat, virtual dizayn, 3D skanerlash, 3D bosib chiqarish, innovatsion loyihalash, ekologik toza texnologiyalar

Kirish

Yengil sanoat sohasida innovatsion texnologiyalar, ayniqsa 3D texnologiyalari, dizayn jarayonlarini osonlashtirish va mahsulot sifatini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. An'anaviy kiyim va tikuv mahsulotlarini loyihalash jarayonida vaqt va xarajat talab qiluvchi bosqichlar mavjud edi. Bugungi kunda 3D texnologiyalar yordamida ushbu jarayonlar ancha tezkor, aniq va samarali tarzda amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada 3D texnologiyalarining imkoniyatlari, afzalliklari va ularning yengil sanoat sohasidagi o'rni tahlil qilinadi.

3D texnologiyalari va ularning asosiy turlari

3D texnologiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda qo'llaniladi:

1. **3D skanerlash**: Bu texnologiya inson tanasining aniq o'lchamlarini olish uchun ishlatiladi. 3D skanerlar kiyimlarning individual o'lchamlariga mos kelishini ta'minlashda yordam beradi.

2. **3D dizayn dasturlari**: 3D CAD (Computer-Aided Design) dasturlari kiyim va aksessuarlarni loyihalashda keng qo'llaniladi. Ushbu dasturlar yordamida dizaynerlar virtual makonda loyihalarni yaratadi va ularga realistik ko'rinish beradi.

3. **3D vizualizatsiya**: Dizaynerlar mahsulotni 3D model orqali ko'rishlari, uni real sharoitda qanday ko'rinishini baholashlari mumkin.

4. **3D bosib chiqarish (3D Printing)**: To'qimachilik va kiyim ishlab chiqarishda maxsus materiallardan foydalangan holda tayyor mahsulotlar bosib chiqariladi.

Yengil sanoatda 3D texnologiyalarining qo'llanilishi

1. 3D skanerlash yordamida individual loyihalash

Yengil sanoatda 3D skanerlash texnologiyasi inson tanasining o'lchamlarini aniqlik bilan olish imkonini beradi. An'anaviy usullarda o'lcham olishda yuzaga keladigan xatoliklar 3D skanerlashda minimal darajada bo'ladi. Bu texnologiya, ayniqsa, sport kiyimlari, ortopedik kiyimlar va yuqori aniqlikni talab qiluvchi buyumlarni ishlab chiqarishda muhimdir.

2. Virtual kiyim sinovlari

3D texnologiyalar yordamida kiyim modellarini virtual tarzda "sinab ko'rish" imkoniyati yaratilgan. Dizaynerlar mahsulotni real hayotga olib chiqmasdan turib, uning o'lchami, shakli va dizaynini baholashlari mumkin. Virtual sinovlar:

- Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qisqartiradi;
- Materiallardan foydalanishni samarali qiladi;
- Keraksiz chiqindilarni kamaytiradi.

3. 3D bosib chiqarish orqali tayyor mahsulot yaratish

3D bosib chiqarish texnologiyasi nafaqat loyihalash, balki tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini ham beradi. Maxsus tolalar, plastmassa yoki elastik materiallardan foydalanib, murakkab shakllarga ega kiyimlar va aksessuarlar tayyorlanadi. Bu texnologiya ko'pincha moda dizaynerlari va to'qimachilik innovatorlari tomonidan ishlatiladi.

4. Murakkab naqsh va dizayn yaratish

3D texnologiyalar orqali trikotaj matolar, naqshli kiyimlar va o'zgaruvchan dizaynlar loyihalanadi. Naqshlar aniq hisob-kitoblar asosida yaratilgani uchun ishlab chiqarish jarayonida xatoliklar kamayadi va mahsulot sifati oshadi.

3D texnologiyalarining afzalliklari

3D texnologiyalari yengil sanoatda quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

1. **Vaqt tejamkorlik**: Dizayndan tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayon qisqaradi.

2. **Xarajatni kamaytirish**: 3D loyihalash va virtual sinovlar tufayli material va resurslar tejaladi.

3. **Individuallashtirish**: Har bir mijozning talabiga ko'ra mahsulot loyihalanadi va ishlab chiqariladi.

4. **Xatoliklarning kamayishi**: 3D skanerlash va dizayn jarayonlari aniqligi tufayli o'lcham xatoliklari minimallashtiriladi.

5. **Ekologik toza yondashuv**: Materiallarning samarasiz sarflanishi kamayadi va chiqindilar miqdori cheklangan.

Yengil sanoatda 3D texnologiyalarining kelajakdagi istiqbollari

3D texnologiyalari yengil sanoatni innovatsion rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda quyidagi yo'nalishlarda rivojlanish kuzatiladi:

1. **Virtual moda shoularini tashkil etish**: Dizaynerlar o'z kolleksiyalarini 3D texnologiyalar orqali virtual platformalarda namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. **Intellektual matolar va kiyimlar**: 3D texnologiyalar bilan birga smart (aqlli) matolar ishlab chiqariladi, bu esa kiyimlarga sensorlar va boshqa innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish imkonini beradi.

3. **AI (sun'iy intellekt) bilan uyg'unlashgan tizimlar**: Sun'iy intellekt yordamida 3D dizayn jarayonlari avtomatlashtiriladi va yanada samarali bo'ladi.

Xulosa

3D texnologiyalari yengil sanoatda tikuv va kiyim mahsulotlarini loyihalashni tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar dizaynerlarga yanada sifatli, ekologik

toza va individuallashtirilgan mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Kelajakda 3D texnologiyalarining rivojlanishi bilan yengil sanoat yanada samarali va innovatsion bosqichga chiqadi. Shunday qilib, 3D texnologiyalarining qo'llanilishi butun dunyo bo'ylab yengil sanoatni yangi cho'qqilarga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith J. "3D Technologies in Fashion Design." *Journal of Modern Textile Innovation*, 2021.

2. Johnson K. "The Role of 3D Printing in Apparel Manufacturing." *International Journal of Clothing Science*, 2020.

3. Brown T. "Virtual Design: A New Era for the Textile Industry." *Digital Textile Review*, 2022.

4. Kim H. "3D Scanning and Individualized Apparel Production." *Smart Textiles Journal*, 2019.

5. Lee M. "Sustainable Fashion through 3D Technology." *Eco-Friendly Innovations in Textile*, 2021.

Research Science and Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 2, ISSUE 12, 2024. DECEMBER
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

MUNDARIJA

№	Maqola nomi va muallif(lar) F.I.SH.	Betlar
1.	MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI. To‘xtayev Firdavs Obid-o‘g‘li Nurullayev F.G.	8-15
2.	UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA TARBIYASI. Kazimov Shoxruz Raimovich	16-23
3.	Умумий ўрта таълим мактабларида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатишга йўналтирилган тажриба-синов ишлари натижалари ва уларнинг самарадорлиги Тўхтаев Фирдавс Обид-ўғли	24-28
4.	O’ZBEK XALQ QO‘SHIQLARINING UZLUKSIZ TA’LIMDAGI TUTGAN O‘RNI VA TARBIYAVIY AHAMIYATI. Kazimov Shoxruz Raimovich	29-34
5.	O‘zbekistonning tabiati, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilishni o‘rganish Xalimova Zulfizar Akmal qizi	35-40
6.	O’ZBEKISTONNING MUHOFAZAGA OLINGAN HUDUDLARI Nizomova Bashoratxon Begaliyevna Xaydarova Nodirabonu Xayrullo qizi Xasanboyeva Gulshanoy Boburjon qizi	41-45
7.	MUSTAQILLIK YILLARIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR Atabayeva Nigora Maxmudjanovna Dovlataliyeva Shohzoda Shavkatjon qizi	46-49

8.	ALOQA TEXNIKALARIDA SUN'IY YO'LDOSH ALOQA TIZIMLARINI QO'LLASH USUL VA ALGORITMLARI Davronov Rustam Ma'sudovich	50-59
9.	YOSH BOLALARDA STOMATOLOGIK KASALLIKLAR Faxriddinova Sarvinoz Sanjar qizi	60-64
10.	Elektron hukumat tizimi doirasida loyihalarni ishlab chiqish jarayonlarini raqamlashtirish modellari. Masharipov Bekzod Rustamovich	65-70
11.	QAMISH (PHRAGMITES AUSTRALIS) O'SIMLIGINING EKOLOGIK VA IQTISODIY ROLI Xaydarova Nodirabonu Xayrullo qizi, Kurbanova Mehrioy Zafarbek qizi,	71-75
12.	TIJORIY DISKURS KONSEPSIYASI TADQIQIGA DOIR MULOHAZALAR Xolisova Gavxaroy Mannobjon qizi Sobirjonov Ravshanbek Tolipjon o'g'li	76-79
13.	THE PROBLEMS OF LEXICOLOGY Kosimova Aziza Mamayusupovna Nuriddinova H.B	80-83
14.	O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari Shamsiyeva Gulira'no Ulug'bek qizi. Xabibullayeva Durdonaxon Tajimamat qizi Muxtorova Muslimaxon Davlatjon qizi Atabayeva Nigoraxon.	84-87
15.	ISHKI HÁM SÍRTQÍ MOTIVACIYALARDÍŃ ULÍWMA XARAKTERISTIKASÍ Aytbaeva Maral Óskinbaeva Gulziyba	88-90

16.	SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ SHAHRIDAGI ATMOSFERA HAVOSINI CHANG BILAN IFLOSLANISH HOLATI MONITORINGI Niyazova O.A., Turayev X.X., Jumayeva Z.E.	91-96
17.	Высокое развитие познавательных способностей. Озода Ташназаровна Назарова	97-107
18.	Yapon tilidagi gap bo'laklari va ularning turlari Saidaxmedova Nilufar Maxmud qizi	108-111
19.	Z-skor modeli yordamida korxonalarning bankrotlik xavfini baholash Axrorova Mexriniso	112-117
20.	Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari Axrorova Mexriniso	118-122
21.	TASVIRLARGA DASTLABKI ISHLOV BERISHDA MEDIAN VA GAUS FILTRLARINING AHAMIYATI J.S. Jabbarov, M.O. Sindarov	123-127
22.	ФОРМИРОВАНИЕ ГЕНДЕРНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА Нигматулина Лилия Алиевна Рахмонова Шахризода Лазиз кизи	128-133
23.	Bo'lg'usi o'qituvchilarning kommunikativ kompitentligini rivojlantirishning psixologik jihatlari Azimboyeva Yorqinoy Mansurbek qizi	134-140
24.	METABOLIK SINDROMGA EGA BEMORLARDA SIYDIK TOSH KASALLIGI RIVOJLANISHI XAVFLARI HAQIDA ZAMONAVIY TASAVVURLAR Yusupova Shaxnozaxon Abdikarim qizi	141-150
25.	УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ВУЗОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ Марина Абдурашидова	151-161

26.	MACROECONOMIC STABILITY AND SOCIAL DYNAMICS: ANALYZING INFLATION, UNEMPLOYMENT, AND THEIR IMPACT ON COHESION, POVERTY, AND INEQUALITY IN UZBEKISTAN Muhammad Eid Balbaa	162-174
27.	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR TAHLILI Эрбекова Нигора Сатторкуловна	175-179
28.	BACHADON MIOMASI: KLINIK BELGILARI VA SAMARALI DAVOLASH USULLARI Sultonova Dilfuza Kenjayev Yodgor Mamatqulovich	180-183
29.	IMPROVING THE PRODUCTIVITY OF THE EQUIPMENT BY IMPROVING THE SEED COMB OF THE 4DP-130 CHAINSAW Toshmirzayev Qodirjon Odiljonovich Olimjonova Mehriniso Valijonovna Tojaliyeva Jannatoy Solijonovna	184-192
30.	ANALYSIS OF THE ORIGIN AND HARVESTING OF COTTON Tashmirzayev Qadirjon Odiljonovich Tojimatova Feruza Sharipova Nozima	193-197
31.	YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA O'ZBEK MILLIY MUMTOZ MUSIQASINING AHAMIYATI. Ilyos Arabov	198-202
32.	ТИПИЧНЫЕ И АТИПИЧНЫЕ КЛИНИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ ГРЫЖИ ПИЩЕВОДНОГО ОТВЕРСТИЯ ДИАФРАГМЫ: КОМПЛЕКСНЫЙ ОБЗОР Тешаев О.Р., Бабажонов А.Б.	203-213

33.	TIMSS Ahmedov Azimjon	214-217
34.	BUILDING LEADERSHIP ABILITIES THROUGH LANGUAGE LEARNING IN EDUCATION Bakhtigul Khadjamovna Isakulova	218-225
35.	Ammoniy peroksogermanat va ammoniy peroksotelluratlar tuzilishi, sifatlari va qo'llanilishi Sodiqova Manzura Shuxratovna Ataullayev Zokir Maxsudovich	226-228
36.	PISA INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAM Akhmadullaev Khikmatullo Ahmedov Azimjon	229-232
37.	ИЗУЧЕНИЕ МОРФОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ПЕЧЕНИ ПОТОМСТВА, РОЖДЕННЫЕ В УСЛОВИЯХ ХРОНИЧЕСКОГО ТОКСИЧЕСКОГО ГЕПАТИТА У МАТЕРИ Назарова Малохат Бердибоевна Тажиева Зебо Баходировна	233-240
38.	Innovatsion texnologiyalar asosida yoshlarni kasb tanlashga yonaltirishning uzviyligini ta'minlash texnologiyasini samaradorligini oshirish Kurbanova Gullola Baxramovna	241-245
39.	IMPROVING THE SHOVELS OF THE DRUM DRYER OF THE COTTON PROCESSING PLANT TO INCREASE THE VIBRATION LEVEL OF COTTON Q. Toshmirzayev Tursunbayeva Durdona Baxtiyor qizi Tursunova Farangiz Furqat qizi	246-250
40.	DETERMINATION OF EFFICIENCY BASED ON THE COMPARISON OF ANALYSIS RESULTS OBTAINED ON ASX-1 AND HVI 900 LABORATORY EQUIPMENT	251-255

	Xoliqova Ziyoda Hakimova Mohira, Jo'rayeva Xushnora	
41.	**Қазы Мәўлик шығармаларында гөнерген сөзлердиң қолланылыўы Орынбаева Жупаргул**	**256-260**
42.	**CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ITE'MOLCHILAR XULQ - ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAXLILI Haydarova Mohichehra Xurram qizi**	**261-268**
43.	**ПОВЫШЕНИЕ ПРОЧНОСТИ ВЫСОКОПРОЧНОГО БЕТОНА С ПРИМЕНЕНИЕМ СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРА Косимов И., магистр Авезова Н.**	**269-272**
44.	**OVULYATSIYA BUZILISHLARI VA ULARNING TUG'ILISH QOBILIYATIGA TA'SIRI Norboyeva Marjona Xonimqulova Saodat Yusupovna**	**273-276**
45.	**GEPATIT C VA UNI DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI Normo'minova Durdona Inoyatullo Xolmurodov**	**277-279**
46.	**O'QUV TURISTIK SAYOHATLARI VA TURIZMNING TEXNIKASI Matvapayev Azizbek Gaibnazar o'g'li**	**280-288**
47.	**CHO'ZILISH - SIQILISHDA STATIK ANIQ VA NOANIQ MASALALAR B.B. Xasanov R.T. Nurullayev Sh.A. Jaxonov Xaitov B.B.**	**289-294**
48.	**SHTOLS TEOREMASI VA UNING TATBIQLARI Jumaniyozova Xayriniso Xamidbek qizi**	**295-298**

49.	O'zbek dostonlarida syujet, motiv, kompozitsiya va lingvopoetikaning o'rganilishi Xakimova Maxsudaxon G'ofurjon qizi	299-304
50.	BANK AUDIT JARAYONLARI VA UNING SIFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR. Komilov Azizbek To'lqin o'g'li	305-310
51.	O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA ZAMON KATEGORIYASINING QIYOSIY TAHLILI Mamadshoyeva Roxat Furqatovna	311-318
52.	HOMILADORLIK DAVRIDAGI INFEKSIYALAR VA CHAQALOQLARDA KUZATILADIGAN KLINIK BELGILAR Ochilova Shaxnoza Muzaffar qizi	319-326
53.	Psixologik xizmatda kasbiy xususiyat va fazilatlarning tahlili O.K.Odamova	327-331
54.	THE IMPACT OF ELONGATION EQUIPMENT ON THE QUALITY OF RING SPINNING YARN G. Maxmudova Tursunbayeva Durdona Baxtiyor qizi Tursunova Farangiz Furqat qizi	332-337
55.	CHO'ZILISH - SIQILISHDA STATIK ANIQ MASALALAR USTIDA AMALLAR BAJARISH B.B. Xasanov R.T. Nurullayev J.T. Boynazarov S.Y. Yunusov	338-344
56.	O'simliklarning yovvoyi turlaridan madaniy turlarni ko'paytirish. Tojiboyev Murodali Umaraliyevich. Botirov mashhurbek diyorbek o'g'li Ozodbekov Abduqodir Sherzodbek o'g'li	345-350

57.	ISLOM MOLIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI VA O'ZBEKISTONDA TATBIQ QILISH Jumayev Avazbek	351-358
58.	MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING "AL MUFASSAL FI SAN'ATIL I'ROB" VA "MUQODDIMAT UL-ADAB" ASARLARIDAGI NAFIS USLUBLAR Faxrutdinova Nodirabegim Jasur qizi Yuldashxo'jayev X.X.	359-367
59.	РОЛЬ УНИВЕРСИТЕТОВ В ФОРМИРОВАНИИ ГЛОБАЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА Панферова Ирина Витальевна Рахимова Зарина	368-374
60.	Культурно-эстетическая компетентность как цель преподавания русского языка: теоретический аспект Мамедова Шахло Душамбоевна	375-381
61.	Poyaning ichki tuzulishi Mamajonova Mushtariy Muhiddin qizi Ergasheva Maftuna Shavkatjon qizi	382-387
62.	ATLETIK GIMNASTIKACHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI Mirzalimov Muslimbek Saotjon o'g'li.	388-394
63.	Bargning morfologik va anatomik tuzilishi va xillari Abdubannonov Abdurahmonn Zafarjon oğli	395-397
64.	ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ А.П. ЧЕХОВА Абдуллаев Дилшод Кодирович	398-404
65.	ABDUQAYUM YO'LDOSH HIKOYALARIDA JAMIYAT VA INSON MUNOSABATLARI TALQINI Davronova Shohsanam G'aybulloyevna	405-411

66.	Interpretation of genre and subject scope and poetics of Jadid literature To`rayeva Umriniso Rahmatovna	412-416
67.	O'smir va o'spirin yoshda stressga bardoshlilik Quranboyeva Zumrad Ravshanbekovna Zamira Atamuratova	417-421
68.	TUPROQLAR UNUMDORLIGINI OSHIRISHDA MOSH NAVLARIGA AZOTABACTER CHROCOCCUM A-2 SHTAMMI SAQLAGAN BIOPREPARAT QO'LLASH SAMARADORLIGI Ro'zmetov Rasulbek Shukurullayevich	422-428
69.	ÓSPIRIMLER USHIN AWQATLANIW BOYINSHA QOLLANBA Atabek Kóshkinbaev Manas ulı	429-433
70.	ЖИНОЯТ ҲУҚУҚИДА БЛАНКЕТ ДИСПОЗИЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ Пулатов Бекзод Адилбаевич	434-441
71.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy o'yinli faoliyat jarayonida xalq amaliy san'atining ahamiyatliligi Ahmedov Temurjon Yusubbayevich Saparova Nargiza Yuldashbayevna	442-445
72.	TERGOV EKSPERIMENTINI O'TKAZISH TAKTIKASI Mamanarov Xaitmurat	446-452
73.	HODISA JOYINI KO'ZDAN KECHIRISH TAKTIKASI Mamanarov Xaitmurat	453-458
74.	2SB-10 DRYER INTERIOR TEMPERATURE, SENSOR THROUGH MODERATION WITH THE HELP IMPROVEMENT Tashmirzayev Kadirjon Odiljonovich	459-463

	Nozimakhon Dehqonova Saidakhon Madaliyeva	
75.	**NEITHER OF COTTON RAW MATERIALSANALYSIS OF THE EFFECT OF M ON THE QUALITY OF COTTON FIBER. Madaminjon Ubaidullayev Mominjonovich Baxtiyorova O'g'iloy anvarjon daughter**	**464-469**
76.	**6-ХЛОРСУЛЬФОНИЛХИНАЗОЛИН-2,4-ДИОНЫ В РЕАКЦИЯХ НУКЛЕОФИЛЬНОГО ЗАМЕЩЕНИЯ Бобонур Атажанов, Нилуфар Нуруллаева, Амирхон Шоназаров, Комила Омонбоева**	**470-477**
77.	**Tergov amaliyotida advokat himoyasini samarali tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati. Mallayev Normamat Ramazonovich. Maxmanova Munisa Erkin qizi**	**478-482**
78.	**"GIMNASTIKA SPORT TURINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING O'ZBEKISTON JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA TUTGAN O'RNI" Mirzalimov Muslimbek Saotjon o'g'li.**	**483-486**
79.	**RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI (YAPONIYANING "TOSHIBA" KORPORATSIYASI MISOLIDA) Otakuzieva Zuxra Maratdaevna Xakimova (Isayeva) Lobar Baxodirovna**	**487-494**
80.	**"NAVOLARNI BOSHQARUVCHI USUL ZARBINING ZAVQI: MA'NAVIY VA MUSIQIY ASOSLARI" Samadov Rahmatulla Sunatullayevich**	**495-499**
81.	**OLIY O'QUV YURTLARI TA'LIM SIFATINI NAZORATINI TASHKIL ETISHI**	**500-506**

	Qurbanov Baxrom	
82.	**Матонинг оловбардошлик хусусиятини ошиишида эмульсия таъсири** **Я.И.Сирожиддинова, М.Ш.Ҳакимова, С.А.Хамраева, А.С.Рафиқов**	**507-512**
83.	**ЗНАЧЕНИЕ ЛЕЧЕНИЯ ГНОЙНЫХ РАН ГЕЛЕОБРАЗНЫМ КОЛЛАГЕНОМ С ФИЛЛАЛЪБИНОМ** **Абдусаломов Бехзоджон Алишер угли**	**513-520**
84.	**Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishda advokat ishtirokini ta'minlash masalalari.** **Ermakova Marjona Shavkat qizi**	**521-525**
85.	**"ТВОРЧЕСКАЯ МОЛОДЕЖЬ И НАЦИОНАЛЬНОЕ МУЗЫКАЛЬНОЕ ИСКУССТВО: ОБУЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОМУ НАСЛЕДИЮ"** **Ниязова Сабохат Шамахмудовна**	**526-531**
86.	**ВОПРОС ОБ ОЦИФРОВКЕ ХОРЕЗМСКИХ МАКОМОВ ЗАПЕЧАТАННЫХ В ПЕРФОКАРТАХ** **Гузал Игамовна Муминова**	**532-535**
87.	**CHOLG'U IJROCHILIGI VA TA'LIM: MAQOMNI YANGI AVLODGA O'RGATISH** **Kadirov Utkur Sakidjanovich**	**536-541**
88.	**ANALYSIS OF TECHNOLOGICAL PARAMETERS OF THE IMPROVED CONSTRUCTION OF COTTON SEPARATORS.** **Mahmudova Gulshanoy Ozodjon kizi** **Nosirova Ma'suma, Zokirjonova Gulsora**	**542-550**
89.	**ANALYSIS OF IMPACT OF DEFECTS ON IP QUALITY** **Mahmudova Gulshanoy Ozodjon kizi** **Hakimova Mohira, Jo'rayeva Xushnora**	**551-556**

90.	CHAKANA SAVDO VA UNING RIVOJLANISH OMILLARI Ahmedov Shohjahon Kahramon o'g'li	557-561
91.	YOSHLARNING BO'SH VAQTINI MAZMUNLI O'TKAZISHDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING ROLI Urazbayeva Ro'za Xajiboyevna	562-567
92.	SIYOSIY MULOQOTDA LINGVISTIK MANIPULYASIYA Shi Jinding,	568-571
93.	O'RTA OSIYODA O'ZBEKISTONNING MADANIY-MA'RIFIY JIXATDAN TUTGAN O'RNI Shaxnoza Almasovna Ashurova	572-581
94.	Methodology for analyzing words by composition Mansurova Ravshangul	582-588
95.	Jahon psixologiyasida talabalar o'zlashtirish sustligining o'rganilish tarixi Tangriyeva Iroda Allabergenovna	589-596
96.	АЛИШЕР НАВОИЙ СЎЗ ЛАТОФАТИ ЗИКРИДА ("Маҳбуб ул-қулуб" мисолида) Бобоназар Муртазоев	597-601
97.	ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ЛИЧНОСТИ Муротмусаев К.Б. Хатамова Ф. И.	602-609
98.	Ekstragenital kasalliklar va homiladorlik. Jumaniyazova Muqaddas Xusinovna	610-614
99.	Digital Transformation of Inspection Activities in the Context of the Digital Economy Maksudov M.M.	615-619

100.	THE SIGNIFICANCE OF INCORPORATING ADAPTIVE LEARNING METHOD INTO PRE-SCHOOL ORGANIZATIONS Turaev Jamshid Shukrulloevich	620-629
101.	Ekologiyaning zamonaviy muammolari. Tuproq. Safarboyeva Gulniso Ilhom qizi	630-636
102.	РОЛЬ ЛАНДШАФТНОЙ АРХИТЕКТУРЫ В МАЛЫХ ГОРОДАХ Турсунов Кобилжон Кудратович Ахмедова Назокат Азизбек кизи	637-646
103.	VIGNA RADIATA TARKIBIDAGI BIOFERMENTLARNING AHAMIYATI Z. Sh. Ro'zmetova, Y. A. Djumaniyazova, N. M. Babadjanova,	647-654
104.	Shahrisabz tumanining ekoturistik ob'yektlari va ularni rivojlantirish masalalari Shamuratova N.T. Chorshanbiyeva Mahliyo Nuraliyevna	655-659
105.	KONSTITUTSIYA – FAXRIMIZ , G'URURIMIZ Normo'minov Muhiddin Ekin o'g'li Madiyeva Madina Yusupovna	660-664
106.	PSYCHOLOGICAL AND COGNITIVE IMPACTS OF VIRTUAL REALITY IN EDUCATION Temirova Rayhona Shahobiddin qizi	665-672
107.	ПОГЛЯД НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИТОГИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ УЗБЕКИСТАНА Хайриддинов Шухрат Батирович Хидиров Джавохир Ёдгорович,	673-679
108.	YOSHLARGA OID 5 MUHIM TASHABBUSNING AMALIYOTGA TADBIG'I Radjabova Madina Gaibnazarovna	680-683

109.	TALABALARNING KREATIV FAOLIYATINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI Atayeva Maloxat Isakovna	684-688
110.	Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining tabiiy va iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari Axmedova Maxliyo	689-692
111.	Til o'qitishda zamonaviy yondashuvlar Xalliyeva Qizilgul Rajapboyevna	693-695
112.	Hissiyot ifodasi siyosiy nutqlarda: verbal va noverbal usullar Yusupova Dilnoza Umarjonovna	696-698
113.	KO'KYO'TAL KASALLIKINING O'ZBEKISTONDA TARQALISHINI OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI Odiljonov Ozodbek Odiljonovich Sultonov Ravshan Komiljonovich	699-701
114.	TALABALARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKILLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI Karimova Nilufar Ulmassultonovna	702-709
115.	YOSHLARDA TAFAKKURNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZIGA XOS SIFATLARI Kurbonboyeva Zuhra Baxtiyorovna	710-715
116.	Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning psixologik jihatlari Allaberganov Ixtiyor Baxtiyorovich	716-719
117.	Yoshlarda ma'naviy- ahloqiy tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari Vapayev Sarvarbek Rajabbayevich	720-725
118.	МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР Курбанбаева Муқаддас Козибаевна	726-731

119.	YENGIL SANOAT SOHASIDA 3D TEXNOLOGIYALAR: KIYIM VA TIKUV MAHSULOTLARINI LOYIHALASH Nizamova B. Xomidjonova Sh. Raxmonova M.	732-735
120.	MUNDARIJA	736-750

Research Science and Innovation House